- nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platform lardan (Edu Market interfaol-virtual ta’lim dasturi) hamda ta’lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga matematika ta’limi tizimi bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmualarni, elektron ta’lim resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- matematika ta’limining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo’llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish.

Hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialni takomillashtirish mamlakat iqtisodiy o‘sishining eng muhim omillari hisoblanmoqda. Mazkur omillarni tatqiq etish muammolari dunyoning ko‘plab davlat va xalqaro tashkilotlari uchun dolzarbdir. Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning bilim-ko‘nikmalari beshta asosiy rivojlanish sohalari asosida belgilanadi. O‘z navbatida har bir rivojlanish sohasi kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiiga mos bir nechta kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan (talablardan) iborat.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

2. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi II ilova.

3.Djumayev M.I. Maktabgacha ta’lim tayyorlov guruqlarida va boshlang‘ich ta’limda o‘qitishda milliy o‘quv dasurining uzviyligi va uzlusizligining o‘ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (18-noyabr 2022-yil): anjuman materiallari to‘plami. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2022-yil. –39-46

4. Djumayev M.I. Milliy o‘quv dasturini amaliyatga joriy etishda integratsiyalashgan ta’lim - geometrik masalalar yechish vositasida. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami III. Andijon, 28 mart 2022 yil. 266-270

5. Djumayev M.I. Boshlang‘ish ta’limda integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirishda milliu o‘quv dasturing vazifalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Ilmiy – metodik maqolalar to‘plami. Namangan.12.05. 2022 yil. 3-13

6. Djumayev M.I. Integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirishda milliy o‘quv dasturing imkoniyatlari. Yangi O‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari.Xalqaro anjuman materiallari. Chirchiq. 20.05 2022.439-442.

MAKTABGACHA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdunazarova N. F.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori. Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Yangi O‘zbekiston Davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri uzlusiz ta’limning barcha jabhlari, shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonida ham zamonga mos ta’lim sifatini ta’minalashdir. Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzlusiz ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta’lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda[3]. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi ham bundan mustasno emas.

A.Voronin tomonidan ta’lim sifati – jamiyatda ta’lim jarayoning holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, hayotiy va kasbiy kompetentsiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya tarzida talqin qilingan. Ye.Dombrovskaya ta’lim sifatini ta’limning Davlat ta’lim standartlari, tegishli ta’lim dasturining o‘quv-dasturiy hujjalari talablariga muvofiqligi, deb e’tirof etadi. Adabiyotlar tahlili umumlashgan ma’noda, ta’lim sifatiga inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig’indisi sifatida qaralganligini ko’rsatadi.

C.A.Toshtemirova fikriga ko’ra ta’lim sifati – ta’lim oluvchilar bilimining halqaro davlat standartlariga mosligi, turli darajalardagi ta’lim muassasasi sifat natijaviyligi, muassasaning muvaffaqiyatli faoliyati, shuningdek, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining innovatsion ta’lim xizmatlari sifatini ta’minalashdagi faoliyati natijasi hisoblanadi.[3]

Ta’lim sifati Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti asosida maktabgacha ta’limni rivojlantirishning ko’zlangan maqsadlari, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlari va

kutilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarning umumiyligi va natijalariga muvofiqlik darajasi sifatida ko'rib chiqiladi. Davlat standartini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-metodik qo'llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Davlat standartini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi, "Ahollining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son va "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorlari; Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida" 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qarorlari va boshqa xuquqiy-me'yoriy hujjalarga asoslangan[1].

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sifati Davlat, jamiyat, shaxs va ta'lim tizimi manfaatlarini inobatga olib ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim sifati – bugungi kunda dolzarb bo'lgan, maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'zida real ta'lim natijalarini aks ettiruvchi, qabul qilingan me'yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy prognozlarga muvofiqlik darajasini aks ettiradi. Maktabgacha ta'lim sifati Davlat siyosatida belgilangan maqsadga muvofiqlik darajasi, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga muvofiq ishlab chiqilgan maqsadlar, ta'lim jarayoni bilan bog'liq ta'lim xizmatlari (ota-onalar) iste'molchilarining manfaatlari, uning sharoitlari va natijalar, shuningdek, butun maktabgacha ta'lim tizimi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan talablar bilan baholanishi mumkin. Bugungi maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitlarida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish muammosi juda dolzarb bo'lib, tizimning turli darajalarida boshqaruvga oid qarorlarini qabul qilishni taqazo etadi[2]. Malaka oshirish jarayonida ana shunday jabhalar hisobga olinadi. Ushbu qarorlarning nechog'lik to'g'ri qabul qilinishi uchun bir qancha shart sharoitlar yaratilishi zarur:

Maktabgacha ta'lim sifati to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi va shaffofligi;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatining asosiy ilg'or tendensiyalariga muvofiqligi;

Ta'limning maktabgacha ta'lim sifatiga oid halqaro normalar va zamonaviy prinsiplariga asoslanganligi.

Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati uchta tarkibiy qismning kombinatsiyasi sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvifiq:

- 1.Ta'lim va tabiya jarayoni sifati;
2. Ta'lim va tarbiya faoliyatini amalga oshirish shart sharoitlari sifati;
- 3.Erishilgan natijalar sifati.

Davlat standarti talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat standartida belgilangan talablarni bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim sifati quyidagilar bilan belgilanadi: maktabgacha ta'lim mazmuni, bitiruvchilarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar (maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim darajasini tugatish bosqichida bolaning mumkin bo'lgan yutuqlari xususiyatlari), tarkibiy to'yingan mavzulararo rivojlantiruvchi ta'lim muhitining yaratilishi.

Maktabgacha ta'lim sifatini baholash tizimining maqsadlari quyidagilardan iborat: maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari va tashkilotlari tarmog'ini yaratish va shu asosda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kirishda bolalar uchun teng boshlang'ich

shart-sharoitlar yaratish maqsadida ta'lim sifatini nazorat qilish; - Yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi maktabgacha ta'lim muassasalari va tashkilotlarini aniqlash va qo'llab-quvvatlash.

Bugungi kunda ta'lim sifati shubhasiz, turli uslubiy va nazariy yo'nalishlar doirasida belgilanadi: – ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modeli nuqtai nazaridan uning sifati shaxsnинг rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi; – tizimli yondashuv nuqtai nazaridan sifat bilimlar tizimi va bir ta'lim tizimi bitiruvchisining boshqasiga kirishga tayyorligi bilan belgilanadi; – faoliyat yo'nalishi bo'yicha – bitiruvchining ayrim yangi funksiyalar, metodlar, ko'nikmalarni bajarishga tayyorligi; - loyiha faoliyati modeli sifatni shaxsning ijodkorligi deb belgilaydi; – dasturli yondashuv – maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan; – natijaviy yondashuv vakillari sifatni baholashda muayyan davr mobaynida erishilgan o'zgarishlerni aniqlashga; – xarajatlarga asoslangan yondashuv muayyan natijaga erishish uchun mumkin va real xarajatlar (moliyaviy, moddiy, mehnat resurslari) jihatidan sifatini belgilaydi [4].

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim sohasidagi faoliyat sifatini baholashning asosiy mezonlari, bir tomonidan, ta'lim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash darjasasi, ikkinchi tomonidan, maktabgacha ta'lim sifati bilan aholi qoniqtirish darajasidir. Maktabgacha ta'limning malakali pedagoglari tomonidan bolalarni rivojlantirish va ularning tarbiyasi masalalarida oilaga professional yordam ko'rsatish va ularga ko'mak berishga qaratilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadiga muvofiqlik darjasasi maktabgacha ta'lim xizmatlari iste'molchilarining fikriga ko'ra baholanishi mumkin. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy holatini yaxshilashga, maktabgacha va boshlang'ich ta'limning uzlusizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, yuqori sifatli maktabgacha ta'lim olishda tarbiyalanuvchilarga teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-sonli Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi qarori.
2. Нуждин В.Н. Информатизация и система тотального управления качеством высшего образования: лекция-доклад. –М.: Исслед.центр проблем качества подготовка специалистов, 1998. – 250 с. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723Academic Research, Uzbekistan 777 www.ares.uz
3. Тоштемирова С.А. (2020) Таълим сифати самарадорлигини оширишда инновацион гояларнинг ахамияти. Муғаллим ҳәм Үзликсиз билимленидириу,1(1). 56-61.
4. Богуславская Т.Н. "Формирование подходов к оценке качества образования". URL:<http://www.pmedu.ru>, 22.01.2016г.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INKL YUZIYA: IJTIMOIY ZARURAT, HUQUQIY TA'MINOT VA XODIMLAR PROFESSIONALIZMI MASALALARI

Ibraimov X. I.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar

va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalg qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog’liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966 yilda boshlangan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko‘rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta’lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta’lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Mana shularni o‘z ichiga jamlagan ta’lim – inklyuziv ta’lim deb nomlanadi. Inklyuziv ta’limning maqsadi — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim muassasaida maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalg etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minalashdan iborat.

MTTlar alohida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va rivojlantirishda har tomonlama yordam ko‘rsatadi.

“Inklyuziv ta’lim” tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi: «Inklyuziv ta’lim – inglizcha (inclusive, inclusion) so‘zdan olingan bo‘lib uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirilgan, o‘ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma’nolarini anglatadi [1]. Lotinchada esa (include) qamrab olaman, jalg qilaman ma’nosini, ya’ni nogironligi bo‘lgan va oddiy bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim barcha mamlakatlarda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardan biridir.

Bizningcha inklyuziv ta’lim bu barcha o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar) uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqlilagini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minalashdir.

Umuman olganda, jahon tajribasiga nazar tashlasak alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim bilan qamrab olish darajalari quydagicha ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkinligini ko‘ramiz:

Eksklyuziya – ta’lim bilan qamrab olinmagan ya’ni ta’limdan tashqarida nogironligi bor bolalar. Bunday bolalar ta’limga jalg etilmaydi va o‘z-o‘zidan ularning ta’lim olish huquqlari ta’milanmaydi.

Segregatsiya – alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta’limdan alohidalash va ularga maxsus maktab va internatlarda ta’lim berish.

Integratsiya – alohida yordamga muhtoj bolalar uchun umumta’lim maktablarida alohida sinflarni tashkil etish.

Inklyuziya – alohida yordamga muhtoj bolalar boshqa bolalar bilan umumta’lim maktablarida bir sinfda tahsil olishi.

Ota-onalar va mutaxassis pedagoglar inklyuziv ta’limni nafaqat isalgan ta’lim muassasasi uchun ochiq eshik sifatida balki ta’lim samaradorligi natijasi uchun mas’uliyat sifatida ham baholashlarini istar edik. Bunda ta’lim samaradorligi taqdim etilayotgan inklyuziv xizmat turlarining alohida yordamga muhtoj bolalar ehtiyojlariga mosligi bilan o‘lchanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning nazariy jihatlarini asoslash va amaliyatga tadbiq etish ham pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari sanab o‘tilgan bo‘lib ular quydagilardir [2]:

- umumiy turdag'i maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- qo‘shma turdag'i maktabgacha ta’lim tashkiloti.

Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’milanadi.

Qo‘shma turdag'i maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o‘qishini hamda

tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi [3].

Bolalarga, shu jumladan, o’ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta’lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o‘z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [4]

Shuningdek, 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alovida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan:

- 2020 — 2022-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish; inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish;

- inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va

- boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanishi; inklyuziv ta’lim sohasiga zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyiҳalar joriy etish;

- alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijtimoiy muhit shakllantirish;

- alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alovida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish;

- 2023 — 2025-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiyy o‘rtta ta’lim muassasalarida joriy qilish;

- alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

- inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish;

- inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘rish;

- o‘quvchilarining jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarini optimallashtirish belgilab qo‘yildi.

Ushbu qaror ta’lim tizimi oldida turgan bir qator muammolarga yechim topish majburiyatini ko‘ndalang qo‘yadi. Ushbu muammolar quyidagilar:

1. Inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ bazaning sayozligi;

2. Inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning inklyuziv kompetentligini uzlusiz rivojlantirib borish zaruriyatining yuqoriligi;

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiyy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim berishning uzlusizligi va izchilligini ta’minlash muammosi;

3. Inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ehtiyojining yuqoriligi;

4. Inklyuziv ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va tarbiyachilar uchun zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalarining yetarli emasligi;

5. Xavfsiz inklyuziv ta’lim muhitining yetarli darajada ta’minlanishi borasidagi muammolar va h.k.

Ushbu muammolarni hal etish har bir alohida yordamga muhtoj bolaning ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi, ijtimoiylashuvi jarayonini muvoffaqiyatl o'tishiga zamin yaratadi. Ushbu muammolar ichida mutaxassis tayyorlash muammozi ham borki bu muammoni hal etish juda ko'p vaqt va kuch sarflanishni talab qiladi. Chunki ta'lim tizimi aynan inson faktori tufayli harakatga keladi va rivojlanadi yoki aksincha inqirozga yuz tutadi.

Inklyuziv ta'limni amaliyatga joriy etish o'z-o'zidan pedagoglar va tarbiyachilar faoliyatiga qo'yiladigan talabning ortishini, ularning funksional majburiyatlarini ko'payishini va professional malakalarini kengayishi ehtiyojini keltirib chiqaradi. An'anaviy bilim va malakalarning o'zining bu ta'lim turida yetarli emas. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishslash pedagog va tarbiyachilardan maxsus professional kompetensiya ya'ni inklyuziv kompetentlikni talab qiladi.

Pedagog va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi muammozi ko'pgina tadqiqotlar predmetiga aylangan. Masalan Rossiyalik olima N.V.Kuzminaning tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi komponentlari metodik kompetentlik, pedagogik-psixologik kompetentlik va autopsixologik kompetentik va ijtimoiy kompetentlikdan iborat deb sanab o'tilgan. Olimaning samaradorligi yuqori va samaradorligi sust bo'lgan pedagog haqida bildirgan mulohazalari diqqatga sazovor. Ushbu farq eng avvalo ta'lim oluvchilarning berilgan materialni o'zlashtirish jarayonidagi o'ziga hosliklarini hisobga olishi, ular faoliyatidagi individual farqlarni ko'ra olish qobiliyatida seziladi [5]deya keltirib o'tgan.

A.K.Markovaning ta'kidlashicha kompetentli pedagog o'z kasbiy faoliyatini yuqori darajada yo'lga qo'ygan, samarali pedagogik muloqotga kirisha oladigan, ta'lim va tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikni namoyon qilib, shaxs va professional sifatida shakllanuvchi mutaxassisidir. A.K.Markova pedagoglar kompetensiyasining bir necha turlarini ajratib ko'rsatdi: shaxsiy, ijtimoiy, individual, maxsus. Olimning fikriga ko'ra o'qituvchining kasbiy kompetentligi kasbiy pedagogik pozitsiya, kasbiy bilim va ko'nikmalar, shaxsiy hususiyatlar kabilarni o'z ichiga qamrab oladi [6].

Shuni ta'kidlash lozimki, inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uchun pedagog quyidagi muhim sifatlarga ega bo'lishi lozim: empatiya, refleksiya, mobillik va moslashuvchanlik, hamkorlik qobiliyati, ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga nisbatan senzitivlik, muloqotchanlik, o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmasi va boshqalar.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishslash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;
- O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish –insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zar hurmat tarbiyalanadi

-Yoramga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda. MTTlari tarbiyachi va va pedagog kadrlarida inklyuziv kompetentlikni shakllantirish murakkab, uzuksiz va tizimli jarayob bo'lib, inklyuziv ta'lim muhitida ishlay oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb muammoqidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Inclusion_\(education\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Inclusion_(education))
3. <https://www.lex.uz/docs/-4646908>
4. <https://lex.uz/ru/docs/-4333062>
5. Кузьмина О. С. Особенности организации подготовки педагогов к работе в условиях инклюзивного образования // В мире научных открытий. – Красноярск: Научноинновационный центр (Проблемы науки и образования). – 2013. – № 11.8. – С. 337-344.
6. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Издательство: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 308 с.

СТРАТЕГИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА ПЕДАГОГОВ В ДОО

Джураев Р.Х.

Зав. отделом УзНИИПН, академик, д.п.н.

Современные тенденции в развитии дошкольного образования объединены одним важным и значимым критерием — его, качеством, которое непосредственно зависит от уровня профессиональной компетентности педагогов.

Важное условие, способствующее его повышению в ДОО, — создание гибкой системы профессиональной переподготовки и повышения квалификации педагогов с целью роста их педагогической компетентности.

Творческий потенциал специалистов, изменение их профессионального уровня и развитие личности способствуют становлению педагогической компетенции как одной из основных составляющих профессиональной компетентности.

Особенность постановки данной проблемы в дошкольном образовательном пространстве состояла в актуализации внимания педагогов на вопросах управления качеством образования в контексте гуманистических теорий. В настоящее время более 50% педагогов ДОО города нуждаются в повышении квалификации. В связи с этим Управление образования проводит работу по повышению качества педагогических знаний. Ее эффективность зависит от развития методической службы, освоения и распространения современных технологий работы с кадрами.

Как показала практика, методическая служба, созданная в форме творческих и экспериментальных площадок, школ передового опыта, педагогических мастерских на базе ДОО города, предоставляет педагогу возможности расширения и совершенствования своего творческого потенциала. Особое место в развитии методической службы отводится формированию единого информационного пространства, созданию банка данных о достижениях науки и передовой практики (информационные сайты в Интернете, сотрудничество с периодическими изданиями и др.). Поэтому сегодня информатизация методической службы — одно из главных условий, обеспечивающих подготовку кадров.

В связи с этим Управление ДО рассматривает создание собственной сети методической службы, повышение квалификации педагогических работников, освоение и распространение современных технологий и передового опыта работы с кадрами как приоритетное направление своей деятельности.

Методическая работа с педагогическими кадрами осуществляется в соответствии с важнейшими принципами: научностью, культурообразностью, практической направленностью, системностью, оптимальным сочетанием различных форм и методов, творческим характером деятельности.

Функции методической службы заключаются в проведении диагностики профессиональной деятельности педагогических работников, определении запросов,

проблем, требующих решения в ситуации неопределенности. Поэтому можно считать эффективным создание творческой группы, в состав которой входят педагоги ДОО (методист, музыкальный руководитель, педагог-психолог, инструктор по физической культуре, хореограф, воспитатель). Основная цель методической службы — обеспечение взаимодействия специалистов на всех этапах экспериментальной деятельности в инновационном режиме.

Содержание педагогического опыта реализуется в выстраивании оптимальной структуры методического пространства (создание банка педагогических идей, прогнозирование, организация и проведение курсов повышения квалификации, методическое сопровождение педагогической деятельности, консультативная поддержка в освоении авторской технологии и реализации программ самообразования, разработка проектов, организация научно-практических конференций, проблемных семинаров, круглых столов по актуальным проблемам).

Таким образом, работа методической службы направлена на формирование у педагогов профессиональной компетентности, потребностей в саморазвитии, умении быстро реагировать на возникающие проблемы и решать их.

В пределах каждого уровня профессионального образования основная задача — непрерывное повышение квалификации специалиста, что возможно благодаря использованию современных технологий, направленных на преодоление педагогических стереотипов, развитие способности к рефлексии, овладение коммуникативными навыками и умениями.

Основанием для роста качественных показателей подготовки педагогических кадров стала разработанная трехуровневая система непрерывного образования: первый уровень — дошкольная образовательная организация, второй — научно-методический центр и ДОО, третий уровень — Научно-методический центр и Институт повышения квалификации и переподготовки работников образования.

На первом уровне осуществляется диагностика профессиональной деятельности педагогических работников, определяются запросы, проблемы, требующие решения. С этой целью формируется творческая группа, в которую входят методисты, музыкальные руководители, педагоги-психологи, воспитатели ДОО. Взаимосвязь руководителей методических объединений и методистов научно-методического центра позволяет полнее решить проблему самообразования педагогических работников в ДОО.

На втором уровне цель и содержание непрерывного образования реализуются в следующих мероприятиях:

- организация работы с руководителями и педагогами школ передового опыта проблемам художественно-эстетического и патриотического воспитания, игровой и театрализованной деятельности и др.);

- консультативной поддержке в реализации программ самообразования и освоения современных образовательных технологий.

- формирование единого информационного пространства, которое включает создание банка данных о достижениях науки и передовой практики, налаживание информативных каналов и потоков и др.;

- организации научно-практических конференций, проблемных семинаров, круглых столов по актуальным проблемам;

- обобщении и распространении творческого опыта;

- учебе педагогических работников ДОО по вопросам качества образования, понимания роли педагога, изучения требований к содержанию и методам воспитания и обучения.

Третий уровень непрерывного образования — учеба педагогических работников в ИПК. Сложившаяся практика взаимодействия ИПК и Научно-методического центра

Управления ДОО позволяет своевременно учитывать социальную ситуацию, использовать различные формы сотрудничества с образовательными учреждениями области Республики.

Таким образом, создаются условия для повышения квалификации педагогов и руководителей образовательных учреждений.

Качество образования во многом зависит от внедрения программ дошкольного образования, в основе которых лежит личностно-ориентированный подход к воспитанию и обучению детей, базирующийся на всех видах поддержки дошкольников: социально-педагогической, психологической, валеологической и правовой.

Повышение качества образования осуществляется за счет внедрения в педагогический процесс ДОО семи основных программ.

Рассмотрим основные этапы работы методической службы по внедрению программы «Детский сад — Дом радости» (авт. Н.М. Крылова).

I. Информационно-аналитический.

Изучение и анализ педагогического опыта, определение уровня подготовки педагогов к работе в режиме внедрения программы.

II. Поисково-творческий.

Разработка проекта «Повышение профессиональной компетентности педагогов ДОО на основе изучения программы».

Включение в разработку проекта методистов с целью повышения уровня их методологической рефлексии, формирования навыка масштабного видения изучаемой программы.

III. Внедренческий.

1. Апробация программного материала на проектно-рефлексивной основе с целью практического обогащения, систематизации и дополнения имеющихся знаний, совершенствования практических навыков работы с детьми.

2. Участие воспитателей в работе городских МО, семинаров с целью формирования умения анализировать, сопоставлять направления программы.

3. Ежегодное обучение педагогов на авторских курсах в соответствии с совместным планом ИПК.

4. Участие в научно-практических конференциях («Проблемы аксиологического подхода в дошкольном образовании: теория и практика»),

Система дошкольного образования предполагает обязательное проектирование образовательного процесса всеми специалистами. Ключевое понятие, использующееся сегодня в педагогическом процессе, — «проектировочная компетентность», т.е. способность осуществлять проектирование педагогического процесса и деятельности, требующая владения определенными технологиями проектировочной деятельности (Л.М. Денякина).

Проектировочная компетентность педагогов включает следующие компоненты:

- умение проектировать результаты педагогической деятельности;
- планировать пути педагогических воздействий;
- прогнозировать результаты обучения и воспитания, возможные трудности;
- выделять и точно формулировать конкретные педагогические задачи, определять условия их решения;
- планировать работу по руководству различными видами деятельности детей;
- теоретически обоснованно выбирать средства, методы и организационные формы воспитательно-образовательной работы.

В образовательных учреждениях проектный метод используется достаточно широко как одно из условий повышения проектировочной компетентности.

Использование проектного метода дает возможность педагогам внедрять инновационные идеи. Важная роль в организации инновационной деятельности отводится методисту ДОО. Одно из приоритетных направлений его деятельности — формирование

проектировочной компетентности педагогов. Овладение проектным методом позволяет педагогу развивать свободную творческую личность ребенка, которое определяется задачами развития и исследовательской деятельности.

Одним из направлений формирования профессиональной компетенции педагогов в контексте культурологического подхода является инновационная разработка по теме «Приобщение детей дошкольного возраста к народной культуре (на материале сказок)». Основная цель этого направления — обучение педагогов разработке проектов по данной проблеме. Педагогическая практика показала, что тесное взаимодействие с автором программы на уровне образовательных учреждений города расширяет и совершенствует творческий потенциал педагога и обеспечивает его переход на качественно новый уровень.

Инновационный проект по проблеме «Приобщение детей дошкольного возраста к народной культуре» включает:

- построение развивающей среды;
- определение инновационного содержания педагогического процесса по приобщению детей к народной культуре;
- методическую работу с кадрами;
- работу с родителями;
- взаимодействие с социумом. Инновационный проект осуществляется в три этапа.

1-й. Целеполагание, предполагающее постановку цели

Методист проводит организационное занятие, на котором педагоги знакомятся с проблемой и целью исследования.

Цель: определение стратегии и тактики педагогического процесса по приобщению детей к

народной культуре с использованием проектного метода.

2- й. Разработка проекта (плана деятельности для достижения цели)

Работа методиста направлена на создание условий, необходимых педагогам для теоретического и практического осмысливания проблемы и интерпретации опыта художественной практики, представленных в литературных источниках и периодической печати. Для каждого педагога определяются актуальные и посильные задачи на конкретный отрезок времени, выявляется возможная помощь в реализации стратегии и тактики в деятельности по приобщению к народной культуре, проектируется и создается предметно-развивающая среда.

3- й. Выполнение проекта (практическая часть)

Осуществляется практическая работах целью повышения общекультурных и методических знаний педагогов, необходимых для приобщения детей к народной культуре на основе использования проектного метода.

Таким образом, ориентация на запросы педагогов, систематичность и целенаправленность работы по повышению их профессиональной компетентности, поиск новых форм, соответствующих требованиям времени, позволяют обеспечить постепенное и планомерное повышение качества образования в ДОО.

Использованная литература

1. Ловецкий Г. Предшкольная подготовка: содержание, вопросы управления // Народное образование. 2006. № 8.
2. Шаехова Р.К. Предшкольное образование: актуальность, проблемы, стратегия развития // Начальная школа плюс до и после. 2006. № 7
3. Скоролупова О.А., Федина Н.В. Организация деятельности взрослых и детей по реализации и освоению основной общеобразовательной программы дошкольного образования // Дошкольное воспитание. 2010. № 8.

PEDAGOG INNOVATSION FAOLIYATI MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH VOSITASI SIFATIDA

Saidova D. I.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri. Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lism tizimini yaxlit uzluksiz ta'lism tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lism dasturlari va texnologiyalarini ta'lism-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sod qarorida ta'lism-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozimligi belgilandi[1]. Konsepsiya ko'ra maktabgacha ta'lism tizimiga innovatsiyalarini, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish belgilab berildi.

"Pedagogik innovatsiya" bu nafaqat g'oyalar, hali ishlatilmagan yondashuvlar va usullar, texnologiyalar pedagogik jarayonning elementlari yoki alohida elementlari to'plami, o'zgarishga imkon beradigan progressiv prinsipga ega ta'lism muammolarini samarali hal qilish uchun sharoit va vaziyatlar; bu mavzuning namoyon bo'lishi, mavjudligi va shakllanishi usuli ta'lism amaliyoti [2].

Hozirgi davr ta'lism taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovativ E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Ta'lism va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lism va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini hal etishning muhim omili hisoblanadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarni muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir. «Innovatsiya» tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Birinchi ma'noda innovatsiya - biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq ko'ndirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi. «Innovatsiya», ikkinchi ma'noda, biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya subyekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita, uslub, yondashuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

Innovatsion ta'lism texnologiyalari va dasturlari – bu barcha ta'lism texnologiyalari, yaratuvchi va ularni rivojlantiruvchi pedagog innovatsion faoliyatining natijasi hisoblanadi. Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu so'z yunonchadan olingan bo'lib, "tehnos"-mahorat, san'at "logos" -ta'lismot, fan ma'nolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya so'zi boshqa terminlarga qo'shilib, ana shu sohoni rivojlantirish,

mahoratini oshirish vazifalarini bajaradi. Umumiylar qilib aytganda, texnologiya sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta'lim evolyutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalarni o'rinni va samarali q'llash katta ta'lim imkoniyatlarini ochdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlari shuni ko'rsatadiki, odat bo'lgan tushuntirishda "o'rgatish" jarayonlari pedagoglarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladи. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, maktabgacha pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan. Bu haqda chet ellik va o'zbek mualliflari ko'p yozmoqdalar [3].

Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar murakkab muammolarni hal qilish uchun ijodiy metodlarni topish, ishslash innovatsion mexanizmlarini rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak, normal ijodiy jarayonning o'zgartirishda qo'llaniladi.

Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi qo'llanilayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashushi natijasida vujudga keluvchi majmuali muammolarning yechimiga qaratilgan faoliyatdir. "Innovatsion ta'lim" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq.

Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;

- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

Yangilik tarixiy aspektida nisbiylik ahamiyat kasb etadi. Yangilik aniq tarixiy harakterga ega, ya'ni o'z vaqtidan oldin paydo bo'lishi mumkin, o'z vaqtida me'yor bo'lishi yoki eskirishi ham mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish jarayonida, ehtimol ta'lim tizimi butunicha:

- absolyut yangiligi (o'xhashi, prototipning yo'qligi);
- nisbatan yangiligi;
- o'ziga xos, ixtirochiligi ko'rinishidagilar hisobga olinadi [4].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb qilishda pedagogik innovatsiyalarni o'rni beqiyos. Shu sababli tarbiyachi ta'lim jarayonlariga pedagogik innovatsiyalarni keng qo'llashi lozim.

O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish Psixofizik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan har doim ijobiy seziladi, ular faoliyatni osongina o'zgartiradilar. O'z navbatida, tashabbus pedagogik kompozitsiya Ota-onha jamoatchiligi, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotisini o'quvchilarning oilalari bilan o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, shuningdek, muhim ahamiyatga ega [5].

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ta'limdagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham. Biroq, buni yodda tutish kerak pedagogik texnologiyalar Maktabgacha yoshdagagi bolalarning o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin, bir nechta qat'iy talablar berildi. Bo'larga quyidagilar kiradi:

Kontseptuallik, o'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi.

Tizimga tegishli texnologiyalar, bu texnologiyalar tizimga xos bo‘lgan barcha belgilarga ega bo‘lishi kerak. Ya’ni, ular yaxlit, mantiqiy va ularning elementlarining tarkibiy qismlari bo‘lishi kerak - o‘zaro bog‘liq.

Ishlov berish - pedagogik jamoa muayyan maqsadlarni belgilash, o‘quv jarayonini rejalashtirish, ish jarayonida, bir yoki boshqa lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunish kerak.

Reproduksiya - bu talabga nisbatan qo‘llaniladigan o‘qituvchi shaxsidan qat’i nazar, texnologiyani teng darajada samarali bo‘lishi kerak.

Maktabgacha yoshi - bu bolaning atrofida dunyoni faol o‘rganadigan davr.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurishni boshlaganida, bola juda ko‘p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko‘chada, bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotisida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig‘ish, ularni o‘rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu obyektning qaysi fazilatlari va xususiyatlari borligini biladi. Ushbu davrda bolaning (ingl.) -figurativ va (ingl.) Effektiv fikrlash shakllari yaratilgan. 5-6 yoshligida bola, barcha ma’lumotlarni o‘ziga singdirib olish hususiyatiga ega. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning bu ma’lumotni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qachon eslamasligini isbotladi. Bola dunyoqarashini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg‘otadigan davrdir.

Maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta’lim tashkilotlarini innovatsion jarayonlarga qo‘shilishini taqozo etmoqda, o‘zini yaratish imkonii mavjud innovatsion maydonda ko‘rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o‘zlashtirishdan iborat. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimidagi an’anaviy va ommaviy ko‘rinishdagi ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘rniga ta’lim muassasalari rivojlanishida o‘ziga xos yangilik bo‘lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Fanni va innovatsiyani keljakda rivojlantirish strategiyasida “innovatsion insonni” yaratish, ya’ni ishlashidan qat’iy nazar u innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori. www.lex.uz
2. Л.С. Гавриленко, В.И. Кутугина, Ю.Л. Лукин “ИННОВАЦИОННАЯ ПЕДАГОГИКА” Красноярск - Лесосибирск 2019 ст 10
3. U.A.Serbay Baykabilov. “TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BOSQICHLAR” September 2020 / Volume 1 Special Issue 2 51 b
4. К. Турғунбоев, М. Ортиқова Педагогик инновация асослари Андижон-2011 34 ,b/
5. X.X. Aliyeva “Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish” SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. 316 и

1-shu'ba: MAK TABGACHA TA'LIM VA TARBIYA SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

INKLYUZIV MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARDA SHAXSIY FAZILATLAR ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

Arslanova M. M.

MTTDMQTMOI, "Maktabgacha ta'lismetodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Yurtimizda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonlarida shaxs kamolotining ilk va muhim davrini ta'lism tarbiya bilan qamrab oladigan maktabgacha ta'lism tizimini izchil rivojlanТИRIB borish davlat siyosatining doimiy ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etmoqda. Jumladan, "maktabgacha ta'limga qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish" "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [1] ham alohida maqsadlar sifatida belgilandi.

Zamonaviy dunyoda ta'limga umumjamiat farovonligining bosh omili, insonning asosiy huquqlaridan biri va boshqa huquqlarni ta'minlashning asosi, shuningdek, tinchlik, bag'rikenglik, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish va barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Shuningdek, inklyuziv va sifatli ta'limga ta'minlash va hamma uchun butun umri davomida ta'limga olish imkoniyatlarini yaratish bugungi kunda butun dunyo tanlagan 2030 yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan ta'limga maqsadlarining bosh g'oyasini tashkil etadi [2]. Yurtimizda inklyuziv maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish orqali alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun rivojlanishining dastlabki davrlardanoq jismoniy va psixik rivojlanish xususiyatlariga mos holda sifatli ta'lism tarbiya olishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ana shu maqsadlarga mos keladi. O'z navbatida mazkur turdagiga ta'limga tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning yangi pedagogik texnologiyalari, modellari va metodlarini amaliyatga joriy etish esa maktabgacha ta'limga pedagogikasi oldida turgan dolzarb masalalardan birini ifoda etmoqda.

Inklyuziv ta'limga "barcha ishtirokchilarning ehtiyojlari turlicha ekanligini tan olish va bunga e'tibor qaratish jarayoni" [3, str. 6] ekanligidan kelib chiqqanda, alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ham alohida pedagogik va psixologik yondashuv talab etishi tabiiydir.

Bolada rivojlanishining ilk davrlardanoq jamiyat tomonidan umume'tirof etilgan ma'naviy-ahloqiy me'yorlarga mos shaxsiy fazilatlar asoslarini shakllantirish maktabgacha ta'lism tizimidagi tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Chunki, shaxsiy fazilatlar asoslarining shakllanishi bola shaxsi shaklanishining ajralmas tarkibiy qismidir.

Shaxsiy fazilatlar asoslarining shakllanishi barobarida bolaning bosqichma-bosqich ijtimoiy muhitlarga integratsiyasi va ulardagi ijtimoiylashuvi faollashib boradi. O'z navbatida mazkur fazilatlar nafaqat uning individual xususiyatlarini belgilovchi, balki boshqalar bilan munosabatlarining ham muhim mezonlariga, omillariga aylanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi jismoniy va psixik muammolar barcha psixik jarayonlar kabi ularda o'zini, o'zligini anglash jarayonlariga ham ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bolalarga ko'rsatiladigan maqsadli va mohirona pedagogik, psixologik ko'makkina ushbu muammolarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'limga "bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olganda holda umumiyyet pedagogik prinsiplarga asoslanib ish ko'rар" ekan [4, 11 b.] bugungi an'naviy va inklyuziv ta'limga pedagogik tamoyillarning o'zaro uyg'unlashib borishi lozim bo'lmoqda.

Maktabgacha ta'limga bosqichida bolalarda shakllanadigan shaxsiy fazilatlar ro'yxati qatorida insonparvarlik, vatanparvarlik, o'ziga ishonch, hurmat, mehr-oqibat, mas'uliyat, intizom, halollik, jasurlik, ijobiy fikrlash kabilarni alohida ta'kidlash lozim. Bu va bu kabi barcha shaxsiy fazilatlarni birlamchi asoslarini samarali shakllantirish esa, bolalar uchun umumiyyet individual

ishlab chiqilgan ta’lim-tarbiya dasturlarining bola uchun nechog‘lik qulay va qiziqarli ishlab chiqilganligiga bog‘liqdir.

Bolalar uchun shaxsiy fazilatlar asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq inklyuziv ta’lim dasturlari va ularagini tavsiyalarda bunday dasturlarning bir qator muhim jihatlarga ega bo‘lishi lozimligini ko‘ramiz va quyidagilarini alohida urg‘ulashni joiz deb bildik:

Birinchidan, bolaning ijtimoiy muhitga faol moslashuvi, ijtimoiylashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyaviy ishlar dasturlarida bolada shaxsiy fazilatlar asoslarini shakllantirish masalalari alohida o‘rin tutmog‘i lozim;

Ikkinchidan, shaxsiy fazilatlar asoslari imkoniyati cheklangan bolalarda faqatgina faol pedagogik va psixologik aralashuv natijasija shakllanadi va istiqboldagi mustaqil faoliyati uchun ularning barchasi muhim hayotiy ko‘nimalarni tashkil etadi;

Uchinchidan, shaxsiy fazilatlar asoslarini shakllantirishda jarayon tashabbuskori nafaqat pedagog, balki o‘z individual xususiyatlari, qiziqishlari va extiyojlari asosida bolaning o‘zi ham bo‘lishi zarur;

To‘rtinchidan, bu borada pedagogning faol say‘i harakatlari natijalari bolada namoyon bo‘lishining muhim shartlaridan biri bu oila bilan uzviy hamkorlikdir;

Beshinchidan, barcha say‘i-harakatlarning umumiy mazmuni va maqsadi bolada shaxsiy fazilatlarini shakllantirish asosida mavjud muhitga, atrofdagi insonlarga, shart-sharoitlarga, odatlarga va qadriyatlarga pozitiv munosabatni shakllantirish va bosqichma-bosqich takomillashtirib borishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni berib o‘tishni lozim deb bildik:

- inklyuziv ta’lim sharoitida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasi, xususan, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish masalalarida maktabgacha ta’lim tashkiloti defektolog-o‘qituvchilari, psixolog, tarbiyachilari, va ota-onalar uchun metodik va ommabop o‘quv-metodik qo‘llanmalar va tavsiyalarni jadal ishlab chiqish;

- bolalarning yosh va rivojlanish xususiyatlariga mos holda “Mening tarbiya kitobim” nomli rasmi, bezakli qo‘llanmani tayyorlash va chop etish;

- mazkur masalada qisqa muddatli o‘quv kurslarini (onlayn) tashkil etish;

- Oliy ta’limda maktabgacha ta’lim yo‘nalishlari va malaka oshirish dasturlarida inkyuziv tarbiya muammolariga ajratilgan mavzularni ko‘paytirish;

- eng yaxshi metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar va targ‘ibot materiallari uchun tanlov e’lon qilish shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida aytganda, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda shaxsiy fazilatlar asoslarining shakllanishi inklyuziv ta’lim sifatiga, natijasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil va mezonlardan biridir. Bevosita rivojlanishdagi mavjud nuqsonlarga qaramasdan, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalangan avlodni kamolga yetkazish inklyuziv ta’lim orqali inklyuziv jamiyatga o‘tayotgan davlatimiz, jamiyatimizning ezgu maqsadlariga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son). www.lex.uz (24.02.2022)

2. Inchxonskaya deklaratsiya - Obrazovanie-2030: obespechenie vseobychego inklyuzivnogo i spravedlivogo kachestvennogo obrazovaniya i obucheniya na protyajenii vsey jizni. (Elektron resurs). <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233137 rus> (25.02.2022)

3. Samsonova Ye.V. Model organizatsii inklyuzivnogo obrazovatel'nogo protsessa v detskom sadu. Inklyuzivnoe obrazovanie. Vypusk 4. Metodicheskie rekomendatsii po organizatsii

inklyuzivnogo obrazovatelnogo protsessa v detskom sadu. – Moskva: sentr «Shkolnaya kniga», 2010. 55 str.

4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. T., “O‘qituvchi”, 1993.148 b.

MILLIY TARBIYA VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM BERISHDA KOMPITENTSIYAVIY YONDASHUV

Axmadaliyev S.Y.
MTTDMQTMOI p.f.n,
Axmadaliyeva B.Sh.
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi.

Bugungi kunda Maktabgacha ta’limga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu sohada sezilarli darajada etirofga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Prizidentimiz Shavkar Mirziyoyev takidlaganidek “ bolaga tarbiya eng avvalo oiladan so‘ngra bog’chdan boshlanadi,biz kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yosh avlodning ertangi taqdiriga hammamiz dahldormiz hammamiz birdek ma’sulmiz” deb bejizga aytilmagan. So‘ngi 3 yil ichida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining soni sezilarli darajada oshdi. Xususan chekka-chekka hududlarda ham zamonaviy yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari qisqa fursatlarda qad roslab foydalanishga topshirildi. Bularning barchasi jajji qiz-o‘g’lonlarimizning yorqin kelajagi uchun qilinayotgan ishlardir. Yaxsh ta’lim tarbiya beriladigan joyda muhit yaxshi bo‘lmog’i kerak. Muhit zamonaviy har tamonlama shart sharoitga ega bo‘lsa unda ta’lim tarbiya sifati ham va ko‘zlangan natijaga erishish ham oson bo‘ladi. Muhit yaxshilandi xo‘s, shu bilan maqsadga yetdikmi, yo‘q albatta.Inson kamolotida tarbiya tushunchasiga alohida e’tibor berilishi lozim. Tarbiya insonni kamolotini balgilaydi.Uning hayot yo‘lida sham chiroq vazifasini o‘tovchi vosita hisoblanadi.

Abdulla Avloniy tarbiya haqida quyidagicha ta’rif keltirib o‘tganlar; Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadat, yo falokat masalasidir. Ilmiy jihatdan olib qaralganda tarbiyaning ham bir qancha turlari mavjud. Bular jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya,mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya,ekalogik tarbiya va hakazolarni misol keltirish mumkin. Biroq bugungi kunda Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachilar oldiga qo‘yilgan birinchi navbatdagi tarbiya bu –milliy tarbiya hisoblanadi. Chunki milliy tarbiya bu o‘zlikni anglash, milliy qadriyat,milly g’urur, milliy ong kabi tushunchalarini o‘zida jamlagan bo‘ladi.Milliy tarbiya bilan boshqa tarbiyalar bilan ham o‘zaro uzviy bog’liq. Chunki bolaga milliy tarbiya bermasdan turib unga boshqa tarbiya beri bo‘lmaydi. Oddiy misol axloqiy tarbiyani olaylik, biz o‘zbekmiz, har bir davlatning ,har bir millatning o‘z axloqiy tarbiyasi mavjud.O‘zbek bo‘la turib unga chet elning axloqiy tarbiyasini bera olmaymiz.Qaysi davlatning axloqiy tarbiyasida bor, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom berish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, vatanga, ota-onaga sodoqat kabi tushunchalar. Bu bizning milliy tarbiyamizdan kelib axloqiy tarbiya. Maktabgacha ta’lim tashkilotada bolaga ta’lim beruvchi tarbiyachi ham har tomonlama yetuk ,professional, mukammal dunyo qarashga ega bo‘lgan va eng avvolo o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi zarur. Chinki tarbiyachi tarbiyalangan bo‘sa biz yuqorida aytib o‘tgan milliy tarbiyani bolaga bog’chaga qadam qo‘yan kunidanoq singdira boshlaydi. O‘zi aslida tarbiyachi kim? Tarbiyachi bu- maktabgacha yoshdagi bolalarnihar tomonlama rivojlanishi uchun ko‘mak beruvchi va maktab ta’limiga tayyorlovchi shaxsdir. Tarbiyachi o‘tayotgan har bir mashg’ulotini milliylik bilan uyg’unlashgan holda olib borsa, bolaga maktabga milliy tarbiyaning boshlang’ich nazariyasini o‘rgangan holda chiqadi. O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 18 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida ham milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim tarbiya berish to‘risida ham davlat talablarining vazifalarida belgilab qo‘yilgan. Davlat talablarining tamoyillarida “ men konseptsiyasi” degan atama mavjud. Men konseptsiyasi b- bolani o‘zi haqidagi anglagan tasavvvurlar tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismidir. Mem

konseptsiyasi bola kompetentsiyasi bilan bog'langan tushunchadir. Bola kompetentsiyasi- bu ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolani bilimi' ko'nikmasi va malakalari xamda qadriyatlaridir. Bolada eng avvola men tushunchasi paydo bo'ldimi u yoshiga mos ravishda bilim ko'nikma va malakaga ega bo'la boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni xal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yoriy va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini ko'rishbilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetentsiyalar bolaning faoliyat va axloq subyektidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetentsiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich komptentsiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagи bolaning quyidagi umumiy muhim komptentsiyalari mavjud;

Kommunikativ kompetentsiya- muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin komptentsiyasi- bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv – tajribaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy komptentsiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalariga va meyorlariga roiya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish komptentsiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning rivojlanish sohalarida ham komptentsiyaning ham alohida roli bor. Bu ham o'z navbatida bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- Ijtemoiy – hissiy rivojlanish;
- Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- Bilish jarayonining rivojlanishi;

Ijodiy rivojlanish.

Yuqorida keltirib o'tilgan bola rivojlanish sohalari komptentsiyalari, bolani maktabga har tomonlama yetuk, bilimli va iqtidorlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu borada esa ota – ona va tarbiyachidan katta mahoratni talab etadi. Zero ertamiz umidlari bo'lmish farzandlarimiz bizning kelajigimiz ekanligini unutmasligimiz kerak. Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasining asosiy tushunchalari va jismoniy tarbiya metodikasi amaliyot bilan uzviy bog'ligi, shuningdek jismoniy tarbiya ishini rejalashtirish va hisobga olishga haqida ma'lumotlar beradi. ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'limtarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi. Jismoniy tarbiya metodikasi maktabgacha yoshdagи bolalar jismoniy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Jismoniy rivojlanish – bu kishi organizmi shakl va funksiyalarining o'zgarish jarayonidir. «Jismoniy rivojlanish» iborasi tor ma'noda qo'llanilganda, u antropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi (buy, gavda og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pkalarning tiriklik sig'imi, qaddiqomatining holati) va boshqalar. «Jismoniy rivojlanish» iborasi keng ma'noda qo'llanganda unga jismoniy sifatlar (tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik, muvozanat saqlay olish, ko'z bilan chamlash, kuch, chidamlilik) ham kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomova R.S. «Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati» T.: 2014.
2. Maxkamjonov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.
3. Nuriddinova M.M. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo‘riqchilari uchun me’yoriy hujjatlar majmui». -T.: “Muxarrir”, 2013.
4. Fayzullayeva M. va boshq. “Sog‘ tanda-sog‘lom aql”. T.: 2014
5. Usmonxo‘jayev T. va boshq. “500 harakatli o‘yinlar”. -T.: “Yangi asr avlod”, 2014.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori

PSIXOLOGIYADA BOSHQARUV MUAMMOSI

Djurayeva M.T.
MTTDMQTMOI “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasи katta o‘qituvchisi.

Oxirgi yillarda inson omiliga e’tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo‘limi – *boshqaruv psixologiyasi* paydo bo‘ldi. Boshqaruv psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog‘iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganadi.

Boshqaruv psixologiyasi – boshqaruv maqsadi va vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv subyekti va obyekti o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin etadi.

Mutaxassislarning fikricha, boshqaruv psixologiyasining boshqa turkum vazifalari boshqaruv usullarini shakllantirish bo‘lib, ushbu tadbir tashkilotning samarali faoliyatini ta’minalash maqsadidagi ta’sir etish imkoniyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, boshqaruv subyekti va obyekti masalasi – boshqaruv psixologiyasi fanidagi asosiy tushunchalardan sifatida e’tirof etiladi. Soha mutaxassislari, boshqaruv jarayonini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilishar ekanlar, boshqaruv subyekti sifatida rahbarni, obyekt tarzida esa, xodimni va mehnat jamoasini tasavvur etish mumkin, deb ta’kidlashadi. Yana ularning fikricha, rahbar o‘z faoliyatini tashkil etishi va o‘zini-o‘zi boshqarishi, uni nafaqat boshqaruv subyekti, balki obyekti sifatida ham tushunish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

Shu bois, rahbarning kasbiy mukammallashuvi, o‘zini-o‘zi boshqarish malakalarini egallashi, tashkilot va xodimlar boshqaruvidagi asosiy mavzulardan biriga aylanadi.

Boshqaruvning subyekti o‘rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi. Psixologiya ko‘proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o‘rganadi va shu asosda xodimlar ishlarini samarali tashkil etish, aniq va to‘g‘ri qarorlar chiqarish uchun qanday psixologik holat va jarayonlarni o‘zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo‘lsa, har bir so‘zga chiquvchilarining fikrlari, ma’ruzalarini va hokazolar orqali, ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqiladi, qabul qilingan qarorlarga ko‘ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko‘rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko‘ra u boshliq darajasiga ko‘tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta’sir ko‘rsatish maqsadida u qanday ta’sir

uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil: kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga qiziqadi, kimdir unga berilajak huquqlarni afzal ko'radi, kimgadir yuksak ma'suliylatlarni bo'yniga olish ma'qul keladi.

Shaxsnинг boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliq real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi qator sifatlar talab qilinadi.

Ayniqsa, boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan "lider" va "boshliq" tushunchalarining psixologik mazmunlarini tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, boshqaruv psixologiyasining predmeti sifatida, boshqaruv jarayonidagi inson faoliyati qabul qilinadi.

Bu esa o'z navbatida, boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv usullari, guruhlardagi rahbarlik va liderlik masalalari, liderlik uslublari, superliderlik fenomeni, rahbarlik sifatlari, rahbarlikka loyiqlikni baholovchi mezonlar, liderlikning vazifalari, boshqaruvchiga xos kompetensiyalar tasnifi kabi masalalarni ham iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИ AQLIY JIHATDAN ERTA RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Gaipova N. Y.,

Mirbabayeva Yo. P.

MTTDMQTMOI "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarни rivojlanish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriysi" mutaxassislari.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy, intellektual, psixologik va ma'naviy rivojlanishiga berilayotgan e'tibor yanada yuqori bosqichga ko'tarilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) maktabgacha yoshdagi bolalarни har jihatdan rivojlanishiga mas'ulligi yangi huquqiy maqom, maqsad va vazifalarga ega bo'lib bormoqda.

Bolalarни erta rivojlanish masalasi maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganilgan va ayni paytda babs-munozalaralarga boy mavzulardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy jihatdan erta rivojlanishi ota-onalarning hoxish-istiklari bilan uзвiy bog'liq hamda maktabgacha ta'lim tashkilotida o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlar, texnologiya va metodikalar hamda kasbiy maxorat talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda bolalarни erta rivojlanish yo'lidan borayotganligi bejiz emas, biznincha, bu holatlar bolalarning umumiy rivojlanishi uchun to'g'ri tanlangan yo'ldir. Ma'lumki, bolalarning aqliy rivojlanish xususiyatlari genetik va tashqi muhit omillari bilan uзвiy bog'liqdir. Shu bilan birgalikda, bolaning aqliy rivojlanishi talqin qilinar ekan, unga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT)ning o'rni va ahamiyati yaqqol yuzaga chiqmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining bir qator bosqichli xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni umumlashtirgan holda quyidagicha keltirish mumkin:

dastlab, bolaning fiziologik rivojlanishiga mos holda, tashqi dunyoni ongli bilishga bo'lgan qiziqishining paydo bo'lishi, keyin esa qiziqish bilan birgalikda undagi barcha hodisalar bilan

erkin muloqotga kirishishga bo‘lgan harakatlarining o‘sishi, o‘zini anglash, nutq va o‘z-o‘ziga xizmat qilishning shakllanishi, ayni paytda kattalarning fikriga, o‘rgatishiga, bilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashi va ko‘magiga muhtojligi va bosqichma-bosqich tanqidiy fikrlashning ham shakllanib borishi (2-3 yosh);(Masalan,bola ulg`aya borar ekan uni urab turgan tashqi olamga nisbatan qiziqishi rivojlana boshlaydi. Tabiat va undagi holatlar bolani xayajonga soladi. Gullab turgan gulni ko‘rib bola suyunib ketadi,uni ushlashga, hidlashga intiladi. Kapalak, chumoli va boshqa jonzodlarga qiziqib qaraydi. Ular bilan muloqotga kirishishga harakat qiladi. Har bir o‘zgarishga o‘z munosabatini bildirishni boshlaydi.Bu yoshda bolada “uzim bajaraman”degan istak paydo bo‘ladi va u bu istakni yuzaga chikarish uchun o‘z pozitsiyasida mahkam turadi.Qoshiq bilan ovqatni kavlaydi,piyolani kutarib mustaqil suv ichishga urinadi,idishlarni bir-biriga uring shovqin solish unga bir olam zavq bag‘ishlaydi.Quyoshning chiqishi, qorong‘u tushishini bola anglay boshlaydi. Korong‘u tushganda uqlash vaqt kelganini anglaydi.Kattalarning tushuntirishlariga,u bilan muloqot qilishlariga extiyoji ortadi,qiska xajmli ertaklarni bajonidil tinglaydi. Kattalarning o‘ziga yoqmagan harakatlariga munosabat bildiradi.)

– idrok va tasavvurning o‘sishi natijasida hatti-harakatlarda o‘ziga xos mustaqillikka intilishi, bilish faolligining oshishi natijasida qiziqishlar ko‘lamining kengayadi (4 yosh);(Bu yoshda bola”men”deb birinchi shaxs nomidan gapirishni boshlaydi,uzi haqida gapiradi,yaqinlariga murojaat kiladi.Uziga do‘sit tanlaydi va u bilan o‘ynaydi.O‘zextiyojlarini bildiradi,o‘ziga bulgan ishonchi ortadi,jamoa o‘yinlarida ishtirot etadi.Rasmga qarqb suzlaydi,6 ta rangni farqlaydi,tanish ertakni davom ettiradi.Son –sanoq o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadi.Kattalar bilan tadqiqotlar o‘tkazishda qatnashadi(eritish,cho‘ktirish,bo‘yash...)Bola tabiatdagi o‘zgarishlarni farqlaydi,jonli obyektlarni kuzataadi,Syujet asosida qurilmalar yaratadi.Tasviriy materiallarning nomini biladi,sodda rasmlar chizadi,ranglarni to‘g‘ri tanlaydi.)

– diqqat, tasavvur, idrok, xotiraning turg‘unlashib borishi natijasida narsa hodisalarning qonuniyatları, sabab-oqibat bog‘lanishlari va o‘ziga xos xususiyatlarini bilishning amalda namoyon bo‘lishi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, bilishga bo‘lgan qiziqishlarning aniqlashuvি (5 yosh);(Bu yoshda bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ancha ortadi,uz “men”ini namoyon qiladi.O‘zi va oilasi haqida gapiradi,oilaviy munasabatlarni tushunadi.O‘ziga yuklangan majburiyatlarini biladi va bajaradi.Bola o‘zi mansub bo‘lgan millatini biladi,o‘zini-o‘zi baholaydi,g‘oyalar taklif kiladi va o‘zini qiziqtirgan mavzuda tashabbuskorlik qiladi. Atrofda bo‘layotgan voqeа-xodisalarini kuzatadi,tushunadi.O‘ziga nisbatan premetlarning joylashuvini ta’riflaydi(oldimda,stol utida)Kattalar yordamida ijodiy hikoyalar tuzadi,namuna asosida bosma xarflarda so‘zlar yozadi,turli sathlarda rasmlar chizadi(nam qum,asfalt,doska) soch o‘radi,mozaikalar bilan ishlaydi.

– psixik jarayonlarning erkinlashuvi, o‘z hatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqara olishi, mantiqiy tafakkurning kuchayishi va intellektual rivojlanishga bo‘lgan mustaqil intilishning shakllanishi (6 yosh);(Bu yoshda bola ancha mustaqil bo‘la boshlaydi,o‘zining xohishiga karab faoliyatni belgilaydi,boshqalarning fikri uni kamroq qiziqtiradi,u o‘z maqsadiga erishish yo‘llarini axtaradi va topadi.Ko‘prok rasm chizish ,qurish-yasash ,mayda stol ustı o‘yinlarini o‘ynashni hoxlaydi.3-4 kishi bo‘lib o‘ynaladigan syujetli-rolli o‘yinlarni ham qiziqib o‘ynaydi.

– mustaqil anglash, o‘z hissiyotlari va tuyg‘ularini boshqara olish, o‘z hatti-harakatlarini baholay olish, iroda kuchiga ega bo‘lish va bilish jarayonlariga mustaqil xayrihoxlik va intilishning turg‘un holatga kelishi (7 yosh).(Bu yoshga kelib bola mustaqil fikrlaydi,topshiriqlarga mas‘uliyat bilan yondashadi,oiladagi har bir a’zoni vazifasini,o‘rnini biladi,o‘rtoqlari bilan muloqot davomida o‘zini o‘zi boshqara oladi,o‘z yordamini taklif qiladi.Tabiat hodisalariga nisbatan o‘z fikrini bildiradi,tushunadi.O‘z nuqtai-nazarini bemalol bayon qiladi va himoya qiladi,tengdoshlari orasida lider bo‘lishga intiladi,Atrfdagi barcha voqeа xodisalar unda qiziqish uyg‘otadi ,katta-katta qurilish loyihibalarini amalga oshirishga qiziqadi,tabiot materiallari bilan o‘ynash unga katta zavq bag‘ishlaydi.)

Yuqoridaagi keltirilgan barcha jarayonlar MTTdan umumiy konseptual va har bir bosqich bo‘yicha alohida maqsadli, rejali va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi. Shu o‘rinda, MTTlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarni maktabga tayyorlash sifatida qo‘yilayotgan ekan,

har bir jarayonning sifatli olib borilishi bolaning keyingi ta’lim bosqichidagi ko‘rsatgichlariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda bolalarning aqliy rivojlanishi uchun ta’lim-tarbiya ta’sirida uning yuqorida ko‘rsatilgan bilish faoliyati bilan bog‘liq barcha xususiyatlarida sifat va miqdor o‘zgarishlariga erishish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar talab etiladi:

– ta’lim va tarbiya dasturlarida bilish faoliyati shakllarining yosh xususiyatlariga mos va aniq belgilanganligi;

– pedagogik texnologiyalar, modellar va metodikalarning to‘g‘ri tanlanganligi;

– zarur tashkiliy, moddiy-texnik shart-sharoitlarning mavjudligi;

– pedagog xodimlar salohiyati, jarayonga boshqa zarur mutaxassislarning faol jalb etilishi;

– bilish jarayonida bolalarni faol pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash ishlarining o‘zaro uyg‘unligi va tizimliligi;

– bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashning rag‘batlantiruvchi omillarning to‘g‘ri tanlanishi va amaliy ahamiyati;

– jamoatchilik bilan aloqalari, ota-onalar va keng jamoatchilik bilan hamkorlik;

– zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini faol kiritish shular jumlasidandir.

MTTlari uchun bolalarni erta aqliy rivojlanishi bo‘yicha qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

– bu borada xorijiy tajribani faol o‘rganish va ilg‘or metodlarni amaliyatga joriy etish;

– ilg‘or milliy tajribani barpo qilish maqsadida alohida loyiha ishlab chiqish, MTTlarining ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish;

– bolalar uchun bilish faoliyatining barcha yo‘nalishlari va bosqichlari uchun milliy intellektual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonini jadallashtirish;

– ota-onalarni bu jarayonga faol jalb etish maqsadida bolalarni intellektual rivojlantirish uchun “Aqli oila – aqli bola” loyihasini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish.

Xullas, maktabgacha yoshdagi bolalarning erta aqliy rivojlanishi uzlusiz va murakkab jarayon bo‘lib, MTTlarida tashkil etiladigan, bola rivojlanishining bosqichlari va xususiyatlarining sifati, samarasи va keyingi ta’lim bosqichlari uchun natijaviyligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa MTT va uning pedagogik jamoasidan jiddiy yondashuv va mas’uliyat talab etishi tabiiyidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlyatovna, K.G. (2022). Sotsialno-psixologicheskiye baryery i puti ix preodoleniya. *Pioner: Jurnal perspektivnykh issledovaniy i nauchnogo progressa*, 1 (4), 136-140.

2. Kuldasheva, G. D. (2022, August). PRIMENENIE SIFROVYIX TEXNOLOGIY V DOSHKOLNOM OBRAZOVANII: Kuldasheva Gulbaxor Davlyatovna, dotsent kafedry “Pedagogiki i psixologii” instituta perepodgotovki i povышения kvalifikatsii direktorov i spetsialistov DOO E-mail: gulya.kuldasheva@mail.ru. In *Nauchno-prakticheskaya konferensiya*.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XAVFSIZ VA QIZIQARLI TAJRIBALARNING IJOBIY AHAMIYATI

Igamberdiyeva A. A.
MTTDMQTMOI 1-bosqich tayanch doktoranti.

Ma’lumki, deyarli har kuni bolajonlar “Nega?”, “Qanday?”, “Qayerdan paydo bo‘lgan?” kabi savollarga javob topish uchun kattalarga murojaat qilishadi. Negaki aynan mazkur davrda bolalarga bu olamning siru sinoatlarga to‘ladek tuyilishi, atrof olamni, tabiatni bilishga bo‘lgan

qiziqliklari yuqori darajada bo'lishi tabiiy hol albatta. Xavfsiz va qiziqarli tajribalar orqali biz bolalarni ilm -fanga qiziqliklarini uyg'otishimiz va rivojlantirishga erishamiz. Shuningdek, mazkur tajribalar bolalarni erkin va mantiqiy fikrlashiga undaydi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida laboratoriya hududi maktabgacha yoshdagi bolalarda oddiy ilmiy tajribalarni kuzatish, tajribalarda bevosita ishtirok etish, tahlil etish tushunchalari bilan tanishtirish imkoniyatidir. Shuni inobatga olish kerakki, biz bolalarga tajribada ishtirok etish imoniyatini bergenimizda, ma'ruzadan yoki barcha to'g'ri javoblarga ega bo'lgan na'munaviy ko'rinishdan chekinishimiz muhumdir. Bolalarga o'ylash, o'z savollarini erkin ifodalay olish imkoniyatini berish kerak. Maqsad, shuningdek, qanday qilib ko'proq savollar berishni tushunish va unga asoslanib, bilimlarni rivojlantirishdir. Esingizda bo'lsin, fan laboratoriyada to'xtamaydi!

Yuqorida aytib o'tilgan maktabgacha ta'lif uchun tegishli ilmiy tajribalarni amalgaga oshirish uchun vaqtinchalik ilmiy laboratoriyalarni tashkil qilishingiz mumkin bo'lsa-da, fan bundan ancha uzoqroq ekanligini unutmang. Keyingi safar yomg'ir ostida bo'lganingizda, bolalariningizga suv o'simliklarning o'sishiga yordam berishini, xuddi ular selderey tajribasida ko'rganidek, ko'rsatish maqsadga muvofiq. Kattalar kechki taomni tayyorlayotganda, issiqlik ta'sirida pishloq yoki sariyog' kabi mahsulotlarning shakli qanday o'zgarishini kuzatishni tavsiya eting. Agar bolalar qulqlarini yopsa, qanday qilib tovushlarni eshitish mumkinligini so'rang. Bularni va yana ko'p narsalarni ilm-fan bilan izohlash mumkin. Shuningdek, maktabgacha ta'lif tashkilotlarda ta'lif tarbiya berayotgan pedagoglarning oldida eng muhim vazifalardan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqeа-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalash muhim pedagogik muammo hisoblanadi.

Bolalarning ko'pnina savollari tabiat bilan bog'liqidir. Xavfsiz va qiziqarli tajribalar orqali esa bolalarni mazkur savollariga javob topishlari mumkin. Tajriba faoliyatiga pedagog avvaldan puxta tayyorgarlik ko'rmog'i va jarayon yana hamqiziqarli o'tishi uchun tajribani o'yin tarzida ham davom etirmog'i maqsadga muvofiq. Tajriba davomida bolalarda komunikativ yondashuv rivojlanadi, erkin va mantiqiy fikrlash shakillanadi, rivojlanadi, ekologik ma'daniyat ko'nikmalari rivojlanadi, aniq va tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqlik ortadi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'yin orqali bolalarni ta'lif faoliyatiga jalb etish ijobjiy samarani beradi. Xavfsiz va qiziqarli tajribalarda ham o'yin orqali faoliyat olib boorish bolalarni tajribalarga yanada jalb etadi va bolalarda qiziqlik uyg'otadi.

O'yin - maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati, o'ynash, u odamlar dunyosini o'rganadi, o'ynaydi, bola rivojlanadi. Zamonaliv pedagogikada bolaning hissiy, motorli va intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradigan juda ko'p sonli o'quv o'yinlari mavjud. Didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida gapirishdan oldin, shuni eslatib o'tish kerakki, "intellektni rivojlantirish" tushunchasi xotira, idrok, fikrlashni rivojlantirishni o'z ichiga oladi, ya'ni. barcha aqliy qobiliyatlar. Faqat bitta ko'rsatkichga e'tibor qaratib, umuman bolalarning aql-zakovatini rivojlantirish haqida gapirib bo'lmaydi. O'yinning rivojlanish qiymati juda ko'p. O'yinda bola atrofdagi dunyonи o'rganadi, uning tafakkuri, his-tuyg'ulari, irodasi rivojlanadi, tengdoshlari bilan munosabatlar shakllanadi, o'zini o'zi qadrlash va o'zini o'zi anglashshakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan g'oyalari va tushunchalarning poydevori qo'yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu insonning intellektual rivojlanishidagi eng maqbul davr. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanish imkoniyatlari juda yuqori ekanligi aniqlandi: bolalar nafaqat ob'ektlar va hodisalarning tashqi, vizual xususiyatlarini, balki ularning ichki, muhim aloqalari va munosabatlarini ham muvaffaqiyatli o'rganishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida mavhumshtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarishning dastlabki shakllari uchun qobiliyatlar shakllanadi.

Bolalarda aqliy qobiliyatning bir necha asosiy turlari mavjud:

Og'zaki- bolaning muloqot qobiliyatlarini uchun mas'ul bo'lgan, unga boshqa odamlar, bolalar bilan aloqa o'rnatish, katta yoshda o'qish va yozish, savollar berish, dialoglar yaratish va muhokama qilish imkonini beradi.

Fazoviy - ob'ektlarni kuzatish natijasida hosil bo'lgan narsa, u tufayli turli xil tasvirlarni vizual idrok etish va ularni o'zgartirish qobiliyati yaratilgan.

Mantiqiy - fikrlashga va muammolarni hal qilishga, biror narsani hisoblashga imkon beradi

Jismoniy - ularning harakatlarini aniq muvofiqlashtirish va tananing motorli ko'nikmalarini egallash qobiliyati

Hissiy- o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish, ularni tahlil qilish va o'z taassurotlari haqida xulosa chiqarish qibiliyati

Ijtimoiy - odamlar bilan aloqani topish va jamiyat bilan munosabatlarni o'rnatish imkoniyati

Ruhiy - ichki komponentingiz haqida gapirish va uni boshqarish qobiliyati

Ijodiy - ijodiy fikrlash, o'z g'oyalarini tartibga solish va amalga oshirish qobiliyati

Bundan tashqari, bolaning tug'ilishdan boshlab aqliy xususiyatlari asosan ijodiy xarakterga ega ekanligi ta'kidlangan, ammo hamma ham to'g'ri rivojlanana olmaydi. Ma'lum bo'lishicha, bolaning aqliy qobiliyatları umuman rivojlanadimi yoki yo'qmi, undan ham ko'proq qaysi yo'nalishni olishi tarbiyachiga bog'liq. Tarbiya shartlari, ota-onalar, pedagoglarning bolaning o'ziga va uning faoliyatiga munosabati - bular tabiat tomonidan belgilab qo'yilgan moyilliklarning qanchalik ro'yobga chiqishini belgilaydigan omillardir. Aqliy qobiliyatlar va ularning rivojlanishi ijtimoiy va biologik omillar majmuasiga bog'liq bo'lib, ular orasida aqliy ta'lim va tarbiya rahbarlik, boyitish, tizimlashtirish rolini o'ynaydi. Umuman olganda, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi nihoyatda murakkab va ko'p qirrali. Va hozirda bu juda dolzarbdir, chunki ko'pincha bolalar tafakkurining cheklanganligi, tayyor sxemalarda o'ylash istagi, bu sxemalarni kattalardan olishning namoyon bo'lishini kuzatish kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruhlarida olib borilgan variativ laboratoriya tajribalari o'zining ijobjiy natijasini ko'rsatmoqda. Tajriba jarayonida bolada aqliy qobiliyatning hamma turlari rivojlanishini inobatga olsak, xavfsiz va qiziqarli tajribalar bolalarni maktabga sifatli tayyorlashda ijobjiy natijalarni beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». ЗРУ-637 от 23.09.2020.
2. Закон Республики Узбекистан “О дошкольном образовании и воспитании”. (Национальная база данных законодательства, 17.12.2019 г., № 03/19/595/4160; 27.04.2021 г., № 03/21/685/0373, 12.10.2021 г., № 03/21/721/0952)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida” PQ-3261-son qarori.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida” PQ-2707-sonli qarori.
5. Abdullayeva N.Sh. “Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish” UDK 371.912, 372.21
6. Umarova M. X. “Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakillantirish metodikasi” UDK 37.033, 373.2

MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI TA'MINLOVCHI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARНИ JORIY ETISH TAMOYILLARI

Isxakova M. R.

MTTDMQTMOI “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi katta o`qituvchisi, mustaqil izlanuvchi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalariga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Respublikamizning taniqli olimlari, ilmiy izlanuvchilari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta’lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo’llashga intilmoqda. Bu say-harakatlar zamirida ma’lum bir sabablar mavjud, ya’ni:

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o’rein olish uchun, katta yoshlilar ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ilg‘or va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligi.

2. Zamonaviy elektron texnologiyalarni malaka oshirish tizimiga tatbiq andpagogikaga asoslangan HiTech texnologiyasini qo’llash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kurslarni tashkil etish, o‘yin (geymifikatsiya) asosida malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish, MTT pedagoglari toifalari bo‘yicha onlayn trening kurslarini ishlab chiqish va joriy etish zarurligi.

3. Malaka oshirish kurslarida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi (tinglovchi) munosabatlarini andragogik yondashuv asosida qurish, ta’lim beruvchi ta’lim maqsadi va mazmunini pyxta bilishi, o‘qitish metodlari va AKTlarni yaxshi egallagan bo‘lishi, ta’lim oluvchining qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘ilga qo‘yilganligi.

4. MTT pedagoglarini malaka oshirish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, malaka oshirish jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlardan, jumladan, andragogik yondashuv tamoyillaridan foydalanishni talab qilishidir.

Demak, maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlovchi zamonaviy texnologiyalar yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbir hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-sentabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 487-son qarorida “...maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilim va malakasini oshirish, innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish” belgilangan.

C.G.Vershlavskiy o‘z ishlarida[2] kattalar ta’limi jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarning sharti, belgisi va natijasi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlagan holda quyidagi tamoyillarni keltiradi:

- 1) ijtimoiy xapaktep (aholining keng tashabbuskorlik faoliyati);
- 2) ta’lim muassasalarining mustaqilligi va avtonomligi;
- 3) ta’limning hammabopligi va bepulligi;
- 4) ta’limning uzuksizligi.

XX asrda YUNECKO kattalar ta’limining asosiy tamoyilini quyidagicha shakllantirgan: “Kattalar uchun ta’lim olishni quvnoq tapzda tashkil etish kerak”. By tamoyilga asosan katta yoshlilarga ta’lim beruvchilar faoliyatining tamoyillari shakllantiriladi.

I.A.Kolesnikova, kattalar ta’limi sohasidagi so‘nggi o‘n yillikdagi xalqaro tajribaga tayanib, uni tashkil etish samaradorligiga hissa qo‘sadigan bir qancha tamoyillarni aniqlaydi: 1) uzuksizlik tamoyili; 2) shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili; 3) hammaboplik tamoyili; 4) variativlik tamoyili; 5) moslashuvchanlik tamoyili; 6) ta’lim natijalarining ijtimoiy ahamiyatiligi tamoyili; 7) yaxlitlik tamoyili [3].

Yuqorida qayd etilgan andragogik tamoyillar haqidagi fikrlar kattalar ta’limini yetarli darajada shakllantirish va uni rivojlantirish kerakligini tasdiqlaydi.

Biz sharhlagan katta yoshli ta’lim oluvchilarning xususiyatlari bugungi kunda pedagoglarni malaka oshirish jarayoni har xil davom etayotganligini va andragogik yondashuv tamoyillari e’tiborga olinmayotganligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan, kattalarni muvaffaqiyatli o‘qitish jarayonini amaliy tashkil etishning jihatlari va shartlarini hisobga olgan holda, andragogik yondashuv tamoyillarini shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Kattalar ta’limi shaxsnинг hayot davomida ta’lim olish imkoniyatlarini kengayishi bilan bog‘liq. Kattalarga ta’lim berish hayot davomida ta’lim olishning muhim qismi bo‘lib hisoblanadi va hozirgi zamonda bunday ta’lim butun dunyoda insonlar va jamiyat duch kelayotgan muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynamoqda. YUNECKOning kattalar ta’limi bo‘yicha 2009-yil dekabrdagi o‘tkazilgan oltinchi Xalqaro konferensiyasida (CONFINTEA VI) qabul qilingan

“Belen harakatlar meyori”da aytishicha, ”Kattalarga ta’lim berish odamlarga o‘z haq-huquqlarini rivojlantirish va ro‘yogga chiqarish hamda o‘z taqdirlarining egalari bo‘lishlari uchun zarur bilimlar, malakalarni egallash, fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda kattalarga ta’lim berish adolat va inklyuzivlikka erishish, qashshoqlikning ko‘lamini kamaytirish va savodxonlikka asoslangan adolatlari, bardoshli va bapqaror jamiyat yaratish uchun mutloq zaruriyat bo‘lib hisoblanadi” [4].

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish muayyan vaqt va fursat talab qiladi. Xususan, ta’lim sohasidagi islohotlar xiyla murakkab jarayon bo‘lib, izchillikni, puxta va o‘ylangan pejani, tahlil va tadqiqni taqozo etadi. Biroq shu paytga qadar maktabgacha ta’lim tizimida andragogik yondashuv asosida pedagoglarni malakasini oshirishni takomillashtirish muammosini tadqiq qilish, uning rivojlantirish strategiyasini belgilash va rejalashtirilgan innovatsiyalarni ilmiy jihatdan o‘rganish, tajriba-sinovdan o‘tkazish amalga oshirilmagan edi.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-tonli Farmoni, 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’limtarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “Ta’limtarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Mazkup hujjalarda maktabgacha ta’lim tizimi pedagog kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan bog‘liq masalalarga ham alohida e’tibor qaratilib, sohadagi rahbar va pedagog xodimlarni “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzlusiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo‘yildi [5].

Pedagoglarning andragogik yondashuv asosida malaka oshirish jarayoni shaxsning hayotni yaratuvchi o‘zini o‘zi anglash tamoyiliga tayangan holda amalga oshiriladi. O‘z-o‘zini anglash tamoyiliga asoslangan malaka oshirish tizimini joriy etish uchun MTT pedagoglarining malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasidan kelib chiqib, andragogik yondashuvga asoslangan malaka oshirish dasturlari ishlab chiqiladi. An’anaviy malaka oshirish o‘rniga shaxsning hayotni yaratuvchi o‘zini o‘zi anglash tamoyiliga tayangan holda amalga oshiriladigan malaka oshirishning uyg‘ynlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa muqobil shakllari joriy etilib, MTT pedagoglarining individual trayektoriyalari, kasbiy rivojlanish natijalari va o‘zlashtirgan o‘quv dasturlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ularning elektron portfoliosiga kiritiladi.

Bizning fikrimizcha, andragogik yondashuv asosida malaka oshirishdagi *individual-shaxsiy yondashuv tamoyili* katta yoshdagi ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyatidagi sub’ektlik pozitsiyasining o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan bo‘lib, ular, birinchi navbatda, mustaqillik, o‘z manfaatlari va qobiliyatlarining ustuvorligi, natija uchun o‘z mas’uliyatini his qilish; ikkinchidan, o‘quv jarayonida ongli ravishda ma’lum bir pozitsiyani egallash qobiliyatida; uchinchidan, o‘z hayotiy tajribasining mazmunini ta’lim mazmuniga kiritish istagi va imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Andragogik yondashuv asosida tashkil etiladigan malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning yosh va individual xususiyatlarini: jismoniy, aqliy, ruhiy, gender va boshqalarni, shuningdek kasbiy va shaxsiy tajribani hisobga olish asosiy tamoyillardan biridir.

Andragogik yondashuvning biz ko‘rsatgan tamoyillari yaxlit ajralmas majmuani tashkil etadi va ularning birligini ifodalaydi.

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz natijasida biz andragogik yondashuv tamoyillarini jamladik va taqdim etdik. Ulardan maqsadli, izchil va ongli foydalanish ilk bora MTT pedagoglarining malaka oshirish jarayonini andragogik yondashuv asosida takomillashtirishning metodologik asosini qurishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 487-son qapopi, 11-sentabr 2019-yil
2. Вершловский С.Г. От повышения квалификации к постдипломному педагогическому образованию /Андрогогика постдипломного педагогического образования (под. ред. С.Г.Вершловского, Г.С.Сухобской). – СПб.: “СПб АППО”, 2007. – С. 6-33.
2. Колесникова И.А. Андрагогические условия развития субъектной позиции педагога в процессе повышения квалификации: Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Кемерово, 2011. – 24 с.
3. UNESCO: Harnessing the power and potential of adult learning and education for a viable future. Bel m Framework for Action. CONFINTEA VI. Bel m, 4 December 2009
4. Isxakova M.R. “MTT pedagoglari malakasini oshirishning andragogik yondashuvga asoslangan modeli”. Sirdaryo BXTXQTMOIHM “Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2022-yil 6-7-aprel

O‘YIN BOLALAR HAYOTI VA FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH SHAKLI SIFATIDA

Jumanova M. S.

Jizzax viloyati, Baxmal tumani
8-sonli DMTT tarbiyachisi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi maktabgacha ta’lim sifatiga alohida e’tibor qaratadi. Bola rivojlanishi va tarbiyasida faoliyatning muhim turi hisoblangan o‘yin katta ahamiyatga ega. U maktabgacha yoshdagagi bola shaxsiyati, axloqiy-irodaviy fazilatlarini shakllantirishda samarali usuldir, o‘yin orqali ta’lim berishda atrof-olamga ta’sir etish ehtiyoji ro‘yobga chiqadi. Bola uchun o‘yin – o‘zini ko‘rsatish va namoyon qilish yo‘li. O‘yinda bola o‘zi istagan qahramonga aylanadi: mehribon sehrgar, jasur jangchi, uchuvchi-fazogir, sayyoh...

O‘yinda bola o‘zi xohlagan joyda bo‘ladi: oyda, dengiz tubida, maktabda. O‘yin bolaga vaqtini bir lahzaga to‘xtatish, uni qaytarish va yana ko‘p marotaba takrorlash imkonini beradi. Har bir bolaning o‘z dunyosi bor. Lekin u tengdoshlari qatoriga kirib kelganida o‘zi uchun boshqa bolalar dunyosini “kashf” etadi. Bu juda qiziqarli va maroqli jarayondir, ammo boshqa insonni tushunish va dunyosini qabul qilish, ichki olamni ochish bola uchun juda murakkab.

O‘yin maktabgacha yoshdagagi bolalarni rivojlantirish va o‘qitishda katta salohiyatga ega. Lekin bu xususiyatlarni u pedagogik jarayon doirasida qo’llanilganida namoyon qilishi mumkin. Bolaning umumiyligi shakllanishi va o‘yin faoliyatining rivojlanishi bilan uning mustaqilligi oshadi; shu bilan birga o‘yinni boshqarishda pedagogning roli ortadi. Pedagog mazmunni o‘rgatish uchun rejalashtirgan harakatlardan bolaning o‘tishi o‘yin emas. Bolalar harakatlarni erkin boshlay olmaydi va ko‘pincha pedagoglar rejalashtirgan faoliyat turlari yakuniy mahsulotga ega (masalan, bola rasm chizadi, yozadi yoki o‘qiydi yoki qaror qabul qiladi). Biz tarbiyachi sifatida bu faoliyat turlari orqali bolalarga ma’lum mazmunni o‘rgatishimiz lozim bo‘lsa-da, bolalar erkin o‘yin faoliyatida ishtirok etishi uchun ham kun davomida ko‘p vaqt ajratishimiz kerak. Bu vaqt mobaynida bolalarga o‘yin uchun vaqt berish lozim, bunda kattalarning aralashmasligi yoki o‘yinchilarning biri sifatida ishtirok etishi maqsadga muvofiq. Bolalar o‘yinini targ‘ib qilishda maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar muhim rol o‘ynaydi. Bunda ular kuzatuvchi, rejissyor, o‘yin ishtirokchilarini rag‘batlantiradigan vositachilar sifatida qatnashishi mumkin. Ba’zan rollarimiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri namoyon bo‘ladi (masalan, o‘yinga zamin tayyorlaganimizda). Boshqa hollarda biz bolalarga o‘yin holatiga kirishga yoki o‘yinni davom ettirishga yordam beradigan ko‘nikmalarini o‘rgatish kabi bevosita rollarni o‘ynaymiz (masalan,

murakkabroq pazlni yig‘ish). Bolalar o‘yiniga qachon aralashish va qachon aralashmaslik kerakligini bilish ham muhimdir. O‘yin orqali o‘rganish integratsiyalashgan va muhim bo‘lsa-da, u tajribasiz ko‘zga ko‘rinmasligi mumkin. Shuning uchun biz bolalar qanday o‘rganishlarini, shuningdek, o‘yin orqali nimani o‘rganishlarini tushunishimiz kerak. Biz bolalarga uzoq, uzlusiz o‘yin davrlarini taqdim qilib, har xil turdagи o‘yinlarni rag‘batlantirish uchun yetarli materiallar berib va bolalarni mustaqil o‘ynashiga imkon yaratib, ularga eng yaxshi yordamimizni bergen bo‘lamiz. Biz, shuningdek, bolalar bilan o‘ynashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri rolga qachon va qanday o‘tishimiz kerakligini ham bilishimiz kerak. To‘g‘ri aralashuvda kattalar ishtiroki o‘yining uzoqroq va murakkabroq epizodlariga olib kelishi mumkin. Kichkina bolalar biz, ota-onalari va boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatga kirishib hamda predmetlar, materiallar va tabiatni anglash orqali bilimini kengaytiradi. L.S.Vigotskiy hisoblashicha, kognitiv rivojlanish eng yaqin rivojlanish zonasida boshqariladigan o‘qitishdan ijtimoiy o‘zaro aloqadorlik orqali yuz beradi. Zero, bolalar va ularning hamkorlari dialog orqali bilimlarini birlashtiradi. Shuning uchun ta’lim strategiyalari bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini hisobga olishi kerak, chunki ular pedagoglar va bolalar o‘rtasidagi hamda bolalar va boshqalar o‘rtasidagi muloqotlar asosida o‘rganadilar. Bolalarning oldingi bilim va ko‘nikmalariga asoslangan ochiq savollar va boshqa tipdagi strategiyalarni qo‘llaganimizda dialoglar bolalar tafakkuri va bilimini kengaytirishi va qo‘llab-quvvatlashi mumkin. O‘qitishning aniq strategiyalarini qo‘llash (biz va bolalar o‘rtasida yoki bolalar o‘rtasida hamkorlikdagi o‘yin orqali) bolalarni o‘qitishgagina emas, balki ular qanday o‘qiyotganini bilishiga ham zamin yaratadi. Kattalarning vazifasi ularni muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradigan muhitni yaratishdir: bolaning yoshiga mos ravishda istaklar, ehtiyojlar va intellektual xususiyatlarni shakllantirish. Pedagog har bir o‘yin turining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olishi kerak. O‘yin umumiylar tarbiyaviy vazifalarni hal etishga mo‘ljallangan. Ular orasida bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirish vazifalari ustuvor hisoblanadi. Bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida o‘yin kundalik hayotda va umuman pedagogik jarayonda o‘ziga xos o‘ringa ega. Pedagog bolalarning qiziqishini uyg‘otish, faolligini oshirish, ijobiy hissiyotlarini uyg‘otish uchun qanday kundalik jarayonlarni o‘yin shaklida qo‘llash mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishi kerak. Bolalar hayotining shakli sifatida o‘yining muhim ahamiyati uning har xil faoliyat turlariga singishidir: mehnat, kundalik jarayonlar va h.k. O‘yining ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlari boshqa biron-bir faoliyat turi bilan uyg‘unlikda bog‘liq bo‘lsa, ortib boradi. O‘yinni mehnat, ko‘rgazmali va konstruktiv faoliyat bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. O‘yin davomida yangi o‘yinchoqni yasash (tarozi, durbin), atributlarni boshqacha bezashga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Kattalar yordamida bolalar shikastlangan o‘yinchoqni tuzatishlari mumkin. Pedagog bolalarning hayoti va faoliyatini o‘yin shaklida tashkil etib, faollik va tashabbuskorlikni izchil rivojlantiradi, o‘yinda o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘yin ta’lim shakli sifatida ikki jihatni o‘z ichiga oladi: kognitiv va o‘yinli (ko‘ngilochar). Tarbiyachi bir vaqtning o‘zida ham pedagog, ham o‘yin ishtirokchisiga aylanadi. U o‘rgatadi va o‘ynaydi, bolalar esa o‘ynab o‘rganadilar. Maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar foydalanishi mumkin bo‘lgan eng yaxshi strategiyalar bu bolalar o‘yiniga turki beradigan, rag‘batlantiradigan va uzaytiradiganlaridir. Bolalar o‘yinlarida ularning bilimi va tafakkurini boyitish uchun qachon va qanday ishtirok etishni tushunish maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ishlaydigan malakali pedagogning nishonasi sanaladi. O‘yin faoliyatida MTT pedagogi quyidagi rollarda ishtirok etishi mumkin: Pedagog kuzatuvchi sifatida Bolalar o‘yiniga yaqindan e’tibor bersak, o‘yinda sezgir va malakali yordamchilarga aylanamiz. Maqsadimiz bolalarning kuchli tomonlarini va yuqori darajadagi o‘yinga kirishish va uni saqlab qolishda ular duch keladigan muammolarni aniqlashdan iborat. Biz, shuningdek, bolalar o‘yin orqali qanday muammolar va kontseptsiyalarni yechsa olishini aniqlaymiz: hokimiyat, ezzulik va yovuzlik, qo‘rquv va xavfsizlik, beboshlik va nazorat, yaxshilik va yomonlik. Pedagog rejissyor sifatida. Biz o‘yinga zamin yaratuvchi materiallar, jihoz va yoki o‘yinchoqlarni taqdim etib va joylashtirib, tadbirlarni uyushtirib, bolalar o‘yinlarini qo‘llab-quvvatlash uchun sharoitlar yaratamiz. Biz tadqiqotlarga chorlaydigan muhitni ishlab chiqamiz. Bolalarning o‘yin va tasavvurlarini rag‘batlantirish uchun turli xil materiallardan bir necha usullar bilan foydalanish mumkin. Agar

bola o‘yin vaziyatiga kirishni xohlamasa, u ishongan katta insonning ishtiroki unga guruhga qo‘shilish uchun o‘zini yetarlicha xavfsiz his qilishiga yordam berishi mumkin. Pedagog vositachi va fasilitator sifatida.

Fasilitator – bu guruhdagi faoliyatni tashkil etishda pedagogning rolli pozitsiyasi. U guruh oldiga qo‘yilgan vazifa asosida qidiruv jarayonini osonlashtiradi, tashkillashtiradi, yo‘naltiradi va rag‘batlantiradi. Fasilitator – shaxsiyatga yo‘naltirilgan modelni qo‘llaydigan pedagog. U guruhda qulay mikroiqlimni yaratib, guruhnинг sermahsul faoliyatini boshlash qobiliyatini namoyon qiladi. U guruh ishtirokchilariga o‘zaro ishonch muhitini yaratib, oson muloqot qilish imkonini beradi, maqsadni aniq tushunishga yordam beradi va ularni mustaqil tarzda optimal yechimni topishga yo‘naltiradi, shu bilan birga har bir ishtirokchining nuqtai nazarini hurmat qiladi, ya’ni fasilitator har bir fikrni himoya qiladi (hatto eng mantiqsiz bo‘lsa ham). Pedagog-fasilitatorning eng muhim sifatlari:

- ochiqlik (ishtirokchilar unga ishonishi uchun o‘zaro muloqotda shaxsiy fikrlar va kechinmalarni ochiq oshkor etish qobiliyati);
- qabul qilish (fasilitator insonni his qilishi kerak, uni shubhasiz qabul qila olishi, qayg‘usini his qilishi lozim);
- o‘ziga ishonch (zaif “sardor” orqasidan hech kim ergashmaydi!);
- rivojlangan refleksiya (fasilitator o‘ziga boshqalar ko‘zi bilan qaray olishi, aytilgan so‘zlari va qilmishini xolisona baholay olishi kerak).

Fasilitatsiya texnologiyalarini qo‘llash MTT pedagogidan tegishli rolli pozitsiyalarni talab qiladi:

- bolalarning ota-onalari bilan ochiq, ishonchli munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati;
- bolalar guruhida maxsus hamkorlik muhitini yaratish qobiliyati;
- o‘yin faoliyatida to‘siqlarni olib tashlash;
- ta’lim munosabatlarida har bir bolaning resurslarini ochish.

Bu fazilatlarning mavjudligi bolalarni o‘qitish jarayonini osonlashtiradi. Fasilitatsiya vazifasi – tadbir bayonnomasida qayd etilgan tashkiliy yechimlar va taxminlar bo‘lib, ular o‘zlaridan keyin ham tashkiliy, ham tarbiyaviy jihatdan muayyan o‘zgarishlarga olib keladi. Fasilitatsiya funktsiyalari – imkoniyatlarni rag‘batlantirish va dolzarblashtirish, tashabbus bildirish va ilhomlantirish, yordamlashish va qo‘llab-quvvatlash. Fasilitatsiya shakllari – o‘zaro aloqadorlik, ta’sir, muloqot, bilvosita ta’sir. Fasilitatsiya texnologiyalari – turli tartib-taomillar, o‘yin vaziyatlarining yig‘indisi bo‘lib, ular davomida ishtirokchilar o‘zlariga kerakli bo‘lgan xulosalarni chiqaradi:

- tashxis (muammolarni aniqlash), maslahatlar, tavsiyalar, qabul qilingan qarorlarni ishlab chiqish va tatbiq etish;
- maqsad va vazifalarni belgilashga ko‘maklashish, tadbirlar rejasini tuzish va ish natijalarini tahlil qilish;
- maslahat berish, qo‘llab-quvvatlash, ijod uchun shart-sharoitlar yaratish, yo‘naltiruvchi savollar;
- yechimlarni topish bo‘yicha muloqot va faoliyatda to‘siqlarni olib tashlash;
- zarur vaziyatda yordamni olish va ko‘rsatishga tayyor bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- vositachilik, tarbiyalanuvchilarning pozitsiya va his-tuyg‘ularini dolzarblashtirish;
- umumiylar qarorni ishlab chiqish, noroziliklar paydo bo‘lishining oldini olish va ularni xohish-istak shaklida ochiq aytishni o‘rgatish, “aqliy hujum ” usulini qo‘llash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalama maxsus ta’lim muassasalari uchun darslik. T.: „Istiqlol”, 2006 y.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно-оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Kadirova D. N.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti.

Yangi O‘zbekistonni rivojlanishi va taraqqiy etishida barcha soha mutaxassilari singari tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy yetukligi, bolalarga zamonaviy bilimlar berish, mashg‘ulotlarni qiziqari va innovatsion yondashgan holda sifatli va samarali tashkil etish orqali balalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlariga kreativ yondashuvni ta’minlashga erishish muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi. Shu maqsadda bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, kreativligini oshirish, intellektualligini rivojlantirish hamda ularning ma’naviy, estetik va jismoniy rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi zarur deb qaraladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim jarayonini nafaqat bolaning tashqi ko‘rinishi, holati, uning yurish turishigina emas balki bolaning ichki dunyosi, kechinmalari, qiziqishi, intilishi, o‘z meni va mayllari hamda o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishining ahamiyati, zaruriyatni va ustivorligi ortib bormoqda. Bu jarayonda tarbiyachilarining vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda ularda, innovatsion fikrlash ko‘nikmani shakllantirish, yangicha dunyoqarashni tarkib toptirish, interfaollik, zukkolik, ziyraklik, kreativlik, kommunikativlik, kognitivlik va intellektuallik, topqirlilik, zukkolik, ijtimoiy faollkn shakllantirishning ilg‘or vositalari, usullari, metodlari va samarali yo‘llarini izlab topish, bolalarda sodir bo‘ladigan har xil xatti-harakatlar, tushunmovchiliklar, muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, an’anaviy ta’limda tarbiyachilarining bir maromda mashg‘ulotlarni olib borishi, tarbiyachining o‘ta qattiq qo‘lligi, jiddiyligi, qo‘polligi ob‘ekt va sub‘ekt munosabatlariiga pedagogik yondasha olmasligi, tajribasizligi, kasbiy kompetensiyani yetarli egallamaganligi kabi holatlar bolalarni ijtimoiy faolligini oshirishga, aqliy qobiliyatini, diqqat, xotira, tafakkur va nutqini rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Tarbiyachining o‘ta faolligi, tarbiyalanuvchilarining passivligi, o‘zaro munosabatlardagi bolalar ishtirokining sustligi, qiziqishi, layoqatining inobatga olinmasligi ularning dunyoqarashi, fikrashi, ijodkorligini tarkib toptirishda muayyan to‘sinq sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Bunga sabab o‘quv mashg‘ulotlarida bolalarga nisbatan tarbiyachining ko‘proq faol ishtirok etishi kuzatiladi. Bu jarayonda tarbiyachilarining ob‘ekt va sub‘ekt munosabatlardagi ishtiropi, yondashuvlari yaqqol kuzga tashlanadi. Ushbu jarayonda tarbiyachining faoliyati bir yoqlama xarakterga ega bo‘ladi. Bunday yondashuv bolalarning kreativligini va innovatsion faolligini oshirishda va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib topishish imkoniyatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Tarbiyachining an’anaviy yondashuvi bolalarning interfaolligini oshirishga, kteativligini tarkib toptirish, innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda kognitivlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilg‘or metod, shakl va vositalardan samarali va maqsadli foydalana olmasligi kabilar tarbiyachi tomonidan qo‘yilgan maqsadlar kutilgan natijani bermaydi. Ko‘p vaziyatlarda bolalarga faqat buyruq berish, qo‘rqitish, majburlash, ortiqcha talab qilishdan foydalaniladi. Bunday munosabat natijasida bolalar qaysar, o‘jar va injiq bo‘lib qoladilar. Natijada bolalarni sog‘lom o‘sishiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi va turli muammolarni olib kelishga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib ta’kidlash mumkinki, tarbiyachilarining an’anaviy yondashuvi bolalarning innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, kreativligi, kognitivligi, kommunikativligi, tashabbuskorligini oshirishga hamda tengqurlari bilan faol hamkorlikda ishslash imkoniyatlariga ham to‘sinq bo‘ladi. Mazkur holat bolalarning innovatsion faolligini ta’minlash, mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon uchun kutilgan natijavyligini ko‘rsatib bera olmaydi.

Aksincha, tarbiyachining mashg‘ulotlar jarayonidagi an'anaviy yondashuvi bolalarda innovatsion fikrlash qobiliyatini yetarli shakllanmasligiga hamda o‘zaro munosabatlarda faol kirisha olmaslik, bir birini tushunmaslik, o‘zaro ichki ziddiyatlar, bolalarning ichingdan top, qo‘rs, badjahl, tortinchoq, qaysar, kattalarga nisbatan ishonchsizlik, ularga shubha bilan qarash hollari ko‘p kuzatilishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, bolalarda injqlik, qaysarlik, nafaqat ota-onani balki tarbiyachilarni eshitmaslik, ularga nisbatan hummatsizlik, bepisandlik bilan qarash, aytganini qildirishga urintirish va majburlash hollari yuzaga keladi. Ushbu holat bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga qiziqishiga juda kata salbiy ta’sir ko‘rsatadi va bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotidan beza boshlaydi, hatto bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotidan bosh tortishgacha olib kelish holatlari kuzatiladi.

Shunday ekan tarbiyachi pedagoglar zamon bilan hamnafas bo‘lib, qonunlar, qarorlar va islohatlar talablaridan kelib chiqib maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli ta’lim bilan ta’minalash uchun ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar, zamonaviy yondashuvar, AKT va raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etishga ularning innovatsion va ijodiy yondashuvi ko‘zlangan natijani qo‘lga kiritish imkonini beradi. Buning uchun bolani innovatsion fikrlashga, faol bo‘lishga, izlanishga, topqirlikka va ijod qilishga, kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or metod va vositalar, innovatsion ta’lim shakllari va xorijiy tajribalarni uyg‘unlashtirib o‘quv mashg‘ulotlarini yangi talablar asosida tashkil etilishi mazkur jarayonning samaradorligini belgilaydi.

Maktabgacha ta’limning sifati ta’limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlarni sifatli o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun maktabgacha ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga oid yagona talablarni ishlab chiqish lozim. Mazkur talablar tarbiyalanuvchilarga sifatli ta’lim berish va tayanch ko‘nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Ushbu talablar asosida bolalarga innovatsion bilim berish, ko‘nikma va malakarni tarkib toptirish jarayonlariga 3 yoshdan boshlab jiddiy e’tibor bilan yondashilishi va bolani 7 yoshgacha mazkur jarayonni uzluksiz davom ettirilishi orqali ularni maktabga tayyorlashni sifatli ta’minalash imkonini beradi.

“Ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablar” [2] asosida maktabgacha ta’lim muassasalari Davlat o‘quv dasturi – «Ilk qadam» yaratildi. Undagi yetakchi qarash maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari kompetentliligi masalasidir. Ya’ni dasturda maktabgacha ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv ustuvorlik qiladi. Dasturda bu yoshdagagi bolalarning quyidagi kompetensiyalarni egallashlari lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

- kommunikativ kompetensiya;
- o‘yin kompetensiysi;
- ijodiy kompetensiya;
- bilish kompetensiysi [2; 6-9-b.].

Dasturda ko‘zga tutilgan ushbu kompetensiyalar bolalarni har tomonlama rivojlanishiga, innovatsion faolligini oshirishga, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilishi muhim deb topilgan bugungi kunda ushbu sohani zamon talablari darajasida ko‘tarishda va rivojlanirishda mavjud ayrim kamchiliklarni kuzatilishi va ularni bartaraf etish zarurligini belgilaydi. Jumladan, mazkur ta’lim tizimida, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy ish quroli bo‘lgan dasturlar, metodik qo‘llanma va tavsiyalar hamda soha metodikasidan chetga chiqish, undan to‘liq foydalanimaslik hollari bolalarni ko‘p ma’lumotlarni o‘zlashtirgani holda biror masalada o‘z fikrini aytish yoki mustaqil qaror qabul qilishdan bir oz orqada ekanligi, har qanday mustaqil fikr talab qilinadigan savolga aytishi kerak bo‘lgan javobni berishda, diqqatini jamlay olmaslik, hayajonlanish, o‘ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, noto‘g‘ri gapirishdan cho‘chiydigan, tarbiyachisining og‘ziga qarab, undan yordam kutib turadigan, innovatsion fikrlashi, kreativ yondashuvi, mustaqil faoliyatga kirishimliligi va ijtimoiy faolligi sust bo‘lib shakllanganligi kuzatilmoqda. Bu o‘rindagi muammolarning kelib chiqish sababi ko‘proq tarbiyachining tajribasizligi, mas’uliyatsizligi va kasbiy-pedagogik tayyorgarligi yetarli

emasligi, o‘z sohasini fidoyisi sifatida yondasha olmasligi, innovatsion faoliyatga tayyor emasligi bilan belgilanadi. Chunki, bolalarni har tomonlama ma’naviy barkamol, yetuk, zukko, hozirjavob va innovatsion fikrlashga o‘rgatish bu tarbiyachi - pedagoglarning asosiy fuksiyasi sifatida belgilab berilgan. Bundan tashqari mактабгача та’лим bolalarni kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizim sifatida qaraladi.

Tadqiqotda belgilangan talablarni amalga oshirishda 5-7 yoshdagi bolalarni innovatsion fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish jarayonlarida variativ yondashuvlarga ustuvorlik berish vazifasidan ham samarali foydalanildi. Variativ yondashuv mактабгача yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda hamda o‘quv muhitining tashkil etilishi bilan bog‘liq ravishda tanlanadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi-pedagogning kasbiy mahorati va kompetensiyasi muhim omil hisoblanadi. Bunda tarbiyachi - pedagoglar bolalardagi beqarorlikni payqab, mavzuni o‘zlashtirishga to‘g‘ri yo‘naltirishi uchun samarali usul va vositalardan o‘rinli foydalanishi talab etiladi. Bu jarayonda o‘quv-tarbiyaviy faoliyat mazmuni yaxlit, biroq har bir bolaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan kelib chiqqan holda pedagogik improvizatsiyani taqozo etadi.

Yangi davr talablari asosida mактабгача та’лим yangi shakldagi ijtimoiy institut ham deb qaraladi. Shuning uchun ham bolalarning mактабгача та’лим tashkilotiga faol qatnashishi va muayyan bilimlarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, ularni intelektual rivojlanishlari uchun qulay bo‘lishi va tarbiyachi-pedagoglar shunga har tomonlama tayyor bo‘lishi zarur ekanligi bilan belgilahadi. Mактабгача та’limning sifatiga davr talablari nuqtai nazaridan qaralib borilishi va ushbu jarayonlarni muntazam tahlil qilinishi hamda innovatsion yondashish orqali takomillashuvini ta’minlash lozimligi bilan belgilanadi. Bu jarayonda barcha bolalar uchun teng imkoniyatga ega bo‘lgan dastlabki bilim va tushunchalar innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirilishi maqsadga muvoffiq sanaladi. Chunki, innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda kelajakka mas’uliyat hissini va o‘z - o‘ziga ishonchni shakllantirish, integrativligini, intelektualligini, kreativligini, kognitivlik, hamkorlik, faollik va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ifodalanadi. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi “Rim Klubi” ma’ruzasida innovatsion ta’limni an’anaviy, ya’ni “normativ” ta’limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsiflaydi. Normativli ta’lim “takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan” bo‘lsa, innovatsion ta’lim yangi vaziyatlarda birgalikda, hamkorlikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish esa, o‘z navbatida tarbiyachi-pedagogdan ta’limning yangi mazmun, shakl, metod va vositalari, yangi metodika va texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etdi.

Innovatsiyaga oid pedagogik nazariyada turli mualliflarning ta’riflari asosida (innovatsiya, yangilik, yangi tartib-qoidalar) qarashlar ilgari surilgan. G.M. Kodjapirova, A.Yu. Kodjapirova, V.V.Krayevskiy, V.N. Krayg G, Kozlova S.A., Kilikova T.A. I.P. Podlasiy, L.V. Pestalotsiyarning fikricha, “yangilik, yangi tartib-qoidalar, innovatsiya” so‘zları bir - biriga sinonim deb hisoblaydilar.

K.Yu.Belaya, S.F.Bagautdinova, V.S.Lazarev, A.V.Lorensov, M.M.Potashnik, O.G.Xomeriki va boshqalar, ushbu tushunchalarni guruhlashtirib, “yangi - yangilik”, “innovatsiya - yangilik kiritish” so‘zlarini sinonim hisoblashgan. Yangilik bu – aynan yangicha yondashish, vosita, yangi usul, uslub, texnologiya, dastur va h.k. Innovatsiyalar – yangiliklar bu – ushbu vositalarni o‘zlashtirish jaryoni sanaladi. Yangiliklar yuqorida qayd etilgan mualliflar tomonidan maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgarish, muhitga yangi mustahkam tarkibiy qismlarni (yangiliklarni) kiritib, tizimni bir holatdan ikkinchisiga o‘tishini yuzaga keltiradi. “Innovatsion jarayon”ga ta’rif berganda, K.Yu.Belaya, V.S.Lazarev, M.M.Potashniklar “faoliyat” turkumini (kategoriya)sidan foydalanishadi. Innovatsion jarayon bu – yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish, foydalanish va targ‘ibot qilishdir.

Olimlarning qarashida innovatsiya – rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan ijodiy mehnatning natijasi va maxsuli ekanligi o‘z ifodasini topgan. Demak, innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy -

madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi, ayni vaqtida u boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmi bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda "yangilik", "innovatsiya" va "yangilik kiritish" tushunchalarining mazmuni va mohiyati ta'lim - tarbiya jarayoniga yangiliklar olib kirish, yangicha yondashish, kreativlikni oshirish, integrativlikni ta'minlash natijasida uni takomillashtirishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.

Bir qator olimlarimiz innovatsiyani yangilik kiritish, tizim ichida o'zgarishlar yaratish, innovatsiyani – nazariya va amaliyatning muhim qismi sifatida qarab, ijtimoiy - madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi, deya yondashadilar.

"Innovatsiya tushunchasi mazmunan "yangi", "yangilik" tushunchalarining aynan o'zi emas. Istalgan yangilik, qachonki, amaliy faoliyatda o'zining keng qamrovli samarasini bersa va keng ko'lamli ehtiyoj ob'ektiga aylansagina, tom ma'nodagi innovatsiya deb atash mumkin bo'ladi", degan fikrlar ilgari suriladi. [3]

Innovatsion jarayon innovatsion tizimda amalga oshiriladi. Innovatsion tizim - bu bir - biri bilan o'ziga xos ravishda bog'langan insoniy, moddiy - texnik, axborot, me'yoriy - huquqiy va boshqa komponentlarni o'zgartirish g'oyalari, maktab pedagogik tizimidagi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar jarayonlari hamda ana shu o'zgarishlar natijalari yig'indisidir [4].

Shuningdek, "innovatsion fikrlash" tushunchasi, avval yechimi bo'lmagan masalalarning yangi, original yechimlarini o'ylab topishga, izlanishga, imkon topishga amaliy yordam beruvchi ijodkorlik faoliyati natijasida shakllanadi. Yuqoridagilarga asoslanib aytganda innovatsion fikr, nafaqat yangi ijodiy mahsulotni yaratish, balki, uni amaliyatga joriy etishda ijodiy fikrlashni va uni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo'llardan biri o'qitishning kontekstli ta'lim texnologiyasi asosida ularni faoliyatini modellashtirish usuli hisoblanadi. Bu texnologiya kompetensiyaga ega shaxsning har tomonlama barkamolligi masalalarini hal etishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". 2017 yil 7 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. 8.12. 2020 y. 802- son qaror. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan. (Mualliflar: Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Maximova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E.). -T.: 2018.- 59 b.
3. Perejovskaya A. N. Vklad Ya. A. Komenskogo v razvitie pedagogicheskoy nauki.//Innovatsionnye pedagogicheskie texnologii: materialy II Mejdunar. nauch. konf. (g. Kazan, may 2015 g.)- Kazan: Buk, 2015- S. 27-30.
4. Porter M. Clusters and the new economics of competition.//Harvard Business Review. Nov/Dec, 1998, vol.76, issue 6.-P. 77.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI

Karimov K. A.

T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
“Texnologiya ta'lifi nazariyasi va metodikasi”
bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mamlakatimiz uchun yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash hayotiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqqisodiy faravonligi fuqarolarning aqliy va axloqiy salohiyati hamda ularning ma'naviy darajada yuksak rivojlanishiga bog'liq.

Darhaqiqat, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta'lif va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish va bular orqali ta'lif-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta'lif tizimi qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Shu nuqtai nazaridan bugungi kunga qadar maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarblik kasb etmoqda edi.

Shuningdek, bolalarning qiziqish va intilishini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lif-tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish orqali ularni ona Vatanga muhabbat ruhida kamol toptirish masalasi davr talabidan ortda qolayotgani sababli maktabgacha ta'lifning boshqaruv tizimi qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Farzandlarimizning matabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lif tashkilotidagi tarbiyaga bog'liq. Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'lifning o'mni nechog'li muhimligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash, maktabgacha ta'lif tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, tizimning boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, maktabgacha ta'lif tashkilotlariga 5-6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu vazirlik maktabgacha ta'lif sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatlari davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Shuningdek, vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017 yil 30 sentabrdagi PF-5198-sont Farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2017 yil 30 sentabrdagi PQ-3305-sont qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lif tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda quyidagi keng ko'lamlar tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan va biz bularning ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz:

- maktabgacha ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, maktabgacha ta'lifni har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

- o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lif-tarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish;
- maktabgacha ta'lif tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyati samaradorligini oshirish;
- maktabgacha ta'lif tashkilotlarida davlat talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;
- nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirish, ular o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lif xizmatlari turlarini ko'paytirish.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lif turli yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash bilan birga, ularni sog'lom, har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lif olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi. Maktabgacha ta'lif bola 6-7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lif bola shaxsini maktabgacha bolalar ta'lif-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom, yetuk, maktabda o'qishga tayyor tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Shu o'rinda maktabgacha ta'lif tashkilotlarining aniq vazifalari, xususida, to'xtalsak.

Maktabgacha ta'lifning vazifalari:

- bolalarni xalqning boy milliy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilishini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta'lif jarayoniga tayyorlash;
- bolalar tafakkurini rivojlantirish o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarini tashkil etish va tugatish konunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonodon bolalar bog'chasi, (ham mustaqil muassasa sifatida, ham filial sifatida);
- bog'cha maktab majmuasi;
- tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan (til o'rganish, badiiy-estetik, sport va boshqa yo'nalishlar bo'yicha) maktabgacha ta'lif tashkiloti.
- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarini bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus maktabgacha ta'lif tashkiloti.
- sanitariya-gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirleri va muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi bolalar bog'chasi.
- aralash turdag'i maktabgacha ta'lif muassasi (aralash turdag'i muassasa tarkibiga sog'lomlashtiruvchi guruqlar turlicha miqdorda bo'lishi mumkin).

Yuqorida biz maktabgacha ta'lif tizimining mohiyati uning strukturasini ko'rib chiqqan bo'lsak. Endi esa **maktabgacha ta'lif tizimini rivojlantirishning ustuvor vazifalari, xususidagi fikrlarni keltirib o'tamiz.**

Bugungi kunda maktabgacha ta'lifni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lif-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.

So'nggi vaqtarda ushbu yo'nalishda maktabgacha ta'lifni boshqarishning axborot tizimini, shuningdek, bolalarni davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlariga Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portalini orqali qabul qilish

bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tizimlarini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoniga zamонави илг'ор о'қитиш шакллари, янги педагогик ва axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'limning hozirgi holati telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirishni, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining keng polosali Internet tarmog'iga ularishini ta'minlashni, ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllarini va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etish maqsadida quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda:

- vazirlik axborot xavfsizligining munosib darajasini ta'minlash, yagona axborot maydonini yaratish;
- maktabgacha yoshdag'i bolalarni rivojlantirish sohasida ilg'or xalqaro tajribani o'rganish, umumlashtirish va joriy etish maqsadida xorijiy mamlakatlarga o'quv safarlarini tashkil qilish;
- maktabgacha ta'lim sohasida dasturiy vositalar, axborot ma'lumotlar bazalari, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida qo'llash;
- maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimini (EMIS) yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ma'lumotlarni kiritish va tezkor almashish uchun mobil ilovalarni yaratish;
- o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta'lim resurslari, uydan turib masofali ta'lim berish va ota-onalar bilimini oshirish texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha yoshdag'i bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish;
- innovatsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, startap-loyihalar tashabbuskorlari, olimlar, moliyaviy institutlar va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtaisdagi o'zaro hamkorlikni kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;
- maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilimlari va malakasini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish;
- birinchi bosqichda har bir tuman tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotini, keyinchalik esa respublikaning har bir maktabgacha ta'lim tashkilotini Internet tarmog'iga chiqadigan personal kompyuterlar bilan ta'minlash.

Binobarin, sifatli maktabgacha ta'limni berish asoslaridan yana biri boshqaruva va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi.

O'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar bajarildi. Chunonchi, "Maktabgacha ta'lim" bakalavriat ta'limi yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilish kvotalari oshirildi, mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi.

Respublika maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv-metodik markazi negizida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi va unga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarida zamонави менежмент ва педагогик texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Navbatdagi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri bu – sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish.

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lамини oshirish bo'yicha vazifalarni hal etish birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari quvvatlarini oshirishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug‘ilishning o’sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turishni ta’minlab beradi, ammo uning o’sishiga yordam bermaydi.

O’zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘larining cheklanganligini e’tiborga olib, nodavlat sektor maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni o’sishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lishi, davlat-xususiy sherikchiligi esa xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini maktabgacha ta’lim tizimiga jalb etishning asosiy mexanizmiga aylanishi lozim. Maktabgacha ta’limning hammabopligrini, shu jumladan respublikaning olis tumanlarida hamda maktabgacha ta’limning standart shakllarini kengaytirish qiyin bo‘lgan joylarda ta’minalash yangi muqobil shakllarni joriy etish hisobiga ham amalga oshirilishi ham mumkin.

Keyingi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog‘lom ovqatlanishini, ular sog‘lig‘ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish xizmatlari bilan ta’minalash, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, sog‘lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta’minalash bo‘yicha vazifalarni hal qilish uchun davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bunday xizmatlarni ko‘rsatish qisman autsorsing shartlari asosida tadbirkorlik sub’ektlariga berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tizimidagi tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar faol qo‘llanilmoqda.

Navbatdagi eng muhim vazifalardan yana biri bu – maktabgacha tarbiya tashkilotining oila bilan ish olib borish jarayonida aniq maqsad. Ota-onalar bilan hamkorlik asosida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilib, ular bilan bog‘liq bo‘lgan shakl va usul asosida rejali hamda izchil ishlarni olib borish maqsadga muvofiqsir. Ana shunday bolalar bog‘chasi xodimlarining ota-onalar va oilalar bilan hamkorlikdagi ishlarning keng tarqalgan shakl va usullari mavjud; bularga:

- ota-onalar va oilalar bilan yakkama-yakka ishslash. Ta’lim-tarbiya jarayonida bu tur katga ahamiyat kasb etib, yaxshi natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy hususiyatlarini o‘rganib, tarbiyaviy jarayonda inobatga oladi. Buning natijasida tarbiyachi va ota-onsa o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat, do‘stlik munosabatlari o‘rnataladi;

- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlarni. Bular ota-onalarning guruhli va umumiyligi majlisiga, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, (bolalar bog‘chasi xodimlarining ota-onalar bilan birgalikda amaliy faoliyati) savol va javob kechalari;

- ko‘rsatmali ishlarni. Ishning bu turini: ko‘rgazmalar, fotomontajlar, bolalarning ishlarni namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiyaning turli tashkilotlari bo‘yicha materiallar solingan papka va shu kabilarni qamrab oladi;

- bolaning oilasini borib ko‘rish va oila a’zolari bilan yaqindan tanishish;

- ota-onalarga pedagogik ta’lim berish va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Ko‘rinib turganidek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topish, oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash asosiy poydevordir.

Xulosa shuki, bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish, har xil yosh guruhlarda bolalar hayotini to‘g‘ri tashkil etishni ta’minalaydi. Fikrimizcha, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta’lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg‘ulotlarda ta’lim berish orqali, ijodiy va qoidali o‘yinlar, ularning mustaqil faoliyati, o‘z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sayrlar, gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ta’lim-tarbiya ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog‘chasi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312 Qarori, 2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5198-sون Farmoni, 2017 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sون Qarori, 2017 y.
4. Sh. Shodmonova Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.O‘quv-metodik qo‘llanma – T., 2008 y.
5. Nishonova Z.T., Alimova G.K.. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI “ MILLIY HUNARMANDCHILIK” MAVZUSI BILAN TANISHTIRISH

Karimova D. T.

Toshkent pedagogika kolleji bosh o‘qituvchisi.

Yer sayyorasidagi mamlakatlar undagi odamlarning yashash tarzi, madaniyati, uning hayvonot dunyosi, orollar haqida tushunchani avvalo sayohatchilar o‘zlarining uzoq safarlarida qadamba-qadam, butun Yer yuzini aylanib o‘rganishgan. Bolajonlarimizning hammasi ham qadimiylar va navqiron Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarni borib ko‘rishmagan. Shuning uchun biz — muallimlar ularni bu shaharlar va milliy hunarmandchiligimiz bilan tanishtirish maqsadida «Buyuk ipak yo‘li» nomli turkum mavzular haqida tushunchalar berib borsak, ayni muddao bo‘lar edi. Buning uchun Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga ekskursiyani videotasmalar va fotosuratlar orqali uyuştirish mumkin. Bunday sayohat-mashg‘ulotni ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borish lozim. O‘zbekistonimizning milliy-madaniy merosini yoritishda bolalarga beradigan bilim oson o‘zlashtirilishi, tushunarli bo‘lishi uchun turli metodlardan foydalanib, bu bilimlarni bolalar ongiga yetkazish tarbiyachining mahoratiga bog‘liq. U mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rayotganida ana shu amallarga rioya etmoqni o‘ziga maqsad qilishi kerak.

«Buyuk ipak yo‘li»ga kiruvchi Samarqand shahri bilan quyidagicha tanishtirish mumkin: (Maktabga tayyorlov guruh)

Tarbiyachi bolalardan so‘raydi: Bolalar, siz «Buyuk ipak yo‘li» degan nomni qayerda eshitgansiz? (Metroda «Buyuk ipak yo‘li» nomli bekti bor) Toshkent metrostansiyasidan biri shunday deb nomlanadi, lekin bu nom nimani anglatishini bilasizmi? – Unda diqqat bilan eshititing.

Buyuk ipak yo‘li — Xitoy, Hindiston, Eron, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi qadimiylar savdo yo‘lidir. Bizning O‘zbekistonimizdagи “Buyuk karvon yo‘li”ning asosiy yo‘nalishlari Farg‘ona, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlari hisoblangan.

Bugun men sizlar bilan buyuk savdo yo‘liga kiruvchi O‘zbekiston hududidagi Samarqand, shahri haqida suhbatlashamiz.

“Samarqand-qadim obidalar shahri”

Bunda maqsad qilib quyidagilarni olish mumkin: Bolalarga O‘zbekistonda savdo-sotiqlar qadim-qadimdan taraqqiy etgani va «Buyuk Ipak yo‘li»ga kiruvchi markaziy shaharlardan biri Samarqandning tarixiy-me’morchilik san’ati, hunarmandchiligi va madaniyati haqida ma’lumot berish. Bunday tanishtiruv orqali bolalarning estetik ruhdagi tarbiyasini rivojlantirish, tevarak-atrofdagi go‘zallikni idrok qilish va sevdirish, jonajon tabiat chiroyi va boyligini, tarixi va arxitektura yodgorliklarini, san’at asarlarini tushunish va qadrlashni o‘rgatish.

Mashg‘ulotning taxminiy matni: Bolalar, O‘zbekistonimiz qadim-qadimdan savdo-sotiqlar taraqqiy etgan go‘sha. Buyuk karvon yo‘liga kiruvchi uning asosiy shaharlardan biri bu — Samarqanddir. U — dunyodagi eng ko‘hna shaharlardan biri. Samarqand qadimiylar tijorat yo‘li

uchun chorraha bo‘lib hisoblangan. Bugun biz sizlar bilan ana shu ko‘hna va hamisha navqiron shahar haqida, uning tarixiy obidalari haqida suhbatlashamiz. Bolalar, diqqat qiling, mana bu surat biz hikoya qilayotgan Samarqand shahri tarixi haqida so‘zlaydi.

Har bir shaharning o‘ziga xos tarixiy markazlari bo‘ladi. Samarqanddagi markaziy joylardan biri Registon maydonidir. Uni uch ulug‘vor madrasa uch tomondan o‘rab turadi. Bular — Ulug‘bek, Sherdor va Tillaqori madrasalaridir.(madrasalarning fotosur’atlari (yoki prezентatsiya) ko`rsatiladi va bolalar e`tibori unuing naqshlariga qaratiladi).

Samarqandning eng gullagan va ravnaq topgan vaqt Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqargan vaqtiga to‘g‘ri keladi. Amir Temur go‘zal inshootlarning qad ko‘tarishiga, fanning, ma’rifatning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan inson.

Amir Temurdan keyin Samarqandda yana bir qancha ko‘rkam inshoatlar bo‘y ko‘rsatdiki, bu ishda nabirasi Mirzo Ulug‘bekning hissasi katta bo‘lgan. Rasmlardan ma’lumki, me’morchilik va hunarmandchilik san’ati Samarqandda yaxshi rivojlangan ekan.

Qadimdan Samarqandda kulollar o‘zlari yasagan ro‘zg‘or buyumlari (piyola, kosa, tovoq, lagan, ko‘za, xurmacha, tog‘ora, xum, tandir, turli xil shamdonlar va o‘yinchoqlar) bilan mashhurdirlar. Dunyoning turli burchagidan kelgan sayyoohlар bu buyumlarni sevib xarid qiladilar. «Buyuk Ipak yo‘li» orqali ham bu xaridorgir mahsulotlar G‘arb davlatlariga yetkazilgan.

Samarqandning noyob nafosat yodgorliklari sizga yoqdimi?

Kulolchilik mehnati, kulolchilik ro‘zg‘or buyumlari va o‘yinchoqlari bilan tanishuv ishi quyidagicha mazmunda bo`lishi mumkin.

Bunda maqsad qilib quyidagilarni olish mumkin: Bolalarga Samarqand qadimdan savdo va hunarmandchilik markazi bo`lib uning madaniyati hamda bu yerda ishlab chiqariladigan mahsulotlar haqida tushuncha berish.

Kulolchilik mehnati va kulol idishlari yasalishi bilan bolalarni tanishtirish va amalda bolalar bilan kulol uy-ro‘zg‘or buyumlari yoki ixtiyoriy o‘yinchoqlarini yashashda mashq qilish.

Mashg‘ulotga quyidagi jihozlar tavsiya etiladi: Kuloldan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari va o‘yinchoqlardan namunalar: kulolning kulolchilik dastgohida ishlayotgani tasvirlangan fotosurat, loydan idish va o‘yinchoqlar yashash uchun asbob-uskunalar.

Mashg‘ulotning taxminiy matni: *Tarbiyachichi*: Bolalar o‘tgan mashg‘ulotimizda sizlar bilan «Buyuk ipak yo‘liga» kiruvchi qaysi shahar haqida suhbatlashgan edik? — Samarqanddagi ajoyib me’morchilik san’ati va bir qancha ko‘rkam inshootlarni qurilishida kimlarning ulkan hissasi bor ekan? (Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek)

Demak, me’morchilik san’ati Samarqandda yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu binolarning ba’zilari hozirgacha ham saqlanib qolgan. Me’morchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik va uning tarmoqlaridan biri kulolchilik haqida bilishni istaysizmi?

Qadimdan Samarqandda kulollar o‘zlari yasagan ro‘zg‘or buyumlari (bular: piyola, kosa, tovoq, lagan, ko‘za, xurmacha, tog‘ora, xum, tandir, turli xil shamdonlar va o‘yinchoqlari) bilan mashhurdirlar. Mana bu ajoyib idishlarga va o‘yinchoqlarga qarang, bularni kulolchilar yaratganlar.

Uni qanday yasalishini men tushuntirib beraman. Bunday idishlar maxsus tuproqlardan yasaladi. Avvalo kulol mahsulotlari uchun loy tayyorlanadi.

Loy 2 soatga oyoq bilan tepilib, mushtlab pishitiladi, keyin nam matoga o‘rab qo‘yiladi. Keyingi kun loy yana 1 soatga pishitilganidan so‘ng idish tayyorlashga kirishiladi. Loy qancha kop pishitsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo‘ladi. Kulol idishlarini tayyorlashda asosiy qurol bu – charx. Kulolchilar charxi katta va kichik ikki yog‘och g‘ildirakdan iborat bo‘lib, yog‘och o‘q bilan o‘zaro birlashtirilgan. Kulol pastdagи katta g‘ildirakni oyog‘i bilan aylantirib turadi, yuqoridagi g‘ildirakning ustiga loy qo‘yadi va unda ma’lum bir idishni tayyorlaydi.

Bolalar kulol charxi nimaga o‘xshar ekan. Biz loy ishi mashg‘ulotimizda nimadan foydalanamiz? Tayyorlangan idishlar quritilib humdonda qizdiriladi. Idishlarning turiga ko‘ra, humdon ham katta-kichik bo‘ladi. Tayyor idishlarga bezak beriladi. Loydan idish va o‘yinchoqlarga bezak berishda biz nimalardan foydalanamiz?

B/J: Mo‘yqalam, guash, loydan o‘yinchoqlar yasashda haykaltaroshlarni qalamchalaridan foydalanamiz.

Tarbiyachi: Idishlarga bezak berilgach yana bir marta humdonda qizdiriladi.

Tarbiyachi: Hammangizni stolingizda dastgoh, loy bo‘laklari va barcha loy ishi uchun kerak bo‘lgan asbob-uskunalar mavjud hozir esa o‘z joylaringizga borib o‘tirib ko‘rib turgan kulol idishlari va o‘yinchoqlardan xohlaganingizni yasashingiz va unga bezak berishingiz mumkin.

Mashg‘ulot yakunida bolalar yasagan uy-ro‘zg‘or buyumlari va o‘yinchoqlari haqida she’r va topishmoqlar aytishlari mumkin. Bolalar, mana sizlar bilan betakror Samarqand shahri haqida ozginagina suhbatlashdik. Shu qisqa suhbat ham o‘ylaymanki, sizga o‘z Vatanimiz bilan iftixor qilish, u bilan g‘ururlanish hissini uyg‘otadi.

Tarbiyachi uchun ma`lumot:

(Bu yo‘l orqali qadimiylar Xitoydan Hindistonga, Osiyo va Markaziy Osiyoga asosan ipak eksport qilinganligi sababli u «Ipak yo‘li» nomi bilan shuhrat topgan. «Buyuk ipak yo‘li» miloddan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi yarmidan to milodiy XV asrgacha— suv yo‘llari qaror topgunga qadar Sharqni G‘arb bilan bog‘lagan asosiy savdo yo‘li hisoblangan va uzunligi qariyb 12.000 kilo-metrni tashkil qilgan. Bu yo‘l orqali Xitoydan tashqi savdo uchun ipak eksport qilingan bo‘lsa, Xitoya esa har xil gazlama, gilam va palaslar, oyna, metall, zebziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar o‘lkamiz hududidan ot va tuyalarda olib borilgan. Esda saqlang, Buyuk karvon yo‘lining O‘zbekistonimizdagi asosiy yo‘nalishlari Farg‘ona, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlari hisoblangan.

XV asrdan boshlab suv yo‘llarining kengayishi natijasida tijorat ishlari dengiz orqali amalga osha bordi va bu yo‘lning mavqeyi biroz pasaydi. Buyuk ipak yo‘li tinchlik, barqarorlik, to‘kinlik va birdamlik bo‘lib xizmat qilgan va butun dunyoga dovrug‘ taratgan. Endi uning shonshuhrati qayta tiklansa, nafaqat Sharqu G‘arbni, balki moziy bilan bugunni va munavvar ertani birlashtiradi. Ayni paytda uning ildizi chuqur madaniy-ma’rifiy hamkorlikni, qon-qardoshlik va do‘stlik aloqlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Iqtisod alifbosi” 1 sinflar uchun.
- 2.O‘zbekiaton tarixi 8 sınıf
- 3.O‘zbekiston ensiklopediyasi II-III tomlar.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM-TARBIYANING AHAMIYATI

Kuldasheva G. D.

MTTVMQTMOI, “Ilk va maktabgacha yoshdag‘i bolalarni rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriysi”ning mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mustaqil Respublika sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘ziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda katta ahamiyatga ega. Bu o‘ziga xoslik eng avvalo ta’lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya’ni o‘zimizning juda boy o‘tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o‘z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy, axloqiy mazmunga ega bo‘lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qaratish baxtiga muyassar bo‘ldik. Bu narsa hammamizning qalbimizda yuksak g‘urur xislarini to‘lqinlantiradi. Mana shu sharoitda hammamizdan juda katta ko‘tarinkilik bilan jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy g‘urur ruhida tarbiyalashimizni taqozo qiladi.

Rivojlanayotgan har bir shaxsda muayyan darajada intellektual salohiyatning yuzaga chiqarilishi muhimdir. Ayniqsa, maktabgacha yoshidagi bolalarda aqliy faoliyat jarayonida shaxs sifatlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Bugungi kunda psixolog, pedagog va fiziologlarning asosiy diqqat-e'tibori maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan. Pedagogik faoliyat va ilmiy tadqiqotlarning natijalarini ko'rsatishicha, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda keng psixofizik imkoniyatlar paydo bo'ladi va tarbiyalash orqali bolaning amaliy, aqliy hamda badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy va ma'naviy qadriyatlar, odatlar, tasavvurlar shakllanadi, xarakter xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi.

Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, eng avvalo o'zimizda bu sifatlarni mujassamlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish, yangicha uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun biz bu masalani yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshirishimiz mumkin. Xo'sh, yangi pedagogik texnologiyaning o'zi nima, unga qanday erishib bo'ladi? Bu jarayon pedagogning bosqichma-bosqich pedagogik mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko'tarilish kabi nihoyatda qiyin, mashaqqatli mehnatining samarasi sifatida har bir bola erishishi mumkin bo'lgan mahorat cho'qqisidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik innovatsion texnologiyalardan samarali va mazmunli foydalanish avvalo, tinimsiz mehnat va har bir pedagogning o'z ustida ishlashini taqozo qiladi. Bu ish dastlab, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishdan boshlanishi lozim.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va yoyish – pedagoglar uchun o'z kasb mahoratlarini takomillashtirishning eng qulay shaklidir. Ilg'or pedagogik tajriba pedagogning o'z faoliyatiga ijodkor va novatorlarcha yondoshib, bolalarga ta'lim va tarbiya berishning yangi yo'llarini izlab topishdir. Ta'lim-tarbiyasi jarayonida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish juda katta samara beradi. 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash tajribalarini, ularning odob axloq haqidagi tushunchalarini o'rganish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra pedagoglarning ota-onalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi, suhbatlar o'tkazish va ularning qiziqarli va mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalashda samarali pedagogik-psixologik usullarni izlash va amalda qo'llash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning ularning ish qobiliyatiga, binobarin o'quv materialini tez mustahkam va tabiiy o'zlashtirishlarni shakllantirishga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi ba'zi metodlarini ko'rib chiqamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar biror materialning qanday bayon etilayotganligiga nisbatan befarq emaslar. Bir ohangdagi nutq bolalarda befarqlik va mudroq holatni vujudga keltiradi. Oqibatda axborot qabul qilinishi qiyinlashadi yoki butunlay qabul qilinmaydi.

Bog'cha bolalari bilan ishlashda hozirgi zamon yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish: masalan, har xil zamonaviy qiziqarli media ilovalardan, internet saytlaridagi o'quv dasturlar, video roliklar, multfilmlar, qiziqarli mashg'ulotlarga asoslangan holda olib borilishi lozim. Ular bilan ishlashda illyustratsiyalar, suratlar, qiyos va misollardan foydalanish juda muhim. Bularning barchasi aniq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida shuni nazarda tutish lozimki, bolalarda jamoaviy hamkorlik, o'zaro yordamga yo'naltirilgan faoliyat usullarini shakllantirish zarur, shunda ijtimoiy xulq-atvor motivlari kuchli namoyon etiladi, bolaning emotsiional kechinmalari va xulq-atvorini boshqarishdagi yo'naltiruvchi faoliyati rivojlanadi. Xulq-atvorining namoyon etilishida dastlab bolada o'yin faoliyatidan qoniqish yoki qoniqmaslik emotsiyalar orqali namoyon bo'lsa, keyinchalik bu faoliyati natijalarining ijtimoiy motivlar, estetik ideallar, qadriyatlarga qay darajada mos kelishi bilan bog'liq murakkab kechinmalar tarzida paydo bo'ladi.

Masalan, tarbiyachi bolalarni biror bir ertak bilan tanishtirmoqchi bo'lganda, bolalar ertakdagi ijobiy qaxramonlarni, undagi vaziyatlarni tahlil qilgan holda yaxshi qabul qiladilar. Tarbiyachi ertakni ta'sirchan va ifodali so'zlab bersa, unga nisbatan qiziqish yanada ortadi. Bundan tashqari ushbu ish turi bolani intizomga o'rgatadi va ijobiy sog'lom muhit yaratadi.

Ertakning mazmunini tushunib his etgan bolada bilimlarini oshirishga nisbatan tabiiy ehtiyoj paydo bo‘ladi. Ertakni tinglab bo‘lgandan so‘ng bolalar o‘zlarining ilk taassurotlarini erkin so‘zlab berish uchun qulay sharoit vujudga keltirish lozim. Bu o‘rinda har bir bolaning fikrini eshitish muhim. Zero bu narsa ularda o‘z so‘ziga nisbatan mas’uliyat, mustaqillik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Pedagog aytilgan fikrlarni tahlil qilishi va buni nazorat bilan bajarishi lozim. Iloji boricha ko‘proq bolaning ko‘rish tasavvuriga murojaat qilish lozim.

Agar bolalik davrida tegishli emotsiyal va intellektual sifatlar u yoki bu sabab orqali yetarlicha rivojlantirilmasa, keyinchalik ushbu kamchiliklarni tuzatish juda qiyin bo‘ladi. Bolalik davrida aqliy jihatdan rivojlantirishga yetarli e’tibor berilmasa, natijada bir tomonlama rivojlanishga olib kelishi va bolaning xarakterida ijtimoiy muhitga, shaxslarga nisbatan empatiya yetarli darajada namoyon etilmay qolishi mumkin.

Ushbu keltirilgan psixologik jihatlar bola psixik olamining naqadar murakkab, rang-barang va ta’sirlanuvchanligidan dalolat beradi. Bu yoshda bolaning psixikasi o‘zgaruvchan bo‘lgani bois aqliy faoliyatni ham hissiylikdan ajralmagan tarzda, ya’ni ularning mehrini, hurmatini qozongan holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Pedagog maktabgacha yoshidagi bolalar bilan muntazam munosabatga kirishar ekan, ushbu psixologik jihatlarni doimo nazarda tutgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar qo‘lida, shu jumladan bolalar ish qobiliyatini oshirish masalasida qudratli imkoniyatlar mavjud va undan to‘g‘ri foydalanish zarur zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. M.Voxidov. “Bolalar psixologiyasi”. Toshkent, 1992-y.
4. P.Leventuyev. A.Askarxujayev. V.Chudnovskiy. M.Voxidov. “Bolalar psixologiyasi ocherklari”, Toshkent, 2002-y.
5. E.G‘oziyev. “Psixologiya”. Toshkent. 2018-y.

MAKTABGACHA TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK MULOQOTNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO’LLARI

Mamatova H. E.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institute katta o‘qituvchisi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar ta’lim-tarbiyasida tarbiyachi pedagogik muloqot orqali o‘zining eng yaxshi fazilatlari va hatti-harakatlarini namoyon etadi. Tarbiyanuvchilar bilan bo‘lgan ijobiy munosabat natijasida ularda ideal shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bolaning tarbiyachi shaxsi haqidagi qarashlari, uning hatti-harakati, pedagogik mahorati, uning ma’naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. Tarbiyachi ob’ekti bilan, bola sub’ekti o‘rtasidagi qattiq avtoritor intizom ham pedagogik muomala jarayoniga salbiy ta’sir etadi, natijada bolaning ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi. Pedagogik muloqot madaniyati tarbiyachi faoliyatini muvaffaqiyatga yo‘naltiruvchi eng muhim vosita, tarbiyachining muhim fazilati bo‘lmish uning muloqot madaniyati va muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o‘ziga xos ta’rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala bolalar qalbiga yo‘l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan o‘zaro aloqa bog‘lashga qaratilgan tarbiyachining pedagogik qobiliyatidir. Muomala tarbiyachi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni

mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada tarbiyachi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- tarbiyachida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so‘z va ohangni tanlay bilishi va ta’sir o‘tkaza olishi;
- muomala sub’ekti bo‘lmish bola diqqatini jalg qiluvchi nutq, pauza, harakat, imoshoralarni o‘z o‘rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta’sirni bilishi;
- bolaning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalg etishi, mashg‘ulotni boshlashdan oldin bolalarni ta’lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- bolaga og‘zaki, o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. Tarbiyachining nutqi ravon, bola ongiga ijobiy ta’sir qiladigan bo‘lishi.

Nihoyat, tarbiyachining bolalar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u bolalarning hatti-harakatlardagi chuqur ma’no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o‘zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va bolalarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. Tarbiyachining bolalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o‘rnini to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o‘zaro munosabatlar doirasida sodir bo‘ladi. Boshqarish vositasi bo‘lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo‘ladi. Tarbiyachi muloqot asosida o‘z tarbiyanuvchilariga ma’lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma’lum qiladi. Bunda tarbiyachi tomonidan yo‘l qo‘yiladigan arzimas bir xatolik,adolatsizlik, qo‘pollik bolalar bilan o‘zaro muloqotning buzilishiga sabab bo‘ladi va og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Tarbiyachining bolalar bilan o‘zaro muloqotida quyidagi vositalar muhim ahamiyatga ega:

- pedagogik muloqot jarayonida tarbiyachi tarbiyanuvchi ob’ekt bilan o‘ziga xos moslashish jarayoni. Bunday moslashuvda tarbiyachi o‘zining mimika, pantomimika, notiqlik san’ati, ta’sir o‘tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- tarbiyachining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo‘lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- bolalar bilan muloqot jarayonida tarbiyachining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;
- tarbiyachi bolalar bilan o‘zaro muloqotga kirishar ekan, ular hissiyorida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo‘ladi.

Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz tarbiyachidan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir tarbiyachining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. Tarbiyachi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma’naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me’yordir. Tarbiyachining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillashib boradi. Tarbiyachida nutqiy qobiliyat bo‘lishi lozim. Uni rivojlantirish faqat tarbiyachining shijoatiga bog‘liq. Shu qobiliyat tufayli tarbiyachining nutq madaniyati ham shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab tarbiyachisining psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1999.- 29 b.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.
3. G‘oziev E. Bolalarlarning o‘quv faoliyatini boshqarish. T.: – “Tarbiyachi”, 2004. – 104 b.
4. G‘oziev E. Psixologiya. – T.: Tarbiyachi, 1994. – 224 b.

INSON OVOZI DIAPAZONLARI BILAN TANISHISH

Matyakubov I. B.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti, PhD.

Inson ovoz diapazonlari bilan tanishish- Xonanda ovozi fiziologik tuzilishiga qarab bolalar, ayollar, erkaklar ovoziga bo‘linadi.

Bolalar ovozida tovush o‘zining yengilligi, tiniqligi, xarakterli jarangdorligi va nozikligi bilan ajralib turadi. Bolalar ovozi *diskant* va *altga* bo‘linadi. Bolalar xorida diskant ovozga odatda yuqori (soprano) partiyalari topshiriladi. Bolalar xorida alt past partiya hisoblanadi. Bolalarning ovoz xarakterini aniqlashda har bir yoshning o‘z xususiyatiga ega bo‘lgan “ishchan diapazoni” borligini hisobga olish lozim.

Bolalarning ovoz diapazoni:

2-3 yoshli bolalarning diapazoni mi¹ – lya¹

3-4 yoshli bolalarning diapazoni re¹ – lya¹

4-5 yoshli bolalarning diapazoni re¹ – si¹

5-6 yoshli bolalarning diapazoni re¹ – si¹ (do²)

6-7 yoshli bolalarning diapazoni do¹ (re¹) – do²

7-10 yosh bolalarda umumiy diapazon bir qancha keng bo‘ladi: kichik oktava “lya” dan 2-oktava “re” gacha.

O‘rta yoshda (11-13 yosh) “ishchan diapazon” kengaygan bo‘lib, 1-oktava “do” dan 2-oktava “mi, fa” gacha.

Mutatsiya davrida o‘g‘il bolalarda diapazon chegarasi keskin o‘zgaradi; ovozi bo‘g‘iq, intonatsiyasi noaniq, tez charchaydigan bo‘ladi.

17-18 yoshlarga kelib, ovoz kuchi kattalar ovozining kuchiga yaqinlashadi va 20 yoshlarga borib to‘liq shakllanadi.

Ayollar ovozi. *Koloraturali* va *lirik-koloraturali soprano* eng yengil va harakatchan ovozlar bo‘lib, yuqori registrlardagi tovushlarning tiniq, jarangdor va yorqinlik xususiyatiga ega. Texnik imkoniyatlari va tembr jihatidan fleyta ovoziga o‘xshab ketadi. Bu ovozlarning ovoz hajmi 1-oktava “do” dan 3-oktava “fa” gacha.

Lirik soprano ilq, yoqimli tembriga ega bo‘lib, yumshoq sadolanadi. O‘rta va yuqori registrlarda ta‘sirchan ifodali tovushlarga ega. Ovoz hajmi 1-oktava “do” dan 3-oktava “do” gacha.

Lirik-dramatik soprano diapazoni to‘liq, bo‘rttirilgan, kuchli yangrashi bilan ajralib turadi. Xorning 2-soprano partiyasini tashkil etadi. Ovoz hajmi 1-oktava “do” dan 2-oktava “lya” gacha.

Lirik va dramatik messo-soprano dramatik soprano va kontralto o‘rtasidagi ovoz bo‘lib, quyi registrdagи tovushlarga ega. Tembr jihatidan tiniq, chiroyli hisoblanadi. Ovoz hajmi kichik oktava “lya” dan 2-oktava “fa” gacha.

Kontralto ayollarning eng past ovozi bo‘lib, quyuq tembriga ega, asosan quyi registrdan iborat. Ovoz hajmi kichik oktava “fa” dan 2-oktava “mi” gacha.

Erkaklar ovozi. *Tenor-altino* erkaklarning eng baland ovozi bo‘lib, yengil va nozik tembriga ega. Yorqin falsetli (yuqori registrda) sadolanishi uning o‘ziga xos xususiyatidir.

Lirik tenor yengil, ravshan, nafis tembriga ega va o‘ta ifodaviyligi, texnik jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi. Ovoz hajmi 1-oktava “do” dan 3-oktava “do” gacha.

Lirik-dramatik va *dramatik tenor* kuchli, to‘liq va shirali ovozlar hisoblanib, quyi registrda to‘la va aniq yangraydi. Ovoz hajmi 1-oktava “do” dan 2-oktava “lya” gacha.

Xarakterli tenor opera amaliyotida uchraydi. Bu ovozga “chuqur ta‘sirchan” xarakterli elementlarga ega kichik partiyalari topshiriladi.

Lirik bariton tenor va bas ovozlari o‘rtasidagi ovoz bo‘lib, kuychan, ohangdorligi va yumshoqligi bilan ajralib turadi. Ovoz hajmi katta oktava “lya” dan 1-oktava “sol” gacha.

Dramatik bariton yangrashi jihatidan bas ovoziga yaqin turadi. Unda kuchli jarangdorlik va shiradorlik mujassam. Ovoz hajmi katta oktava “sol” dan 1-oktava “fa” gacha.

Bas-bariton – baland, kuychan bas. Uning past tovushlari kuchsiz, yuqori tovushlari esa erkin va shirali eshitiladi. Ovoz hajmi kontroktava “lya” dan 1-oktava “do” gacha.

Bas ovozining turlari: bas-profundo, bas-kantanta, bas-buffo, xarakterli bas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliev N. Musiqa savodi alifbosi. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2003.
2. Nabijon Ermat. Sakson sakkiz sara soz.-T; Tamaddun nashriyoti, 2003.
3. Toshmatov O‘. Cholg‘ushunoslik. – T.; A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.
4. Safarov O. Folklor – bebaho boylik. – T.: Muharrir, 2010 .

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOG TARBIYACHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI

Meliyeva Ya.X.

MTTDMQTMOI “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasи katta o‘qituvchisi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odamzod taraqqiyoti bevosita ijtimoiy tuzum va jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqligining guvohi bo‘lamiz.

Jamiyatning turli soha va bo‘g‘inlaridagi o‘zgarishlar: ilmiy, madaniy, axloqiy kabi qadriyatlarni yangi ko‘rinishlarini takomillashuvi, turli islohotlar va ilg‘or innovatsion yo‘nalishlari asosida amalga oshadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, malakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zaminida milliy qadriyatlarimiz hamda mentalitetimizga tayanilganligini ko‘rish mumkin.

Ma‘lumki, har qanday jamiyat taraqqiyoti asosini hamkorlikdagi ilmiy faoliyat, kashfiyotlar, tadqiqotlar, o‘tgan davr olimlarimizning ilmiy izlanishlari, yutuqlari tashkil etadi. Boshqacha aytganimizda o‘tgan davr va hozirgi, hamda kelajak taraqqiyoti o‘rtasida o‘zaro dialektik bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu bog‘liqlik maktabgacha ta’lim tizimi, uning mazmunida o‘z ifodasini topgan. Hayotning dialektik bog‘liqligi va taraqqiyoti har bir davr insoniyatning borliqqa faol yoki passiv munosabatlarini ekvivalent ifodasini yoritib bergen.

Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichi, uning maqsadi inson muammosi, uning turmush tarzini o‘zgartirishi, yaxshi hayot uchun kurashishi, yangilikka intilish, zamonaviylikka erishishi dialektik qarama-qarshiliklarning asosini tashkil etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyat taraqqiyoti ta’limning mohiyati bilan uzviy bog‘liqidir. Ta’limning mohiyati faqatgina iqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini aks ettirib qolmay, balki ko‘p aspektli bo‘lib insoniyat, jamiyat taraqqiyotida ifodalanadi. Ta’lim shaxs dunyoqarashi, ongi, axloqi malakasini tarkib topishida aks etadi.

Ta’lim taraqqiyot darajasi, ta’lim tizimi davlatimizning siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotiga, insonlar turmush tarziga, oilaviy hayotga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir narsani alohida qayd etib o‘tish lozimki, inson butun hayoti davomidagi bilimlarning oltmish foizini maktagacha yoshda, ya’ni yetti yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. Demak, insonning turli sohalardagi yutuqlari maktabgacha ta’lim tashkilotida olgan bilimlarining ko‘lami va sifatiga bog‘liq bo‘lar ekan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilgan samarali va sifatli ta’lim insonning yuqori pog‘onaga ko‘tarilishi ijtimoiy hayot piramidasini cho‘qqilarini zabt etish imkoniyatini tug‘diradi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim sohasiga, ilm, fanga e’tiborni asosi deb qarash iqtisodiy investetsiya kiritish, kapital mablag‘ qo‘yish bilan teng hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tizimining bugungi vazifasi mustaqil fikrga ega bo‘lgan, o‘z

“Men”iga ega shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida zamonaviy ta’lim asosida mustaqil tafakkuri mantikiy tafakkur zaminida kamol toptirish nazarda tutiladi. Mantiqiy fikrlash – ongli ravishda, ilmiy nazariy asoslarga tayanib ratsional ravishda fikrlash demakdir. Taniqli psixolog Vlulgotskiyning ta’biriga ko‘ra, fikrlashda matiqning yo‘qligi fikrlash jarayonida mustaqillikning erkinlikning, onglilikning yo‘qligi hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash insonning asosiy oliv xususiyatlaridan biri bo‘lib, uning ruhan sog‘lomligining asosiy belgilaridan sanaladi. Mantiqiy fikrlash ilmiy nazariy bilimlar, ijtimoiy hayot hodisalarini teran anglash, idrok etish asosida yuzaga keladi.

Aynan ta’limdagagi yuzakiliklar, maktabgacha yoshdagi bolalarning ongi, tafakkurini tarkib toptirishga ijodiy yondashish maktabgacha pedagogikaning dolzarb muammosi hisolanadi. Mavjud ijtimoiy talablar asosida bugungi kunda didaktik jarayonda maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini shakllantirish bosqichlarini, uning pedagogik asoslari, mustaqil tafakkur shakllanish omillarini ilmiy pedagogik, psixologik nuqtayi nazardan talqin etish bolaning dunyoqarashini shakllantirishdagi ilmiy pedagogik mohiyatlarga tayanib ish ko‘rish talab etilmogda.

Psixolog olima R.Qadirova tashqi olam obyektlari haqida o‘ylash va tafakkur jarayoni haqida fikr yuritish o‘rtasida prinsipial farq borligini ta’kidlaydi. Binobarin, har bir pedago-tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bola shaxsining tafakkur jarayoni shakllanish bosqichi, har bir ta’limiy o‘yin faoliyatida yoki tarbiyaviy jarayonda erishilgan natijalarni reflektor yoki mental tafakkur doirasida shaklanganligini aniqlay olishi lozim. Avvalambor reflektor va mental tafakkur haqida so‘z yuritaylik. Mental tafakkursiz insonni kamolatga yetkazish faqat uning ongiga tashqi ta’sir o‘tkazilayotgan vaqtdagina sodir bo‘ladi! Demak, faqat maktabgacha yoshdagi bolada mental tafakkur shakllangandagina tashqi holatlarga qaram bo‘lmaslik, o‘z-o‘ziga ishonch va ichki xotirjamlik kabi xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Maktabgacha ta’lim ta’lim tizimida bola shaxsini tarbiyalash, uning maqsad vazifalari, mazmuni, uslub va shakllari zamon talablari darajasida amalga oshirish muhimdir.

Yuqorida kayd etganimizdek, ta’lim o‘yin faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bola shaxsining mental tafakkurini shakllantirishga imkon yaratadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning reflektor tafakkuri shakllanish bosqichidan mental tafakkur pag‘onasiga erishish bosqichlarini va ular o‘ziga xos dunyokarashni shakllanishidagi mohiyatiga e’tibor qarataylik.

Ma’lumki, ta’lim elementlarini bolalalar tomonidan o‘zlashtirish bevosita zamonaviy axborotlar yordamida amalga oshirilishga yordam beradi. Axborotlardan foydalanish xarakteriga qarab faoliyatning ikki ko‘rinishini farqlash mumkin: nomahsuldor va mahsuldor. Ularning farqi shundan iboratki nomahsuldor faoliyatida bola o‘ziga ma’lum bo‘lgan harakat qoidalaridan foydalanadi va bu jarayonda hech qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi. Mahsuldor faoliyatni bajarishda bola doimo yangilikka duch keladi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi.

Bola shaxsi ta’lim elementlarini o‘zlashtirish faoliyatini quyidagi to‘rt darajaga bo‘lish mukin:

1. Daraja: Tashqi pedagog-tarbiyachi ko‘rsatmasi asosidagi harakat. Ta’limiy o‘yin faoliyati materiali bilan tanishuv pag‘onasi.

P. Daraja: Bolalarning xotiralari asosidagi faoliyat.

Sh. Daraja: Mahsuldor faoliyatning everestik darajasi;

IV. Daraja: Faoliyatning yangi qirralarini tadqiq qiluvchi mahsuldor harakat, ya’ni faoliyatning ijodiy darajasi.

Akademik Bespalko fikricha, har bir didaktik jarayonda ta’limiy o‘yin faoliyati mazmunini o‘zlashtirishda bolalarni bilish, tushunish, koidalarni keltirib chikarish, analiz-sintez qilish, ijodiy yondashish bosqichlariga ko‘tarish ta’limning samaradorligi deb belgilanadi.

Taniqli rus adibi L.N.Tolstoy inson bilimlarini o‘zlashtirishi haqida shunday yozadi: “Bilim shunda haqiqiy bilimga aylanadi, qachonki, u xotira kuchi bilan emas, balki o‘z fikr kuchi bilan erishilgan bo‘lsa”. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda fikr kuchi orqali talim mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirish maktabgacha ta’limning bosh masalasidir. XX1 asr maktabgacha

ta’lim tizimi pedagog-xodimlari kasbiy faoliyatida oddiy pedagog-tarbiyachi emas, balki ijodkor pedagog-bo‘lishni taqozo etmoqda. Har bir pedagog-tarbiyachi bolalarda yuzaki bilim yuzaki fikrlashga olib kelishini unutmasligimiz lozim. Shunday qilib, maktabgacha ta’lim ijtimoiy hayot taraqqiyotida yangi mazmun, yangi tizim, yangi sifatni o‘zida mujassamlashtirib boraveradiki, natijada bola shunga mos ravishda shakllanib, o‘z “Men”iga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakillanadi kamol topadi.

Maktabgacha ta’lim jamiyat avangardi sifatida taraqqiyotning oldida borishi va erishiladigan yantuqlarning ibtidosi sifatida ilmiy jihatdan asoslab berilishi lozim. O‘z-o‘zidan ayon bo‘ladiki, maktabgacha ta’lim ijtimoiy jamiyat tarkqiyotida oldingi o‘rinlarda bo‘lishi lozim..

Ta’limda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish va rivojlantirish asosida ijodiy qarashini tarkib toptirish, pedagog-tarbiyachi faoliyatining kreativlikka asoslanishini talab etadi. Bolaning ijtimoiylashuvi, uning ong tafakkurida yangicha qarashlarini tarkib topishida, bilim olishga bo‘lgan yangicha munosabatlarni yuzaga keltirishda ta’lim tarbiya tizimi uning mazmuni va ta’lim tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etish bilan uzviy bog‘liq.

Aynan, ta’lim tarbiya tizimida yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashda pedagog-tarbiyachining kreativ faoliyati mantiqiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirib borish, mustaqil erkin fikrlashga o‘rgatish ijtmoiy zarurat sifatida qaralmoqda. Pedagog-tarbiyachi o‘z ish faoliyatiga ijodiy tafakkur hamda hayotga bo‘lgan yangicha munosabatga tayangan holda yondashsa, demak zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab bolalarni ijodiy fikrlashga, o‘z qobiliyatini namoyon etishga, o‘z imkon darajasini baholashga yo‘naltira oladi. XXI asr pedagog-tarbiyachisi oddiy ta’limiy faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs emas, balki ijtimoiy hayotga bolalarni har tomonlama tayyorlovchi, bolalarni o‘zligini namoyon qilishga yo‘naltiruvchi ijodiy tafakkur bilan hayotga qarovchi shaxs bo‘lishini talab etmoqda.

Bugungi kunda pedagog-tarbiyachining faoliyatini, uning kasbiy kompetensiyasini, uning yangilikka bo‘lgan ehtiyoji, ularni egallash darajasi bilan baholashimiz mumkin. Biz maktabgacha ta’lim sohasida qanchalik takomillashgan texnika vositalari, kompyuter texnologiyalari, masofaviy ta’limni roliga yuqori baho bermaylik, ular ta’limni modernizatsiyalashtirishdagi vositalar deb qaraymiz va pedagog-tarbiyachi faktori, uning bilimi, kasbiy mahorati, ijodkorligi hal qiluvchi asosiy masala bo‘lib qolaveradi.

Demak, pedagog-tarbiyachining kasbi ijtimoiy jamiyatimizda kichik faoliyat bo‘lib qolmay, balki umumjamiat masalalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, jamiyatimizni harakatga keltirishda muhim hissa qo‘shuvchi va o‘ta ma’suliyatli, hamda sharafli kasb ekanligini davr tasdiqlamoqda.

Mazkur kasb o‘z evolyutsion tarixiy taraqqiyot bosqichida oddiy tarbiyachidan ijtimoiy pedagog-tarbiyachi sifatida yuqori bosqichga ko‘tarilganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Shu nuqtayi nazardan qaralganda pedagog-tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini zamon talablariga mos tarzda kamol toptirish talab etiladi. Bu esa har bir pedagog-tarbiyachidan o‘z ustida tinimsiz ish olib borishi, ilg‘or va xorij tajribalarini o‘zlashtirib, amaliyotda faol qo‘llay bilishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. L.Vigotskiy “Psixologiya razvitiya cheloveka. — M.: Izd-vo Smisl; Izd-vo Eksmo, 2005.
- 2.R.Qodirova. “Kasbiy psixologiya”. Qarshi 2005-yil.
- 3.Bespalko V. P. B 53 Slagayemye *pedagogicheskoy texnologii*.— M. Pedagogika, 1989.
- 4.L.N.Tolstoy. “Iqrornoma” Toshkent 2008y
- 5.S.T.Turg‘unovva boshq. O‘qituvchining kasbiy mahorat va kompetensiyasini rivojlantirish” “Sano standart” nashriyoti. T:2012

BOLA SHAXSINING ASOSIY AQLIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

Murodova A. B.

MTTDMQTMOI “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Insonning ehtiyojlari, qiziqishlari va moyilliklarining shakllanishi va namoyon bo‘lishiga turli yo‘llar bilan hissa qo‘sadigan, uning tanasi va birinchi navbatda asab tizimining xususiyatlari bilan ajralmas aloqada bo‘lgan ushbu makro va mikroorganizm har bir alohida holatda yaratadi.

U o‘ziga xos, har bir holatda o‘ziga xos, tirik, harakat qiluvchi shaxs bo‘lib, unga ko‘pgina omillar ta’sirlar qiladi. Insonning voqelikni idrok etishi, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, diqqati, garchi ular doimo obyektiv olamning xususiyatlarini belgilab qo‘ysa ham, lekin uning barcha bu aqliy jarayonlari doimouning dunyoning turli tomonlariga munosabati muhrini ushlab turadi. Inson yashaydigan va harakat qiladigan dunyo o‘zgarmoqda, uning bu dunyodagi roli va mavqeyi o‘zgaradi va buning natijasida uning mavjud “dunyo tasviri” va bu dunyoning turli tomonlariga munosabati muqarrar ravishda sezilarli darajada qayta tiklanadi.

Tirik insonning doimiy ravishda amalga oshiradigan faoliyatining katta rolini inkor etmasdan, uning o‘z sohasining mutaxassisi, mohir hunarmand sifatida shakllanishi uchun V.N.Myasishchev bir necha bor ta’kidlaganidek, faoliyatning o‘zi — o‘yin, o‘qish, mehnat — shaxsning axloqiy o‘zagini tashkil etuvchi asosiy aqliy fazilatlarni shakllantirish uchun ularo‘rtasidagi munosabatlar neytral jarayonga aylanishi mumkin.

Ishtirokchilar birqalikda yaratishni, hamkorlikni, o‘zaro yordamni, agar axloqiy harakatlarga olib keladigan munosabatlarni qo‘zg‘atuvchi munosabatlarni doimiy ravishda “mustahkamlash” bo‘lmasa, talab qilinadigan jamoaviy birlikni tashkil etib bo‘lmaydi. Ushbu ilmiy pozitsiyani tasdiqlash uchun A.S.Makarenko fikriga tayanamiz: “Shaxsni o‘chirish, uni ajratib qo‘yish, munosabatlardan ajratish mumkin emasligi va shaxs kiritilgan “nuqsonli” munosabatlar uning shakllanishida og‘ishlarga olib keladi va aksincha, ijtimoiypedagogik normal munosabatlar ma’naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi”.

Shaxsning tuzilishini asosan psixologik sog‘lom fazilatlar tashkil etadi. V.N. Myasishchevning fikricha, shaxsning o‘zaro munosabati — uning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilliklari — bu qandaydir mavhum tarixiy sharoitlar mahsuli emas, balki birinchi navbatda inson o‘zi uchun mutlaqo o‘ziga xos muhit bilan qanday munosabatda bo‘lishi va bu muhit unga qanchalik ko‘p berayotganining natijasidir. Uning obyektiv faoliyatda ham, boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarda ham individualligini namoyon qiladi va rivojlantiradi.

Shunday qilib, shaxs — bu ma’lum bir yoshdan boshlab qandaydir muzlatilgan, bir vaqtlar shakllangan va o‘zgarmas ruhiy shakllanish emas, balki ko‘plab tashqi va birinchi navbatda, ijtimoiy ta’sirlarga duchor bo‘lgan dinamik, o‘zgaruvchan shakllanish hisoblanadi. Insonning voqelikka haqiqiy munosabati ma’lum bir nuqtaga qadar uning potensial xususiyatlari va inson o‘zi uchun subyektiv jihatdan juda muhim bo‘lgan vaziyatlarda harakat qila boshlaganida to‘liq namoyon bo‘ladi. Xarakter har bir shaxsda voqelikning turli tomonlariga bo‘lgan munosabatlarning barqaror tizimi bo‘lib, bu munosabatlarni ularning kundalik xatti-harakatlarida ifodalashning tipik usullarida namoyon bo‘lishini ishonchli tarzda ko‘rsatdi.

Inson xarakteri shakllanishining o‘ziga xos tomonlarini psixologik jihatdan nozik va ko‘p qirrali tahlil qildi, ulardagi farqlarni doimiy ravishda siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, umumiy madaniy, milliy va boshqa omillarning ta’siri bilan birlashtiradi. Har doim kundalik turmushning o‘ziga xos sharoitlariga prognoz qilingan. Insonning kundalik hayoti, uning xarakterining shakllanishini bilvosita belgilab beradi. Bolalar faoliyati — bu bolaning atrofidagi dunyo bilan aloqasi bo‘lgan faoliyat shakli bo‘lib, uning psixikasi ontogeneticha rivojlanadi. Eng mustaqil erta faoliyat obyektiv faoliyatdir. U narsalarni egallash, manipulyatsiya qilish, aslida obyekt bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni o‘zlashtirishdan boshlanadi, obyektlarni funksional maqsadiga ko‘ra va inson tajribasida ularga

berilgan tarzda ishlatishtni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, obyektiv harakatlarning intensiv rivojlanishi hayotning ikkinchi yilida sodir bo‘ladi, bu yurishning mahorati bilan bog‘liq.

O‘quv faoliyati — bu boshlang‘ich maktab yoshidagi etakchi faoliyat bo‘lib, uning doirasida ijtimoiy tajriba asoslarini, birinchi navbatda, intellektual asosiy operatsiyalar va nazariy tushunchalar shaklida nazorat ostida o‘zlashtirish amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi trening orqali bolaning aqliy rivojlanishining o‘rtacha me’yorlari rivojlanishga naturalistik yondashuvga asoslangan mavjud o‘qitish tizimi tomonidan shakllantirilishini ko‘rsatdi. Rivojlanayotgan ta’lim nazariyasini mantiqiy va psixologik asoslandi. Insonning xatti-harakatida doimo boshqa shaxsning ongi mavjud, bolaning rivojlanishi u ikki turdagи munosabatlар: bola-obyekt-kattalar kontekstida sodir bo‘ladi. Holatda, bola — kattalar munosabatlari obyekt orqali va bola — kattalar — obyekt vositachilik qiladi (bu holda, bola va obyekt o‘rtasidagi munosabatlар kattalar tomonidan vositachilik qiladi).

Tafakkurni shakllantirish ko‘rsatkichlariga asoslanib, quyidagilar belgilangan:

1. Obyektiv harakatlarning hamkorligi va muvofiqlashtirilishi bola tafakkurining intellectual tuzilmalarining kelib chiqishining asosini tashkil qiladi, faoliyat ishtirokchilari yordamida faoliyatni taqsimlash turi esa bolalar o‘rtasidagi munosabatlар tarkibida intellektual tuzilmaning mazmunini o‘ziga xos modellashtirish funksiyasini bajaradi.

2. Bolaning intellektual tuzilmaning mazmunini tanlash va keyinchalik o‘zlashtirishi uchun asos uning subyekt o‘zgarishlarini almashtirish uchun maxsus harakatni amalga oshirishi (faoliyatni qayta taqsimlash); ushbu harakatni amalga oshirib, bola qo‘shma faoliyatni tashkil etish asoslariga aylanadi, qo‘shma ishning barcha ishtirokchilari uchun umumiy bo‘lgan u yoki bu obyektni o‘zgartirish xususiyatini ochib beradi; shu bilan birga, ishtirokchilar tomonidan qurilayotgan birgalikdagi harakatlar shakllarini refleksli mazmunli tahlil qilish va obyektning predmet mazmuniga mos keladigan qo‘shma faoliyatni tashkil etishning yangi shakllarini keyinchalik rejallashtirish zarur.

3. Birgalikda harakatni tashkil etish shakli madaniyatni efirga uzatish kanalidir, chunki ishtirokchilarning qo‘shma vaziyatdagi o‘zaro ta’siri kognitiv harakatlarning tarixan o‘rnatilgan naqshlariga vositachilik qiladi. Psixologik taddiqotlar aqliy faktlarni, ularning mexanizmlari va qonuniyatlarini o‘rganar ekan,aqliy faktning asosiy xususiyati shundaki, u inson xatti-harakatlarining ichki mohiyatini tashkil etadi, shuning uchun uni faqat bilvosita o‘rganish mumkin. U bolaning aqliy rivojlanishining borishi, shartlari, manbai, shakli, o‘ziga xosligi va harakatlantiruvchi kuchlari; bola rivojlanishining davrlari, bosqichlarini, shuningdek, ontogenet jarayonida ular orasidagi o‘tishlarni, hamda bola rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini aniqlaydi va shakllantiradi. Haqiqiy rivojlanish darajasi rivojlanishning muvaffaqiyatini, kechagi kun uchun rivojlanish natijalarini, proksimal rivojlanish zonasini esa ertangi kun uchun aqliy rivojlanishni tavsiflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Martsinkovskaya T.D. Yoshga bog‘liq psixologiya. O‘quv qo‘llanma / h.k. Martsinkovskaya. - M.: Akademiya (Akademiya), 2016. - 184 b.
2. Muxina V.S. Rivojlanish psixologiyasi. Rivojlanish fenomenologiyasi / V.S.Muxin. - M.: Akademiya, 2017. - 656 b.
3. O‘runtayeva G.A. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasi bo‘yicha seminar / G.A.O‘runtayeva. - M.: Akademiya, 2016. - 368 b.
4. P.G.Samarukova. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T., "O‘qituvchi", 1984yil.
5. J.Tulenov. E.Gofurov. Falsafa - T.; "O‘qituvchi". 1997 yil

MILLIY O'YINLAR ASOSIDA HARAKATLI O'YINLARGA O'RGATISH

Mo'minova N. S.
MTTDMQTMOI dotsenti
Abdulazizova M.,
TDPU 2-kurs magistranti.

Ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimida milliy musiqamiz ohanglarini eshittirish va xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimiz qanchalik milliy-madaniy merosimiz, hamda qadriyatlarimizni o'zlashtirib, ularning og'ushida kamol topsa, shunchalik odob-ahloqi va tarbiyasi ijobiy bo'lib voyaga yetadi. Ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarimiz faqatgina ezgulik, yaxshilik qilmoq, to'g'ri so'zlilik, qanoatli va sabrli bo'lish kabi g'oyalar bilan yo'g'rilgandir. Mana shu g'oyalar musiqa bilan omixtalanganda esa, milliy qadriyatlarimiz jonlanadi va qalblarga tezlik bilan o'rashadi.

Mamlakatimizda yangi avlod tarbiyasi uchun olib borilayotgan uzlusiz ta'lim jarayonlarining barcha bosqichida, ayni paytda, tubdan yangilanishlar va islohatlarni kuzatishimiz mumkin. Ta'lim tizimida bo'layotgan izchil o'zgarishlar, nafaqat Xalq ta'limi va Oliy ta'lim vazirligi tasarrufidagi kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun, balki, ta'lim jarayonining ilk bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassis va xodimlarining ham salohiyatini o'stirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, o'zbek xalqining azaldan turmush tarzi, mehnat faoliyati, bayram-sayillari, fasllar bilan bog'liq dala ishlarining barchasida qo'shiqlar kuylangan va bizga bu qo'shiqlar negizida xalqimizning nechog'lik mehnatsevarligi, shu bilan birga, musiqa bilan oshno qalb egalari bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Farzandlarimiz folklor qo'shiqlarni o'rganish bilan birga, ota-bobolarimizning mard va jasurlik, tabiat va jonzotlarga mehr va o'zbeklarga hos bo'lgan mehmondo'stlik kabi ijobiy fazilatlarini ham o'zlariga singdirishadi.

Folklor namunalar, hususan, harakatlari o'yin-qo'shiqlar farzandlarimizda quyidagi ijobiy hislatlarni shakllantiradi:

- bolalarni milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz bilan tanishtiradi;
- bolalar ruhiyatini tarbiyalaydi va jismoni faolligini rivojlanтирди;
- bolalarda milliy g'urur va o'zlikni anglash tushunchalarini shakllantiradi.

O'zbek milliy xalq o'yinlari folklor turlarining eng qadimiylaridan biri hisoblanib, uning tarkibiga jismoni faoliyatlari bilan bog'liq barcha turdag'i xalq o'yinlari va harakatlari o'yin-qo'shiqlari kiradi. Bunda ko'proq kuchlilik va chidamlilik, jismoni chiniqish birlamchi hisoblansada, mahsus qo'shiq ijrosi ostida ikki tomon bellashadi.

O'ZBEK XALQ HARAKATLI O'YIN-QO'SHIQLARI:

- xalqimizning mardligi, jasorati va boy ma'naviyatini o'zida aks ettiradi;
- bolalarning jismoni va ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- bolalar milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimizga sadoqat, g'urur va mehr-muhabbat ruhida ulg'ayadilar.

Har bir musiqa rahbarlari musiqa mashg'ulotini olib borish uchun oldindan tayyorganlik va beshta faoliyat turi bo'yicha mashg'ulot ishlanmasini ishlab chiqishi zarur. Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlari o'z ish faoliyatini samarali va mazmunli tashkil etishlari uchun beshta faoliyat turini bir vaqtida o'zida mujassam etgan o'zbek xalq o'yin qo'shiqlaridan foydalanishni tavsiya etaman. Quyida, aynan, musiqa mashg'ulotlarida qo'llash mumkin bo'lgan xalq o'yin-qo'shiqlaridan namunalar keltirilgan:

"MUSHTMI, SHAPALOQ?" harakatlari o'yin-qo'shig'i

O'yin qoidasi: Musiqa mashg'ulotida tarbiyalanuvchilar bir chiziqda saf tortib turishadi. Bitta bola jamoadan oldinga chiqib, o'ng kaftini qulog'iga qo'yadi, chap qo'l kaftini o'ng qo'lting orasiga qo'yadi va orqaga ya'ni boshqa tengdoshlariga qaramay turadi. Qolgan bolalardan bittasi jamoadan chiqib, sezdirmasdan chap qo'l kaftiga ohista uradi va tezlik bilan o'miga turib oladi. Zarb olgan bola orqaga qayrilib kim shapaloq yoki musht tushirganini topishi kerak. Agar topa

olsa, huddi shu bola uning o‘rniga tura turib o‘yinni davom ettiradi. Agar topolmasa o‘rtadagi bola o‘zi joyida qoladi. O‘yin shu tarzda, qiziqarli mazmunda olib boriladi.

“Mushtmi-shapaloq” o‘yinida bolalarning xotirasi mustahkamlanadi va shu bilan birga, tashqaridan beriladigan ta’sirni anglab olish ko‘nikmasi shakllanadi.

Mazkur o‘yin-qo‘sinqning so‘zlari o‘yin mazmunini ifodalaydi:

Bizga o‘rtoq qaramay turgin,
Sochsiz boshing taramay turgin.
Do‘stim sensan usta topoloq,
Qani topchi, mushtmi-shapaloq?
Topqirlikka fursat yetdi,
Kim tushirdi ko‘rsat endi.
Topolmasang lab burasan,
Yana sen joyinga turasan.
O‘yinimiz qizib borar,
Shu jo‘ramiz bezib borar.
Uning ko‘ngli vayron bo‘ldi,
Topolmasdan hayron bo‘ldi
Shapaloqning zarbi qattiq,
Yutqazishning dardi qattiq.
O‘ynaganning ko‘ngli to‘lar,
Sog‘lom bo‘lar bardam bo‘lar

“KURASH” harakatlari o‘yin-qo‘sing‘ining matn

(“Navro‘z” bayramiga bag‘ishlangan bayram ertaliklari uchun)

Birinchi polvonning ustozи sahnaga olib chiqadi va deydi:

“Ehe-he-he-he-hey, bog‘chamizga polvon kelgan, kim talabgor davraga chiq!”

Ikkinci polvonning ustozи sahnaga olib chiqadi va deydi:

«Rustam»dayin kuchga to‘lgan, kim talabgor davraga chiq!

Kurashchi bolalar barobar sahnada aylanishib, bir-birining belbog‘idan tutishadi: Ehe-he-he-he-hey !!!

Musiqa rahbari kuylaydi:

Bu damlarning damlarini dam dema,
Boshqalarni o‘zingdan hech kam dema.

Atrofdagi bolalar qaytaradi:

Bu damlarning damlarini dam dema,
Boshqalarni o‘zingdan hech kam dema.

Musiqa rahbari kuylaydi:

Bizning polvon zo‘r polvon, zo‘r polvonim bo‘sh kelma,

Atrofdagi bolalar qaytaradi:

Bizning polvon zo‘r polvon, zo‘r polvonim bo‘sh kelma,

Musiqa rahbari kuylaydi:

Bizning polvon sher polvon, sher polvonim bo‘sh kelma,

Atrofdagi bolalar qaytaradi:

Bizning polvon sher polvon, sher polvonim bo‘sh kelma,

Musiqa rahbari kuylaydi:

Ha-ha, bo‘sh kelma,

Atrofdagi bolalar qaytaradi:

Ha-ha, bo‘sh kelma,

Musiqa rahbari kuylaydi:

Biringa arpa, biringa bug‘doy bo‘sh kelma.

Atrofdagi bolalar qaytaradi:

Biringa arpa, biringa bug‘doy bo‘sh kelma.

Musiqa rahbari kuylaydi:

Belbog‘idan tut, orqaga sur!
O‘zinga tort, yota turib ot!
Barcha bolalar baravar g‘olibni olqishlaydi: He-yee-yee-yey!!!

Musiqo rahbarlari o‘z mashg‘ulotlarini o‘zbek milliy folklor musiqasi namunalari va folklor cholg‘ularidan foydalanib, shu bilan birga, o‘zbek xalq o‘yinlari asosida olib borar ekan, farzandlarimizning vatanparvarlik ruhidagi kamol topishiga hissa qo‘shtigan bo‘ladi. Folklor namunalar yordamida maktabgacha yoshdagagi bolalarning o‘z milliy qadriyatlariga hurmati, mehr-muhabbati shakllanadi, buning zamirida esa o‘zligini anglay boshlaydi.

Adabiyot va manbalar ro‘yxati

1. G.M.Sharipova, Sh.Yakubova. “Maktabgacha ta’lim muassasalarda musiqo o‘qitish metodikasi”, Toshkent, “Cho‘lpon”, 2009-yil. (O‘quv qo‘llanma).
2. O.P.Radynova, A.I.Katinene, M.L.Palavandishvili. Muzikalnoye vospitanie doshkolnikov. Uchebnoe posobie - Moskva, 1998 g.
3. G.M.Altibayeva. Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiyasi metodikasi. Termiz - 2018-y.
4. K.D.Ushinskiy. Pedagogika. Izbrannkiye raboti. Moskva “Yurayt” 2019g.

DIZARTRIYA NUQSONIGA EGA BO‘LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

Nabiyeva U. N.
Qashqadaryo viloyati Nishon tumani
18-DMTT logopedi.

Umurova N. H.
Toshkent shahar Sirg‘ali tumani
359-DMTT logopedi.

Dizartriya so‘zlarni lo‘nda, ravon talaffuz qila olmaslik talaffuz nuqsonidir. U nutq apparati innervatsiyasida kamchilik borligiga bog‘liq bo‘ladi. Dizartriya uchun markaziy hamda periferik nerv sistemasining organik kasallikkleri natijasida artikulatsiya mushaklarining falajlanish tufayli tovushlar talaffuzi va ovozning buzilishi harakterlidir.

Dizartriya lotincha aynish - buzilish, ma’nosini bildiruvchi «dis» yuklamasi, artron - biriktirish, ulash degan so‘zdan olingan bo‘lib, ma’noli, ravon nutqning buzilishi degan ma’noni bildiradi. Biroq, ko‘pchilik olimlar, dizartriya atamasini kengroq ma’noda ishlatib, artikulatsiya, ovoz hosil bo‘lishi, nutq sur’ati, maromi, ravonligi, intonatsiyasidagi kamchiliklarini ham dizartriya nuqsonida kuzatiladigan belgilar jumlasiga kiritadilar. Dizartriya og‘ir anaitriya deb ataladi. Bunda bola nutqini tushunib bo‘lmaydi. Bola xuddi og‘ziga tolqon solib gapirganidek tuyuladi. Lekin atrofdagilar nutqini bola yaxshi tushunadi, idrok etish qobiliyatini nisbatan saqlangan bo‘ladi.

Dizartriyani keltirib chiqargan kasallik og‘ir, qanchalik erta boshlangan bo‘lsa, uning oqibatlari ham shunchalik og‘irroq bo‘ladi. Bu nuqson mustaqil suratda, hatto fonematik eshitish qobiliyatini saqlanib qolgani holida tovush talaffuzining buzilishi tariqasida namoyon bo‘lishi mumkin. Dizartriya vaqtida savod o‘rgatish ishlari qiyinlashadi. Bu vaqtida bola so‘zlarni yaxshi eshita oladigan va o‘ziga qaratilgan nutqini muayyan darajada tushuna oladigan, intellektida birlamchi qo‘pol o‘zgarishlar yo‘q bo‘lsa ham, so‘zlarni buzib atrofdagilarga yaxshi tushunilmaydigan tarzda, yarim-yorti qilib aytadi yoki talaffuz etadi.

Dizartriya - bu nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Maktabgacha yoshdagagi dizartriya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida logopedik korreksion ish tashkil qilinadi.

Dizartriysi bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya'ni artikulatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumi y davolash, davolovchi jismoniy — tarbiya, fizioterapiya va dordarmonlar bilan davolash ishlari. Asosiy diqqat bolada nutqning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlariga qaratiladi. Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib borilgan mashg'ulotlar sekin-asta artikulatsion apparat, apparat motorikasini normallashtiradi, artikulatsion harakatlarni rivojlanadir, artikulatsiya a'zolarida ixtiyoriy harakatlarni bir harakatdan boshqa bir harakatga o'tish qobiliyatini shakllantiradi, hamda fonematisk eshituvni to'la qonli ravishda rivojlanirishga yordam beradi.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari A.G. Ippalitova, O.V. Pravdina, V.V. Ippalitova, Ye.M. Mastyukova, G. V. Chirkina va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish, ya'ni artikulatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlanirish va tovushni nutqga qo'yish va mustahkamlash;
- fonematisk idrokni rivojlanirish, tovush analiz malakasini shakllantirish;
- nutqning ritm, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- paydo bo'lgan nutqning umumi y rivojlanmaganligini to'g'rilash.

Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulatsion apparat harakatchanligini rivojlanirishga qaratishi lozim.

Tovushlar talaffuzi ustida ishslash quyidagi holatni hisobga olib tashkil etiladi:

- dizartriy shakli, bolaning nutqini rivojlanish holati va bola yoshini hisobga olish.
- nutq kommunikatsiyasining rivojlanishi. Tovushlar talaffuzining shakllanishi kommunikatsiyaning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.
- motivatsiyaning rivojlanishi, bor bo'lgan buzilishlarini bartaraf etishga intilish, o'z-o'zini anglashni, o'ziga ishonch, o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'z qadrini bilish hamda o'z kuchiga ishonish.
- differensial eshitish idroki va tovush analizi qobiliyatini rivojlanirish.
- ko'rvu-kinestetik tuyg'uni rivojlanirish yo'li bilan artikulatsion tartib va artikulatsion harakatni kuchaytirish.

- ishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Korreksion ish bolada talaffuzi saqlanib qolgan tovushlardan boshlanadi. Ba'zan tovushlar ancha sodda motor koordinatsiyalari tamoyiliga ko'ra tanlab olinadi, ammo artikulatsion buzilishni hisobga olingan holda birinchi navbatda ilk ontogenez tovushlari ustida ish olib boriladi.

- eng og'ir buzilishlarda, ya'ni bola nutqi atrofdagilar uchun umuman tushunarsiz bo'lganda korreksion ish alohida ajratilgan tovushlar va bo'g'inlardan boshlanadi. Agarda bola nutqi atrofdagilar uchun nisbatan tushunarli bo'lsa va u ayrim so'zlarda nuqsonli tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olsa, unda ish "tayanch" so'zlardan boshlanadi. Har qanday hollarda va turli nutqiy holatlarda tovushlar nutqda mustahkamlanishi zarur.

- markaziy asab tizimi shikastlangan bolalarda nutqdan oldingi davrda logopedik ishlarni muntazam olib borish yo'li bilan tovushlar talaffuzidagi murakkab buzilishlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Dizartriyada olib boradigan logopedik ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi.

- 1 -bosqich tayyorlov bosqichi bo'lib, bu bosqichning asosiy maqsadi:
 - artikulatsion apparatni, artikulatsion tartibni shakllantirishga tayyorlash;
 - bolaning ilk yoshida nutqiy muloqot ehtiyojini tarbiyalash;
 - passiv lug'atni aniqlash va rivojlanirish;
 - nafas va ovozdagi kamchiliklarni korreksiyalash.

Dizartriyada olib boradigan logopedik ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi. Nafas gimnastikasi umumi y nafas mashqlaridan boshlanadi. Uning asosiy maqsadi nafas hajmini

oshirish va uning ritmini normallashtirishdir. Bolaning og‘zi yopiq holda burun teshiklarini navbatma-navbat yopib nafas olishga o‘rgatiladi. Nafas olishni chuqurlashtirish uchun bolaning burun teshigi yonida "nafas yelpig‘ichi" hosil qilinadi. Burundan nafas chiqarishni o‘rganish bo‘yicha mashqlar o‘tkaziladi.

Bolaga og‘zini ochmasdan "chuqur nafas ol va cho‘zib burun orqali chiqar" deb ko‘rsatma beriladi. Keyingi mashqlar og‘izdan nafas olishni rivojlantirishga qaratiladi. Logoped bolaning burnini yopib alohida unli tovush yoki bo‘g‘inlarni talaffuz qilishni so‘rashga qadar og‘izdan nafas olish taklif qilinadi. Nutqiy nafasni korreksiyalashda "qarshilik mashqlaridan" ham foydalaniladi. Bola og‘izdan nafas oladi. Logoped nafas olishga qarshilik qilgandek, 1-2 sekund davomida qo‘lini bolaning ko‘kragiga qo‘yadi. Bu ancha chuqur va tez nafas olishga va uzoq nafas chiqarishga imkon yaratadi. Nafas mashqlari har kuni 5 —10 minut davomida o‘tkaziladi. Ushbu mashqlarni bajarishda nafas chiqarish vaqtida logoped unli tovushlarning turli qatorini talaffuz qiladi va bolani unga taqlid qilishga undaydi va bunda ovozni balandligini o‘zgartiradi. So‘ngra bolani undosh tovushlarni alohida va unli tovushlar bilan birgalikda talaffuz qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Yu. “Logopediya” darsligi. O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent-2007y.
2. Turakulov, B. N. (2020). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL THEORY OF EMOTIONAL INTELLIGENCE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(3), 99-104.
3. Achilova, S. J. (2020). Korrektionsnaya - logopedicheskaya rabota pri dizartrii doshkol’ognogo vozrasta. EUROOPEN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY, 126-129.
4. Ravshanov, J. F. (2020). IMPORTANCE OF CLASSIFICATION OF HISTORICAL TERMS AND CONCEPTS. Journal NX, 461-464.

BO`LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Nazarmatova D.U.
Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs magistranti.

Xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Albatta, bunda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev say-harakatlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga e’tiborlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz deb o‘ylaymiz. Prezidentimizning joriy yil 19 oktyabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”, deb ta’kidladi. Albatta, har qanday sohani rivojlantirish maktabgacha ta’limdan va uning uzuksizligidandir, chunki maktabgacha ta’lim tashkilotlarini bitiruvchilari O‘zbekiston

Respublikasining kelajagidir. Axir bola butun hayotida oladigan bilimining 70%ini maktabgacha yoshdagi davrda egallaydi. Bu borada esa maktabgacha yoshdagi bolalarga ta`lim va tarbiya beruvchi tarbiyachilar va bo`lajak mutaxassislarning bilmli, psixologik, kasbiy kompetentligini rivojlantirib tayyorlash muhim o`rin tutadi.

Kompetentlik tushunchasi ta`lim sohasiga pedagog - psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtainazardan, kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, hamkasblari bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, eng muhimi, ilmiy ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Aynan kasbiy kompetentlik omillarida yangi axborotlarni o‘rganish va ularni toppish deya aytilar ekan, biz o`z-o`zidan axborot texnologiyalari va resurslariga murojaat qilamiz. Bilamizki, hozirgi davr axborotlashgan davrdir. Shunday bir jadal rivojlanayotgan davrda bizni axborot to`laqonlik o`rab olgan. Biz axborotlarni kamaytirib yoki undan voz kecha olmas ekanmiz, undan to`g`ri foydalanishni o‘rganishimiz va uni pedagogik faoliyatimizga kirdizishimiz zarur.

Umuman olganda, pedagogik faoliyatga axborot texnologiyalarni kirigizish, mutlaq qulaylikni va tezkorlik ta`minlab beradi. Oliy ta`lim amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ularda ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasining rivojlanganligi bilan uzviy aloqador. Mazkur jihat bo‘lajak tarbiyachilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlanirish muammosini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiyl tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero zamонави о‘қитувчи нифақат о‘қувчига билим беради, ма’лумот, ахборот yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o‘rtasida vositachi rolini ham bajaradi. “Bola shaxs-jamiyat” munosabatlari o‘zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo‘lishio‘қитувчининг qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekangigiga ham bog’liqdir. [6,7]

Bo`lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida biz turli xil ta`limiy uslublardan foydalanamiz. Masalan, amaliy, interfaol, an`anaviy usullar, ammo ularning barchasi kasbiy kompetensiyalari shakllantirish uchun yetarli bo`lmaydi. Shu sababdan ham elektron resurslar katta yordam beradi. Oliy ta`limda ham elektron resurslardan keng foydalanish imkonи bor. Hozirgi kunda barcha sinf xonalar elektron resurslar bilan jihozlangan, hattoki maktabgacha ta`lim tashkilotlari ham to`laqonli jihozlanmoqda. Shunday ekan bo`lajak tarbiyachilar nafaqat foydalanish balki yaratish qobiliyatini ham shakllantirishi mumkin. Biz elektron resurslarda foydalanishda faqatgina video materiallar bilan cheklanib qolishimiz kerak emas. Axborot texnologiyalar orqali biz doimiy yangiliklar yaratishimiz zarur. Masalan, tasviriy san`at faoliyati rasmlar chizdirib yoki bo`yoq berilgandan so`ng ularni 3D formatida bolalarga ko`rsatishimiz mumkin. Hozira bunga imkoniyatlar bor.

Shunday misollarni albatta, oliy ta`lim muassasalarida ham amalga oshirish mumkin. Bilamizki, yangilik qila olish qobiliyatini o`stirishda oliy ta`lim bo`lajak tarbiyachilar uchun zamin bo`ladi. Shuning uchun pedagoglar ham elektron resurslardan foydalana olishni bilishlari va yetkaza olishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Gulboyev A. Pedagogik tashxis vositasida o‘qituvchilar malakasini uzlucksiz oshirish. Avtoref. diss.p.f.n. 13.00.01-Umumiy pedagogika, pedagogika va ta’lim tarixi. T., 2010.
2. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя: диагностика и развитие. – Ульяновск, 2002.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – С. 40.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING KATTA GURUH BOLALARINI SAVODXONLIKKA O’RGATISH

Normirzayeva M.
MTTDMQTMOI, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining asosiy sohalaridan biri “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” bo‘lib, u quyidagi kichik sohalardan iborat: nutq va til, o‘qish malakalari, qo‘l barmoqlari mayda motorikasi. Ushbu kichik sohalarning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun katta guruhlarda savodxonlikka o‘rgatish ta’limiy faoliyati o‘quv yili davomida jami 36 ta mashg‘ulot rejalashtirilgan, ularning davomiyligi 25-30 daqiqani tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida savodxonlikka o‘rgatish metodikasi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, katta guruhda savodxonlikka o‘rgatishda so‘zdagi birinchi tovushni bilish, kitobni mustaqil tomosha kilish, tovushlarni farqlash, so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish, harflarga tegishli so‘zlarni topish ko‘nikmalarini shakllantirishdan boshlanadi.

Tarbiyachi savodxonlikka o‘rgatish jarayonida o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olib mashg‘ulotlarni rejalashtirishi lozim. Buning uchun o‘zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

Savodxonlikka o‘rgatishda toyush bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Hozirgi o‘zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o‘.

E harfi so‘z va bo‘g‘in boshida qo‘llanadi (egin, echki, echkemar), undoshdan keyin o‘rta keng lablanmagan unli tarzida o‘qiladi (kel, tez).

O harfi o‘zbekcha, umumturkiy so‘zlarda quyi keng, lablangan “o” tovushini ifodalaydi, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarda urg‘usiz bo‘g‘inda “a” tarzida (botanika), o‘ tovushi kabi (tonna), qisqa i tarzida (traktor) kabi talaffuz qilinadi.

“A” tovushi bahor, savol kabi so‘zlarda “o” kabi, muomala, munosabat kabi so‘zlarda “I” tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin “a” yoziladi.

“U” tovushi qovun,sovun kabi so‘zlarda “I” tovushiga yaqin talaffuz etilsa ham “u” yoziladi.

“I” tovushi bilan, sira kabi so‘zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

Savodxonlikka o‘rgatish davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya’ni ovoz dor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo‘g‘in va so‘z tarkibidan ajratib olish oson. Lekin “ng” sonor undoshi “n” va “g” undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o‘rgatiladi. Harf birikmalarini o‘rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning savodxonlikka o‘rgatish davrining oxirgi bosqichida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

“J” harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, birinchi portlovchi “j” tovushini o‘rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko‘nikmalar hosil qilinadi, keyin esa sirg‘aluvchi “j” tovushi va uning talaffuzi o‘rgatiladi. So‘ng bu ikki tovushning

talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

“Sh” tovushini ifodalovchi “sh” harf birikmasi ham “s” va “h” harfi bilan, “ch” tovushini ifodalovchi “ch” harf birikmasi “h” harfi bilan tanishtirilgach o’rgatiladi. Tarbiyalanuvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush sifatida o‘qish va yozishga ko‘nikishlari lozim.

Jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar talaffuzi (b-p, d-t, v-f, g-k, z-s kabi) haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning talaffuzi va yozilishiga e’tibor qaratiladi.

“X” va “h” tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar beriladi, ularni farqlash bo‘yicha maxsus mashqlar ham uyuştiriladi.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savodxonlikka o‘rgatish davrida tarbiyalanuvchilar eshitish idrokini o’stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar, ta’limiy o‘yinlar, qiziqarli topshiriqlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Yozuvga o‘rgatish jarayonida bolalar ruchka (qalam)ni to‘g‘ri ushslashni, daftarni to‘g‘ri qo‘yishni, turli chiziqlar chizishda daftar chiziqlari, ular bo‘ylab qo‘lni harakatlantirishni esda saqlashi, elementlarni mo‘ljallangan katakga yozishi lozim. Bu jarayon bolalarni aqlan va jismonan charchatadi, ayniqsa, ularning barmoq va yelka muskullari toliqadi. Shuning uchun ham mashg‘ulotda jismoniy daqiqalar o‘tkazilishi ahamiyatlidir.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savodxonlikka o‘rgatish davrida tarbiyalanuvchilar eshitish idrokini o’stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar, ta’limiy o‘yinlar, qiziqarli topshiriqlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Yozuvga o‘rgatish jarayonida bolalar ruchka (qalam)ni to‘g‘ri ushslashni, daftarni to‘g‘ri qo‘yishni, turli chiziqlar chizishda daftar chiziqlari, ular bo‘ylab qo‘lni harakatlantirishni esda saqlashi, elementlarni mo‘ljallangan katakga yozishi lozim. Bu jarayon bolalarni aqlan va jismonan charchatadi, ayniqsa, ularning barmoq va yelka muskullari toliqadi. Shuning uchun ham mashg‘ulotda **jismoniy daqiqalar** o‘tkazilishi ahamiyatlidir.

Savodxonlikka o‘rgatish jarayonini tashkil etish metodikasi

Analiz-sintez metodida savodxonlikka o‘rgatish jarayoni
2 bosqichda davom etadi.

Birinchi bosqichda

– tarbiyalanuvchilarga quyidagilar

- og‘zaki nutq,
- gap,
- so‘z,
- bo‘g‘in,
- tovushlar,
- nutqning gaplardan, gaplarning so‘zlardan tuzilishi,
- so‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi,
- bo‘g‘inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma’lumot beriladi.
- tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o‘rgatiladi hamda ulardan amaliy foydalana bilish ko‘nikmalari hosil qilinadi.

Shuningdek, bu bosqichda bolalarning bog‘lanishli nutqi ustida ishlanadi. Bunda tarbiyachi bolalarga nutq haqida tushuncha beradi, nutqning kichikroq bo‘lagi gap bilan tanishtiradi.

Har bir narsaning nomi-bu so‘z ekani, so‘z bo‘g‘inlarga bo‘linishi, bo‘g‘in va so‘z tovushlardan tuzilishi, tovushni talaffuz qilish, eshitish mumkinligi, tovushlar unli va undosh bo‘lishi, ularning yozuvdagisi ifodasi harf bilan ifodalanishi aytildi.

Savodxonlikka o‘rgatishning bu bosqichida analiz quyidagi metodik yondashuv bo‘yicha olib boriladi:

1. Nutq tarkibidan gapni ajratish.
2. Gapdan so‘zlarni ajratish va so‘zlarning bosh shaklini topish.
3. So‘z ichidagi yangi tovushni aniqlash va uning bo‘g‘indagi o‘rnini belgilash.

O‘quv yili oxirida tarbiyalanuvchilar quyidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

1. **O‘qish ko‘nikmasi bo‘yicha:**

- 1) so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladi;
- 2) so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap haqida tushunchaga ega;
- 3) so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- 4) nutqni eshitadi va tushunadi.

2. **Yozuv ko‘nikmasi:**

- 1) qog‘ozda to‘g‘ri chiziqlar yozadi;
- 2) rasmlarni to‘g‘ri joylashtiradi;
- 3) qo‘lni uzmasdan nuqta chiziqlarini birlashtirib rasm chizadi;
- 4) Siniq, to‘lqinsimon, ilgak chiziqlarni chizadi;
- 5) Rasmlarni tekis shtrixlaydi;
- 6) Qo‘lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chiza oladi.

3. **Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi:**

- 1) so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘ladi;
- 2) so‘z yoki bo‘g‘indagi tovushni ajratadi;
- 3) hamma tovushni to‘g‘ri talaffuz qiladi;
- 4) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e’tibor qaratadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiku, savodxonlikka o‘rgatish o‘ta mas’uliyatli jarayon bo‘lib, mashg‘ulotlar bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydigan ta’limiy o‘yinlar, interfaol metodlar va AKTdan foydalangan holda tashkil etilishiga erishish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha yoshdagি bolalarning nutqini o‘stirish va ijodiy tafakkurini shakllantirish uchun foydalaniladigan o‘yin namunalar” uslubiy qo‘llanma. Sh.Asqarova.
2. “Nutq o‘stirish mashg‘uloti bo‘yicha ta’limiy o‘yinlar” uslubiy majmua.
3. M.R.Is‘hoqova, M.Z. Fayzullaeva, J.R.Kucharov, N.Q.Azizova, N.M. Sultonova “Maktabgacha yoshdagи bolalarni savodxonlikka o‘rgatish”. T.-2018

TARBIYACHILARDA RIVOJLANTIRISH ZARUR BO‘LGAN TAYANCH KOMPETENTSIYA

Rabbimova M. M.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti 1-kurs tayanch doktoranti.

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta’limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog‘liq. Bugungi kunda ta’lim sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda.

Inson hayotiga kirib keladigan har qanday yangilik unda sergaklikni, hattoki norozilikni uyg‘otadi. Shunga ko‘ra uzoq yillar davomida an‘anaviy usullar bilan ishlab kelgan pedagoglar, bugungi kunning o‘zidayoq takomillashtirilgan Davlat ta’lim standartlari asosida darslarni tashkil etish talab etilmoqda. Buning uchun avval o‘qituvchining kasbiy ongini tubdan o‘zgartirish kerak. Ta’limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko‘lamli axborotlar oqimi ta’lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ma’ruza va chiqishlarini diqqat bilan tahlil qilsak, raqobatbardoshlikni oshirish masalasi O‘zbekiston Respublikasida milliy g‘oya darajasiga

ko‘tarilganini anglash mumkin. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi modernizatsiya qilinayotgan ayni paytda bu jarayonning obyektiv metodologik asoslarini aniqlash dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda zamon talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak har bir pedagog o‘z fanining ustasi o‘zining kasbiy kompetentligiga ega bo‘lishi kerak.

Bugungi globallashuv jarayoni na faqat jamiyatga, balki yoshlarga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugun zamonaviy bilimlar va ma’lumotlarni o‘zlashtirmagan o‘qituvchi raqobatbardosh mutaxassis, tan olingan o‘qituvchi yoki murabbiy bo‘lishi mushkul. Shu o‘rinda mактабгача ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash tizimining roli va ahamiyati yanada ortib borayotganini anglash mushkul emas. Ushbu kurslarga endi tashkilot rahbarlari faqat yangi bilimlarni olish uchungina emas, balki kasbiy mahorati va kompetentligini oshirish uchun kelayotganini unutmasligimiz zarur.

Ilmiy asarlarda va dissertasya tadqiqotlarda kompetentlik
to‘g‘risida ko‘p fikirlar yuritilgan.

“Kompetensiya” deganda u ma’lum bir doiradagi predmetlar va jarayonlarga nisbatan mahsuldor (natijador) harakat qilish uchun zarur bo‘ladigan va ularga nisbatan munosabatlар bo‘yicha beriladigan shaxsnинг o‘zaro bog‘langan sifatlari (bilim, mahorat, ko‘nikma va faoliyat usullari)ning jamlanmasini tushunadi. “Kompetentlilik” esa – bu kishi tomonidan uning faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatlarini o‘z ichiga oladigan mos holdagi kompetensiyalarni egallaganligidir. Ya’ni, “kompetensiya” deganda o‘quvchining ta’limiy tayyorlarligiga berilgan talab (me’yor), “kompetentlilik” deganda esa endilikda uning yuzaga keltirilgan shaxsiy sifatlari (sifatlар jamlanmasи) va berilgan sohadagi faoliyatga munosabatlari bo‘yicha minimal tajribalari tushuniladi. Shu o‘rinda rus pedagog olimi A.V. Xutorskiy “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarini o‘ziga xos tarzda talqin qiladi va o‘qituvchining kompetensiyasini quyidagi qismrlarga ajratadi.

Bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan tayanch kompetensiylar:

Kommunikativ kompetensiya . O‘z ona tilida muloqotga kirishishi, fikrini og‘zaki va yozma bayon qilishda qo‘pol bo‘lmagan xatoliklarga yo‘l qo‘yishi, sodda savollarni to‘g‘ri qo‘ya olishi va asosli javob berishi, o‘z bilimi va kuchiga ishonch tuyg‘usining mavjudligi e’tiborga olinadi.

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi. Mavjud axborot manbalarning (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan qisman ishlay olishi (oddiy tabriknomalar yoza olishi, anketalarni to‘ldirishi va boshq.) e’tiborga olinadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiysi. Shaxs sifatida jismonan, ma’nан, ruhan o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi, o‘z xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholashda qiyalishi, o‘qib-o‘rganganlari asosida chin insoniy sifatlarning shakllanishida ijobji jihatlarning uchrab turishi e’tiborga olinadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiysi. O‘zining fuqarolik burch va huquqlarini qisman bilishi, unga rioya qilishga intilishi. Jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisalar va jarayonlarga e’tibor berishi, munosabat bildirishda va ishtirot etishda ikkilanishi. “Oila manfaati” tushunchasini idrok etishi, uning uchun ma’lum darajada daxldorlik hissining bo‘lishi, kasbhunarga qiziqishining mavjudligi e’tiborga olinadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiylar. “Vatan” tushunchasini anglashi, sharhlay olishi, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lishi, kiyinishi, yurish-turishida madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi, an’ana va marosimlarini nisbatan bilishi hamda ularni asrab-avaylashga bo‘lgan tuyg‘usining shakllanib borishi, axloq-odob qoidalariga rioya qilishi e’tiborga olinadi.

O‘z-o‘zini anglash kompetensiysi- o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U pedagog sifatida atrof-muhitdagи voqeа va hodisalarni mohiyatini ko‘radi va tushunadi, bunga o‘zini yo‘naltiradi, o‘z fikrini asoslay oladi, vaziyatga qarab muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya- o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

Umummadaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish kompetensiyasi - mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etishi, milliy urf-odatlarga hurmat, ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lishi, ilm fanning yangiliklarini inson hayotidagi o'rni va o'quvchi yoshlarga bu ma'lumotlarni tushuntira olishi.

O'quv, biluv jarayoni kompetensiyasi - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrashi, o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmalarni tahlil qila olishi.

Ma'lumotga ega bo'lish kompetensiyasi - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

Ijtimoiy- foydali mehnat kompetensiyasi - oilaviy munosabatlar va ma'suliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi, iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lishi.

O'z ustida ishslash kompetensiyasi - jismoni, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi. Hissiyotini boshqara olishi.

Olimlarning "kompetensiya", "amaliy kompetentlilik" tushunchalari to'g'risidagi nuqtayi nazarlarini ko'rib chiqayotib, biz shunday xulosaga keldikki, uning asosiy elementlaridan biri tarbiyachi o'zining mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtirish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak faqat bizning davlatimizdagina tarbiyachilarga juda katta e'tibor qaratilgan. Bugun tarbiyachi e'tiborda va hurmatda. Ana shu hurmatni yo'qotmaslik tarbiyachining o'zini qo'lida. Kompetensiya ham, kompetentlik ham mutaxassisning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi, sifatining integral tavsiflari bo'lib hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Xutorskoy A.V., Xutorskaya L.N. Statya "Kompetentnost kak didakticheskoye ponyatiye: soderjaniye, struktura i modeli konstruirovaniya" 2004 g.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA AQLIY TARBIYA BERISH VAZIFALARI

Salayeva L. Sh.
MTTDMQTMOI "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi katta o'qituvchisi.

Kirish: Barchamizga ma'lumki tarbiya bu pedagogik tushuncha pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalgal oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Bu tushuncha avvalo pedagogikaning negizida paydo bo'ldi. Ba'zi falsafiy fikrlar quidorlik jamiyatidayoq rivojiana boshlagan deb yuritishadi. Qadimdan inson tarbiyasiga oid bo'lgan fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Unda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan.

«Alpomish», «To'maris» kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari tarbiya negizida ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Bu zotlar, o'zlarining bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali «Kalila va Dimna», Nizomul Mulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnoinoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik», Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Ahmad Yughnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir.

Bu allomalarining asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik, halol mexnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak

axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Ulug' allomalar Suqrot, Aflatun, Demokrit kabi faylasuflar tomonidan murakkab bola tarbiyasi tizimini yaratdi.

O'n sakkizinchi asrga kelib O'rta Osiyoda ham bola tarbiyasi pedagogikada taraqqiy eta boshladi. Asrimiz boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Azizi, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chikdi. Bu olimlar yangi usul maktablar tuzishda, darsliklar yaratishda, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Pedagogika fanining mazmunini boyitib va rivojlantirib boradigan qator manbalar mavjud. Maqollarda, ertaklar va dostonlarda, ashulalarda, udumlarda, topishmoqlarda tarbiya qaqidagi xalq donishmandligini qamrab olingan.

Allomalarning pedagogika nazariyasiga oid fikrlaridan fanda unumli foydalanilmoqda. Va shu barobarida pedagogika fani yangi g'oyalar evaziga boyimokda. Farzandga aqliy tarbiya berishdan maqsad, har bir foydali narsa bilan uning fikrini shakllantirish, mushohada va ilmiy tushunchalarini o'stirish, dunyoqarashini taraqqiy ettirishdan iborat. Toki farzand fikr yurituvchi, ongli va bilimdon bo'lib kamolga yetsin.

Aqliy tarbiya mas'uliyati murabbiylar zimmasiga farzandga ta'lif berish, uning ongini o'stirish va yuksaltirishdan iborat vazifalarni yuklaydi. Islom ulamolari murabbiylarga farzandga aqliy tarbiya berish mas'uliyatini ado etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratishni tavsiya qiladilar: farzandga ta'lif berish vojibligi; tafakkur doirasi, ya'ni ongini o'stirish; sog'lom aqlini muhofaza qilish lozimligi.

Islom ilm dini ekani barchaga ma'lum. Qur'oni karimning ko'plab oyatlari ham ilm haqida tushganligi ilm olishning naqadar zarur va sharaflı ekaniga dalolat qiladi. Murabbiyning eng dolzarb vazifalaridan biri ham farzandni ilmli, ma'rifatli qilib voyaga yetkazishdan iborat.

O'g'il bolalarga o'zlariga xos, qizlarga o'zlariga xos ilmlarni o'rgatish shar'iy nuqtai nazardan lozimdir. Ba'zi odamlarda qiz bola birovning xasmi, shuning uchun qizlarning ilm olishlari shart emas, degan xato fikrlar bo'lgan. Aslida Islomda ayol-qizlarning ilm olishlariga e'tibor juda kattadir. Buning dalili, Islomning dastlabki davlaridayoq ayollardan shoiralar, xattotlar, tabibalar, hadis ilmiga benazir hissa qo'shgan muhaddisalar chiqqanidir.

Bugun yurtimizda yosh avlodga bo'lgan e'tibor, ularni har tomonlama kamolga yetkazish uchun yaratilgan imkoniyatlar hammani hayratga soladi. Zamonaviy o'quv dargohlari, chet eldag'i eng nufuzli oliy ta'lif muassasalarining bo'limlari yurtimizda ochilishi tahsinga loyiqidir. Ayniqsa, qizlarimizga mustaqil hayotlarida asqotadigan, jamiyatga katta manfaat beradigan mutaxassisalarini yetishtiruvchi qanchadan-qancha o'quv muassasalari mavjudligi quvonchlidir. Bu imkoniyatlardan foydalanib, jahon uzra katta yutuqlarga erishib, baland cho'qqilarni egallayotgan yoshlarni ko'rib havasingiz keladi.

Shu bilan birga, bunday shart-sharoitlarning qadriga yetmay, vaqtini behuda o'tkazib, biror ilm yoki kasb egallamay yurgan yoshlarni, ularning ota-onalarini ham ko'rishimiz mumkin. Aqliy tarbiyaning omillaridan biri bolaning ongini to'g'ri shakllantirishdan iborat. Aqlning bebaho ne'mat ekani, inson boshqa mavjudodlardan farqi faqat aqli va zaboni bilan ajralib turishini uqtirish lozim. Bola ongida ona vatan muqaddasligi, uning har bir qarich yeri azizligi, tinchlik-xotirjamlik buyuk ne'mat ekani, ajdodlarimiz haqida, ular erishgan yutuqlar haqida to'g'ri tasavvur paydo qilish, inson qadr-qiymati, mehnatning qadri va samarasi, oila, qarindosh-urug'chilik, jamiyat, qo'ni-qo'shnichilik, mehr-oqibat haqidagi tushunchalarini singdirib borish lozim. Qaysi davrda, qanday ijtimoiy holatda yashayotganimiz haqida ham uqtirish darkor. Yaxshi-yomonni, foydararni ajratish yo'llarini o'rgatish lozim.

Islom dini bolalarga aqliy tarbiya berishda ota-onalar va murabbiylar zimmasiga ularning sog'lom aqlarini muhofaza qilish haqida g'amxo'rlik mas'uliyatini yukladi. ularning aqlarini yetuk, zehnlari musaffo, xotiralari mustahkam va fikrlari sog'lom bo'lishi uchun barcha choralarini ko'rish lozimligini uqtirdi. Bolalarning aqliy jihatdan sog'lom bo'lishlarida ota-ona va murabbiylar qanday ishlarni amalgalashishlari lozim?

Bu mas'uliyatning avvali bolalarning zehni va aqliga salbiy ta'sir ko'rsatadigan illatlardan muhofaza qilishdir. Turli bema'nii o'yinlar, televizor, kompyuter va uyali aloqa vositalaridan

millatimizga, dinimizga xos bo'lмаган ко'rsatuv va axborotlar, behayolikni targ'ib etuvchi ma'lumotlarni olishlaridan ularni ehtiyoj qilish lozim.

Bundan tashqari, ota-onalar va murabbiylar bolalarning aqliy salohiyatlari ko'tarmaydigan yumushlarni buyurmasliklari kerak. Bolalar ko'z oldida janjallar, haqoratlar, vahshiyliklar sodir etilishi ham ularning zehnlariga va aqllariga salbiy ta'sir ko'rsatilishini unutmeylik. Bolalarni yoshlikdan birovga ozor bermaslik, jonli va jonsiz narsalarga zarar yetkazmaslik ruhida tarbiya qilish lozim.

Imom Shofeiydek buyuk zot bir kuni ustozlari Vaki' hazratlariga: "Ustoz, zehnim kun sayin pasayib, xotiram sustlashib ketayotganini sezyapman. Buning oldini olish uchun nima qilay?" – deganlarida, uzot: "Gunoh qilishdan tiyil!" deb nasihat qilgan ekanlar. Demak, gunoh va ma'siyat ham inson xotirasiga, zehniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarning yoshlariga ko'ra, ularni inson aqlini kesadigan, zehnini pasaytiradigan turli zararli spirtli ichimliklar iste'mol qilishdan qaytarish, giyohvandlik kabi illatlarning salbiy oqibatlaridan doimo ogohlantirib turish lozim. Ammo o'zlari mazkur illatlarning sohiblari bo'laturib, o'zgalarni buning yomonligidan qaytarmoqchi bo'lganlar biror xayrli natijaga erishishlari mumkinmi? Inson o'zi amal qilmagan narsadan qanday qilib o'zgani qaytara oladi? Aytgan taqdirda ham so'zining ta'siri bo'larmikan?

Demak, ota-onha o'zi qilmagan narsani yoki o'zi saqlana olmagan narsalarni bolalarga buyursa, bu yaxshi natija bermaydi. Balki farzandlar yoshlikdan aldovga, nifoqqa o'rganadi. Bundan ehtiyoj bo'lish har bir ota-onha va murabbiyning vazifasidir.

AQLIY TARBIYA — shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni toplash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko'nikmalar, ya'ni har qanday fanni o'rganishda qo'llaniladigan umumiyoq o'quv ko'nikmalar — o'qish, tinglash, o'z fikrini og'zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishslash, mustaqil ishslash malakalarini shuningdek biror fanni egallah bo'yicha zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalar (chizma, xaritalarni o'qiy bilish, ularning natijalarini chiqara olish)ni egallahdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ya'ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham Aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Bunda bolalar hayotining dastlabki yilidayoq atrofni o'rabi turgan barcha narsalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Aqliy tarbiya ta'lim, o'yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda ro'y beradi.

Aqliy tarbiya – shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni toplash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasnif-lash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko'nikmalar, ya'ni har qanday fanni o'rganishda qo'llaniladigan umumiyoq o'quv 854ko'nikmalar – o'qish, tinglash, o'z fi-krini og'zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishslash, mustaqil ishslash malakalarini shuningdek biror fanni egallah bo'yicha zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalar (chizma, haritalarni o'qiy bilish, ularning na-tijalarini chiqara olish)ni egallahdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllanti-rish, ya'ni bolalarga olam ilmiy manza-rasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham Aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Bunda bolalar hayotining dastlabki yilidayoq atrofni o'rabi turgan barcha narsalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki Aqliy tarbiya ta'lim, o'yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda ro'y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bojovich L.I idrugie Oprъt eksperimentalъnogo izucheniya proizvolъnogo povedeniya (Voprosi psixologii -1997-№ 4)
2. Ivannikov V.A Psixologicheskie mexanizmi volevoy regulyatsii M.; 1998
3. Selivanov V.I. Izbrannye psixologicheskie trudy -Ryazanь 1992
4. Sherbakov A.I Voevъe protsessъ i svoystva lichnosti- M 1991
5. E.G'oziev Psixologiya T.; “O'qituvchi” 1994 y

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA O'YIN ORQALI TA'LIM BERISH IMKONIYATLARI

Salimova D. F.
MTTDMQTMOI tayanch doktoranti.

Jahon miqyosida maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning asosiy omili shaxs kamolotini ta'minlovchi, ta'limiy muhitni yaratuvchi va ijodiy yo'nalganlilik orqali o'yinlar vositasida bolalarga ta'lism-tarbiya berishni taqozo etmoqda. Maktabgacha ta'lism tizimida bolalarni o'yinlar vositasida axloqiy sifatlarini oshirish jarayonini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish metodikalarini loyihalashtirish, bolalarning iqtidori, ob'ektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunda bolalarning o'yin vositasida axloqiy sifatlarini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishga alohida e'tibor berilib, maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyalanuvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yinlar o'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, vositalarning turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra xilma-xildir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarini quyidagicha tasniflagan:

1. Bolalardagi ruhiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan o'yinlar:
 - harakatli;
 - intellektual;
 - estetik.
 2. Texnikaviy o'yinlar:
 - san`at o'yinlari;
 - qishloq xo'jaligi o'yinlari;
 - kasb bilan bog'liq o'yinlar;
 - qurilish o'yinlari.
 3. Hayotiy-ijtimoiy o'yinlar:
 - oila hayotiga doir;
 - bog'cha, mifik;
 - ijtimoiy hayot bilan bog'liq;
 - ijtimoiy-siyosiy o'yinlar;
 4. Harbiy o'yinlar:
 - "Askar-askar" o'yini;
 - "Dengizchi (matroschi)" o'yini.
 5. Dramalashtirilgan o'yinlar:
 - teatr;
 - kino;
 - sirk.
- Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarini D.B. Elkonin o'z navbatida quyidagicha tasniflagan:

- maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar;
- ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar;
- ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

Bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishni to‘g’ri tashkil etish orqali o‘yin syujetining ko‘lami kengayishi mumkin. Bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan kunda ularning o‘yinlari faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, mashg’ulotlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o‘yinlarning turlari ko‘payib, bog’cha, hayvonot bog’i, oshxona, poyezd, sartaroshlik, sotuvchilik kabi o‘yinlar qo‘silib boradi. Bolalar o‘yinlarining ko‘payib borishi ularning yosh xususiyatlari bilan ham izohlanadi. Bolalar o‘sib-ulg’aygan sari ularning o‘yinlar syujeti tobora boyib, xilma-xillashib boraveradi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning barcha o‘yinlari o‘zining mazmuni, xususiyati va tashkil etilishiga ko‘ra ikki katta turkumga bo‘linadi:

1. Ijodiy o‘yinlar.

2. Qoidalı o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlarni bolalarning o‘zları o‘ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo‘yilgan qoidalari bo‘lmaydi. Qoidalari bolalar tomonidan o‘yin jarayonida o‘ylab topiladi. Qoidalı o‘yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. O‘yin davomida bu qoidalarga amal qilinishi shart.

Ijodiy o‘yinlarga:

- syujetli-rolli o‘yinlar;
- sahnalashtirilgan o‘yinlar;
- qurish va yasashga doir o‘yinlar kiradi.

Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks etadi. Bunday o‘yinlar mustaqil o‘yin bo‘lib, uning mazmunini ishtirokchilarning o‘zları o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolaning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatları to‘la namoyon bo‘ladi. O‘yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab, o‘yinga tatbiq etiladi. Bu bolaning o‘yin g‘oyasini yaratishida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashida namoyon bo‘ladi. Bolaning tevarak-atrofidagi hayotdan – tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o‘yinlarda qayta ishlanadi, to‘ldiriladi, sifat jihatidan o‘zgartiriladi. Bolalarning bunday o‘yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Syujetli-rolli o‘yinlar o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Rolli o‘yinlar bolalarning kuzatuvchanligi, qiziquvchanligini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi. Bola o‘z o‘yinida borliqni aks ettirib olgan rolining mazmuni bilan bog’liq bo‘lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi.

“Bolalar bog’chasi”, “Maktab” kabi o‘yinlar bolalarda do‘stlik, o‘rtoqlik, burch hissi, jamoatchilik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Rolli o‘yinlarda har bir bola o‘zi olgan rolini bajaradi. Masalan, quruvchi, haydovchi, tarbiyachi, enaga, o‘qituvchi kabilar. Syujetli-rolli o‘yinlarda bolalar avval katta bo‘lмаган guruhlarda 2-3 kishidan bo‘lib o‘ynaydi. Katta va tayyorlov guruhlarida esa ko‘p sonli jamoalarga birlashadi. O‘yinda o‘rtoqlik munosabatlari shakllanadi. Uch yoshda bolaning o‘yinlari yangicha tus oladi. Bola o‘z o‘yinlarida sekin-asta murakkab bo‘lмаган syujetli o‘yinlarni o‘ynay boshlaydi. Uch yoshning oxiriga kelib, bola rol tanlay boshlaydi (“Men oyisiman”, “Men shifokorman” tarzida). Bolalar to‘rt yoshga yetganda, syujetli rollar ancha rivojlanadi. Bu yoshdagagi bolalar o‘z o‘yinlarida oila, bog’cha, avtobusdagagi voqealarni aks ettiradi. Bola besh yoshga qadam qo‘yganda, undagi kuzatuvchanlik yanada ortadi, tafakkuri rivojlanib, bilish doirasi kengayadi. Shu sababli o‘yin mazmuni murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanishi orqali ertak va hikoya mazmuni bo‘yicha o‘yinlar o‘ynaydi.

Katta bog’cha yoshida ijodiy o‘yinlar juda yaxshi rivojlanadi. Bu o‘yinlarda bolalar o‘zları eshitgan, ko‘rgan voqealar, hikoyalar, kitob va boshqa manbalardan olgan bilim, malaka, his-hayajonlarini to‘liq qo‘llay boshlaydilar. Uzoq muddat davom etadigan o‘yinlar maktabgacha yoshdagagi bolalar o‘yinlarining yuqori bosqichidir. Katta guruh yoshidagi bolalar o‘yinlariga to‘g’ri rahbarlik qilinsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga keladi. Rolli o‘yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar. O‘yin jarayonida ular ba’zi bir narsalarni xohlaganicha nomlab,

faraz qilib o‘ynaydilar. Masalan, qumni shakar, stulni mashina, danaklarni konfet o‘rnida qabul qiladilar. Aks ettiruvchi vosita qancha ko‘p bo‘lsa, o‘yin mazmuni shunchalik boyib boradi. Psixolog J. Piaje o‘yinda jismlargacha yangi nom berish omiliga jiddiy e’tibor bilan qarab, bu ish ramzli, ma’noli tasavvur shakllarining tayanchi, degan xulosaga kelgan.

O‘yin davomida bola shaxs sifatida shakllanib boradi. Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, bolalar o‘yinlariga har tomonlama to‘g’ri rahbarlik qilish orqali ularga o‘yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi bolalar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar, o‘yinlarning rivojlanib, takomillashib borishiga ta’sirini ko‘rish mumkin. Bolalar o‘yinlarining ikkinchi turkumi qoidali o‘yinlardir. Bunga quyidagilar kiradi:

- didaktik;
- harakatli;
- musiqaviy;
- ermak o‘yinlar.

Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoni maktabgacha ta’lim-tarbiya tashkilotlarida axloqiy tarbiyalashning, bilishga qiziqishning rivojlantirilishi ustunlik qilishi asosiga tuziladi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi boladan insoniylikning namoyon qilinishi emas, balki turli ilm-fan sohalariga tegishli bo‘lgan bilimlarning mavjudligi talab qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda biz tarbiyachilarga ularning munosabatlarini o‘yinlar orqali yetarli darajada pedagogik tartibga solish bo‘yicha ushbu tavsiyani keltiramiz:

“Sen qanday qilar eding?”

Maqsad: Axloqiy xulq me’yorlarini aniqlash va mustahkamlash. Bolalarga qanday o‘zini tutishi kerak va nima uchun unday qilishi kerakmasligini tushuntirish.

Borishi: “Bolalar ushbu suratga diqqat bilan qaraymiz va qanday hodisa sodir bo‘lganini aytib beramiz. Nimani ko‘ryapsiz? (olmaxon bilan birga o‘ynashmayapti, u yig’lab o‘tiribdi, mushuk bilan quyon esa bo‘ridan qo‘rqib ketishdi va hokozo);

O‘ylab ko‘ringchi nima uchun bunday bo‘ldi? (mushukchalar olmaxon bilan o‘ynashni hohlashmayapti, chunki u doim ular bilan urishib hafa qilar ekan; bo‘ri mushuk va quyonni doim hafa qilib aldagani uchun u bilan o‘ynashni hohlashmayapti va hokozo);

Bolalar nima deb o‘ylaysizlar ular qanday yo‘l tutishlari kepak edi? (muloyim bo‘lish kerak, bolalar bilan urushmaslik va hafa qilmaslik kerak; do‘splashish zarur; yolg’iz o‘ynash yomon, zerikarli va qiziqarsiz shuning uchun ham birgalikda do‘sht bo‘lib o‘yinchoqlarini baham ko‘rib o‘ynash kerak va hokozo);

Yakuniy qism: Shunday ekan, bolajonlar yaxshilab o‘ylab ko‘rib aytingchi, sizlar ham do‘stona munosabatdamisizlar; bir-biringizni hafa qilmayapsizlarmi; o‘yinchoqlar bilan bo‘lishasizlarmi; do‘splasharingizga yolg’on gapirib ularni aldamaysizlarmi.

Olib borilgan o‘yin davomida bolalarning xatti-harakatlari tahlil qilinadi. Bolalar “Sen qanday qilar eding?” nomli o‘yin mashqlarida faol qatnashadilar, illyustrasiyalarga zavq bilan qarashadi, personajlarning axloqiy harakatlarini tushuntirishadi. Ular o‘yin davomida o‘z nutqlarida axloqiy sifatlarni aytib o‘tadilar: do‘stona, yaxshi, odobli, mehribon, halol, itoatkor, ochko‘z emas.

Bolalar suhbat davomida ham e’tiborli bo‘lishadi, tarbiyachining tushintirishlarini diqqat bilan tinglashadi va o‘zlari ham misollar keltipishadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PQ-4312-sон Qarori.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi 2018 yil
3. Пиаже Жан «Психология интеллекта» Издательство: «Питер» 2003 г. ISBN: 5-94723-096-8.

INKLYUZIV XIZMAT KO'RSATISHDA TA'LIM BERISH, TARBIYA BERISH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Todjibaeva K. S.
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'PFITI doktoranti.

Sharqning mashxur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniyarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri tug'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi xisoblanadi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Inklyuziv ta'lim bu - alohida xususiyatlardan qat'i nazar, barcha bolalarning ehtiyojlarini teng ravishda tushunishga va qondirishga qaratilgan o'quv modeli. Shunday qilib, u har bir shaxsning jinsi, yoshi, kelib chiqishi, millati va madaniyatidan qat'i nazar nimaga muhtojligini tushunishga harakat qiladi.

Inklyuziv ta'lim, umuman olganda, ijtimoiy chetga chiqish yoki marginallashuv epizodlarini boshdan kechirish xavfi yuqori bo'lgan bolalarga yordam berishga alohida e'tibor beradi. Ushbu guruh tarkibida odatda barcha turdag'i ozchiliklar, nogironlar yoki iqtisodiy resurslari kam oilalar a'zolari mavjud.

Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun mактабда maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiyo'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

rivojlanishning turli imkoniyatlari ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlanirish;

barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiyo'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1) Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3) Bog'lanishning mayjud bo'lishi tamoyili.
- 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

- 5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7) Malakaviylik tamoyili.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga **quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:**

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'limgan bolalar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'limgan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi — pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;
- intellektual rivojlanishi saqlanib qolning, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinmaydi:

- aqliy rivojlanishi o'ta zaif bolalar;
- xulq-atvorida og'ir buzilishlar, hissiy-irodaviy sohasida (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar;
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar;
- ko'r-kar-soqov bolalar;
- tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtarda tutqanog'i tez-tez takrorlanadigan) bolalar;
- markaziy asab tizimiga shikast yetganligi tufayli siyidik va najasini ushlab turolmaydigan bolalar.

Bolaning aqliy jihatdan tez va nuqsonlarsiz rivojlanishi uchun qo'llaniladigan usullardan na'munalar:

1. Glen Doman usuli

Ko'pgina tortishuv va muhokamalarga sabab bo'lgan usullardan biri bo'lib, o'tgan asrning 40-yillarida o'z ibtidosini boshlagan, harbiy shifokor, amerikalik Glen Doman tomonidan ishlab chiqilgan. Glen Doman urush yillarida og'ir miya jarohati olgan bolalarni davolaydi. Bemor bolalarga katta-katta qizil harfli so'zlar yozilgan kartochkalar ko'rsatilardi va bir vaqtning o'zida unda yozilgan so'zlar talaffuz qilinardi. Darslar juda qisqa bo'lib, 5-10 soniya davom etar, ammo kun davomida bir necha marotaba takrorlanardi. Bu shaklda mashg'ulotlarda ishtirok etgan falaj holatida yotgan bolalar sekin-asta harakat qila boshlaydi, keyinchalik emaklash, yurish va hatto sog'lom bolalar kabi yugurish qobiliyatları ham tiklanadi. Shu sababli, Glen Doman bir vaqt ni o'zida ham oddiy hamda genial xulosaga keladi: ko'zni doimiy ravishda stimulyasiya qilish miya faoliyatining umumiy faollashishiga sabab bo'ladi.

Shundan so'ngra Doman bu usulni sog'lom bolalarda ham sinab ko'radi. Bola tug'ilgandan e'tiboran unga bu kabi kartochkalar ko'rsatiladi. Kartochkadagi so'zlar turli tuman bo'lishi mumkin: nuqtalardan iborat sonlar, qizil rang bilan yozilgan harflar, hayvonlar rasmi, arboblar

rasmi, tabiat hodisalari va hokazo. Bunday kartochkalarni Doman: ma'lumot bitlari deb atardi. Kartochkalar kun davomida bolaga bir necha marta, bir necha soniyaga ko'rsatilardi. Doman o'z usulini qo'llash natijasida daholarni tarbiya qilishiga ishonardi. Bu fikrni ko'pgina pedagog va psixologlar yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun ko'rish natijasida yuzaga kelgan taassurotlar muhim ekanligini tan olishlari ham tasdiqlaydi.

2. Valdorf pedagogikasi

Bu ta'lim usuli olim va pedagog R.Shtayner falsafasiga asoslangan bo'lib, uning mohiyatida shaxsiyatning ruhiy va estetik rivojlanishiga qaratilgan, bolaning aql-zakovati esa unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Shu sababli, usul – tabiat, ijod va kasb hunarlarni kuzatishni o'z ichiga olgan. Valdorf ta'limi markazlarida o'quvchilar ganchkorlik, turli musiqa asboblarini chalish, xalq hunarmandchiligi, turli sahna ko'rinishlarida ishtirok etish (aktyorlik mahorati) kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar. O'qish uchun mashg'ulotlarni esa bola 12 yoshga kirgandan so'ngra boshlash tavsiya qilinadi. Ta'lim vaqtida bolaning asosiy bilim manbai va yo'naltiruvchisi o'qituvchidir. Dars o'qituvchi va o'quvchi orasidagi suhabat tarzida o'tkaziladi. O'qituvchi darsni hikoya qilib bergach, o'quvchi o'z tushunganlarini hissiyotini so'zlash va ko'rsatish bilan namoyish qilishi lozim.

Albatta, Valdorf usulining ham o'ziga yarasha kamchiliklari bor. Ba'zilarning fikriga ko'ra, bu usul real hayotdan uzoq bo'lgan vaziyat yaratishi ehtimoli katta. Undan tashqari, bolaning normal rivojlanishida asossiz to'sqinlik yuzaga keladi, 12 yoshda o'qishni o'rgana boshlash bola uchun juda kech. Bu usulda asos qilib olingen estetik tarbiya esa mantiq va tafakkur rivojlanishini cheklanishiga olib keladi. Valdorf usuli giperaktiv, asabiy, agressiv, o'ziga ishonchi yo'q va e'tibori past bo'lgan bolalar uchun foydali.

Ammo ota-onasi davlat ishida ishlovchi bolalarga bu usul sizga to'g'ri kelmasligi mumkin. Chunki ota-onalar farzandlari bilan birgalikda chevarlik, ganchkorlik kabi hunarlarni birga bajarishlari lozim. Dars davomida butun e'tibor bolaga qaratiladi, ota-onalar esa vaziyatga moslashadi va faqat yordamchi vazifasini bajaradi. Valdorf pedagogikasi bolaning sog'lom o'sishiga negativ ta'sirining oldini olish uchun ta'lim tizimida hech qanday shoshilishga yo'l qo'yaydi.

3. Montessori usuli

Mariya Montessorining usuli bolalarga o'yin shaklida ta'lim berish, mashqlarni esa mustaqil ravishda bajarishiga asoslangan. Har bir bolaga uning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondoshiladi. Bola o'zi mustaqil ravishda materiallarni tanlaydi va dars vaqtini belgilaydi, ya'ni individual tarzda shakllanib boradi. Bu usulning asosiy maqsadi, bolaga o'z individual qobiliyatlarini namoyon qilish istagini uyg'otishdir. Montessorining usuli boshqa erta ta'lim usullaridan tubdan farq qiladi. U bolaga o'z qilgan xatolarini topib ularni to'g'irlash huquqini beradi. O'qituvchining vazifasi esa bolani mustaqil harakatlanishga undash, o'qitish emas. Usul yordamida bolaning mantiq va ijodiy tafakkuri ortadi, diqqat-e'tibori, xotira, nutq, tasavvur etish, motorikasi rivojlanadi. Undan tashqari, Montessori uslubi kollektiv bilan o'yin va mashg'ulotlarga ham alohida e'tibor qaratadi, bu esa bolada boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirishish, maishiy faoliyatini yo'lga qo'yish va shu bilan birga o'z mustaqil fikriga ega bo'lish layoqatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Bosh assambleyaning 1989-yil 20-nyabrdagi 44/25-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan.
2. 2020-yil 29-maydagi PQ-4736-sonli "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2020 y., 07/20/4736/0680-son
3. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. –Toshkent, O'qituvchi, 1990.
4. Dr. Smriti Swarup Education of children with special needs National Council of Educational Research and Training, 2006 11-13-betlar.

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANIB BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH YO'LLARI

Umataliyev Z. A.
MTTDMQTMOI tayanch doktoranti.

Zamonaviy tarbiyachi-pedagoglar maktabgacha ta'lismizning muhim ishtirokchisi sifatida ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Tarbiyachilarimiz hozirgi talablarga mos bilimlar egasi, takomillashgan davlat ta'lismiz dasturini egallagan bo'lishlari kerak. Tarbiyachi pedagoglar o'zlarining kasbiy-ko'nikmalari va pedagogik mahoratlarini doimo rivojlantirib borishlari kerak. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat dasturini amaliyatga tatbiq etish, maktabgacha ta'lismizda olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash, maktabgacha ta'lismizda tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pedagoglarining ma'naviy qiyofasi hamda pedagogik mahoratlariga bog'liqdir. Shaxsni tarbiyalash jarayoni nihoyatda murakkab jarayon hisoblanib, avvalgi davrlardan mazkur faoliyatga jamiyatning yetuk mutaxassislarini jalb etilgan. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs komilligi, balki davlat rivojini ham belgilashda muhim ahamiyatiga ega ekanligini anglatadi.

Maktabgacha ta'lismiz jarayonini tashkil etish va amalga oshirishdan, uning har bir qism va bosqichlarini izchil asoslangan, yakuniy natijani haqqoniy tashxislashga yo'naltirilganlikka o'tish uchun asos zarur. Bu barcha davlat tashkilotlarining vazifasi eng avvalo, uzlusiz ta'lismiz tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan isloh qilish, qayta ko'rib chiqishni taqozo etadigan murakkab jarayondir. Ijtimoiy amaliyat, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lismiz va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi barkamol shaxsni tarbiyalashning asosini tashkil qiladi. Maktabgacha ta'lismiz jarayonini takomillashtirish hamda moddiy texnika bazasini yangilash birinchi navbatda, yosh avlod an'analari insonparvarlik va ma'naviy qadriyatlarni singdirish orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda bugungi kun tarbiyachisiga qo'yilayotgan talablar mazmuni tushuniladi. Zamonaviy tarbiyachi qanday bo'lishi zarur? Maktabgacha ta'lismiz tizimi alohida tizim sifatida faoliyat boshlagan vaqtidan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va soha mutaxassis olimlari o'z fikr va mulohazalari bilan bildirdilar. Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida yanada rivojlantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'la boshladi. Hozirgi kunga kelib ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Pedagogik dasturiy vositalar - kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lismiz jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Bo'lajak tarbiyachini pedagogik mahoratini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Fan mazmunlarining nazariy va amaliy mashg'ulot jarayonlarini dasturiy ta'lismiz vositalaridan foydalanib, ko'rgazmali tashkil etish bo'lajak tarbiyachilarning kompyuter savodxonligini oshirish va ularda amaliy kompetensiyalar hosil qilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik dasturiy vositalar asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy mahoratini rivojlantirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimidagi eng muhim metodik muammolardan biri hisoblanib, bu sohadagi vazifalarning samarali yechimi, pedagogika kollejlaridagi o'qitish jarayonini innovatsion talablar va kasbiy kompetentlikka asoslangan ta'lismiz sharoitida amalga oshirish bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni har bir tarbiyachidan katta aql-zakovat, sabr- toqat, tarbiyachilarga va o‘z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo‘lishlikni talab etadi. Tarbiyachining doimo izlanuvchan, bilimlari va ish tajribasini rivojlantiruvchi bo‘lishi tarbiyalanuvchilarni chuqur tushunishi, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o‘sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borish va zarur paytida so‘z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta’lim va tarbiya jarayoning muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillardir. Kasbiy pedagogik tajribaga ega bo‘lgan tarbiyachilar ham ko‘pincha o‘z ishlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar. Ular turli ko‘rgazmali quollar, taqdimotlar, pedagogik dasturiy vositalarni tayyorlaydilar, pedagogik ishini yaxshi tashkil eta oladilar. Tarbiyachilarning qabul qilish darajalari ham ijobiy tomonga o‘zgaradi. Aslida bu ishlar har bir tarbiyachi intilishi, bajarish lozim bo‘lgan odatdagagi ish hisoblanadi. Tarbiyachi agar kreativ bo‘lsa, ta’lim-tarbiyaviy ishini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib boradi. Ya’ni u ishni odatdagidek emas balki kreativ va innovatsion ravishda tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova Z.D. (2020). Didakticheskiye osnovy razvitiya i budushchikh uchiteley kreativnogo myshleniya. *European science*, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.
2. Kuliyeva Sh.X., Rasulova Z.D. (2016). Formirovaniye professionalno-pedagogicheskoy kompetentnosti budushchikh spetsialistov na osnove informatsionnykh texnologiy. *Molodoy uchyonpyu*, №8 (112), S. 977-978.
3. Anorkulova G.M., Kuliyeva Sh.X., Rasulova Z.D. (2015). Model podgotovki uchiteley professionalnogo obrazovaniya na osnove sistemnogo podxoda. *Molodoy uchyonpyu*, 93:13, S. 590-592.
4. Kaxxorov S.K., Rasulova Z.D. (2020). Kompyuternye texnologii obucheniya kak vajnyy faktor dlya uluchsheniya protsessa prepodavaniya. *Sovremenныe innovatsii*. 36:2, S. 44-46.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Хурвалиева Т. Л.

Чирчикский государственный педагогический университет, доктор педагогических наук (DSc), доцент.

Абдужалилова М. М.

Чирчикский государственный педагогический университет магистрант 1 -курс.

Дошкольный возраст период наиболее интенсивного развития воображения и наглядно-образного мышления, которые являются здесь основными формами познания. Для него характерны вне ситуативные речевые формы общения со взрослым. Более богатым и содержательным становится общение детей друг с другом. Сверстник для дошкольника становится более предпочтительным партнером по совместной деятельности, чем взрослый. В этот период начинает формироваться мораль, и дети относят поступки и качества людей к моральным категориям и дают им оценку.

В этой сензитивный период для развития многих человеческих способностей, усвоения знаний и умений, поэтому дошкольное обучение и воспитание является традиционным и развитым направлением педагогики. Возраст от 2 до 5 лет - время наиболее бурного развития ребенка. Символ, как мостик от одной реальности к другой, позволяет ребёнку в 4-5 летнем возрасте соединять объекты и понятия.

Д.Б. Эльконин отмечал, что в дошкольном возрасте ориентирующий поведение образ сначала существует в конкретной наглядной форме, но затем он становится все более и более обобщенным, выступающим в форме правила, или нормы.

При определении понятия «возраст» А.Н. Леонтьев отмечает: "Изменение места, занимаемого ребенком в системе общественных отношений – есть то, что надо отметить, пытаясь ответить на вопрос о движущих силах развития его психики". В работах А.Н. Леонтьева стадия развития личности определена следующими моментами: местом ребенка в системе общественных отношений и ведущим типом деятельности.

В культурно-исторической теории (Л.С. Выготский) возраст определяется отношением социальной ситуации развития и новообразованиями (структурой личности, сознания), а в теории деятельности – отношением места ребенка в системе общественных отношений и ведущей деятельностью.

Изучая проблемы возрастной периодизации развития, современная отечественная психология опирается на несколько основных принципов:

1. Принцип историзма, позволяющий последовательно анализировать проблемы детского развития, возникавшие в разные исторические периоды времени.

2. Биогенетический принцип, позволяющий системно изучить важнейшие проблемы детского развития с учетом взаимосвязей движущих сил и факторов психического развития в каждом возрастном периоде.

3. Принцип анализа развития основных аспектов человеческой жизни-эмоционально-волевой сферы, интеллекта и поведения.

Переходы из одного возраста в другой сопровождаются изменением физических данных и психологических характеристик ребенка, их называют кризисами возрастного развития. Кризис говорит о том, что и в организме и в психологии ребенка происходят изменения, что в развитии возникают некоторые проблемы, которые ребенок не может самостоятельно разрешить. Преодоление кризиса означает переход на более высокую ступень развития, в следующий психологический возраст.

При всей важности познавательного развития ребенка его гармоничное становление невозможно без эмоционального отношения к окружающему в соответствии с ценностями, идеалами и нормами общества.

Путь познания, который проходит ребенок от 3 до 7 лет, огромен. За это время он узнает столько об окружающем мире и так овладевает различными интеллектуальными операциями, что многие психологи и педагоги прошлого полагали, что ребенком-дошкольником пройден основной путь развития мышления и что в дальнейшем ему предстоит лишь усвоение добытых в науке знаний. В известном смысле можно сказать, что у него есть свой взгляд на мир и из этого мира не исключен и он сам, и его взаимоотношения с другими людьми. Можно сказать, что в период дошкольного детства действительно формируется особое детское миропонимание, в которое входит некоторое общее представление о мире, отношение к нему и отношение к себе в этом мире.

Список литературы

- 1.Божович Л.И. Психологические вопросы готовности ребенка к школьному обучению. Вопросы психологи ребенка дошкольного возраста / Под ред. А.Н.Леонтьева, А.В. Запорожца. М.: Просвещение, 1995.
- 2.Концепция дошкольного воспитания / Под ред. В.В. Давыдова. М., 1988.
- 3.Лисина М.И. Общение, личность и психика ребенка. М.: Воронеж, 1997.
- 4.Особенности психического развития детей 6-7-летнего возраста / Под ред. Д.Б. Эльконина, Л.А. Венгера. М.: Педагогика, 1988.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK
JARAYONLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Yoqubova X. M.

Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shaxar 33-

DMTT tarbiyachisi.

Murodova A. B.

MTTDMQTMOI «Pedagogika va psixologiya»

kafedrasи katta o'qituvchisi.

Maktabgacha ta'lismutaxassislari ta'litmizda innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy maktabgacha ta'litmashkilotlarini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrlarni bildirishadi. Maktabgacha ta'litmashkilotida ta'limiy faoliyat jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish psixofizik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'litmashkiloti pedagoglari tomonidan har doim ijobiy seziladi, ular faoliyatni osongina o'zgartiradilar. O'z navbatida, tashabbus pedagogik kompozitsiya Ota-onajamoatchiligi, maktabgacha ta'litmashkiloti tarbiyalanuvchilarining oilalari bilan o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, shuningdek, muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham. Biroq, buni yodda tutish kerak pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta'litmashkiloti ta'limiy faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

Milliy ta'lirmavnaqini ta'litm-tarbiya amaliyotiga samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi. Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanan tarbiyani ta'limga bog'lash, har ikkisini tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini uyuştirishga, mustaqil fikrashga yo'llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Demak, pedagogik innovatsion texnologiya ta'litm-tarbiya jarayonini ilg'or vositalar, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayaniib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim tarbiyachi tomonidan yaratiladi, ta'litm-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'litm-tarbiyaning shakillari va vositalarini tayyorlash, tarbiyalanuvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ta'litmjarayonida bolaning tutgan o'rni, ya'ni bolaga kattalar tomonidan ko'rsatilgan munosabat pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatidir. Ta'limiy faoliyat orqali samarali natijalarga erishish ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi. Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, raxbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va mahoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta'sir ko'rsatish, bolani eng ko'p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qullab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'litmashkilotlarida – o'yin faoliyatlarida, sayr davomida qo'llash yaxshi samara beradi. Hozirgi kunda ta'litmjarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligni ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoanining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Bugungi kunda ta'lif muassalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'lifni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'lifni amalga oshirish masalasi alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogi ta'lif-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan ta'lifi faoliyatlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lif tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlarini tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lif muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o'quvchilarning bilimli va etuk malakaga egaligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovatsion ta'lif texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Zakirov A. A.

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi,
mehnat sohasini boshqarish fakulteti dekani
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Qosimova Sh.

MTTDMQTMOI katta o'qituvchisi.

"Bola hayotidagi eng muhim davr - bu aqliy faoliyat rivojlanib, axloqiy va estetik g'oyalar va jismoniy fazilatlar shakllanadigan maktabgacha yosh. "Shunga asoslanib respublikada kelgusi yillarda maktabgacha ta'lifni rivojlanirishning strategik maqsadi respublikaning barcha bolalarini to'liq qamrab olish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'lib qoladi.

Prezident kelasi yil maktabgacha ta'lif bilan qamrab olishni 67 foizga, 2025 yil oxiriga qadar 80 foizga etkazish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, byudjetdan 600 mlrd. Shu bilan birga,

2021 yilda maktabga bepul tayyorgarlik tizimi 560 mingni yoki olti yoshli bolalarning 82 foizini qamrab oladi. Shunga qaramay, allaqachon qilingan ishlarni eslatib o'tish joiz. Yangi yil arafasida biz maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina SHIN bilan sohaning eng muhim yutuqlari, shuningdek yaqin kelajakdagi rejalar haqida suhbatlashdik.

- Maktabgacha ta'lim vazirligi 2017 yilda tashkil etilgan. Shu vaqtidan beri ko'p vaqt o'tmadi, shunga qaramay, bugungi kunda ham biz DL tizimidagi jiddiy o'zgarishlar haqida gapirishimiz mumkin, ularning maqsadi bolalar bog'chalarida ta'lim jarayonining sifatini oshirishdir. Shu nuqtai nazardan, men sizning fikringizcha, so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar maktabgacha ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda eng muhim rol o'ynagan narsani bilmochiman?

- So'nggi yillarda davlat uzlusiz ta'lim tizimini rivojlantirish, sog'lom, rivojlangan bola shaxsini shakllantirish, ta'lim xizmatlari sifati va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. So'nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar bosqichini chinakam tarixiy deb atash mumkin. Maktabgacha ta'lim sohasi uzoq vaqt davomida o'zgarishlarni kutmoqda. Hech kimga sir emaski, bolalarni maktabga tayyorlash sohasidagi bir qator tizimli muammolar uzoq vaqt davom etgan. Nisbatan qisqa vaqt ichida biz ko'rsatkichlarni oshirishga, O'zbekistonning yosh fuqarolarini yuqori sifatlari maktabgacha ta'lim bilan ta'minlashga qaratilgan ko'plab loyihalarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldik.

Endilikda kafedraning oldida maktabgacha ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha muhim vazifalar turibdi. ularni o'quv-uslubiy, didaktik materiallar va o'qituvchilarning malakasini oshirish bilan ta'minlash.

Raqamlar vazirlikning o'tgan yillardagi faoliyati natijalarini ko'rsatadi. Shunday qilib, shu vaqt ichida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ikki baravarga oshdi, biz butun respublika bo'ylab 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan deyarli bir yarim million bolani qamrab olishga muvaffaq bo'ldik, bu mamlakatdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning 54 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlashni istardimki, 2017 yilda ECE markazlarida 708 247 bola qatnashdi, bu atigi 27 foizni tashkil etadi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtida respublikaning barcha hududlarida bolalar bog'chalari sonining o'sishining ijobjiy dinamikasi kuzatilmoqda. Hozir mamlakatda 14181 ECE markazlari mavjud (2017 yilda ularning soni 5211 edi). Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, 2020 yil oxiriga qadar maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-7 yoshgacha bo'lgan 1 million 646 ming 930 (59,5 foiz) bolalarni qamrab olish rejalashtirilgan, 2030 yilgacha ko'rsatkichni 80,8 foizga etkazish. Bu respublikamizda tug'ilishning yuqori darajasini saqlab qolish fonida bizga ishonib topshirilgan juda katta va mas'uliyatli vazifadir.

Mamlakat Prezidenti maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Natijada sohaning huquqiy va me'yoriy-huquqiy bazasi sezilarli darajada takomillashtirildi. Tegishli vazirlik tashkil etilgandan buyon faoliyatimizning barcha sohalarida, shu jumladan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi qonunda 65 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bularning barchasi amaliy harakatlar uchun qo'llanma, shuningdek barqarorlik va farovonlikning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Men alohida-alohida o'quv jarayoni sifatini oshirish va maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish sohasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida to'xtalmoqchiman. Shunday qilib, 2018 yilda YuNISEFning ko'magi bilan Erta va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan Davlat talablari hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bundan tashqari, YuNISEF va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi bilan birgalikda o'quv jarayoni sifatini baholashni o'lhash tizimi ishlab chiqildi va tasdiqlandi hamda asosiy ko'rsatkichlar va vositalar aniqlangan.

O'zbekistondagi olti yoshli bolalarni ko'pchiligini tayyorlashning hozirgi holati va darajasi mavjud usullarni qayta ko'rib chiqishni va o'quv jarayonini tashkil etish, maktabgacha ta'lim

tizimida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. . Shu maqsadda, 2020 yil 9 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Biz 2025 yilgacha barcha olti yoshli bolalarni mактабгача тайяргарлик билан то'лиқ қамраб олишни режалаштироқдамиз. Ушбу ўналишда бизда кatta тажриба mavjud, chunki biz 2018/2019 o'quv yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona shaharlari va tumanlarida tashkil etilgan 494 guruha bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlashni joriy etish loyihasini amalga oshirdik. viloyat va Toshkent. Asosiy maqsadlardan biri kelajakdagi birinchi sinf o'quvchilariga boshlang'ich ta'limga olish uchun teng imkoniyatlar yaratish edi.

- Maktabgacha ta'limga xizmatlarini ko'rsatishda moslashuvchanlikni ta'minlash, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun maktabgacha ta'limga muqobil shakllarini joriy etish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Masalan, davlat-xususiy sheriklik doirasida oilaviy bolalar bog'chalari ko'rinishidagi ta'limga muqobil modeli amalga oshirildi. Respublika miqyosidagi maktabgacha ta'limga tizimida qisqa muddathli ta'til guruhlari (sirtqi guruhlari) ham joriy etilmoqda.

Biz o'z ishimizda katta xalqaro tajribaga ham tayanamiz. Masalan, hozirgi kunda YuNISEF bilan birgalikda maktabgacha ta'limga muqobil shakllarini joriy etish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq joriy yildan boshlab ularning bir nechtasini, shu jumladan aralash yosh va o'yin guruhlarini tajriba sifatida o'tkazish режалаштирилган. Birinchi bosqichda Namangan va Xorazm viloyatlarida to'rtta guruh tashkil etiladi, shuningdek turli yosh guruhlarda ishslash bo'yicha o'qituvchilar uchun treninglar o'tkaziladi.

Ushbu yo'naliшhdagi eng yirik loyihalardan biri - qayta jihozlangan ISUZU avtobuslari asosida "Aqlvoy" deb nomlangan ko'chma maktabgacha ta'limga tashkilotlarini ishga tushirishni o'ylayman. Uchuvchi sifatida "O'zavtosanoat" ko'magi bilan 16 ta avtobus ularning bazasida O'zbekistonning barcha hududlarini qamrab oluvchi ko'chma bolalar bog'chalarini yaratish uchun qayta jihozlandi. Xavfsizlikni ta'minlash va mobil guruhlar tarbiyalanuvchilarining o'yin faoliyati uchun sharoit yaratish uchun 44 ta bolalar maydonchasi qurildi. Ko'chma bolalar bog'chalarining asosiy ustunligi shundaki, ular nisbatan arzon narxlarda respublikaning eng chekka hududlarida yashovchi bolalar uchun maktabgacha ta'limga olish imkoniyatini yaratib, juda ko'p bolalarni qamrab olishi mumkin.

Umuman olganda, tajriba loyihasi asosan chekka hududlarda yashovchi ikki mingga yaqin bolani qamrab oldi. Sohadagi bunday innovatsion alternativ echimlar taqdim etilayotgan maktabgacha ta'limga xizmatlarining sifati va jozibadorligini oshirishi mumkin.

- O'zbekistonda inklyuziv maktabgacha ta'limga rivojlanmoqda?

- Davlatimiz rahbari yosh avlodni tarbiyalashga qaratilayotgan e'tibor, yoshlar oladigan bilimlar sifatini oshirishda barcha vositalar va sa'y-harakatlarning hissasi xalq farovonligi darajasini oshirishga xizmat qilayotganini bir necha bor ta'kidlagan. va butun mamlakatning farovonligi. Shunday ekan, bizning maqsadimiz hozirgi kunda barcha bolalar uchun, ularning imkoniyatlaridan qat'i nazar, teng sharoitlar yaratishdir. Turli xil ijtimoiy kelib chiqadigan bolalar sifatli maktabgacha ta'limga olish imkoniyatidan teng foydalanishlari kerak. Olimlar uch yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalar olgan ma'lumotlarning 70 foizini ular butun hayoti davomida ishlashini isbotladilar. Bu bir xil poydevor, ularning muvaffaqiyatli kelajagining poydevori. Biroq, yaqin vaqtgacha maktabgacha ta'limga muassasalari faqat bolalarni qarash va ularga g'amxo'rlik qilish funktsiyalarini bajargan bo'lsa, endi asosiy vazifa ta'lmdir.

So'nggi yillarda inklyuziv ta'limga rivojlanmoqda alohida dolzarblikka ega bo'ldi. Vazirlik tashkil etilgan dastlabki kunlaridanoq bu yo'naliшhdaga ko'p ishlarni amalga oshirmoqda. Nukusda amalga oshirilayotgan "Imkon" nomli yirik loyihami alohida ta'kidlashni istardim. Bu, avvalo, Orol dengizi mintaqasida yashovchi bolalar uchun mo'ljallangan maktabgacha ta'limga muassasasi va to'liq reabilitatsiya markazini birlashtirganligi bilan o'ziga xosdir.

O'tgan yili poytaxtda kombinatsiyalangan turdagи maktabgacha ta'limga tashkiloti tashkil etildi. Bu O'zbekistondagi bunday bolalar bog'chasining birinchi bo'lib, u erda sog'lig'ida hech

qanday muammosi bo'limgan va alohida ehtiyojli bolalar qatnashadilar. Ushbu maktabgacha ta'lim muassasasi inklyuziya printsipini amalgga oshiradi, bunda barcha bolalar sifatli maktabgacha ta'lim olish imkoniyatidan teng foydalanadilar va bitta bolalikdan foydalanadilar, bolalikdanoq muloqot qilish va o'zaro munosabatlarni rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

- islohotlarni amalgga oshirishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish katta ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda qanday ishlar olib borilmoqda?

- Maktabgacha ta'lim vazirligi xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin va samarali hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Shu vaqtgacha O'zbekistondagi sohani rivojlantirishga qaratilgan 50 ga yaqin anglashuv memorandumlari va ramka shartnomalari imzolandi. Biz Koreya Respublikasi, Rossiya, Singapur, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Polsha va YuNISEF, YuNESKO, BMTTD, UNODC, JICA, KOICA, TIKA, Turk Ta'lim Jamg'armasi, British Council, Jahon banki guruhi, OTB kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilamiz. , Saudiya taraqqiyot jamg'armasi, Rossotrudnichestvo va boshqalar.

Sektorga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va maktabgacha ta'lim tarmog'ini kengaytirish uchun vazirlik chet el kapitali ishtirokida loyihalarni amalgga oshirmoqda.

Bu vaqtga qadar bizning tomonimiz 134 million dollarlik investitsiyalarni jalb qildi, ularning aksariyati Jahon bankining "O'zbekistonda bolalarning erta rivojlanishini yaxshilash" loyihasini amalgga oshirishga qaratilgan mablag'lari edi. Uning natijalariga ko'ra quyidagi maqsadlarga erishish ko'zda tutilgan:

maktabgacha ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash;
maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim muhitining sifatini oshirish;
ta'lim sifatini tizimli ravishda o'lchash va baholash vositalarini yaratish.

Loyiha mamlakatning borish qiyin bo'lgan hududlarida yashovchi bolalar uchun maktabgacha ta'limning muqobil modellarini sinovdan o'tkazadi.

- Anchadan buyon joylarda kadrlar masalasi keskin bo'lib kelgan: ko'plab bolalar bog'chalarida o'qituvchilar etishmovchiligi yuzaga kelgan va ularning ba'zilarining malakasi vaqt talablariga javob bermagan. Ushbu yo'nalishda qanday choralar ko'rilmoxda?

- So'nggi uch yil ichida maktabgacha ta'lim tizimida o'qituvchilar sonining katta o'sishi kuzatildi. Ta'lim jarayoni sifatini oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarini rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan respublikaning har bir mintaqasidan tanlangan murabbiylar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Maqsad mutaxassislar o'rtasida tegishli bilimlarni rivojlantirishdir.

Shu bilan birga MDO YUNISEF bilan birgalikda bir qator o'quv seminarlarini o'tkazdi, ularda "Birinchi qadam" davlat o'quv dasturini va erta va maktabgacha yoshdagagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan davlat talablarini bajarish bo'yicha 30 dan ortiq milliy ustoz-murabbiylar o'qitildi. Hududlarda yosh. Shu bilan birga, Iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish vazirligi bilan birgalikda Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq bakalavr va magistr darajalariga ega kadrlarga ehtiyoj aniqlandi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha oliy o'quv yurtlariga qabul kvotasi 2,5 baravarga o'sdi.

Albatta, bu soha uchun pedagogik va boshqaruv kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki bu bizning bolalarimiz qanday o'sib borishini, qanday tayyorgarlik bilan bolalar bog'chasi devorlarini tark etishini ko'p jihatdan belgilaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun biz o'qituvchilar sonini ko'paytirish va ularni tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, tanlash, shuningdek, ularning kasbiy mahoratini oshirishda yangi yondashuvlarni joriy etishimiz juda muhi

Foydalilanigan adabiyotlar:

1.Обзор: Закон «О дошкольном образовании и воспитании» 18.12.2019 yil.
<https://www.gazeta.uz/ru/2019/12/18/education/>

2.Развитие дошкольного образования - стратегическая цель на ближайшие годы.31.12.2021.

<https://yuz.uz/ru/news/razvitie-doshkolnogo-obrazovaniya---strategicheskaya-tsel-na-blijayshie-god>

3.<https://lex.uz/pdfs/4327240>

4.Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года. РР -4312. 08.05.2019.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Choriyeva F. A.
Qarshi Davlat universiteti (PhD) dotsenti.

Bolalar psixologiyasi – bolaning tug‘ilgan vaqtidan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etish qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishini o‘rganadigan fan. Bola odam sifatida tashqi jihatdan katta yoshli odamlarga o‘xshasa ham o‘zining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarining mazmuni jihatidan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi. Bolalarda hali turmush tajribasi deyarli yo‘qligi sababli ularning sezgi va idroklari, tafakkur va xayollari, hissiyot va irodalari katta yoshli odamlardagidek bo‘lmaydi. Bolalar psixologiyasi har bir taraqqiyot bosqichidagi (ya’ni go‘daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshdagi) psixik jarayonlarning rivojlanib borishini o‘rganadi.

Bolalar psixologiyasi predmetining muhim tomonlaridan biri turli yoshdagi bolalarga sezish, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, xayol, hissiyot va iroda kabi psixik jarayonlari va holat larining namoyon bo‘lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvining qonuniyatlarini o‘rganishdan iboratdir. Bolalar psixologiyasi bola shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi va bolalar shaxsining tarkib topishiga faol ta’sir qiluvchi omillarni chuqur analiz qiladi.

Ma’lumki, bola shaxsi va uning shaxsiy psixologik xususiyatlari qandaydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta’sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omillarning qonuniy ta’sir etishi natijasida tarkib topadi. Ana shu muhim qonuniy tarzda ta’sir qiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shug‘ullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi kabi muhim ilmiy tushuncha va natijalarni o‘rganib, har tomonlama rivojlanishga yo‘naltirilgan barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirish qonuniyatlarini ochib beradi.

Bolalar psixologiyasi o‘zining murakkab predmetini tatbiq qilishda psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga asoslanadi hamda bola ongingin ijtimoiy-hissiy, psixofiziologik jihatdan hayotga bog‘liqligini isbotlab beradi. Tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiylaridan xabardor bo‘lish bolalar psixologiyasida, bolalar psixik taraqqiyotini o‘rganishda va “tabiiy zot” bo‘lib tug‘ilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, shaxs bo‘lib yetishishi davomida to‘g‘ri yo‘l topishga yordam beradi.

Bolalar tarbiyasi va ta’lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o‘rni va javobgarligi muhim hisoblanadi. Shunga muvofiq so‘nggi yillarda “Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari” (2017-yil, 9-iyun, 5-mh son) maktabgacha ta’lim tayanch dasturi, “Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim”, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” kabi hujjalarga asoslanish bola shaxsini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

“Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari” maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari:

- davlat maktabgacha ta’lim muassasalari;
- nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari;
- qisqa muddatli guruhlar;
- 7 yoshgacha bolalar mavjud bo‘lgan mehribonlik uylari va bolalar shaharchalariga nisbatan tatbiq etiladi.
- Davlat talablarining vazifalari:
- bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlash;
- bolalarning sog‘lom va har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minalash hamda unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otish;
- bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun integral ta’limni tashkil etish;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyani amalga oshirish;
- bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlashda ularning ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish hamda ota-onalarga amaliy jihatdan ko‘maklashish;
- bolalarda ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy, estetik, intellek tual, jismoniy sifat va salohiyatlarni uyg‘otish hamda ri vojlantirish;
- bolalarni sog‘lom turmush tarzi bilan tanishtirish;
- bolalarda mustaqillik, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish;
- bolalarga dunyo haqida tushunchalar berish va tasavvurlarini kengaytirish;
- bolalarning yoshi, individual, psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda qobiliyatini inobatga olgan holda ta’limtarbiya jarayonini tashkil qilish.

Davlat talablari quyidagi sohalar bo‘yicha belgilanadi:

- ❖ jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirish;
- ❖ ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish;
- ❖ nutq, savod, o‘qish va chet tillarini o‘rgatilishiga tayyorlash; – bilish jarayonini rivojlantirish;
- ❖ badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish.
- ❖ Ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish sohasi quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:
- ❖ ijtimoiylashuv, muloqot va odob-axloq qoidalarini shakllantirish;
- ❖ bolaning oila va jamiyatda o‘zini tutishi;
- ❖ bolada mehnat tarbiyasini shakllantirish;
- ❖ xavfsizlik asoslarini shakllantirish.

U maktabgacha ta’lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta’lim muassasalarini mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalir qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual rivojlanishini ta’minalashga yonaltiradi.

Bola maktabgacha ta’lim muassasasida, maktabda izchil suratda ta’lim va tarbiya oladi. Bunday uzoq muddatdagi maxsus ijtimoiy ta’lim va tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ta’sir etmay qolmaydi. Shuning uchun bolaning umumiy psixik taraqqiyoti ko‘p jihatdan ta’limtarbiyaning ta’siriga bog‘liqdir.

Ma’lumki, bolaning har bir yosh davri ma’lum bilimlarni birmuncha ortiq darajada o‘zlashtirishga nisbatan sezgir bo‘ladi. Masalan, shunday yosh davrlari borki, bunda ta’lim-tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ortiq darajada ta’sir qiladi. Ana shunday yosh davrlarini odatda psixik taraqqiyotning senzitiv davri deb yuritiladi. O’tkazilgan tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, bolaning maktabgacha ta’lim muassasasi yoshidagi davri psixik taraqqiyotga nisbatan umuman senzitiv davr hisob lanadi.

Ta’lim jarayoni bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilinsa, bu jarayon dasturlashtirilgan ta’limga aylanadi. Hozirgi vaqtida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish bosqichi, uning ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishida dasturlashtirilgan ta’lim katta ahamiyatga egadir. Ana shu nuqtayi nazardan olganda maktabgacha ta’lim muassasasidagi dasturlashtirilgan ta’lim bolalarda maktab ta’limi uchun kerak bo‘ladigan sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Bolaning yosh belgisi uning taraqqiyoti darajasini ko'rsata olmaydi. Chunki 2 ta bir yoshdagi bola belgisi jihatidan bir xil bo'lsa ham, taraqqiyot darajasi har xil bo'lishi mumkin. Ma'lum yosh bosqichiga tegishli bolalarning faoliyatlarida ham umumiylik bordir. Masalan, chaqaloq bolalarning asosiy faoliyatlari katta odamlar bilan emotsiyal munosabatga kirishishdan, ilk yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatlari esa turli narsalar bilan shug'ullanishdan va nihoyat, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatlari o'yindan iboratdir.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F. Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishida maktabgacha yoshdagi davrning ahamiyatiga doir P.F. Lesgaftning bu fikri rus pedagogi A.S. Makarenkoning quyidagi fikriga to'la mos keladi. A.S. Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi.

Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirkni, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir.

Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi. Uning o'yinlari, xattiharakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi. Ikkinchidan, bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi. Uchinchidan, bola maktabgacha yoshga o'tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o'sib kamol topishniga ta'sir etmay qolmaydi.

Ana shu yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha yoshiga kelib organizmining ishchanlik qobiliyati ancha oshadi. Shuning uchun bog'chada va oilada ta'lim-tarbiya ishlari hamda bola faoliyati rejimini tuzishda bola ning jismoniy taraqqiyoti xususiyatlarini doimo hisobga olish zarurdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Mavrulov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
3. Qodirova F., Tosho'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2013.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
5. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.
6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018.
7. Bolangiz maktabga tayyormi? – Toshkent, 2011.
8. Researchining effective pedagogy in the early ears. Iram Siraj-Blatchford and others. June 2002.

2-shu'ba: MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

PEDAGOGIKA KOLLEJLARIDA INNOVATSION FAOLIYAT NATIJASIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH USULLARI VA VOSITALARI

Abdullayeva D.

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 12-sonli
Davlat Maktabgacha ta'lism tashkiloti direktori.

Jo'raboyev M.

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
Maktabgacha ta'lism bo'limi mudiri.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-ahloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lism muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ammo ta'lism tizimida zamonaviy tendensiyalarini, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lism tizimida foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarini isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan sekin o'zlashtirilmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'imning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallahsgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lism shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birqalidagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta'lism jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Innovatsion ta'lism jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lism texnologiyalari yoki ta'lism innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmaslidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. "Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalgalashiriladi." -degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat- yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat¹.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma, malakanı egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

1-bosqichda tayyor metodik tavsifnomalar (mavjud innovatsiya, masalan xorij tajribasida qo'llanilgan ammo biz uchun yangi)lardan foydalanish amalga oshiriladi.

2-bosqichda mavjud tizimga pedagog o'zining yangi g'oyalarni, metodini kiritadi.

Pedagoglarning innovatsion yondashuvini qaror toptirishning

3- bosqichida o'sha ikkinchi bosqichda yaratgan g'oya, innovatsion metodini o'zi faoliyat yuritayotgan muassasada amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.

4-bosqichda esa pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiysi(g'oyalari yig'indisi) yoki metodikasini yaratadi.

Mana shu bosqichlarda

pedagog innovatsion yondashuvlarini amalga oshirsa va pedagogik texnologiyalarda yangilik kiritib, ulardan foydalanib dars o'tsa ta'lim sifati albatta oshadi.Umuman olganda mamlakatimizda ta'lim sohasiga, hamda innovatsiyalarga katta e'tibor berilmoqda.

Pedagogika kollejlarining asosiy vazifalaridan biri – rivojlangan kadrlar tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish, uning samarali kasbiy faoliyati bilan bir qatorda, o'z kompetensiyalarini doimiy ravishda takomillashtirishga tayyorligini oshirishdan iborat. Bugungi kunda bilimlarni o'zlashtirish jarayonining ommaviy xarakteridan ta'lim yo'nalishining individual traektoriyasini qurishga, o'quvchini muammoni aniqlay oladigan va shakllantirishga qodir bo'lgan faol ijodkorga aylantirishga o'tish zarurati mavjud.

Interfaol ta'lim - bu o'quv jarayoni ishtirokchilarining birlashtirilgan dialogi o'zaro ta'siri bo'lib, uning davomida ma'lumot almashish jarayonida nazariy tushunish, raqobat muhitiga kirish, biznes hamkorligining yangi tajribasi, muammolarni birlashtirishga qodir bo'lgan foydalanish.

Pedagogika kollejlarida bo'lajak tarbiyachilarining tayyorlash uchun interfaol texnologiyalarning innovatsion interfaol usullarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: taniqli va talab qilinadigan ta'lim texnologiyasini bo'lajak kasbiy faoliyatga yo'naltirish va uni yangi sharoitlarda qo'llash; texnologiyaning yangiligi, ya'ni o'quv jarayonida o'n yildan ortiq bo'lмаган muddatda qo'llanishi; pedagogika kollejlarida bo'lajak tarbiyachilarini tayyorlash uchun o'ziga xos ilg'or xorijiy texnologiyalardan foydalanish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni sifatini ko'trsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.

3. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. "Yangi pedagogik texnologiyalar" darslik 15-20b.

IQTISODIYOTNI LIBERALASHTIRISH VA MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH AHAMIYATI.

Beknayeva Sh.V.

MTTDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim
menejmenti” kafedrasi katta o’qituvchisi.

O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o’tishni ta’minlashda va ishbilarmon xodimlarni shakllantirishga erishish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda kadrlarni boshqarish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qator normativ qonun hujjalari qabul qilingan. Rejali boshqaruv amaliyotida “personalni boshqarish” tushunchasi yo’q edi. Lekin har bir korxona va tashkilotning boshqaruv tizimi kadrlarni va jamoani ijtimoiy rivojlantirishni boshqarishning funksional kichik tizimiga ega edi. Hozirgi vaqtida korxona va tashkilot personalini boshqarish kontseptsiyasi asosini xodim shaxsiy rolining ortib borayotganligi, uning asosiy yo’l-yo’riqlarni bilishi, ularni shakllantira olishi, korxona va tashkilotlar oldida turgan vazifalarga muvofiq ravishda yo’naltira bilishi tashkil etadi. Respublikamizdagi iqtisodiy va siyosiy tizimlarda ro’y berayotgan o’zgarishlar har bir shaxs uchun, uning yashashining barqarorligi uchun katta imkoniyatlardan tug’dirish bilan bir qatorda jiddiy xavf-xatar ham tug’diradi, amalda har bir kishining hayotiga ma’lum darajada noaniqlik kiritadi. Bunday vaziyatda personalni boshqarish alohida ahamiyatga egadir, chunki u shaxsning tashqi sharoitga moslashish, tashkilotdagi personalni boshqarish tizimining tuzilishida shaxsiy omilni hisobga olish masalalarining butun bir majmuuni amalga oshirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ma’naviyat va qadriyatlarning ustivorligiga butunlay yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur bo’ladi. Albatta, personalni boshqarish xizmatining tuzilishi ko’p jihatdan korxona va tashkilotlarning xususiyatlari va hajmi bilan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning o’ziga xos tomonlari bilan belgilanadi. Mayda va o’rta korxona va tashkilotlarda personalni boshqarish sohasidagi ko’pgina vazifalarni ko’proq muntazam rahbarlar bajaradilar, yirik korxona va tashkilotlarda esa bu vazifalarni amalga oshirishi lozim bo’lgan mustaqil tarkibiy bo’linmalar bajaradilar. Bir qator korxona va tashkilotlarda personalni boshqarish tuzilmalari tarkib topadi. Ular personalni boshqarish bo’yicha direktor o’rnibosarining bevosita yagona rahbarligida kadrlar bilan ishlashga aloqador bo’lgan barcha bo’linmalarni birlashtiradi. Korxona va tashkilotlarning katta – kichikligiga qarab bo’linmalarning tarkibi o’zgarib turadi: kichik korxona va tashkilotlarda bitta bo’linma bir nechta kichik tizim vazifalarini bajaradi; yirik korxona va tashkilotlarda esa har bir kichik tizim vazifalarini, odatda, ayrim bo’linmalar bajaradilar. O’zbekistondagi va chet ellardagi tashkilotlar tajribasini umumlashtirish personalni boshqarish tizimining asosiy maqsadini, ya’ni kadrlar bilan ta’minlash ularning samarali ishslashini, kasbiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishni shakllantirishga imkon beradi. Shunga ko’ra korxona va tashkilot personalini boshqarish tizimi shakllantiriladi.

Inson resurslarini boshqarish bosqichlar

Barcha tashkilotlar uchun kishilarni boshqarish juda katta ahamiyatga ega. Insonlarsiz tashkilot yo’q. Hech bir tashkilot kerakli Mehnat resurslarini rejalashtirish, yig’ish, tanlash, shartnoma tuzish, ish haqi va imtiyozlarni belgilash, Mehnat faoliyatini baholash, ko’tarish, pasaytirish ishdan bo’shatish, o’qitish, malaka oshirish, qayta o’qitish, yo’naltirish va moslashtirish insonlarsiz o’z maqsadlariga erisha olmaydilar. Mehnat resurslarini boshqarish, boshqaruv nazariyasi va amaliyotining muhim qismidir. Yirik tashkilotlarda mehnat resurslarga umumiylar mas’uliyati kadrlar bo’limining malakali xodimlariga yuklatilgan bo’lib, u odatda shtab xizmatlari tarkibiga kiradi. Bu mutaxassislar tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga yordam berishi uchun, ular faqat o’z sohalarini emas, balki quyi bo’g’in rahbarlarining ehtiyojlarini ham bilishlari zarur. Shu bilan birga bu rahbarlar mehnat resurslarini boshqarish xususiyatlarni, uning mexanizmi, imkoniyatlari va kamchiliklarini tushunmasa, kadrlar mutaxassislarini xizmatlaridan umumli foydalana olmaydilar. Shuning uchun barcha rahbarlar

insonlarni boshqarish usullari va metodlarini bilishi va tushunishi muhim. Inson resurslarini boshqarish tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Resurslarni rejalashtirish: inson resurslariga kelgusi ehtiyojlarni qondirish rejasini ishlab chiqish.
2. Personalni to'plash: barcha lavozimlar bo'yicha potentsial nomzodlar rezervini tashkil etish.
3. Tanlash: ish joylariga nomzodlarni baholash va rezervdan eng yaxshilarini tanlash.
4. Ish haqi va imtiyozlarni aniqlash: xizmatchilarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish maqsadida ish haqi va imtiyozlar strukturasini ishlab chiqish.
5. Kasbga yo'naltirish va moslashuv: yollangan ishchilarni tashkilot va uning bo'linmalari bilan tanishtirish, ishchida undan nima kutilayotganligi haqida tushuncha hosil qilish va qanday mehnat yaxshi baholanishini tushuntirish.
6. O'qitish: ishni samarali bajarish uchun kerakli mehnat ko'nikmalarini o'rgatish uchun dasturlar ishlab chiqish.
7. Mehnat faoliyatini baholash: mehnat faoliyatini baholash metodikasini ishlab chiqish va uni xodimga yetkazish.
8. O'stirish, pasaytirish, o'tkazish, bo'shatish: xodimlarni lavozimlarga yoki boshqa ish uchastkalariga o'tkazish metodlarini ishlab chiqish.
9. Rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat ko'rsatishlarini boshqarish: rahbar xodimlarni mehnat samaradorligini ko'tarishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI XORIJIY TAJRIBALARNI O'RGANISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Ganieva A. Z.

MTTDMQTMOI tayanch doktoranti.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini, boshqaruv kompetentsiyalarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ularning maktabgacha ta'lifni tashkil etish va boshqarish sohasidagi malakalarini oshirish, shuningdek, boshqaruv kompetentsiyalarini rivojlantirish modellarini Angliya, AQSh,

Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlarning tajribalarga asoslangan innovatsion ta'lif texnologiyalari vositasida takomillashtirish nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Bu esa maktabgacha ta'lif muassasalari rahbarlarini kasbiy tayyorlash va ularning boshqaruv kompetentsiyalarini oshirishda turli yondashuvlarni (innovatsion, xorijiy tajribalarini o'rganish, kompetentli yondashuv) qo'llash kerakligini ko'rsatadi.

Hozirgi zamon sharoitida maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbarlarining boshqaruvini takomillashtirish, shaxs va jamiyatning ta'lifi ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish, kasbiy tayyorlashni boshqaruv usullarini optimallashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Malaka oshirishning eng asosiy o'ziga xosligi izchillik tamoyiliga amal qilish, ta'lif maqsadlariga erishishda an'analarga tayanish hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda rahbardan shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta'lif tendentsiyalarini asosida boshqaruv faoliyatini chuqr bilishi va o'zida zaruriy kompetentsiyalarini shakllantira olishi, kompetentsiyalarini kelgusida kasbiy faoliyatida izchil qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi.

Maktabgacha ta'lifning yangi sifati manfaatdor taraflarning davlat buyurtmasiga javobi hisoblanadi. Buning uchun, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lifning sifati aniq namoyon bo'lishi lozim. Sifatni baholashning boshqa variantlari ham mavjud. Agar ta'lif xizmatlari iste'molchilarida ta'lifning yangi sifatiga ehtiyoj mavjud bo'lmasa, pedagoglar

modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida ishlash layoqatiga ega bo'lmaydilar. Shuning uchun ham maktabgacha ta'limning yangi sifatiga bo'lган ehtiyoj modernizatsiyalashning harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash uni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy pedagogik jarayonni ifodalovchi tushuncha. Modernizatsiyalash jarayonida asosiy e'tibor otanonalar bilan hamkorlik qilishga qaratiladi. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash sharoitida ta'lim muassasalari xodimlari oldiga yangi vazifalar qo'yiladi, ta'limning mazmuni o'zgaradi. Shunga muvofiq tarzda maktabgacha ta'lim usulari, metodlari, printsiplar va uni boshqarishga bo'lган yondashuvlar ham yangilanadi.

Maktabgacha ta'limning yangi sifatini nafaqat uning mazmunita'minlaydi, balki ta'limmuassasasini boshqaradiganrahbarning boshqaruv mahorati, boshqaruv kompetentsiyasiga ega ekanligi, rahbarningshaxsiy sifatlari, yangi bilimlarni va innovatsiyalarni tatbiq etishga bo'lganmunosabatiga bog'liq. Albattabujarayonmalakaoshirishsifatinitubdanyangilashga, malakaoshirishtizimigayangiinnovatsionta'limtexnologiyalarivavariativdasturlarnijoriyetishnitalab etadi. Shuninnde, maktabgachata'limtizimrahbar kadrlari uchun zaruriy kompetentsiya talablarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta'lim - zamonaviy o'zgarishlarga munosib bo'lishi kerak, sharoitlar, dinamika, o'zgaruvchanlik, jamiyat va pedagogik jarayonga jalb qilingan aniq shaxslarning ehtiyojlariga moslashuvchan tamoyillariga, tashkiliy shakllar, usullar, shartlar va mablag' ish mazmunining xilma-xil tamoyillariga asoslanadi.

Ta'limni boshqarishning (ham umumiy, ham xususiy) qonuniyatlari ob'ektiv xususiyatga ega bo'lib, kishilar faoliyatini boshqarish jarayonida amalgalash oshiriladi. Ta'limni boshqarish tamoyillarini shakllantirishda boshqaruv qonuniyatlari to'liq hisobga olinishi kerak. Ta'limni boshqarish tamoyillari - bu boshqaruv tizimi, tuzilmasi, boshqaruvni tashkil etishning asosiy talablarini belgilab beruvchi qoidalar demakdir. Boshqaruv tamoyillari ham, qonuniyatlar kabi, umumiy va xususiyga bo'linadi. Ta'limni boshqarishning umumiy tamoyillari universal tabiatga ega bo'lib, boshqaruvning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagilarni maktabgacha ta'limni boshqarishning umumiy tamoyillari sirasiga kiritish mumkin: aniq maqsadga yo'naltirilganlik, rejaliq, bilimdonlik, intizomlilik, rag'batlantirish, ierarxiklik (pog'onalilik). Aniq maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili dasturiy-maqsadli boshqaruvning mohiyati bilan belgilangan bo'lib, har bir ta'limni boshqarish organi va uning har bir bo'linmasi oldiga maqsadlar aniq qo'yilishini ko'zda tutadi.

Bunda maqsad haqiqatan ham erishish mumkin bo'lган va iloji boricha aniq-ravshan belgilangan bo'lishi kerakki, bu ish aqlga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi, xodimlar sa'y-harakatini uning ijrosiga safarbar etadi. Aniq maqsadga naltirilganlik tamoyili qo'yilgan maqsadlargina emas, balki ana shu maqsadlarning zarur resurslar bilan nisbati darajasini aniqlashni ham nazarda tutadi. Bunda maqsadlarni ularga erishish uchun zarur bo'lган asosiy resurslar bilan bog'lashni ta'minlashgina emas, balki diqqate'tiborni maqsadlarga erishishga xalaqit berayotgan eng zaif bo'g'inga qaratish ham kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydag'i PQ-4312-soni "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori
2. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash va uni zamonaviy talablar asosida boshqarishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie 2020, 3 . B.63-70
3. Ro'zimbetova R.Yu. Maktabgacha ta'lim muassasalariga rahbarlik qilishning ayrim jihatlari. Zamonaviy ta'lim / 2015, № 8. B 38-42.

PEDAGOGIKA KOLLEJLARIDA TA'LIM SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASHNI YARATISH MUAMMOLARI

Jo'raboyev M.

MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi.

Umumiy va professional ta'lism sifatini mustaqil baholashni yaratish birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasida ta'limga modernizatsiya qilish konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida muammo sifatida e'tirof etildi.

Ta'lism jarayonining har bir subyekti (o'qituvchi, o'quvchilar, ota-onalar, ma'muriyat va boshqalar) ta'lism sifatini ta'minlashdan manfaatdor.

Sifatga turli xil, ko'pincha qarama-qarshi ma'nolar kiradi:

- ota-onalar, masalan, ta'lism sifatini farzandlarining shaxsiyatining rivojlanishi bilan bog'lashlari mumkin;
- o'qituvchilar uchun sifat o'quv materiallari bilan ta'minlangan sifatli o'quv dasturiga ega bo'lishni anglatishi mumkin;
- o'quvchilar uchun ta'lism sifati, shubhasiz, kollej ichidagi iqlim bilan bog'liq;
- biznes va sanoat uchun ta'lism sifati bitiruvchilarning hayotiy pozitsiyasi, ko'nikmalari, bilimlari bilan bog'liq;
- jamiyat uchun sifat o'sha qadriyat yo'nalishlari va kengroq aytganda, o'quvchilarning qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, ular o'z ifodasini topadi, masalan, fuqarolik pozitsiyasida, ularning kasbiy faoliyatining texnokratik yoki gumanistik yo'nalishi.

Sifat ma'nosini ba'zan noto'g'ri tushunish, uning ham mutlaq, ham nisbiy tushuncha sifatida ishlatalishi mumkinligi bilan mustahkamlanadi. Oddiy, kundalik ma'noda sifat asosan mutlaq tushuncha sifatida ishlataladi.

Umuman olganda monitoringga asoslangan tashqi sifatni baholash tizimi standartlar, iqtisodiy samaradorlik va boshqalar bilan bog'liq sifatni tushunishga ko'proq yo'naltirilgan bo'lsa, ichki tizim esa raqobatbardoshlik va rivojlanishni takomillashtirishga qaratilgan. Qoida tariqasida, tashqi baholash jarayoni o'z-o'zini baholash elementlarini o'z ichiga oladi.

Ammo XX asrning 90 yillari o'rtalarida va oxirida sifatni baholashning Yevropa ta'lism tizimlarida asosiy e'tiborni tashqi nazorat va monitoringdan o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish va o'z-o'zini tartibga solishga o'tkazish tendensiyasi hukmronlik qila boshlaydi.

Ta'lism sifatini boshqarish – bu ko'p funksiyali murakkab muammo. U muayyan miqyosda (davlat, tarmoqlararo, mintaqa, ta'lism muassasasi doirasida), shuningdek ma'lum yo'nalishlarda (tashkiliy, tarkibiy, mazmuniy, metodik, kadrlar, resurslar) hal qilinadi.

Masalan, davlat miqyosida ta'lism sifatini boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'rida"gi qonuni, hukumat qarorlari, davlat ta'lism standartlari asosida amalga oshiriladi. Idoralar darajasida esa bu vositalar – Maktabgacha ta'lism vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi, shuningdek ta'lism sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasining hamda ta'limga boshqarishga vakolatli organlarning buyruq va yo'riqnomalaridan iborat.

Ta'lism sifatini boshqarish xususida fikr yuritilar ekan, albatta belgilangan sifat turli shart-sharoitlar va omillarga muvofiq kafolatlanishi va boshqarib borilishini nazarda tutish kerak. Masalan, resurslar va kadrlar bilan tegishlich ta'minlanmagan va, shuningdek o'quv-tarbiya jarayoni tegishlich mazmunga ega bo'lмагan hamda tashkil etilmagan holatlarda ta'lism sifatining yuksakligi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi.

Amalda, belgilangan ta'lism sifatini boshqarish va unga erishish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi barcha shart-sharoitlar va omillarning ta'siri (yoki qarshi ta'siriga) duch kelamiz. Tadqiqot vazifasi (bizning vaziyatda) mazkur shart-sharoitlarni iloji boricha kengroq qamrab olish, tahlil qilish va e'tiborga olishdan iborat.

Ana shundan kelib chiqqan holda, ta'lim muassasasi va ta'lim jarayonining uzviy birlikda boshqarilib borilishini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish borasidagi ilmiy izlanishlar va amaliy chora-tadbirlarni joriy etishning eng istiqbolli yo'nalishi, deb hisoblaymiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Baydenko V.I., Zantvort Djerri van, Yeneke Bianka. Formirovaniye so-sialnogo dialoga i partnerskix svyazey obrazovaniya, organov upravleniya i samorazvitiya, professionalnyx obyedineniy i predpriyatiy / V.I. Baydenko, Zantvort Djerri van, Yeneke Bianka. - TASIS, proyekt DELFI. Doklad, 4-aprelya.- 2001. - S. 2-3.

PEDAGOGIKA KOLLEJLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Jo'rboev M.

MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi.

Sultanova N.

Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani 34-
DMTT-direktori.

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Dunyoda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning internatsionallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (YuNESKO). Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxasislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turki bo'ladi. Bizning fikrimizcha ta'lim jarayonida avval qiziqish uyg'otib, motivatsiya berib, so'ngra raqobat muhiti yaratilsa talabalarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatları uyg'otiladi va albatta rag'batlantirish amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Talabalarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlargaerishgan insonlardan misol keltirib, iloji bo'lsa ulardan birini o'rnak bo'luvchi inson sifatida darsga taklif qilib, yoki innovatsiyalar markaziga talabalarni ekskursiyalarga etishni yo'lga qo'yilsa maqsadga tezroq erishilgan bo'lardi. Innovatsiyalar yarmarkasiga va hududdagi IT parklarga talabalarni ekskursiyaga etishni tashkil qilsak ta'limda berilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashda erishilgan yutuqlarni ko'paytirishiga ishonamiz.

Mutaxasisligiga mos ravishda mamlakatimizdag'i ishlab chiqarish korxonalariga va zavodlarga talabalarni amaliyotga yuborishni institutlarimizda allaqachon yo'lga qo'yganmiz. Lekin bizning taklifimiz shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan bir vakilni faxriy mehmon sifatida institutga taklif qilib, seminarda shaxsan nutqlarini eshitish sharafi va bundan olingan taassurotlar ko'لامi iqtidorli talabalarni ruhlantirgan bo'lardi. Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish, ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga

kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o‘zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so‘ngi ilm-fan yutuqlaridan, o‘zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va eng yangi pedagogiktexnologiyalar asosida dars o‘tishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son “O‘zbekiston Republikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g’risida”gi Farmoni hamda 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g’risida”gi Qaroriga muvofiq shu nomli vazirlik tashkil etilgan bo‘lib, uning vazifalari qatoriga ijtimoiy rivojlanishga, shu jumladan ta’lim va sog’liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish ham kiritilgan. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini

BOSQICHLAR
1-Tayyor metodik tavsyanoma(mavjud innovatsiya)lardan foydalananish
2-bosqich: Mavjud tizimga yangi g’oyalarni, metodlarni kiritadi
3-bosqich: Yangi g’oyani amalga oshirish mazmuni,shakl va metodlarini tizimlashtiradi
4-bosqich: Pedagog o’qitish va tarbiyalashga oid o’z konsepsiysi yoki metodikasini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son “O‘zbekiston Republikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g’risida”gi Farmon.
2. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogic kompetentlik” o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
3. Рахматов, Марат Салимович, Мавлуда Сайфиддиновна Норова, Исмат Худойкулович Давлатов. "ПРОБЛЕМЫ ПЕРСПЕКТИВНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ТЕХНИКИ И ТЕХНОЛОГИИ." Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2014

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDAGI NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH FUNKSIYALARI

Kalmuratov T. N.
MTTDMQTMOI mustaqil izlanuvchisi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da funksiya – erkin o‘zgaruvchi miqdorning o‘zgarishiga qarab o‘zgarib turadigan, bog‘liq (tobe) o‘zgaruvchan miqdor; biror a’zo yoki organizmning ishlab turishi, faoliyati; biror ijtimoiy tashkilot, kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi yoki vazifasi sifatida talqin qilinadi [1; 367].

Falsafa qomusiy lug‘atiga ko‘ra funksiya – faoliyat, ba’zi sistemalar doirasidagi ob’ektning unga mansubligi va roli; ob’ektlar o‘rtasidagi aloqalar ko‘rinishi bo‘lib birining o‘zgarishi

ikkinchisining ham o‘zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi obyekt dastlabkisining funksiyasi deyiladi [2; 436].

Pedagog olimlar R.X.Djuraev va S.T.Turg‘unovlar tomonidan ta’lim muassasalarini boshqarishning axborot-tahlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan ko‘rish-rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat-tashxis va tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyalari aniqlanilib, tahlil qilinadi [3; 33].

Pedagogik jarayonlarni boshqarish masalalari bilan shug‘ullangan Sh.Qurbanov, E.Seytxalilovlar boshqaruv funksiyalarini tahlil qilib, ularning orasida rejalashtirish; tashkil etish; amalga oshirish; nazorat qilishni eng maqbul variant sifatida taklif qiladilar [4].

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, menejment sifatli amalga oshirilishi uchun boshqaruv funksiyalari to‘g‘ri tanlanishi va amalda ishlashi lozim. Yuqorida tahlillar asosida biz davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish funksiyalari orasida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatamiz: axborot-tahlil, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish. Mazkur funksiyalar o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sir o‘tkazadi.

Axborot-tahlil funksiyasi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruvini takomillashtirish axborot-tahlil tizimini to‘g‘ri shakllantirish bilan bog‘liq.

Axborot bilan ta’minalash va faoliyatning hozirgi holatini tahlil qilish boshqaruv faoliyati samaradorligini pasaytiradigan bir qator sabablarni aniqlashga imkon beradi: axborotni ta’minalashga yetarlicha e’tibor bermaslik, axborot oqimining buzilishi, ish yuritishning aniq tahlili yo‘qligi, xodimlarning vazifalarini taqsimlashdagi noaniqliklar, axborot va tahlil qilish madaniyatining pastligi.

Boshqaruv ma’lumotlari – bu ularni oluvchi uchun yangilik elementlariga ega bo‘lgan va uning qarorini talab qiladigan ma’lumotlardir. Barcha olinadigan ma’lumotlar tashqi va ichkiga bo‘linadi.

Tashqi ma’lumotlarga direktiv va me’yoriy hujjatlar, ilmiy-pedagogik ma’lumotlar va maktabgacha ta’lim tizimidagi ilg‘or pedagogik tajribalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiradi.

Ta’lim tashkilotining rivojlanishi va zamon talablariga javob berishi uchun rahbar doimiy ravishda pedagogika, psixologiya fanining yangi yo‘nalishlari, maktabgacha ta’lim tizimidagi metodlar, yangi dastur va texnologiyalardan xabardor bo‘lishi kerak. U maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini tartibga soluvchi barcha yangi normativ va direktiv hujjatlar haqida o‘z vaqtida ma’lumot olishi kerak.

Ichki ma’lumotlarga maktabgacha ta’lim tashkilotidagi faoliyatning holati va natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiradi.

Bu maktabgacha yoshdagagi bolalar sog‘lig‘ining holati va ularni tarbiyalash va ta’lim berish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, pedagogik xodimlar va ularning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, moddiy-texnika bazasi, oziq-ovqat va tibbiy xizmatni tashkil etish to‘g‘risidagi ma’lumotlar, boshqa tashkilotlar bilan tashqi aloqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtida menejerlar o‘rtasida axborotga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda, chunki davlat-xususiy sherikchilikka asoslangan ta’lim tashkilotlari o‘zlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini qidirmoqdalar. Shuning uchun ma’lumotni tanlashga qo‘sishcha talablarni qo‘yish juda muhim, ya’ni ma’lumotlar, birinchidan, o‘z hajmi bo‘yicha imkon qadar to‘liq bo‘lishi kerak, ikkinchidan, o‘ta aniq bo‘lishi kerak.

Shu nuqtai nazardan davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish samaradorligini oshirish axborot ta’moti tizimini yaratish yoki o‘zgartirishdan boshlanishi zarur.

Rejalashtirish funksiyasi boshqaruvning asosi va boshqaruvning barcha darajalarida boshqaruv siklining eng muhim bosqichidir.

Maktabgacha ta’lim muassasasini boshqarishda rejalashtirish muayyan sharoitlarda bolalar bog‘chasining keljakdagi rivojlanish holatini aniqlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim muassasasining ish rejasini tayyorlash nafaqat rejani tuzish jarayonini, balki qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun nima qilish zarurligi nuqtai nazaridan rahbarning aqliy faoliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Rejalshtirish asosiy boshqaruv jarayonlaridan biri bo‘lib, barcha darajadagi bir qator talablarga javob berishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat: uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalshtirishning o‘zaro uyg‘unligi, davlat va ijtimoiy tamoyillarni uyg‘un amalga oshirish, proqnozlash va rejalshtirishning yaxlit xususiyatlarini ta’minalash, proqnozlar asosida rejalshtirishning barqarorligi va moslashuvchanligini ta’minalash.

Rejalshtirish uchta asosiy shart bajarilgan taqdirda samarali bo‘ladi:

rejalshtirish vaqtida maktabgacha ta’lim tashkilotining ish darajasini ob’ektiv baholash; natijalarning aniq ko‘rsatilishi, rejalshtirish davri oxirigacha erishilishi kerak bo‘lgan ish darajasi;

maqsadlarga erishishga yordam beradigan va shuning uchun rejalshtirilgan natijani olishga yordam beradigan eng yaxshi yo‘llar, vositalar, usullarni tanlash.

Rejalshtirishning mohiyati asosiy faoliyat turlarini aniqlash, aniq ijrochilarini tanlash va bajarish muddatlarini belgilashdan iborat.

Ilmiy adabiyotlarda tashkil etish funksiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish jarayonida maxsus bosqich sifatida qaraladi.

Tashkil etish funksiyasi maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘z maqsadlariga samarali erishishi uchun zarur bo‘lgan usullar, vositalar majmuasi orqali o‘zaro munosabatlarning ma’lum bir tuzilmasini shakllantirish va tartibga solish bo‘yicha boshqaruv sub’ektining faoliyati sifatida tavsiflanadi.

Rahbarning tashkiliy faoliyati obyektlari, birinchi navbatda, pedagogik jamoa a’zolari – tarbiyalanuvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalardir. Ularning maktabgacha ta’lim tashkilotining ish rejasini bajarishdagi amaliy faoliyati, qiziqishlari, kasbiy mahoratlari, ehtiyojlari tashkiliy faoliyat ob’ektlari hisoblanadi.

Tashkil etish funksiyasi bir qator ketma-ket harakatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi: masalaning holatini o‘rganish; maqsadni va aniq vazifalarni belgilash; rejalshtirish; kelajakdag‘i faoliyatning eng maqbul mazmuni, shakllari, usullarini tanlash; ushbu ishni bajarish uchun sharoit yaratish; kadrlarni tanlash va har bir ijrochi uchun aniq vazifani belgilash; faoliyat uchun ma’lum bir muhitni yaratish; muayyan ishni amalga oshirish jarayonida bevosita yordam ko‘rsatish; ishning borishi va natijalarini tahlil qilish. Faoliyat elementlarining ushbu ketma-ket zanjirida menejer har bir ijrochining imkoniyatlarini yaxshi bilishi, ularning kuchli tomonlariga tayanishi va barcha sub’ektlarning ishini muvofiqlashtirishi muhimdir.

Birgalikda mehnat faoliyati jarayonida tomonlar o‘rtasida muayyan funksiyalarini taqsimlash va berishni hisobga olgan holda tashkiliy munosabatlar o‘rnataladi. Tashkiliy munosabatlar ob’ektiv ravishda mavjud bo‘lib, mehnat taqsimoti va korporatsiyasi jarayonlarini aks ettiradi.

Nazorat funksiyasi menejer faoliyatining bir qismi bo‘lib, boshqaruv jarayonining tarkibiy qismidir.

Nazorat pedagogik jarayon natijalari to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash, rejalshtirilgan vazifalardan paydo bo‘lgan og‘ishlarni bartaraf etish, ilg‘or pedagogik tajriba mavjudligini aniqlash imkonini beradi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib hisoblanadi.

Nazorat haqiqiy natijalarning belgilangan maqsadlardan chetlanishlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarni o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlashning yakuniy natijalarini mustaqil ravishda nazorat qiladi.

Nazorat paytida olingan ma’lumotlar tahlil qilinadi va ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish natijalariga ko‘ra menejer boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va faoliyatni tartibga solish jarayonini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – F.A.Madvaliyev tahriri ostida. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf. B-367.
2. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. – 495 –b.
3. Djurayev.R.X., Turg‘unov.S.T. Ta’lim menejmenti. – T.: Voris-Nashriyot, 2006. – 264
4. Qurbonov.Sh, Seytxalilov.E. Ta’lim sifatini boshqarish. /T.: “Turon-Iqbol”, 2006. -592

MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Koblova E.V.

falsafa fanlari doktori ilmiy darajasi tolibi (PhD).

Maktabgacha ta’lim uzlusiz ta’lim tizimining birinchi bosqichidir, shu bois ushbu bosqichni modernizatsiya qilish eng kichik fuqarolarning keyingi rivojlanishini oldindan belgilab beradigan zarurat ekanligi aniq.

Hozirgi maktabgacha ta’lim davlat buyurtmasiga va doimiy rivojlanayotgan jamiyat hayotiy voqeliklariga mos kelishi kerak. Ta’lim muhitidagi o’zgarishlar doimiy ravishda ta’lim va tarbiya jarayoniga tobora ko’proq yangi texnologiyalarni olib kirmoqda.

Zamonaviy dunyoda innovatsion rivojlanishning turli jihatlariga tobora ko’proq e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvdan foydalanish boshqaruv va ta’lim faoliyatida samarali amaliy natijalarga erishishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining innovatsion ta’lim faoliyati – bu ta’lim jarayoni rivojlanadigan faoliyat. Maktabgacha ta’lim tashkilotini rivojlanirishni boshqarish juda keng va murakkab tushuncha bo’lib, u boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayoni bo’lib, bu ta’lim tashkilotining o’ziga xos xususiyatlariga bog’liq bo’lgan doimiy harakat va o’zgartirish jarayonidir.

Mamlakatda maktabgacha ta’lim tizimini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, pedagogik jarayonni individuallashtirish tamoyillari assosida modernizatsiya qilish maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga tuzatishlar kiritdi.

Shubhasiz, maktabgacha yoshdagagi bolalarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan bog’liq muammolarning umumiyligi faqat boshqaruv tizimini takomillashtirish jarayonida, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish, ilmiy g’oyalarni o’zgartirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni amaliyatga o’tkazish, ilmiy tamoyillardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining yuqori darajadagi kasbiy mahoratining yutuqlaridan foydalanish, maktabgacha ta’lim sohasidagi faol marketing siyosati, maktabgacha ta’lim sohasi rahbarlari uchun qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va sinovdan o’tkazish, moddiy-texnik bazani takomillashtirish, ta’limning barcha darajalarida maktabgacha ta’lim va uni boshqarish jarayonini axborotlashtirish, maktabgacha ta’lim sohasi xodimlari, ota-onalarning ijtimoiy ta`minotini yaxshilash, maktabgacha tarbiya sohasini tashkil etishda byudjetdan tashqari mablag’larni jalb qilish, o’qituvchilarining malakasini oshirish, pedagogik jarayonni tashkil etishga yondashuvlarni o’zgartirish asosida muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin [1].

Zamonaviy ta’limning insonparvarlik qadriyatlari avtoritar-intizomli boshqaruv modelini shaxsiyatga yo’naltirilgan modelga o’zgartirishni anglatadi. Ushbu o’zgarishlarning muhim xususiyatlari maktabgacha ta’lim tashkilotining zamonaviy rahbarlarini maksimal darajada individuallashtirish, o’zini-o’zi rivojlantirish va o’z-o’zini o’qitish uchun sharoit yaratishdir [2]. Maktabgacha ta’lim tashkilotini o’z atrofida to’plash va yetakchilik qilishni biladigan, har bir a’zoning fikri hurmat qilinadigan, har kim o’z qobiliyatini namoyon etish va uni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’lgan professional jamoani shakllantirishga qodir bo’lgan mutaxassislar tomonidan boshqarilishi kerak.

Rahbarning individualligini har tomonlama rivojlantirish, uning hayotda va jamoaviy faoliyatda faol mavqeini ta'minlash, nafaqat omon qolishni, balki maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlaydigan kundalik va keng ko'lamli vazifalarni hal qila oladigan shaxsni shakllantirishga katta ahamiyat beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari jamiyatning ijtimoiy tartibini hisobga olgan holda o'z tashkilotining rivojlanish istiqbollarini aniq belgilashi va innovatsion faoliyatning maqsadini aniq shakllantirishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan qo'yilgan maqsadlar jismoniy, ma'naviy kuch, moddiy, moliyaviy vositalarni yoki vaqtini bir xil yoki kamroq sarflash bilan yaxshi natijalarga erishish uchun imkoniyatlar yaratishi muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqaradigan ishonchli rahbar – bu uning kelajagi, chunki u maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirish uchun natijalar beradigan muammolarni hal qiladi [3].

Innovatsion strategiyani amalga oshirish maktabgacha ta'limning muvozanatlari tartibga solinadigan tizimini yaratishga, bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu sohaning tizimli rivojlanishi va raqobatbardosh mavqeini saqlashga imkon beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Dolgova V. I., Tkachenko V. A. Ta'limdagি innovatsion jarayonlarni boshqarish: mohiyati, qonuniyatlar va tendentsiyalari// Ilm-fan va biznes: rivojlanish yo'llari. -2012.
2. Rublenko T. V. Rossiyada maktabgacha ta'limni rivojlantirishni boshqarish tizimidagi innovatsion texnologiyalar / T. V. Rublenko. - Matn: bevosita // Yosh olim. — 2022. — № 2
3. Yanko I. M. Maktabgacha ta'limni boshqarishda sifat muammosi / I. M. Yanko // Pedagogika va psixologiya. — 2019.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING XUQUQIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Madraximov B. S.

MTTDMQTMOI "Maktabgacha ta'lim menejmenti" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Bugungi kunda muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan xar bir raxbar xodim xuquqiy bilimga ega bo'lishini talab qiladi. Har bir direktor avvalom bor xuquqiy kompitentsiyasini shakillantirishi shart va zarurdir.

O'tgan davr maboynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tamonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga, samarali ta'lim va tarbiya shakllari xamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limninig samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu sababli bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari oldiga qo'yilgan vazifalariga juda katta ma'suliyat va kompitentsiyaviy bilim bilan yondashishlari talab qilinmoqda. Xar bir raxbar o'z faoliyati davrida shaxsiy, ijtimoiy, iktisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, duch keladigan muammolarning yechimini xal etishi, eng muximi, o'z soxasi kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetentsiyalariga ega bo'lishi lozim.

Kompetentsiya- bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyatga qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetentsiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Malaka kompitentsiyaning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatorda muammoli vaziyatlarda xam bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda ta'lim tizimi hozirda yangisiga muhtoj, ta'lim muhitini boshqarishga qodir bo'lgan menejerlar avlodi o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan yangi muhitdagi tashkilot: bozor munosabatlari sharoitida

mulkchilik shakllari, o‘tish tashkilotning davlat va jamoat boshqaruvi, tashkilotning siyosiy va iqtisodiy boshqaruvi, demokratlashtirish sharoitida rivojlanayotgan mafkuraviy plyuralizm jamiyat hayoti.

Zamonaviy menejerlar allaqachon maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim tashkilotlari jadal rivojlanish sharoitida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda.

Yuqori darajadagi talab, ijtimoiy va texnologik taraqqiyot sur’ati, ularning kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablar. Ma’lumki, har qanday professional faoliyatni amalga oshirish tizimni talab qiladi. Olimlarning fikricha, hozirgi bosqichda jamiyatning rivojlanish bosqichida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish menejerda tashkilot faoliyati sifatining rivojlanishini ta’minlaydi. Menejerning kasbiy kompetentligi maktabgacha ta’lim tashkiloti sezuvchanlik sifatida belgilanadi, erta bolalik ta’limidagi yangilik va yangi muhitga moslashish qobiliyati o‘qitish muhitini o‘zgartiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunining 1-bobida ko‘rsatilgan asosiy vazifalar ijrosi bosqichma bosqich amalga oshirilishi uchun quydagisi asosiy tushunchalar ya’ni;

3-modda. Asosiy tushunchalar

davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilot

maktabgacha ta’lim va tarbiya — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rtta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta’lim turi;

maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti — ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagagi bolalarning sog’lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui;

maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi — bola tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko‘nikmalarining hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta’lim va tarbiya mazmunining o‘ziga xosligini, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflovchi hujjat;

nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti — nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

pedagogning kasbiy standarti — maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmui kabi vazifalar belgilab berilgan.

5-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

har bir bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqi amalga oshirilishini ta’minlash;

bolalarning maktabgacha ta’lim va tarbiyaga to‘liq qamrab olinishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta’lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko‘rsatish;

bolalarning, shu jumladan alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish;

maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;

maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalar bilan bir qatorda,
maqsadli guruuhlar sifatida belgilangan ta’limning barcha darajalariga tegishli ta’lim tizimi ko‘rsatkichlari 100% maktabgacha ta’limning mavjudligi uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun, bu e’tiborni sezilarli darajada oshirishda maktabgacha ta’lim darajasi alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoniga asosan davlat siyosatining yo‘nalishi ta’lim sifatini oshirishdan iborat.

Davlat ta’lim standartini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini amalga oshirish natijalari sifatni baholash uchun yetarli texnologik vositalarning yetishmasligi, shuningdek kasbiy rivojlanishning yetarli darajada emasligi, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining vakolatlari maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati sifatini baholashdagi asosiy ko‘rsatkich xisoblanadi.

Shunday qilib, biz quyidagi komponentlarni ajratishimiz mumkin;
menejerning kasbiy mahoratining ta’riflari: xulq-atvor jihatlar, individual xususiyatlar, muayyan vazifani bajarish qobiliyatlarini kasbiy faoliyat, shaxs xususiyatlari, qadriyatlar.

Ushbu komponentlar orasida quyidagi komponentlar aniq ko‘rinadi:

Shaxsiy va texnologik.

Professional xulq-atvorda o‘zini namoyon qiladigan menejerning vakolatiga quydagilar kiradi: -shaxslararo muloqot qobiliyatlar, istak kabi xususiyatlar yetakchilik qibiliyatlar, analitik ko‘nikmalar va yutuqlarga yo‘naltirish. Shunday qilib, biz shaxsiy-ijodiy komponentni ko‘rishimiz mumkin maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruvi madaniyati menejmentni ochib beradi -ta’lim tashkiloti ijodiy harakat sifatida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozina, N. A., Savina, N. M. malaka oshirishning nazariy asoslari ta’lim muassasalari rahbarlarining vakolatlari// Innovatsion loyihalar va xizmatlar ta’limdagi dasturlar. - 2013. - 6-son. - p. 67-70

2. Bolotov, V. A., Valdman, I. A., Gorbovskiy, R. V., Zohir, Yu. S., Mertsalova T. A. Milliy va mintaqaviy sifatni baholash tizimlarini rivojlantirishning asosiy masalalari ta’lim (ekspert sharhi), Moskva: HSE, 2016, 380 p. (rus tilida).

3. Suxova O. V. Menejerning kasbiy kompetentsiyasining mohiyati va tuzilishi maktabgacha ta’lim tashkiloti // Qozon pedagogika jurnali / Qozon:

2015. - 47-51 betlar

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION ILM-FANNI RIVOJLANTIRISH - TARAQQIYOT OMILI

Meyliyev U.
MTTDMQTMOI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini
katta o‘qituvchisi.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammaiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsion yutuqlarni keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz. Hozirgi zamonda “innovatsiya” tushunchasi biron bir turdagи faoliyatni tapkibiy jihatdan yangilanishini, tubdan o‘zgartirilishini ifoda etadi. Shu jihatdan maktabgacha ta’lim tizimida ham olib borilayotgan is’hotlarning mazmuni yuqoridagi masalaga qaratilgandir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning individual rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish o‘quv jarayoni, uni rejalashtirish hamda bolalar bog‘chasi faoliyatini dasturiy va uslubiy ta’minotga,

mehnatni muhofaza qilish xizmati ishini tashkil etishga turli zamonaviy yondashuvlarni talab etadi.

Innovatsiya – bu yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmatlar) ko‘rinishdagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir.

Innovatsion jarayon - innovatsion o‘zgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bo‘ladi va yagona bir butunni tashkil qiluvchi o‘zaro bog‘langan pallalardan tashkil topgan. Bu jarayonning natijasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar natijasida innovatsiya paydo bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi innovatsiyasi deb - MTTda ta’lim va tarbiya hamda boshqarishning yangi usullarining yaratilishi, maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatiga tadbiq etilishi, tizimni yuritishda marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishi, yangi ish o‘rinlarini tashkil etishni yoki tashqi aloqalarni o‘rnatalishini o‘zida mujassamlashtirgan faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvida oxirgi uch yilda bir qancha innovatsiyalarni kuzatishimiz mumkin. Masalan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5198сон Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3305-son, 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3261-son, 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-sonli va 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3955-sonli qarorlarini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari bunday qarorlarni bir qanchasini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyat deganda iqtisodiy faoliyat sohasidagi jarayonlarni radikal tarzda o‘zgartirishga yordam berishi mumkin bo‘lgan biron bir yangilikni yaratish tushuniladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion faoliyat bu - tashkilot moddiy-texnika bazasini va ta’lim-tarbiyani yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g‘oyalar va ishlanmalmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Ta’lim tashkilotining yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga yo‘naltirilganligi boshqaruvning tegishli darajasiga qo‘yiluvchi bir qator talablarni ifodalaydi. Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishda yangi yondashuvlarga asoslanib, zamonaviy direktor layoqatli mutaxassis fazilatlariga ega bo‘lishi bilan birga, yuqori professional muloqot madaniyati va axloqiy-etik me’yorlarga ega bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida turli xil maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud, takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar va usullar yuzaga kelib, amalda qo‘llanilmoqda, innovatsion faoliyat ommalashmoqda. Asosan maktabgacha ta’limning yo‘nalish va talablari o‘zgartirilmoqda. Aynan shuning uchun ta’lim muammolarini zamonaviy darajada hal eta oluvchi yangi avlod direktori zarur.

Yangi turdagи direktor jamoa bilan ishslashda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishi, ularning qobiliyatları, shuningdek ehtiyojlari va kasbiy talablarini hisobga olishi kerak. Direktor uchun xodimlarning tashabbusini ma’qullah, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘sish, shuningdek, har bir xodimini harakatga unday olishi muhimdir. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik ta’sir ko‘rsatish uslublariga ega, bundan tashqari boshqaruv mahoratini biluvchi mutaxassis zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019-yil 8-maydagi PQ-4312 sonli qarori bilan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” da qator ustuvor vazifalar белгиланган. Жумладан, “Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiyl, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyojkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor

qaratilishi lozim. Bolaning kelgusida o‘zini-o‘zi muvaffaqiyatini namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish”

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddaci maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturiga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlari va an’analari bilan tanishtirish, bolaning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish belgilangan. Qonunda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida tadqiqot ishimizda maktabgacha 5-7 yoshdagi bolalarni Ona-vatan va atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida milliy an’ana va urf-odatlar bilan tanishtirish, ularni ijtimoiy moslashuvida atrof-muhit ta’sirining muhimligini o‘rganish nazarda tutilgan.

Foydadanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O‘zbekiston.

B-235

2. <https://lex.uz/docs/-3362886>
3. <https://lex.uz/acts/-3362881>
4. <https://lex.uz/docs/-3334234>
5. <https://lex.uz/docs/-3334234>
6. <https://lex.uz/docs/-4327235>
7. <https://lex.uz/docs/4646908>

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAK TABGACHA TA’LIM TASHKIL OTI RAHARINING KVALITOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Miryusupova N. Sh.
MTTDMQTMOI, 2-bosqich tayanch doktoranti.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kvalitologik kompetentligini shakllantirishda malaka oshirish tizimiga alohida ahamiyat beriladi, chunki bizning Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartini tahlil qilishimiz shuni ko’rsatdiki, unda sifatni boshqarish masalalari yetarli darajada o’z aksini topmagan.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish muammosini ko’rib chiqadigan nashrlarning yo’qligini ta’kidladik.

Umumta’lim muassasalari rahbarlarining malakasini oshirish muammosiga bag‘ishlangan ishlarni o‘rganish shuni ko’rsatdiki, ularning ta’lim sifatini boshqarishga tayyorligini shakllantirish masalasi alohida o’rganilmagan.

Ilmiy izlanishlarimiz muammoning alohida ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, bir tomonidan, pedagogika fanida uning ishlab chiqilmaganligi, ikkinchi tomonidan, ta’lim tizimida rahbar xodimlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni o’rgangan tadqiqotlar tahliliga murojaat qilishga undadi. Ushbu tahlil keyinchalik maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun o’ta muhim bo’lgan kurs ta’limi nuqtai nazaridan ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini oshirishning mohiyati va mexanizmlarini o’rganishga qaratilgan.

Malaka oshirish tizimining faoliyati doimiy ravishda takomillashtirilib, uning ishiga ta’lim muassasasiga ijtimoiy talablari, boshqaruv faoliyati masalalari bo‘yicha ilmiy yutuqlar va ilg’or tajribalar aks ettirilgan tuzatishlar kiritilmoqda. Shu bilan birga, V.Yu. Krichevskiy ko’rsatganidek, ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini oshirishni tashkil etish bo‘yicha ijobjiy tajribaga qaramay, bu borada kamchiliklar mavjud: o’qitishning yakuniy bosqichining yo’qligi; ta’lim oluvchilarning mustaqil ishslash ko’nikmalarining yetishmasligidir.

Ma'lumki, kattalar uchun ta'lim - bu murakkab jarayon bo'lib, unda rahbar o'qituvchi xodimlar uchun malaka oshirishni tashkil etishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni va shakllarini aniqlash talqinining xilma-xilligi va kengligini ko'rish mumkin.

Kattalar kasb ta'limi sohasidagi taniqli mutaxassis - E.P. Tonkonogayaning talqinida, XX asrning 90-yillarida rahbarlarning malakasini oshirishning asosiy maqsadi «rahbarning maktabni isloh qilish vazifalarini amalga oshirishga tayyorligi darjasи, uning shaxsi, faoliyati va doimiy ravishda o'sib boradigan ijtimoiy talablari o'rtasidagi mutanosiblikni, xalq ta'limi tizimidagi boshqaruv jarayonlarining asosini tashkil etuvchi zamonaviy ilmiy bilimlar darajasini aniqlash edi».

Uning asosiy vazifalarini aniqlash kurs ta'limi maqsadini amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

E.P. Tonkonogaya keyinchalik olib borgan tadqiqotlarida u maktab rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlab, ushbu tadqiqotning kontseptsiyasiga muvofiq kasbiy rivojlanish tizimidagi bir qator muhim vazifalarni belgilab beradi.

- rahbarning ijtimoiy dunyoqarashlarini chuqurlashtirish va kengaytirish (pedagogik fanining metodologiyasi, boshqaruv asoslari to'g'risidagi bilimlarni tizimlashtirish, zamonaviy jamiyatdagi maktabning ijtimoiy rolini tushunish, rahbarlik kasbining ta'lim tizimidagi ijtimoiy ahamiyati, maktab va jamiyat o'rtasidagi munosabatlар, umuman zamonaviy muammolarga, «o'qituvchi va oila», «ta'lim oluvchi va ijtimoiy muhit» va boshqa muammolarga ijtimoiy qarashning dunyoqarashini kengaytirish);

- ilmiy tashkil etilishi, iqtisodiyot, huquq, ta'lim sotsiologiyasi, kattalar psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, pedagogik va boshqaruv etikasi, estetikasi va boshqalar);

- rahbarlik kasbining asosini tashkil etadigan fanlararo nazariy bilimlarni yangilash, modernizatsiya qilish va chuqurlashtirish; pedagogik va boshqaruv tajribasidagi so'nggi yutuqlarni o'rganish;

- so'nggi ilmiy yutuqlar va ilg'or tajriba asosida umumiy pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirish;

- rahbarning kasbiy muhim shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish: o'z-o'zini anglash, kasbiy va umumiy madaniy sohalarda qadriyatlarga moyillik, moslashuvchan boshqaruv tafakkuri, kasbiy faoliyatning ijodiy yo'nalishi va boshqalar.

- rahbarning kurs ta'limi davomida ma'lum funktsiyalar bajariladi. Ular orasida, E.P. Tonkonogayaning fikri alohida ahamiyatga ega:

- rahbarning kasbiy bilimlari va amaliy ko'nikmalarining holati tashxisini o'z ichiga olgan diagnostik;

- diagnostika natijasida aniqlangan, mutaxassislarning asosiy kasbiy tayyorgarligidagi kamchiliklarni bartaraf etish, malaka oshirishning ushbu bosqichi boshida shakllangan nazariy bilimlari va amaliy tajribalariga tuzatish kiritishdan iborat kompensatsiyalovchi;

- ta'limni modernizatsiya qilish bilan bog'liq innovatsion;

- rivojlanayotgan, kasbiy muhim shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi: pedagogik hodisalarga moslashuvchan boshqaruv tafakkuri, analitik qobiliyat, ijodiy salohiyat, tadqiq qilish yondashuvi va boshqalar;

- prognostik (modellashtiruvchi), rahbarning boshqariladigan ob'ektni pedagogik hodisalar va jarayonlarni rivojlantirish tendentsiyalarini bashorat qilishga, ta'lim muassasasini va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni rivojlantirish uchun ilg'or konstruktiv modellarni ishlab chiqishga, qo'llaniladigan boshqaruv qarorlarining oqibatlarini bashorat qilishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka oshirish jarayonida o'quv muassasasi rahbarining kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammosiga bag'ishlangan nazariy izlanishlar tahlili kurslarda o'qitishning nazariy-uslubiy asosini tashkil etuvchi bir qator uslubiy yondashuvlarni aniqlashga imkon berdi. Bu - tizimli, professiografik kompetentli, shaxsiy-faoliyatli, refleksiv yondoshuvlardir.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, Oliy pedagogik ta'lim Davlat ta'limi standartining tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim sifatini boshqarish va maktabgacha ta'lim tashkilotining bo'lajak

rahbarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish masalalari unda yetarli darajada aks ettirilgan emas. Shu sababli, oliv o'quv yurtidan keyingi ta'lif muassasalari maktabgacha ta'lif tashkiloti rahbarining kvalitologik kompetentligini shakllantirishda alohida rol o'yndaydi.

Foydalanidgan adabiyotlar:

1. A.A.Verbitskiy Aktivnoe obuchenie v vlysshey shkole: kontekstnyy podxod: metod, posobie / A.A. Verbitskiy. - M.: Vlyssh, shk., 1996.
2. Safonova, O.A. Texnologiya upravleniya kachestvom obrazovaniya v doshkol'nom uchrejdenii / O.A. Safonova. — Kirov: Izd -vo KIPK i PRO, 2004.
3. Safonova, O.A. Upravlenie kachestvom obrazovaniya v doshkol'nom uch-rejdenii: monografiya / O.A. Safonova. - N. Novgorod: Gumanitarnyy sentr, 2004.
4. Subetto A.I. Kvalimetriya cheloveka i obrazovaniya: genezis, stanovlenie, razvitiye, problemy i perspektivi. M.: Izd-vo ITsPKPS, 2006.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI FAOLIYATINI INNOVATSION TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH JARAYONIDA MENEJERNING FUNKSIONAL VAZIFALARI

Nabihev E.E.
“BOSS BABY” nomli MTT menejeri.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topib kelgan. Ularda ta'lif-tarbiya, bolalarni rostguylig, ota-onasi va kattalarga nisbatan hurmat-ehtirom ko'rsatish, mashg'ulotlarni qiziqarli olib borish va tashkil etish kabi jihatlar tarannum etilgan. “Alpomish”, “To'maris” kabi doston va ertaklarda bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lif va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarishni to'g'ri olib borish masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiat, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan maktabgacha ta'lifda boshqaruv menejmenti fanini ravnaq topishiga munosib ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali “Kalila va Dimna”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, “Ro'shnoyinoma”, Yusuf xos Hojibning “Qutadg'u bilik”, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'ati turk”, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari ta'lif-tarbiyanı boshqarishga va odob- axloqqa bevosita daxldordir.

Bu allomalarining asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik,adolat, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak insoniy sifat va fazilatlar o'z aksini topgan. Suqrot, Aflatun, Demokrat kabi buyuk faylasuflar tomonidan murakkab falsafa tizimi yaratilgan.

Maktabgacha ta'lifda boshqaruv faoliyatini shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning „Buyuk didaktika“ asari haqli ravishda maktabgacha ta'lif tizimi sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. O'n sakizinchasi asrga kelib O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladidi. XX asr boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usuldagagi maktablar tuzish, darsliklar yaratish, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Yuqoridagilarga asoslangan holda to'xtaladigan bo'lsak har kanday sohani rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy - tadrijiy asoslari mavjud bo'lib, ular mazkur sohalarni ravnaq topishi va takomillashuviga munosib hissa qo'shadi. Jumladan maktabgacha ta'lifda boshqaruv menejmenti sohasini rivojlanishida orttirilgan tajribalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sohani rivojlanishi va takomillashuvi menejer, uning kasbiy kompetentsiyasi, boshqaruv faoliyati va tashkilotchilik qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bunda uning kasbiy-shaxsiy

tayyorgarligi, olib borgan ma’ruzalari va chiqishlari, sayi-harakatlari katta ahamiyatga ega. Har qanday intellegent shaxs kabi menejerning kasbiy kompetentsiyasi, boshqaruvchanligi, tashkilotchanligi hamda ma’ruza qilish va uni olib borish qobiliyati shakllangan bo’lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, menejerlik faoliyati jarayonida aniqlik, to’g’rilik, til boyligi, hissiyot, qisqa va lo’nda gapirish, professional atamalardan o’z o’rnida maqsadli foydalanish, o’z hissiyotlarini jilovlay bilishi, tashabbuskorligi, tadbirkorligi, interfaolligi, muomala madaniyati va muloqatchanligi muhim o’rin tutadi.

Shuningdek, menejerning so’z boyligi lug’atlar bilan ishlash, ma’ruza qilish ko’nikmalarini o’rganishi, komunikabilligi, kognitivligi, kreativligi, o’z ma’ruzalari ustida puxta tayyorlanishi, aniq ma’lumot va faktlarga tayanishi yordamida ushbu jarayon yanada muvofqiyatli kechadi.

Menejerning tajribaliligi, murakkab narsalar to’g’risida tushunarli va oddiy so’zlash kobiliali, kirishimlili, muloqatchanligi o’z-o’zidan yuzaga kelmaydi. U ko’plab ma’ruzalar qilish, turli mavzularda bahs munozaralarda faol ishtirok etishi natijasida paydo bo’ladi.

Menejerning teran fikrlashi, innovatsion yondashuvi, ilmiy-nazariy ma’ruzalar qilishi, o’ziga nisbatan ishonch bilan yondashuvi, ma’ruzada taqqoslashlardan, sitatalardan, kayfiyatni ko’taruvchi voqealardan, hazillardan foydalanish xodimlarni ko’nglini ko’tarishga, ish samaradorligini oshirishga, mustaqil o’ylashga, fikr yuritishga, o’z ustida ijodiy ishlashga mativatsiya bo’ladi. Shuni aytish o’rinligi, ko’pchilik menejerlarning kamchiligi ma’ruzani haddan tashqari cho’zib yuborishi, yoki ularning ko’p gapirishidir. Ortiqcha, keraksiz so’zlar ma’ruzani mazmunini to’sib qo’yadi va zerikarli kechadi. “Qanday tushuntirsam”, “haligi”, “nima demoqchiman” va boshka shu kabi ifodasiz so’zlarni takror va takror ishlatilishi ma’ruzani mazmunan boyitmaydi aksincha salbiy ta’sir etadi. Ma’ruzagacha menejerga qo’yidagilar tavsiya etiladi:

- ma’ruzaning shart-sharoitlarini va joyini aniqlash (qatnashadiganlari soni, ma’ruza xonasining joylashuvi, mavjud jihozlar va boshqalar);
- tinglovchilarga sizni kim deb tanishtiradi;
- tinglovchilar tarkibi haqida kerakli axborotni olish;
- ma’ruzani qayta-qayta takrorlash;
- jihozlarni va yordamchi vositalarni tekshirish;
- kengash qatnashchilari bilan ma’ruzadan oldin uchrashish, shunday qilib, ularni “bilib olish” va yaqindan yana tanishish mumkin.

Menejer ma’ruza jarayonida quyidagilarga amal qilishi uning sifati va samaradorligini ta’minalash imkonini beradi.jumladan: ma’ruzadan oldin tinglovchilarning o’z o’rnida o’tirganlariga va eshitishga tayyor ekanliklariga ishonch hosil kilish;birinchi gapni aniq va ishonch bilan talaffuz etish, ma’ruzani boshlanishini yorqin va qiziqarli bo’lishini ta’minalash masalan, muhokama etiladigan muammo bo’yicha qiziqarli dalillarni keltirish so’ngira auditoriya diqqatini ushlab turishga, ma’ruzaga qiziqishni pasaytirmaslikka harakat qilish qatnashchilarga nima uchun ushbu muammo muhim ekanligini tushuntirish, ma’ruzaning asosiy masalalarini sanab o’tib (savollarga ma’ruza jarayonida yoki uning yakunida javob berishingizni aytish),zo’r bermaslik, slaydlarda keltirilgan tayanch so’zlarni aytish, ma’ruzani o’qib bermasdan, aksincha o’z so’ziz bilan tushintirishga harakat qilish, o’z ishonchingizni va tashabbusingizni so’zlar bilan, ovoz yordamida va harakatlар orqali asoslash, keladigan foyda to’g’risida aniq ma’lumotlar berish, amaliy tasdiqlovchi dalillarni asoslab berish, moliyaviy muvofiqlikni namoyish etish, potentsial muammolar aniqlanganligini va ularni yechish mumkinligini ko’rsatish, ma’ruza davomida ovoz ohangini o’zgartirish, ko’pol so’zlarni ishlatmang, tavakkal, hazil ham kilmang bu sizni obro’sizlantirishi mumkin. Haddan tashqari aql bovar qilmaydigan harakatlardan voz kechib, kechirim so’ramang, ma’ruzani qisqaroq bo’lishini ta’minalash. Belgilangan reglamentni hech qachon buzmaslik, auditoriyaga eshitish, ko’rish va qatnashish imkonini bering, buning uchun tasvirlash vositalaridan va amaliy misollardan foydalanish, qatnashchilar ma’ruzangizni eshitishdan to’xtamasdan turib, gapdan to’xtang. Ma’ruzani ijobiy yondashuvlar bilan yakunlash kerak, ma’ruzani yakuniy qismi katta ahamiyatga ega, uni eshituvchilar ko’proq eslab qoladilar, shu sababli uni yodlab olish lozim. Ma’ruza yakunida eshituvchilarni harakat qilishga jalg etish,

yoki qo'llab-quvvatlashni so'rash, eshituvchilarni maqtash, quldirish va sitatalardan foydalanish mumkin. Ma'ruzani boshlang'ich va yakuniy qismi bir-biriga bog'liq bo'lishini ta'minlash, savollarga ishonch bilan javob berish, ma'ruza jarayonida foydalanadigan yordamchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagilarga imkon yaratadi:

- tayyorlangan ma'lumotni auditoriyaga ta'sirini kuchaytiradi;
- ma'ruza strukturasini aniqlaydi;
- auditoriya e'tiborini ma'ruzaning tayanch vaziyatlariga qaratish;
- auditoriya ma'ruzaning tayanch vaziyatlarni qanday qabul qilganligiga ishonch hosil qilish;
- ma'ruzachi oldida turgan muammolarni yechishga yordam beradi.

Namoyish etish jihozlardan va yordamchi vositalardan foydalanishda quyidagilar tavsiya etiladi:

- foydalaniladigan texnikani oldindan tekshirib ko'rish;
- ushbu texnikadan foydalanishni mukammal bilish yoki maxsus texnik xodim xizmatidan foydalanish;
- hammasi siz o'ylaganingizdek bo'lib chiqmasligiga tayyor bo'lish, vaziyatdan chiqish uchun boshka tasviriy vositalardan foydalanishga tayyor bo'lish;
- ma'ruza plakatlarida va slaydlarda pushti va kizil ranglardan foydalanmasdan, ularni masofadan turib o'qish qiyin, to'q ko'k, yashil yoki qora ranglardan foydalani tavsiya etiladi;
- slaydlardagi yozuvlarni o'qib bermasdan, slaydlardagi yozuvlarni yaxshi ko'rindigan kattalikda yozib, ularni tartib raqamlari bilan belgilash zarur.

• ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni sanab o'tish, ma'ruzaga va yordamchi vositalar hamda jihozlarga ko'yiladigan talablarni aytib o'tish, keyingi «ma'ruza usuli» mavzusidagi muammoli ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish va katnashish zarur. Menejerning boshqaruv faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligi tarbiyachi-xodimlarning maqsadni belgilash va qarorlar qabul qilish jarayonida erkin ishtirok etishi, mustaqil va erkin harakat qilishi, o'z fikr va tashabbuslarini namoyon qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlar va imkoniyatlarning yaratilishiga bog'liq bo'lib, bunda MTT rahbarlari MTTda ijodiy va ijodiy ta'limiy muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi boshqaruvning ijtimoiy-psixologik metodlaridan foydalanib o'z funksional vazifalarini amalgalashga oshirishi maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

R.X.Djuraev va S.T.Turg'unovlarning fikriga ko'ra, ta'lim muassasasi rahbari boshqaruv faoliyati davomida o'z muassasasining faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonining holati, xodimlarning o'z vazifasiga bo'lgan munosabati, o'zaro munosabatlari, ya'ni tarbiyachi-pedagog va tarbiyalanuvchilarning munosabatlari, shuningdek, umumiy maqsadga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami va samaradorligi, tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda tashkil etilayotgan o'quv-mashg'ulotlarning sifati to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi uchun zaruriy axborotlar to'plashi lozim.

Mualliflarning ta'kidlashicha, menejmentning boshqaruv faoliyatida qo'llaniladigan metodlarning ichida muhim ahamiyat kasb etuvchi metodlardan biri hisoblangan axborotlar to'plash metodlari me'yoriy hujjatlarni va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil qilish, so'rovnomalarni o'tkazish, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, tahliliy baholash, umumlashtirish va tizimlashtirish, statistik va matematik tahlil va boshqa ko'pgina usullarni o'z ichiga oladi [3, 43 – 44-b.].

Adabiyotlarda ta'lim muassasalarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari sifatida boshqaruvda har bir shaxsning ijodiy imkoniyatlarini ko'rsata olish imkonini beradigan shakl va uslublarni qo'llash zaruriyat; boshqaruvda rahbarning "uddaburon" bo'lishi, ya'ni islohotlarni hayotga tatbiq etilayotgan davrda yuzaga keladigan o'zgaruvchan shart-sharoitlarga o'z vaqtida moslasha olishi; jamoaning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini rejalshtirishda moddiy xarajatlar masalalari samarali hal qilinishi; boshqarishni takomillashtirish sub'ektivlikni rad etishi, muvaffaqiyat masalaning qay darajada to'g'ri qo'yilganligi va qanchalik o'z vaqtida bajarilishiga bog'liqligi; boshqarish samaradorligiga rahbar xodimlarning bilim darjasini va kasbiy

tayyorgarligining ta'sir ko'rsatishi keltiriladi [4, 14-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ta'lismenejmenti jurnalı. – Toshkent: Sharq, 2005. № 1-2. – 218 b.
- 2.Temur tuzuklari / So'z boshi muallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali, forschadan tarj. A.Sog'uniy va H. Karomatov. – Toshkent: Sharq, 2005.– 160 b.
- 3.Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lismenejmenti: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
- 4.Xo'jaev A.A., Xeyki Lentinin. O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent, 2001. – 126 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA METODIK ISHNI BOSHQARISHNI MODELLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Olimov S. A.
MTTDMQTMOI 1- bosqich tayanch doktoranti

Zamonaviy pedagogikada modellashtirish ilmiy tadqiqotning juda keng tarqalgan metodini ifodalaydi. Zamonaviy insonning hayoti va turmushini g'amxo'r va aqli mashinalarsiz, gazeta va radiosiz tassavur qilib bo'lmagani kabi, zamonaviy fanning "hayoti va turmush tarzini" ham modellarsiz tassavur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydag'i «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Konsepsiya tasdiqlangandan so'ng o'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyihalari, islohotlar bosqichma-bosqich amalgalashirilib kelinmoqda.

Mazkur rivojlanishlardan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida ham ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi

Etimologik nuqtai nazaridan "model" tushunchasm lotincha "modus", "modulus" so'zlariga to'g'ri keladi, ular "o'Icham", "timsol", "usul" deb tarjima qilinadi.

Model, modellashtirish tushunchalari avval texnika va tabiyi fanlarda paydo bo'ldi. Falsafada modellashtirish masalalariga xorijiy olimlardan V.V. Davidov, A.A. Zinovev, V.A. Lefevr, I.V. Novik, N.N. Rezin, V.A. Shtofflar va boshqa bir qator mualliflarning ishlari bag'ishlangan.

Modelning falsafiy ta'riflaridan biri, masalan, I.B. Novikning maqolasida "Model" – bu, o'rganilayotgan obyekt bilan obyektiv mos kelgan, bilishning ma'lum bir bosqichlarida uni almashtira oladigan, tadqiqot jarayonida, axborotning, o'rnatilgan qoidalar bo'yicha o'rganilayotgan obyektning o'zi haqidagi ma'lumotlarga aylanadiradigan, qandaydir bir yo'l qo'yiladigan tajribaviy tekshirishni beradigan (haqiqiy agregatni yoki belgilar tizimini ifodalovchi) sun'iy obyekt.

V.V.Davidov modelning, uni boshqa mavhumliklardan farq qiluvchi xususiyatlarini ajratadi: "Model" – bu ilmiy mavhumlikning shakli, unda obyektning ajratilgan ahamiyatlari munosabatlari moddiy yoki belgili elementlarning ko'rgazmali qabul qilinadigan va muhim aloqalarida hamda munosabatlarida mustahkamlangan. Bu ahamiyatlari tavsifdagi yagona va umumiylarning erkin birligi.

Pedagogikada model obyekt analogidir, u ma'lum bir bilim sohasidagi belgilar, dalillar, aloqalar, munosabatlarni sodda va ko'rgazmali, tahlil va xulosalar qilish uchun qulay va foydalanish mumkin bo'gan shaklda aks ettirishi kerak.

Shunday qilib ilmiy model o'rganilayotgan hodisa mohiyatining mavhum ifodasidir. Shuning uchun metodik ishni boshqarish modelini qurish uchun o'rganilayotgan jarayonni aniqlash va uning mohiyatini organik, ichki tomondan bog'langan va ishlaydigan bir butun sifatida ifodalash zarur.

MTT da metodik ishni boshqarish jarayoniga qaratilgan zamonaviy nuqtai nazarlar ko'rib chiqilgan edi, unda modellashtirish MTTni boshqarishning zaruriy bosqichi ekanligi va birinchi navbatda, pedagogik kadrlar bilan ishlash samaradorligini ko'tarishga yo'naltirilganligi, turli xil ilmiy adabiyotlarda modellashtirish asosida boshqarishga bo'lgan yondashishlarning bayoni tavsiflangan. Bu qoidalar modelni ishlab chiqish uchun metodologik yo'nalish bo'ldi.

Tadqiqot jarayonida bir ma'noli tushunchalar va munosabatlar to'plamini topishga zaruriyat tug'ildie. Ular yordamida o'rganilayotgan obyekt-boshqarish jarayonining tuzilmasini tashxis asosida MTT ning metodik ishlari bilan, model darajasida uning tashkil etuvchilarini va mavjud bo'lgan aloqalarni o'rnatib, aniqlashi mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda ilmiy tadqiqotlarda tushunchalarning mohiyatini aniqlash uchun turli-tuman yondashishlar qo'llanilayotganligi uchun, ularning ichidan biz, izlanishlarimizda qo'llaniladigan ba'zi birlarini ko'rib o'tamiz.

Zamonaviy pedagogika fanida pedagogik mahorat ketma-ket yuzaga keladigan harakatlar to'plami sifatida talqin qilinadi, ulardan, amaliy bilimlarga va uyg'un shaxsni rivojlantirish masalalarini yechishga yo'naltirishga asoslangan, bir qismi (ko'nikmalar) avtomatlashtirilishi mumkin.

Ishlab chiqiladigan modelning boshlang'ich pozitsiyalarini, tuzilmasini va mazmunini aniqlash uchun adabiyotni o'rganish talab qilindi, unda shaxsga va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining faoliyatiga qo'yilgan talablar ko'rib chiqiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sон “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori.

2. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sон “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”gi qarori

3. Klarin M.V. Innovatsionniye modeli uchebnogo protsessa v sovremennoy •zarubejnoy pedagogike. Dis. ... dokt. ped. nauk. - M., 1994, - 356 s.

4. Lomov B.F. Metodologicheskiye i teoreticheskiye problemi psixologii. -M., 1984.-444 s.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA IKKINCHI TILNI O'RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Qurbanova Z.U.
MTTDMQTMOI “Axborot resurs markazi”
bo'limi boshlig'i.

Axmedov B.O.
“Axborot resurs markazi” metodisti.

Bugungi kunda ikkinchi tillarni bilish ko'nikmasi proffessional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bolib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida ikkinchi tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi.

Ikkinchi tilni o'rganishga kompleks yondashish ko'p qirrali shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning zaruriy shartidir.

"Integratsiya" atamasi biz alohida differensial qismlarning bir butunga bog'langanligi (birikishi) holati tushunchasini, shuningdek, bu holatga olib keladigan pedagogik jarayonni

tushunamiz. Xorijiy so‘zlarning izohli lug‘atida quyidagi ta’rif berilgan: integratsiya – qismlar, tarkibiy qismlar birlashmasi, jarayonning bir birlikka qo‘silish bilan bog‘liq tomoni.

Ta’limdagi integratsiya g‘oyasi buyuk Ya.A.Komenskiyning asarlarida o‘z ildizlarini oladi: “Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa doimiy ravishda bog‘langan bo‘lishi kerak va aql, xotira va til o‘rtasida mutanosib ravishda taqsimlanadi.”

Ta’limning integratsiyasi – ta’limning muayyan bosqichida ta’lim tizimi doirasida mazmun, uslub va shakllarning o‘xhash qismlari va elementlarini ta’lim va tarbiyaning umumiy maqsadiga bo‘ysunishidir.

Integratsiya tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) ob‘yektlar;
- b) aloqa (o‘zaro aloqa o‘rnatilgan ob‘ektlarni nomlash);
- v) ulanish yo‘nalishi (bir ob‘yektdan ikkinchisiga aloqa).

Integratsiyalashgan o‘qitish tizimli o‘qitishning didaktik tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi. Integratsiyalashgan ta’limda yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish boshqa faoliyat turlari bo‘yicha mavjud tajriba asosida amalga oshiriladi, o‘qitish mazmuni, vositalari va usullarini kengaytiradi, vaziyat turlicha bo‘ladi, individuallashtirish imkoniyatlari mavjud. O‘quv jarayoniga turli mashg‘ulotlar uning samaradorligiga xizmat qiladi, chunki ularning har biri o‘z o‘zida tarbiyalanuvchini faollashtiradi, uni mustaqillikka undaydi, ma’lum bir fan bo‘yicha, jumladan, ikkinchi tilni o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Bilimga va umuman o‘rganishga qiziqishni chuqurlashtiradi va kengaytiradi.

Ikkinci tilga kelsak, integratsiyalashgan kurslarning turli materiallarda talaffuz va intonatsiya ko‘nikmalarini, lug‘at va grammatikani shakllantirish uchun asos yaratish mumkin.

Ikkinci tilni o‘qitish amaliyotiga integratsiyalashgan kurslarni joriy etish ikkinchi tilni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadigan kommunikativ va kognitiv motivlarga yordam beradi. Muloqot vositasi sifatida ikkinchi tilni o‘rganish yetakchi bo‘lishi kerak, barcha jihatlar kommunikativ maqsadlarga bo‘ysunishi kerak. Kommunikativ qobiliyat va integratsiya o‘rtasida aniq bog‘liqlik mavjud. Integratsiya, shuningdek, kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishning asosi va kommunikativ qobiliyatlarning natijasi va muloqotni amalga oshirish natjasidir.

Integratsiyaviy trening - ikkinchi tilni o‘rganish jarayonida uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayon va natija. Fanlararo aloqalarni o‘rnatishni to‘g‘rilash, ulardan o‘quvchilar ongini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan moslashuvchanlikdan mohirona foydalanish, o‘quv jarayonini faollashtirish va amaliy yo‘nalish olish. Trening integratsiyasi turli guruhlarda olingan barcha bilim va ko‘nikmalarni yagona tizimga bog‘lash, shuningdek, ushbu aloqalarni amalga oshirishda yangi bilimlarni olish imkoniyatini beradi. Integratsiyalashgan yondashuv real dunyoda nutq akti doirasidagi kommunikativ funktsiyalarni o‘rgatish imkonini beradi, u kundalik vaziyatlarda maqtov, kechirim so‘rash, ma’lumot so‘rash uchun qanday ishlatalishini ko‘rsatadi.

Integratsiyalashgan ta’limni shakllantirish muammosi haqida gapirganda, quyidagilarni e’tiborga olish kerak: mashg‘ulot yoki kursni tayyorlash uchun siz uchta jihatga e’tibor qaratishingiz kerak - mavzu-mazmun, lingvistik va kommunikativ. Ulardan biriga javob bermaslik integratsiyalashgan ta’limni imkonsiz qiladi.

1) Mavzu-mazmun jihatni talab qilinadigan informatsionlik darajasi bilan belgilanadi. Mavzuning asosiy savollari bo‘yicha tayyorlanmagan nutq uchun zarur bo‘lgan mavzu bo‘yicha faktik bilimlar miqdorini oldindan tanlash kerak.

2) Til. Bu jihat ma’lum bir mavzu bo‘yicha bilimlarni ikkinchi tilda ifodalash uchun zarur va yetarli bo‘lgan leksik birliklarni tanlashni o‘z ichiga oladi.

3) Kommunikativ. Ushbu jihat tanlangan leksik birliklardan maqsadli foydalanish orqali muloqot muammolarini hal qilish, ya’ni ma’lumot berish, o‘z fikrlarini bildirish va hokazolar orqali amalga oshiriladi.

An’anaviy dasturlardan farqli o‘laroq, integral til dasturlari til bo‘yicha ko‘p tizimli bilimlarni shakllantiradi. Bunday dasturlar mono tizimli ikkinchi tillarni o‘zlashtirish maqsad emas, balki boshqa mono tizim bilan tashqi aloqalar va o‘zaro aloqalarni amalga oshirish vositasidir.

Ma'lumki, an'anaviy tarzda dastur maqsadlari, o'quv mazmuni, ketma-ketlikni egallash va nutq ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni hujjatlashtiradi. Ikkinci tilni o'rganishning integratsiyalashgan kursining maqsadli funktsiyasi dasturiga muvofiq, birinchi navbatda, jamiyatning zamonaviy tartibini belgilab beradigan maqsadlarni ochib berish kerak. Integratsiyalashgan kursni chuqur o'rganish nuqtai nazaridan ikkinchi tilni o'rganishni nazarda tutadi:

- 1) kursning qiziqarli ma'lumotlari va tarbiyalanuvchilarni ikkinchi til bilan amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish tufayli ikkinchi tilni o'rganish motivatsiyasini oshirish;
- 2) ma'lum amaliy sohalarga yo'naltirilgan virtual diqqatga sazovor joylardan ikkinchi tildagi bilim, ko'nikmalarни shakllantirish;
- 3) qabul qilish (o'qish, tinglash) va ishlab chiqarish (nutq va yozish) bo'yicha nutq amaliyoti hajmini oshirish asosida bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamligini ta'minlash;
- 4) birlashtirish mexanizmlarini (jumladan, lingvistik materialning leksik va grammatik muvofiqligi, uning semantik o'zgarishi, parafraza) takomillashtirish orqali ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlash;
- 5) tarbiyalanuvchilar o'zлari o'qishlari va ma'lum darajada tinglash orqali tushunishlari mumkin bo'lgan potentsial yoki retseptiv lug'at va grammatik hodisalar doirasini sezilarli darajada kengaytirish;
- 6) faol lug'at minimumini kengaytirish va undan aloqa muammolarini hal qilishda maqsadli foydalanishni o'rganish, ya'ni sohadagi aniq holatlar uchun ko'proq xos bo'lgan muloqot sharoitida ma'lumot berish va so'rash, so'rov, maslahat, fikr, baholash va hokazolarni bildirish;
- 7) MTT tarbiyalanuvchilarini real dunyoga yaxlit ko'rinishini yarating. Ushbu integratsiyaning natijasi - bola dunyoning ma'lum qismlarining tizim sifatida bog'liqligini aks ettiruvchi dunyo bilimlarini oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, ikkinchi tilni umumiyl ilmiy, kasbiy va uslubiy yo'naltirilgan holda kompleks o'rganish tizimini faqat ijtimoiy olimlar, pedagoglar, psixologlar ishtirokidagi har tomonlama o'rganish asosida aniqlash va tavsiflash mumkin.

Ikkinci tilni o'qitish bo'yicha integratsiyalashgan kurslar turli o'quv fanlari bo'yicha olingen barcha bilim va ko'nikmalarini bir-biriga bog'lash imkonini berdi va ikkinchi tildagi o'quv jarayonini rag'batlantirish manbai hisoblanadi. Integratsiyalashgan kurslardan foydalanish murakkab jarayon bo'lib, hech bo'limganda fanlararo aloqalar va tarkibning shakllarining funktsional darajasida oldindan aniqlashni talab qiladi. Shubha yo'qli, fanlararo aloqalarning xilma-xilligiga qaramay, asosiy narsa - berilgan sharoitlar MTT uchun ularni shakllantirishning asosiy maqsadini aniq belgilash kerak.

Ikkinci til bo'yicha integratsiyalashgan mashg'ulotlarda muloqotni tashkil etish ikkinchi tilni o'rganuvchilarni atrofimizdagi voqelikni ob'ektiv bilish vositasi va aloqa vositasi sifatida amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, u o'z-o'zini ta'minlashga yordam beradi. Ikkinci tilni o'rganishning integratsiyalashuvi orqali tarbiyalanuvchilar o'z-o'zini ta'lim olishlari va nutq qobiliyatlarini yaxshilashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artemov V.A. Chet tillarini o'qitish psixologiyasi. – M.: Ma'rifat, 1999 yil.
2. Baxtalina E.Yu. Bolalar bog'chasida integratsiyalashgan ta'lim to'g'risida. // bolalar bog'chasida chet tili. - 2000. - No 6, b. 44-47.
3. Zagornya L.P. Ilg'or bosqichda o'quv matnlari tizimi asosida og'zaki nutqning mazmun tomonini takomillashtirish: Dissertatsiya avtoreferati ... fanlar nomzodi. - M., 2005 yil.
4. Maksimova E.A. Chet tili o'qituvchisining pedagogik bilimlari tarkibi: Dissertatsiya avtoreferati ... fanlar nomzodi. - L., 1983 yil.
5. Trofimova G.S. Kommunikativ pedagogik kompetentsiyaning tuzilishi: uslubiy jihat. - Izhevsk, Gumbaz, 2000 yil.

MAKTABGACHA TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR PRINSIPLARI

Tojiboyeva X. M.

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
instituti direktor o'rinosbasari,
pedagogika fanlari doktori (DSc), k.i.x.

XXI asr inson idealini ta'lismiga kiritish uning barcha bo'g'lnarning, jumladan, maktabgacha ta'lismiga tizimining sifat jihatidan yangilanishi bilan bog'liq. Hammaga ma'lumki, inson hayotining dastlabki yillarini o'z ichiga qamrab oluvchi maktabgacha ta'lismiga yosh davri o'z ahamiyatiga ko'ra noyob holat hisoblanadi. Aynan shu yillarda bolada o'z asosiy insoniy qobiliyatlarining shakllanishi yuz beradi, uning shaxsi rivojining asoslari qo'yiladi.

Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobiliyati, dunyoqarashi bolalik qanday bo'lganligiga, ta'lismiga qanday bo'lganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bularning hammasi bolalikning almashib bo'lmas ahamiyatini, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lismiga yoshidan boshlab ta'lismiga sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lismiga siyosatining ustuvor yo'naliishiga aylantiradi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, maktabgacha ta'lismiga boshqarish, maqsadlar, mazmun, vositalar va usullar sifatga, ya'ni sifat va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgandagina "barkamol shaxs" asoslarini shakllantirishni ta'minlovchi ta'lismiga erishish mumkin bo'ladi. Modomiki, maktabgacha ta'lismiga sifati va samaradorligini takomillashtirish – ta'lismiga sifatini boshqarish yaxlit tizimining o'zini-o'zi ta'minlovchi birligi bo'lib xizmat qilar ekan, bunda uni bu jarayonning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish kerak.

Ma'lumki, samaradorlik xar qanday faoliyatda eng kam kuch sarflash va moddiy jihatdan kam harajat qilgan holda, qisqa vaqt ichida ko'zlangan maqsadga to'la erishishdir. Garchi buni faoliyatga tatbiq etadigan bo'lsak, unda qulaylik tomoni ham hisobga olinadi. Lekin uning amalda hal qilinishi ma'lum shart-sharoitga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lismiga sifatini oshirishning asosiy tendensiyalarini aniqlash ta'limga va jamiyatdagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ularning ta'lismiga sifatiga ta'sirini belgilash uning boshlang'ich bosqichi bo'lishi kerak[1].

Har qanday boshqa ilmiy ijtimoiy nazariya kabi maktabgacha ta'lismiga jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish nazariyasi ham turli fanlar, avvalo falsafa fani tomonidan ishlab chiqilgan umumuslubiy yondashuvlardan, qoidalardan, prinsiplardan kelib chiqadi.

Obyektivlik, o'zaro hamjihatlik, taraqqiyot prinsiplari maktabgacha ta'lismiga tashkilotlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini boshqarishning uslubiy asosi hisoblanadi.

Obyektivlik prinsipi. Ushbu umumilmiy prinsip bilish jarayonini dialektik-materialistik talqin qilish bilan bog'liqdir. Obyektiv mavjud bo'lgan borliqni to'g'ri yoki taxminan to'g'ri aks ettiruvchi ilmiy bilimning obyektivligini tan olish uning o'zagini tashkil etadi. Haqiqat bilimlarning mohiyatidan iboratdir, ular bilimni anglovchi kishining irodasi va istaklariga bog'liq bo'lmaydi. Ammo ayni vaqtida obyektiv sifatlar, aloqalar va tashqi dunyoning munosabatlari bilim subyektining ongida in'ikos etib, uning bilish predmetiga aylanadi, undan muayyan xulosalar chiqariladi, u yoki bu munosabat shakllantiriladi.

Ushbu subyektiv holatlar ta'lismiga jarayoni sifatini boshqaruvchi maktabgacha ta'lismiga tashkiloti pedagogik va boshqaruv xodimlarining yaxshi nazariy tayyorgarligi sharoitida obyektiv mazmun bilan mos keladi.

Modomiki, maktabgacha ta'lismiga sifatini boshqarish jarayoni hamisha, eng avvalo, baholash ko'rsatkichlarini tanlash, tegishli baholash mezonlaridan foydalanish, olingan ma'lumotlarni ekspert baholashi mobaynida talqin qilishning to'g'riliği va hokazolar bilan bog'liq yetarlicha miqdordagi subyektiv omillarni o'ziga qamrab olar ekan, bunda uning subyektlari uchun olingan ma'lumot va uning bahosining xolisligiga va aniqligiga erishishga intilish o'ta muhimdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga nisbatan bu prinsipni amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi:

- ta’lim jarayoni sifatini belgilovchi muhim xususiyatlarni muvaqqat omillar tufayli paydo bo‘ladigan muhim bo‘lmagan xususiyatlardan ajratish va buning natijasi sifatida boshqaruv ta’sirlarining to‘g‘ri yo‘nalishini tanlash;
- ta’lim jarayonini uning miqdoriy va sifat tavsiflari birligida tadqiq qilish;
- ta’lim jarayoni sifati va uning natijalarini ularni keltirib chiqargan aniq tashqi va ichki holatlar kontekstida ko‘rib chiqish;
- informativlik, obektivlik va ishonchlilik talablariga javob beruvchi nazorat-baholash vositalaridan foydalanish.

O‘zaro hamjihatlik prinsipi. Amal qilish shart-sharoitlaridan qat’iy nazar, har qanday pedagogik holat o‘zicha, o‘z qobig‘iga o‘ralgan holatda emas, balki faqat o‘rab turgan borliqdagi boshqa jarayonlar bilan o‘zaro hamjihatlik asosidagina mavjud bo‘ladi. Hamjihatlik har qanday tuzilma elementlari aloqasining usuli, uning o‘zgaruvchanligi va barqarorligining asosi hisoblanadi, shu sababli u yoki bu obyektning mohiyatiga kirib borish zarurati uni pedagogik faoliyatning boshqa holatlari bilan turli munosabatlar orqali ko‘rib chiqishni taqozo etadi. U yoki bu obyektlar o‘zaro hamjihatligining vositalarini bila turib, ularning istalgan paytdagi holatini prognoz (bashorat) qilish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish doirasida o‘zaro hamjihatlik prinsipi quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

- ta’lim jarayoni holati, uning natijalari va ularni keltirib chiqargan tashqi va ichki omillar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va shundan kelib chiqqan holda, ularning kelgusi o‘zgarishlarini bashorat qilish;
- maktabgacha ta’lim jarayoni sifatini loyihalashtirishning asosi sifatida tahlil va bashorat qilish natijalaridan foydalanish;
- maktabgacha ta’lim jarayoni sifatini xususiyatlarning yig‘indisi (integral va oddiy) sifatida ko‘rib chiqish, ularning o‘zaro hamjihatligining mexanizmini ochib berish;
- sifatni takomillashtirishni uning protsessual va natijadorlik qismlarining o‘zaro bog‘liqligida tadqiq qilish;
- sifatni boshqarish jarayonining tuzilmaviy-funksional qismlari o‘rtasida zarur aloqalarni o‘rnatish;
- boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini chiziqli-funksional va asosiy tuzilmaviy birliklarni uyg‘unlashtirish prinsiplarida qurish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda xodimlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi davr bola rivojlanishining ilk va hal qiluvchi davriga to‘g‘ri keladi. Ya’ni, “bola hayotidagi ilk yosh eng muhim davr bo‘lib, huddi mana shu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy, mehnat va estetik rivojlanishiga poydevor qo‘yiladi”. Shu boisdan ham yurtimizda **maktabgacha ta’lim va tarbiya** — “bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rtta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzlucksiz ta’lim turi” sifatida taraqqiy etib bormoqda. Ma’lumki, yurtimizda aloxida ta’lim extiyojga ega bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari sirasida qo‘shma turdagи maktabgacha ta’lim tashkilotlari imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasida o‘ziga xos o‘rnii va roliga ega bo‘lib kelmoqda. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta’lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya va korreksiya-pedagogik yordam berilishini ta’minlash” mazkur ta’lim tashkilotlari vazifalaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda aloxida ta’lim extiyojga ega bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan talablar maktabgacha ta’lim pedagogikasi maxsus pedagogika bilan uzviy bog‘liq alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berishning yangi pedagogik texnologiyalari, modellarini va metodikasini yanada takomillashtirish vazifalarini qo‘ymoqda. Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari sharoitida ijtimoiy-hissiy rivojlanishini sifatlari va samarali amalga oshirish ko‘zda tutilmoodqa.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishini tadqiq qilgan N.Baxrieva “emotsional tajriba va qiziqishlarga asoslangan holda bolaning turli faoliyatlar jarayonida bilish, anglash, aniqlab olish qobiliyati shakllanadi, turli emotsiyalar mazmunini tushunish va ifodalash, kattalar ko‘magida ularni differensiatsiyalash, o‘z emotsional holatini baholash va boshqarish amalga oshiriladi va olamga, boshqa kishilarga, o‘ziga nisbatan emotsional-pozitiv munosabat shakllanadi. Natijada bolaning jamoada o‘zini erkin his qilishi, boshqalar bilan muloqot qilishi va munosabatga kirishishi yengillashadi, ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yanada kengayadi” deb yozadi. Demak bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy-hissiy rivojlanishi uning faol ijtimoiy moslashuvi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, “ijtimoiy-hissiy rivojlanirish jarayonida bolaning o‘ziga, boshqa insonlarga, uni o‘rab turgan atrof-olamga nisbatan ijobiy

munosabati, kommunikativ va ijtimoiy kompetentligi shakllanib boradi”. Shuningdek, “emotsiyalarning sifati muloqotga kirishish va munosabat o’rnatishning samaradorligini belgilovchi muhim omil”lardan birini tashkil etadi.

Alovida ta’lim ehtiyojiga ega bo’lgan bolalarda hissiyotlarning paydo bo’lishi va rivojlanishi bevosita eshitish funksiyalarining qay darajada buzilganligi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ularga xos umumiy xususiyatlar esa, boshqalar bilan muloqot imkoniyatlarining cheklanganligi, anglab yetishga qiyinalishi, o‘z hissiyotlarini so‘z bilan ifodalay olmasligi bilan bir qatorda, boshqa shakllarda ifodalash ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganligi, eng asosiysi, mazkur bo‘shliqlar uning ijtimoiy-ahloqiy hissiyotlari rivojlanishini sog‘lom bolalarga nisbatan kechiktirishida, to‘laqonli bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi.

O‘z navbatida ijtimoiy-hissiy rivojlanish bunday bolalarning yangi hatti-harakatlarning yangi turlarini o‘rganishiga, hayotning hissiy tarafiga bo’lgan qiziqishlarini oshirishga hamda yangi hayotiy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishiga turki beradi va rag‘batlantirib boradi.

Alovida ta’lim ehtiyojiga ega bo’lgan bolalarni hissiy-ijtimoiy rivojlantirishning bir qator pedagogik omillari mavjud bo‘lib, ular sirasida quyidagilar alovida ahamiyat kasb etadi:

- Psixodiagnostikaning samarali metodlaridan foydalangan holda, bolaning boshlang‘ich (masalan, oila muhitida) ijtimoiy-hissiy shakllanganlik darajasini, shuningdek, undagi mavjud hissiy rivojlanishga moyillik va ijobjiy omillarni to‘g‘ri belgilash;

- Dastlabki, ta’lim-tarbiya va korreksion dasturlarda bolada ijtimoiy hissiyotlarni bosqichma-bosqich nafaqat ifoda shakllari, balki kelib chiqish sabablari va turlari bilan imkon qadar kengroq tanishtirish, bolaning diqqati, xotirasi, tafakkuri, xatti-harakatlari rivojlanishini o‘zida hosil bo’lgan hissiyotlarni erkin ifodalashga yo‘naltirish maqsadini birlamchi qo‘yish;

- Shuningdek, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borayotgan hissiyotlarga mos holda, bolalar uchun umumiy va individual dasturlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash, jumladan, dastlab odatiy hissiyotlarni tushunish va ifodalashni o‘rgatishdan boshlangan pedagogik jarayonni keyinchalik hissiyotlarni boshqarish va o‘rinli ifoda etish, boshqalar bilan madaniyatli muloqotga kirishish hamda faol ijtimoiy moslashuv tomon umumiy va har bir bola uchun o‘ziga xos tarzda takomillashtirib borish;

- Maktabgacha ta’lim tashkiloti shart-sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, bolaga tabiiy (pedagogik jamoa, tengdoshlari bilan muloqot) va sun’iy (faol va interfaol metodlar) muloqot muhiti uchun keng “maydon” yaratish, bunda o‘z navbatida pedagoglarning, mutaxassislarning kasbiy bilimi va mahorati muhim ahamiyat kasb etadi;

- Bola uchun muhim ijtimoiy makon bo’lgan oilada ijtimoiy-hissiy muloqot uchun zarur shart-sharoitlarni oila a’zolari bilan hamkorlikda shakllantirish, jumladan, ota-onalarni ta’lim tashkilotidagi jarayonlarga jalb etishning alovida dasturini ishlab chiqish

Maqolada bayon qilingan mavzu yuzasidan alovida ta’lim ehtiyojiga ega bo’lgan bolalarni qo‘shma turdagи maktabgacha ta’lim tashkilotlari sharoitida faol va samarali ijtimoiy-hissiy rivojlantirish borasida quyidagi tavsiyalarni lozim deb topdik:

- Maktabgacha yoshdagи alovida ta’lim ehtiyojiga ega bo’lgan bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlantirish jarayonlarining metodik ta’minotini yanada yaxshilash, jumladan, xorijiy ilg‘or tajribalarga asoslangan yangi modellarini, psixodiagnostik metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- bolalarni ijtimoiy – hissiy rivojlantirida muhim ahamiyatga ega bo’lgan badiiy-estetik tarbiya vositalaridan samarali foydalanish, jumladan, katta yoshdagи guruhlar tarbiyalanuvchilari ishtirokida “Baxtli bolalik” rasmlar ko‘rik-tanlovi, o‘tkazib borish shular jumlasidandir;

Xulosa sifatida aytganda, alovida ta’lim ehtiyojiga ega bo’lgan bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish maktabgacha ta’lim tashkilotining bugungi kunda (alovida ta’lim ehtiyojiga ega bo’lgan bolalarning ijtimoylashuv, integratsiyalashuv, ijtimoiy moslashuv) dolzarb muammolaridan biridir. Bu bilan birga ta’lim tashkilotidagi pedagogiklar masalalarni ijobjiy xal etish va bu yo‘nalishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya

jarayonlarini takomillashtirish, mazmuni jihatdan moslashtirish yangilash amaliy sa'yisharakatlarni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-soni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020 yildagi 4860 sonli "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.05.2019 yildagi 391-son
4. P. Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., "O'qituvchi". – 1993
5. Bahrieva N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lif / Sovremennoe obrazovanie 2020
6. Bahrieva N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishda musiqa mashg'ulotlarining o'rni. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020
7. Podprugina V.V. Predstavleniya ob emotsiyax u detey s narusheniem sluxa. Vestnik MGLU. Vipusk 16 (702) / 2014

SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVIDA GENDER TARBIYANING O'RNI

Otaqulov Sh. M.,
MTTDMQTMOI "Ijtimoiy fanlar"
kafedrasи dotsenti.

Gender tarbiyasini amalga oshirishda oila, ta'lif tashkilotlari pedagogik jamoasining, bolani qurshab turgan muhitning roli benihoya katta. Mazkur jinsiy va gender tarbiyasi birinchidan, o'ziga xoslikka ega bo'lgan mustaqil tarbiya yo'nalishlari hisoblanadi. Har bir yo'nalishning o'ziga xos yondashuvi, usuli va vositalari mayjud. Ikkinchidan esa, ularni bizning nazarimizga ko'ra bir-biri bilan uzviy, chambarchas bog'liklikda, o'zaro ta'sir asosida olib borish kerak. Demak, bunda vrach gender tarbiya asoslarini yaxshi o'zlashtirgan, gender pedagogi esa vrach malakasiga ega bo'lmog'i kerak. Mana shunday uyg'unlikda biz kutgan maqsadga erishamiz.

Yuqorida aytilganlardan tashqari ushbu nozik masalada yana bir muhim jihat bor. Bu - ushbu tarbiya jarayonidagi milliy-madaniy nazariyaning, dunyoqarashning o'rni. Bilamizki, o'zbek oilalarida ko'pchilik hollarda jins, jinsga aloqador holatlar benihoya sir tutiladi. U haqda gaplashish, uni muhokama qilish uyat hisoblanadi. Shu sababdan o'g'il va qiz bolalarimiz hayotga ko'rgan, kuzatgan, eshitgan gap so'zлari holatlariga ko'ra kirib keladilar va natijada ayrim xollarda bir qator noxush muammolarga ham duch keladilar. Vaholanki, jinsiy tarbiya, jinsiy madaniyat, jinsiy munosabat madaniyati ijtimoiy hayotning asosiy zaminlaridan biri hisoblanadi. Insonning baxtli hayot asoslaridan biri bo'lgan ushbu tarbiyaga uyalib qarab keldik. Bugun gender tarbiyasi masalasi butunlay boshqacha qarashni, dunyoqarashni talab qilmoqda. Birinchidan, o'g'il va qizlar bir xil bola, ulardagi jinsiy farqlar ular o'rtasidagi insoniy munosabatlarni yanada mazmunli, ehtirosli, qiziqarli qilishi uchun xizmat qilishi kerak. Qiz bola qiz bola bo'lgandigan g'ururlanishi, iftixor tuyg'ulari bilan yashashi kerak. Ona bo'lish baxti avlodlar davomiyligini harakatga keltirish baxti, millat, vatan ramzi bo'lish baxti qizlarimizda belgilovchi qadriyat bo'lishiga erishmog'imiz kerak. Ular o'zlaridagi shu qadriyatlarga xos sifatlarini ijtimoiy xayotning barcha jahbalarida namoyish qilishiga intilishlari lozim.

Biz bilib-bilmay ularni jins rollariga o'rgatmoqdamiz. Qabul qilingan umum-tartib qoidalari ko'ra qiz bola qanday, o'g'il bola qanday bo'lishiga o'rgatmoqdamiz. O'g'il

bolalarning agressivligini kechirib, faolligini qo'llab-quvvatlaymiz. Qizlarning esa ko'ngilchan, hissiyotli, emotsiyonal bo'lishini rag'batlantiramiz. Kattalar rahbarligida ular kattalarga o'xshab qiz va o'g'il bolalar bo'lib o'sishmoqda.

Ta'lif tashkilotlarida gender tarbiyasi birinchidan, bolalarda gender o'ziga o'zi mosligining, o'z vaqtida shakllanishini ta'minlashga qaratilishi kerak. Bola o'z jinsiga xos bo'limgan o'yinchoqlar bilan o'ynamasligi, o'yinlarni ma'qul ko'rmasligi kerak. Ularni o'z jinsiga mos kiyinishga, yurish turishga o'rgatish, o'g'il bola-o'g'il bola, qiz bola-qiz boladek bo'lishga intilish ko'nikmasini shakllantirish lozim .

Hozirgi davr qizlardan faqat an'anaviy sifatlardan tashqari jiddiylikni, cho'rtkesarlikni, tashabbukorlikni, o'z manfaatlarini himoya qila olishlikni, natijaga erisha olishlikni, o'g'il bolalarda esa nafaqat erkaklarga xos, balki toqatli bo'lishni, odamlarga yordam berishga intilishni har qanday masalada labbay deb, javob berishga tayyor bo'lishni tarbiyalash kerak.

O'g'il va qiz bolalarning gender o'ziga o'zi mosligini shakllantirishda ularning o'zaro birlik, hamkorlik muhiti yaxshi natijalar beradi. Ushbu muhitda qiz va o'g'il bolalar bir-birlari bilan erkin, do'stona gaplashishadi, o'ynaydilar, hazillashadi, mehnat qiladi, o'zlarining individual gender xosliklarini namoyon qiladilar. Shunday qilib, gender o'ziga xoslikni shakllantiruvchi muhim omil ko'p funksionalli rivojlanuvchan predmetli muhitni tobora takomillashtirib borish kerak.

Ko'p funksionalli rivojlanuvchan predmetli muhit bolalarda nafaqat turli faollikni shakllantiradi(jismoniy, aqliy o'yinga aloqador) balki ularning gender xususiyatlari hisobga olingan dastlabki mustaqil faoliyatini asosini ham tashkil etadi.

Ko'pchilik hollarda bolalar o'yinlari, ular o'rtasidagi hamkorlik, jamoa bo'lib ishlash, ijobiy natijaga erishish tamoili asosida tashkil etiladi. Bunda qizlarning xam ishtirok etishi muxim axamiyatga ega. O'g'il bolalar qizlar ko'z o'ngida o'zlarining jasur, chaqqon, epchil, kuchli ekanliklarini namoish qilgisi keladi.

Qizlar o'yinlari nisbatan torroq davralarda o'tadi. Ular o'yinlarida agressivlik kamroq kuzatilib ko'proq o'zaro ishonch, hamkorlik, hamdo'stlik hukumronlik qiladi. Qizlar o'yinlarida ko'pchiliik holda ularning o'g'il bolalarsiz o'tishligi ham o'rinnlidir. Qizlar o'yinlarida qizlarga xos bo'lgan qizlar siri ham ishtiroq etadi.

Qiz va o'g'il bolalar turli xil emotsiyonal holatda o'ynaganlarida ham ular o'yinlaridagi axloqiy sifatlar biri-biridan farq qilmaydi. Ammo, qiz bola, qiz bolada. Ularda axloqiy sifatlar tortinchoqlik, uyalish, o'zini tortib turish kabilar ertaroq shakllanadi. Bundan tashqari qiz bolalarda ruhiy rivojlanish o'g'il bolalarnikiga nisbatan yuqori bo'lsa, o'g'il bolalarda jismoniy rivojlanish qizlarnikiga qaraganda tezroq. Shuning uchun ham qizlar o'qish va ijodiyotda o'g'il bolalarga nisbatan ilg'ordirlar. Bolalar esa jismoniy tarbiya, mehnat va shunga o'xshash harakatli faoliyatlarda qizlarga nisbatan ustunlik qiladilar. Shuning uchun o'quv tarbiya ishlarini shunday tashkil etish kerakki o'g'il bolalarning o'z, qiz bolalarning o'z faoliyat jahhalari bo'lsin.

Umuman ushbu holatlar bolalar tarbiyasida juda jiddiy ahamiyatga ega. Bolalarga tarbiya jarayonida berilgan baho, tanlovlarda sovrinlarning noxolis berilishi, o'yinlarda rollarningadolatsiz tanlanishi va boshqalar bog'cha yoshidanoq bolalarda umr bo'yi tuzatib bo'lmaydigan noxolis qarashning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Bolalarda tolerantlikni shakllantirish oddiydan murakkablikka yo'naltirilgan murakkab jarayondir. Mazkur jarayon o'z ichiga juda ko'p vositalarni, uslubiyat va usullarni, shakllarni oladi. Bular orasida muhim o'rini o'yin vositasi egallaydi.

Bolalar bilan o'tkazilgan o'yin mashqlarini kuzatish shunday xulosaga olib keladiki, turli syujet-rolli o'yinlar bolalarda noverbal munosabat qobiliyatini rivojlantirar ekan. Munosabatlarda masofani, muvozanatni saqlash, ushslash, munosabatdagilar kayfiyatini his qilish, uni hisobga olish, aloqani davom ettirish ko'nikmasini tarbiyalar ekan.

Albatta bolalarda bag'rikenglikni shakllantirishda har bir o'yinning o'z o'rni bor. Shuning uchun o'yin darslarini o'tkazishdan oldin tarbiyachi o'yindan ko'zlangan maqsadni, uni amalga oshirish uchun kerakli vositalarni tayyorlashi xamda uni bajarish usullarini obdon rejalashtirmog'i

lozim. Agar tarbiyachi o‘yin davomida bolalarda tolerantlikni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, demak o‘yin vositalari, usullari, shakllari ham shunga mos bo‘lmog‘i lozim.

Tarbiyada yana shunga ahamiyat berish kerakki qiz bolalar eshitib shakllanadi va eshitish stimuli ular kamolotida ustuvorlik qiladi. O‘g‘il bolalar esa ko‘proq ko‘rish, namoish qilinishga asoslangan vizual idrokga ko‘proq ahamiyat beradi. Shuning uchun ta’lim tarbiyada biz faqat aytib, tushuntirib emas, jonli ko‘rgazmali vosita-munosabatlardan keng foydalanishimiz kerak. Ushbu tadbirlar va ta’limda bolalarning o‘zları ham faol ishtirok etishlari zarur. Ushbu mashg‘ulotlarda bolalarga savol bilan murojaat qilgan tarbiyachi birinchi javobni odatta qizlardan oladi. Qizlar savolga batafsil, shoshmasdan, mantiqli javob berishga harakat qiladi. Shunda biz ularni bo‘lmasdan toqat bilan tinglashga tayyor bo‘lishimiz kerak va javobni yanada chuqurlashtirishga harakat qilishimiz zarur.

Bolalar qadriyatlarni, xatti-harakat qoidalarini qanchalik ijodiy o‘zlashtirsalar kundalik turmush uchun zarur ko‘nikmalarni qancha ko‘p o‘rgansalar yashashlari oson kechadi. Hayotiy faoliyatning turli holatlarida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha xilma-xil rolli bilim ulardan samarali foydalanishni shakllantirish, Bolalar o‘zbek xalqining o‘g‘il va qiz farzandlar tarbiyasi to‘g‘risidagi an‘analarini bilishi, bolalarda botirlik, cho‘rtkesarlik, jasurlik, ishonch, qizlarda sezgirlik, yaxshilik, nafislik, qayg‘urish kabi axloqiy sifatlarni rivojlantirishda qo‘l keladi. O‘g‘il va qiz bolalarda o‘zlariga nisbatan inson sifatida munosabatda bo‘lishlikni, o‘z ichki dunyosini namoyon qila olish va uni harakatga keltira olish qobiliyatlarini shakllantirishni, farqlanuvchi jinslar o‘rtasida tolerantlik madaniyatni shakllantirishni bog‘cha yoshdagи bolalar tarbiyasini tashkil qilishda asosiy tamoillardan biri sifatida olishimiz kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mamatov N. Bolalar va majburiy mehnatdan foydalanishga qarshi kurashish, gender tenglikka amal qilish. T.: Alisher Navoiy nashriyoti. 2016 yil. 35-bet.

2. Otaqulov, Sh.M. Gendernoe ravenstvo i politicheskaya jiznъ. Voprosi Politologii, 6(58), 2020.

TARBIYALANUVCHILARDA VATAN HAQIDAGI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Toshev O. N.
MTTDMQTMOI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi.

Pedagogik ta’lim-tarbiyada bolani o‘z xalqining madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati haqida ko‘p narsa yozilgan, chunki otalar merosiga murojaat qilish siz yashayotgan zaminda hurmat va faxrlanishni kuchaytiradi. Shuning uchun bolalar ota-bobolarining madaniyatini bilishlari va o‘rganishlari kerak. Bu xalqlarning tarixini, ularning madaniyatini bilishga qaratilgan urg‘u, kelajakda hurmat va qiziqish bilan boshqa xalqlarning madaniy an‘analarini bilan bog‘liq bo‘lishga yordam beradi. Shunday qilib, bolalarni vatanparvarlik, vatan haqidagi tushunchlarni singdirish bilan tarbiyalash maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biridir.

Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi paytda ushbu mavzu bo‘yicha uslubiy adabiyotlar juda ko‘p. Ko‘pincha, u muayyan tadbirlarda bolalarni axloqiy va vatanparvarlik bilan tarbiyalashning faqat ba’zi jihatlarini qamrab oladi va bu masalaning to‘liqligini aks ettiradigan uyg‘un tizim mavjud emas. Ko‘rinishidan, bu tabiiydir, chunki vatanparvarlik tuyg‘usi tarkibda ko‘p qirrali. Bu o‘z ona yurtlariga bo‘lgan muhabbat va o‘z xalqi bilan faxrlanish, ularning atrofdagi dunyo bilan ajralmasligini anglash va o‘z mamlakatining boyligini saqlash va ko‘paytirish istagi. Shundan kelib chiqib, ushbu ish bir qator vazifalarini o‘z ichiga oladi:

- bolaning o‘z oilasiga, uyiga, bolalar bog‘chasiga, ko‘chaga, shaharga bo‘lgan muhabbat va mehrini tarbiyalash;

- tabiatga va barcha tirik mavjudotlarga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish;
- mehnatga bo‘lgan hurmatni tarbiyalash;
- xalqimiz an’analari va hunarmandchiliga qiziqishni rivojlantirish;
- inson huquqlari to‘g‘risidagi asosiy bilimlarni shakllantirish;
- O‘zbekiston shaharlari haqidagi g‘oyalarni kengaytirish;
- bolalarni davlat ramzlarini (gerb, bayroq, madhiya) bilan tanishtirish;
- mas’uliyat va mamlakat yutuqlaridan g‘ururlanish hissini rivojlantirish;
- bag‘rikenglik, boshqa xalqlarga, ularning urf-odatlariga hurmat hissini shakllantirish.

Bu vazifalar bolalar faoliyatining barcha turlarida hal qilinadi: guruhda, o‘yinlarda, ishda, kundalik hayotda - chunki ular bolada nafaqat vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashadi, balki kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarini ham shakllantiradilar.

Bolani axloqiy, vatanparvarlik, ona vatan haqidagi tushinchalar bilan tarbiyalash murakkab pedagogik jarayondir. Bu birinchidan, axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirishga asoslangan.

Vatan tuyg‘usi, bu bolada oilaga, eng yaqin odamlarga - onaga, otaga, buviga, boboga bo‘lgan munosabatdan boshlanadi. Bular uni o‘z uyi va yaqin atrofini bog‘laydigan ildizlardir.

Har bir millatning o‘z ertaklari bor va ularning barchasi avloddan avlodga asosiy axloqiy qadriyatlar: mehribonlik, do‘slik, o‘zaro yordam, mehnatsevarlik bilan o‘tadi. Shunday qilib, og‘zaki folklor asari nafaqat o‘z xalqining urf-odatlariga bo‘lgan muhabbatni shakllantiradi, balki vatanparvarlik ruhida shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalarda vatanga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni oshirish uchun bevosita atrof-muhit katta ahamiyatga ega. Asta-sekin, bola maktabgacha ta’lim tashkiloti, uning ko‘chasi, shahri, keyin esa mamlakat, uning poytaxti va ramzları bilan tanishadi.

Bolalarni vatanparvarlik tarbiyasida olib boriladigan ishlar tizimi va ketma-ketligi quyidagicha ifodalanishi mumkin.

Albatta, ushbu sxema ushbu masala bo‘yicha ishlarning to‘liq hajmini yetkaza olmaydi. Bu vazifalarning barchasi, vatanparvarlik tarbiyasida olib borilgan ishlarda mavjud.

Tarbiyachining vazifasi - bola tomonidan unga eng qulay bo‘lgan taassurotlar to‘plamidan tanlash:

- uydagagi tabiat va hayvonlar dunyosi (MTT, ona yurt);
- odamlar mehnati, urf-odatlar, ijtimoiy tadbirdalar va boshqalar. Bundan tashqari, bolalarning e’tiborini jalg qiladigan epizodlar yorqin, xayoliy, aniq va qiziqarli bo‘lishi kerak. Shuning uchun tarbiyachi o‘z ona yurtiga muhabbat hissini uyg‘otish bo‘yicha ishlarni boshlashda uni yaxshi bilishi kerak. U bolalarga nimani ko‘rsatishi va maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida o‘ylashi kerak, ayniqsa ushbu sohaga yoki ushbu mintaqaga xos bo‘lgan xususiyatlarni ta’kidlab o‘tdi.

O‘z ona shahrini biz bolaga ko‘rsatishimiz kerak. Ona shahri o‘z tarixi, urf-odatları, diqqatga sazovor joylari, yodgorliklari, eng yaxshi odamlari bilan mashhur. Bolalar ona shahri to‘g‘risida qanday ma’lumot va tushunchalarni o‘rganishlari mumkin?

- To‘rt yoshli bola o‘z ko‘chasing nomini va maktabgacha ta’lim tashkiloti joylashgan joyni bilishi kerak.

- Katta yoshdagagi bolalarning e’tiborini eng yaqin ko‘chalarda joylashgan ob’ektlar: maktab, kinoteatr, pochta, dorixona va hokazolar jalb qilishi kerak, ularning maqsadlari haqida gaplashish, bularning barchasi odamlarga qulaylik yaratish uchun yaratilganligini ta’kidlash.

- maktabga tayyorlov guruhi bolalar kiritadigan ob’ektlar doirasi. kengaymoqda - bu tuman va umuman shahar, uning diqqatga sazovor joylari, tarixiy joylari va yodgorliklari. Bolalarga kimning sharafiga qurilganligi tushuntiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachi o‘z shahrining nomini, uning ko‘chasini, unga tutash bo‘lgan ko‘chalarni, shuningdek, ularga kimning sharafiga nomlanishini bilishi kerak. Ular unga har bir insонning o‘zi tug‘ilgan va yashaydigan uyi va shahri borligini tushuntirishadi. Buning uchun shahar sayohatlari, tabiat sayohatlari, kattalar mehnatini kuzatish talab etiladi, bu yerda har bir bola mehnat odamlarni birlashtirganligini, muvofiqlik, o‘zaro yordam, o‘z ishini bilishni talab qiladi. Bu yerda bolalarni viloyatning xalq hunarmandchiligi va xalq hunarmandlari bilan tanishtirish katta ahamiyatga ega.

Vatanparvarlik tarbiyasida kattalar, ayniqsa yaqin odamlarning o‘rnagi katta ahamiyatga ega. Katta oila a’zolarining hayotidan (bobolar va buvilar, ularning umri davomida erishgan jasorati, qilgan mehnati) aniq dalillarga kelsak, bolalarda "Vatan oldidagi burch", "Vatanga muhabbat", "dushmanga nafrat" kabi muhim tushunchalarni tarbiyalash kerak. "mehnat jasorati" va boshqalar. Bolani biz g‘alaba qozonganimizni anglash juda muhimdir, chunki biz o‘z Vatanimizni sevamiz, Vatan insonlarning baxti uchun jonini fido qilgan qahramonlarini ulug‘laydi. Ularning nomlari shahar, ko‘chalar, maydonlar nomlariga abadiylashtirilgan, ularning sharafiga yodgorliklar buniyod etilgan.Ushbu ishning davomi bolalarni O‘zbekistonning boshqa shaharlari, mamlakatimiz poytaxti, davlat madhiyasi, bayrog‘i va gerbi bilan tanishtirishdir. Biroq, ta’kidlash kerakki, taklif etilgan vatanparvarlik tizimi muayyan sharoitlarga qarab o‘zgarishi mumkin.

Oilaga muhabbatni kuchaytirib, shu orqali biz vatanga muhabbatni singdiramiz, deb ishonish noto‘g‘ri. Afsuski, o‘z uyiga sadoqat mamlakat taqdiriga befarqlik bilan, ba’zan esa xiyonat bilan birga yashaydigan holatlar mavjud. Shu sababli, bolalar imkon qadar o‘z oilasining "fuqarolik" ini ko‘rishlari juda muhimdir. (Ularning bobosi va buvisi nima uchun medal olganlarini bilishadimi? Ular mashhur ajdodlarni bilishadimi? va hokazo.)

Kichkina narsadan, bir kishining faoliyati va barcha odamlarning hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish - bu vatan haqidagi tushinchlarni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalash uchun juda muhimdir.

Shu tarzda tashkil etilgan ish oiladagi mikroiqlimni to‘g‘ri rivojlanishiga, shuningdek, o‘z mamlakatiga bo‘lgan muhabbatning rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Masalan, bolalarni o‘z shahriga muhabbat bilan tarbiyalashda, ularni o‘z ona shahri - Vatanning bir qismi ekanligi tushunchasiga etkazish kerak, chunki hamma joyda, katta va kichik joylarda umumiylig ko‘p:

- hamma joyda hamma hamma uchun ishlaydi (o‘qituvchilar bolalarga dars berishadi; shifokorlar bemorlarni davolashadi; ishchilar avtoulov yasashadi va hokazo);
- an‘analar hamma joyda hurmat qilinadi: Vatan uni dushmanlardan himoya qilgan qahramonlarni eslaydi;
- turli millatdagi odamlar hamma joyda yashaydilar, birgalikda ishlaydilar va bir-birlariga yordam beradilar;
- odamlar tabiatni himoya qiladi;
- umumiy kasbiy va ommaviy bayramlar va boshqalar mavjud.

Fuqarolik, vatanparvarlik degani, umuman millatchi bo‘lishdir. Shu sababli, o‘z ona yurtiga bo‘lgan muhabbatni va o‘z mamlakatida g‘ururlanishni terining rangi va dinidan qat’i nazar, har bir odamga, boshqa millatlar madaniyatiga mehribon munosabatni shakllantirish bilan birlashtirish kerak. Albatta, bolaning turli millat vakillariga nisbatan insoniy munosabati, avvalambor, otanonalar va tarbiyachilar, o‘qituvchilar ta’siri ostida yaratiladi, yonida bo‘lgan kattalar. Bu, ayniqsa, bugungi kunda ushbu muammolarga qarama-qarshilik katta yoshdagagi aholining ayrim qismlarida yuz berganda to‘g‘ri keladi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkiloti bolaning boshqa millatdagi odamlarga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish, odamlarning qaerda yashashi, ularning hayoti bog‘liq bo‘lgan tabiat va iqlim sharoitlari, ishning o‘ziga xos xususiyati va boshqalarni aytib berish juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagagi davr oxirida bola bilishi kerak: mamlakatimizda turli millat vakillari yashaydi; har bir millatning o‘z tili, urf-odatlari va an‘analari, san’ati va me’morchiligi bor;

har bir xalq mohir va hunarmandlar, musiqachilar, rassomlar va boshqalarga boy.Shunday qilib, vatanparvarlik tarbiyasining vazifalarini hal qilishda har bir tarbiyachi o‘z ishini quyidagi sharoitlarni hisobga olgan holda bolalarning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlariga muvofiq qurishi kerak:

- pedagogik jarayonning uzluksizligi va uzluksizligi;
- har bir bolaga tabaqalashtirilgan yondashuv, uning psixologik xususiyatlari, imkoniyatlari va qiziqishlari maksimal darajada hisobga olinishi;
- yoshga to‘g‘ri keladigan turli xil faoliyat turlarining oqilona kombinatsiyasi, intellektual, hissiy va motorik yuklarining muvozanati;

- faoliyatga yondashuv;
- bolalar faoliyatiga asoslangan ta'limning rivojlanayotgan xarakteri.

Ushbu ishni rejalashtirish quyidagi mavzularda eng mos keladi: "Mening oilam", "Mening ko'cham", "Mening bog'cham". Har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotlar, o'yinlar, ekskursiyalar, bolalarning tartibga solinmagan faoliyati, ba'zi mavzularda - ta'tilni o'z ichiga olishi kerak.

Tematik rejalashtirish bolalarning o'z mamlakati, vatanini va ular yashaydigan mintaqaga to'g'risidagi bilimlarini samarali va muntazam ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, mavzular har bir guruhda takrorlanadi. Faqat mazmuni, bilim materialining hajmi va murakkabligi, shuning uchun o'qish davomiyligi o'zgaradi. Alovida mavzular aniq voqealar va bayramlarga bag'ishlanishi kerak, masalan, huquq va majburiyatlar bilan tanishish - dekabrda (Konstitutsiya kunidan oldin), O'zbekiston sportchilari va harbiylari - yanvarda (Vatan himoyachisi kunidan oldin) va hokazo, shu bilan jamoatchilik bilan aloqani ta'minlash. Bolalarni vatanparvarlik bilan tarbiyalashning asosiy shakli tematik mashg'ulotlardir. Ularning bolalarning aqliy faolligini oshirishi muhimdir. Bolalarni ko'rganlarini mustaqil ravishda tahlil qilishga, umumlashtirish, xulosalar chiqarishga o'rgatish kerak. Siz javoblarni rasmlarda topishingizni, ota-onangizdan so'rashingizni va hokazolarni taklif qilishingiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bolalarni kundalik hayot, urf-odatlar, individual tarixiy lahzalar bilan tanishtirishdagi qiyinchiliklar maktabgacha yoshdagagi bolalarda vizual-majoziy fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadi. Shuning uchun nafaqat badiiy adabiyot, rasmlar, hazillar va hokazolarni, balki "jonli" vizual buyumlar va materiallarni (milliy kiyimlar, qadimiy mebellar, idishlar, asboblar va boshqalar) ham ishlatish kerak. "Kundalik hayot" bolalarni ertak, xalq hunarmandchiligi, uy-ro'zg'or buyumlari bilan tanishtirish uchun juda samarali. Buning uchun muzeylarga tashrif buyurish, shuningdek, MTTlarida maxsus xonalar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu yerda bola dastlab o'z ona yurtining hayot tarixiga kirib borishi mumkin. Bundan tashqari, bunday "xonada" ma'lumotni o'yin orqali taqdim etish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Aleshina N.V. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga vtanparvarlik tarbiyasi M.: 2005 yil
2. Aleshina N.V. Maktabgacha yoshdagagi bolalarni o'z ona shahri va mamlakati bilan tanishtirish (vtanparvarlik tarbiyasi). M.: "Itiqlol" US, 2011 yil
3. Bolalarni Vatanni sevishga qanday o'rgatish: o'qituvchilar va o'qituvchilar uchun qo'llanma / Tuzuvchi: Antonov Yu.Ye., Levina L.V., Rozova O.V., Scherbakova I.A. - M.: ARKTI, 2003 yil.

KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIYLASHUVINING MUHIM ME'ZONI

Umarova M. A.
MTTDMQTMOI "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

G'arb olimlari ham kommunikativ kompetentsiya tushunchasi borasida o'z qarashlarini tavsiya etganlar. Amerikalik antropoligist olim D. Hymes ilk bor mazkur tushunchani aniqlagan, uning fikricha "kommunikativ kompetentsiya lotincha so'z bo'lib, mos kelish, o'xshash, erishaman ma'nolarini anglatadi, kommunikatsiya jarayonida grammatika qoidalariga amal qilish va tildan foydalana olish qobiliyatidir".

N.Xomskiy esa "til kompetentsiyasi", insonni ichki mental grammatikasi deb nomlagan, bunda til qoidalari abstrakt ko'rinishda bo'lib, ona tilida faoliyat yuritish, individni ong ostida intuitsiya shaklida tasavvur qilishdir"deb ta'rif beradi. Psixolog olim R.S.Nemov kompetentlikka

quyidagicha fikr bildiradi: “kompetentlik aniq bir bilimni egallash, qandaydir bir sohaning imkoniyatlarida xabardor bo‘lish”.

Olimning fikriga ko‘ra maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ham kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda ularga puxta bilim berish, butun olam va atrof muhitdagi narsahodisalar haqida to‘liq ma’mulot berish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari sohalari (jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish)ning barcha ko‘rsatikichlari 5-6 yoshdagi bolalarda nutq va samarali muloqotni egallashlarida integratsion yondashuv asosida amalga oshirilsa samara beradi. K.F.Sedov tomonidan kommunikativ kompetentsiyaning komponentlari aniqlangan bo‘lib, ular lingvistik; ijtimoiy-lingvistik; pragmatik turlardan iborat.

Lingvistik kompetentsiya tilni turlicha jihatlariga oid bilim, ko‘nikmalar bo‘lib, leksika, fonetika, grammatika va ulardan to‘g‘ri foydalanishdir. Ijtimoiy-lingvistik kompetentsiya til shakllarini tanlash qobiliyatini amalga oshirish, ulardan vaziyatga mos ravishda foydalanishdir. Pragmatik kompetentsiya aniq bir muloqotdagi vaziyatga ko‘ra nutq vazifalari va kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalarni tushunish va undan foydalanishdir.

Kommunikativ kompetentsiya tushunchasi o‘ziga xos qoidaga amal qiladi, ya’ni muloqot jarayonida grammatika qoidalariga rioya qilish hamda ona tilidan o‘rinli foydalanish. Kommunikativ kompetentsiya millatga xos o‘zaro munosabat me’yorlarini nutqiy faoliyat va nutqiy odob asosida namoyon etish ko‘nikmasi deyish mumkin. Kommunikativ kompetentsiya insonning bir yoki barcha nutqiy faoliyatda muloqotga kirishish qibiliyati bo‘lib, shaxsning muhim sifatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchalar quyidagicha tasniflanadi. Kompetentsiya bu-o‘qitishning mazmunli tarkibi bo‘lib, mashg‘ulot jarayonida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning yig‘indisidir. Kompetentlik esa, shaxsning xususiyati bo‘lib, shakllanib bo‘lgan kompetentsiya asosida faoliyatni bajarish qibiliyatidir.

Kommunikativlik-shaxslar orasidagi o‘zaro axborot almashinuv, aloqa, munosabat. Kompetentsiya u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik.

Kommunikativ ko‘nikmalar sirasiga mazmunli nutq so‘zlash, idrok qilish, tushunish, mushohada yuritish va berilayotgan ma’lumotlarni o‘zgartirish kabilari kiradi. Kommunikativ ko‘nikmalar amalga oshirilishiga ko‘ra ikki ko‘rinishida bo‘ladi, introsub’ektiv (ichki) yoki ekstrasub’ektiv (tashqi) kommunikativ ko‘nikmalari ya’ni ma’lumotlarni ishlab chiqaruvchi. Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda nutqiy faoliyatning ijodiy turi namoyon bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda bog‘lanishli nutq ham rivojlanadi. Kommunikatsiya ishtiropchilarida kommunikativ ko‘nikmalar bo‘lishi zarur, ya’ni og‘zaki va yozma nutqni tushunish va tasavvur qilish, qabul qilish, shaxsiy muloqot vazifalarini amalga oshirishda ulardan foydalanish. A.V.Xutorskiy fikricha “kompetentsiya shaxsning o‘zaro bir-biriga bog‘liq sifatlari (bilimi, ko‘nikmasi, malaka va faoliyati)ning majmuasidir, voqeа va jarayonlarga munosabat bildirishdagi ijodiy faoliyat hamda shaxsiy qarashlaridir”.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar rivojlanish markazlaridagi ijodiy faoliyat orqali o‘zaro bir-birlari bilan muloqotda bo‘ladilar. Muloqot natijasida voqeа va jarayonga munosabatlarini bildiradilar. Bu esa ularda kommunikativ kompetentsiyani shakllanishiga zamin yaratadi. Kompetentsiya bu-yangi qiymat yaratish maqsadida bilimlar manipulyatsiyasi jarayonida divident olishga erishilganlik ko‘rsatkichidir. “Bilimlar manipulyatsiyasi” deganda sun’iy ravishda tashkil etilgan ta’lim muhitida ta’lim oluvchi o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga qo’llash natijasida yashirin imkoniyat va qobiliyatlarni namoyon qilish jarayoni nazarda tutilmoqda. Divident olish esa ta’limning natijadorligi belgisi sifatida “naf ko‘rish, foyda olish, ijobiy natija” kabilarni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, kommunikativ kompetentsiyaga bir insonni boshqalar bilan samarali va natijaviy muloqot qilish qibiliyati deyish mumkin.

Olimlarning ilmiy qarashlari tahlili natijasida kommunikativ kompetentsiya tushunchasini muloqot qilish maqsadi, muloqot muhiti va vaziyatiga tayyorlik qobiliyati, nutqiy o‘zaro ta’sir va tushunish jarayoni deyish mumkin. Kommunikativ ko‘nikmalar lingvistik, madaniy, psixologik va

ijtimoiy bilimlar majmuasidan iborat. 5-6 yoshdagi bolalar o‘z xulq-avtorini nazorat qila oladilar, o‘ylab gapiradilar, jahlini birdaniga ko‘rsatmaydi. Ular o‘z hissiyotlarini boshqara oladilar. 3-4 yosh davrida jahli chiqsa o‘yinchoqlarini uloqtirib yoki ota-onasiga xarhasha qilgan bo‘lsa, endi o‘z fikr va xayolidagi g‘oyalarni namoyon etmasligi, qaysarlik qilishi mumkin. Agarda 5-6 yosh bola ota-onasini ko‘rish lozim bo‘lgan joyda ko‘ra olmasa, xarhasha qilmaydi, balki topa olmaganini aytadi yoki hech qanday munosabat bildirmay jim turaveradi. Aksariyat 6 yoshdagi bolalar o‘z hissiyotlarini jilovlay oladi hamda shaxsiy xulq-avtorini shakllantiradi. Kommunikativ kompetentsiya bolalarning muloqot jarayoni bilan bog‘liq talablar tizimi bo‘lib, unda nutq, savodxonlik, notiqlik uslublari hamda suhbatdoshi bilan individual yondashuvni namoyon qiladi. Mabodo gap alohida inson qobiliyati haqida ketsa, demak unda kommunikativ kompetentsiya namoyon bo‘lgan.

Demak, kommunikativ kompetentsiya haqidagi qarashlar asosida aytish mumkinki, u talablar tizimi bo‘lib, kommunikativ kompetentlik esa maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mana shu talablar tizimiga mos holatda muloqot o‘rnatishidir. Shuning uchun ba’zida ikki ma’noni anglatishi, ya’ni bolalarning muloqot qilishiga qo‘yilgan talablar, alohida talablar ketma-ket bo‘lib, ularni kompetentsiya deb atash mumkin. Agarda bolalar mana shu talablarni bajara olsalar, ularni kompetentli deyish mumkin. Kommunikativ kompetentsiya va kommunikativ kompetentlik o‘rtasida ma’no jihatidan farq sezilmaydi, kommunikativ talablarga mos keladi. Individual kommunikativ kompetentsiya nafaqat bilimlarning sifati va hajmi masalan, tovushlar vazifasi, so‘zlarning aniqligi ularni kognitiv tashkil etish, uzoq muddat esda saqlash va foydalanishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi. 8.05.2019 y., PQ-4312. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.

2. Ablitarova, A. R. Razvitie i formirovanie poznavatel’skogo interesa u detey doshkolnogo vozrasta kak psixologo-pedagogicheskaya problema.// Pedagogicheskoe masterstv: material IX Mejdunar. nauch. Konf.M.: BukiVedi,2016.S. 107-110.

3. Poddyakov. A.N. Razvitie issledovatel’skoy initiativnosti v detskom vozrastetema. Diss d.ps.n. M.:2001-350 s.

4. Rubinshteyn, S. L. Osnoviy obshey psixologii.Piter.-2013- 713s

BOLALARNI ZARARLI AXBOROTLAR TAHDIDIDAN HIMOYA QILISH-DAVR TALABI

Xasanova U.H.

Qarshi Davlat universitetining
Pedagogika instituti 2- bosqich magistri

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar jamiyat va davlat hamda uzliksiz ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.Bulardan biri respublikamiz fuqarolarini va yosh avlodni axborot psixologik xavfsizligini ta’minalash muammosidir. Mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllanishi, axborot erkinliklari, axborot ko‘laming ortib borishi, birinchi navbatda axborot psixologik xavfsizligi tahdidini keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi axborot almashinuvi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda xalqning ayniqsa, bolalarning ongini xavfli ma’lumotlardan asrash, ularga imkonli boricha to‘g‘ri va asoslangan axborotlarni yetkazib berish shuningdek, yoshlарimizning o‘zbek xalqi mentalitetiga mos bo‘lgan ma’lumotlardangina foydalanishlarini ta’minalash davlatimizning asosiy maqsadlaridan biridir.

Bunda e'tibor ommaviy axborot vositalarining erkin aylanishi bilan birga, ular orqali tarqatilayotgan axborotlarning xavfsiz, haqiqiy va ishonchhliliga qaratiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bolalarni barkamol avlod qilib voyaga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlarda bolalarni xavfli axborotlardan himoya qilish masalasi yuqori o'rinda turganligini ta'kidlab o'tish kerak.Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasida har bir bola o'zining sog'lig'i, axloqiy va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish, har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi, ammo bunda qonunda nazarda tutilgan cheklashlar inobatga olinishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, mazkur normaga asosan, pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish ta'qilqanadi. Bu esa, bolalarni har qanday axborotni qabul qilishdan asraydi. Biroq, Internet tizimi tobora kuchayib borayotgan hozirgi kunda bolalarni keraksiz va ularning ongi hamda ruhiyatiga ta'sir qiladigan axborotlardan himoya qilish darajasi juda past ekanligiga ko'z yumib bo'lmaydi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida ommaviy axborot vositalari e'lon qilinayotgan axborotning to'g'riliqini tekshirib ko'rishlari shart va ular axborot beruvchi bilan birlgilikda uning to'g'riliqi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar deb belgilangan.Bunday javobgarlik masalalari boshqa qonun hujjatlarida ham (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, *Jinoyat* kodeksi) o'rnatilganligiga qaramasdan ayrim shaxslar xavfli axborotlardan g'araz maqsadlarda foydalanayotganligi hammamizga ma'lum. Bu esa mazkur masalada ham ayrim kamchiliklar mavjud ekanligini ko'rsatadi. To'g'ri O'zbekiston hududida Internetga ma'lumot joylashtirishga ma'lum bir cheklovlar qo'yilgan bo'lishi mumkin, ammo xorijiy mamlakatlarning Internet saytlaridan bizning mamlakatimizga uzatilayotgan axborotlarning xavsizligiga kim kafolat beradi? Bolalar uchun juda qiziqarli bo'lib ulgurgan Youtube tarmog'ida joylashtirilayotgan hamda O'zbekistonning istalgan hududida, istalgan aloqa vositasidan foydalangan holda kirib ko'rish mumkin bo'lgan ma'naviy bo'shliqqa yetaklovchi, hech qanday mazmunga ega bo'lmagan videolarning ham sanog'i yo'q. Ushbu masala ham muammoligicha qolmoqda.

Bunday sharoitda Internet tizimlari va ijtimoiy tarmoqlardan kelayotgan har xil axborotlarga qanday cheklov qo'yish mumkin degan savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-mart 137-soni Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma'lumotlari uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, Internetda tarqatish tartibi to'g'risidagi Nizomda har qanday ma'lumotlar Internetda tarqatilishiga yo'l qo'yimasligiga doir bir qancha qoidalar o'rnatilgan bo'lib, axborot ayriboshlash vositalari tarkibiga axborot resurslaridan foydalanishning alohida qoidalari belgilangan davlat axborot tizimlari, tarmoqlarini ular axborot xavfsizligi talablariga muvofiq attestasiyadan o'tkazilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan amalga oshiriladi degan qoida o'rnatilgan. Bundan ko'rindiki, Internet tarmoqlariga ulanayotgan axborot tizimlari axborot xavfsizligiga qanchalik javob berilishi tekshiriladi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni amalda ishlashini ta'minlash mamlakatimizda axborot xavfsizligi sohasini boshqarishda muhim hisoblanadi. Demak, hozirgi kunda keng jamoat e'tiboriga uzatilayotgan axborotlarning xavfsiz emasligini inobatga olgan holda bolalarni bunday axborotlardan himoya qilish davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini unutmaslik zarur. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida Respublikamizda 2017-yil 8-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun 2018- yil 10-martda kuchga kirgan. Qonunning asosiy maqsadi bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.E'tiborli jihat shundaki, mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasini huzuridagi Axborot va

ommaviy kommunikasiyalar agentligi bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan.

Bolalarning axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qonun normalarini tahlil qilishda, “bola” atamasi kimlarga taalluqli degan savol tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar) tushuniladi. “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunida ham bolalar sifatida o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan (voyaga yetmagan) shaxslar anglashilishi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shuningdek, ma’naviyati ham o‘ziga xos rivojlanish jarayonida bo‘ladi. Shuning uchun ham ularning ongini turli ma’lumotlar bilan zaharlash va ma’naviyatiga xavfli axborotlar bilan ta’sir o‘tkazish juda oson.

Ta’kidlash kerak, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda nafaqat bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va tashkilotlar vakolatlari belgilab berilgan, balki bolalar uchun xavfli hisoblanuvchi axborotlar doirasi, axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi, axborot mahsulotining aylanishiga qo‘yiladigan talablar, axborot mahsulotining ekspertizasi va uning huquqiy oqibatlari ham aniqlashtirilgan. Hozirda televide niya orqali efirga uzatilayotgan har bir axborot mahsuloti tekshiriladi, ekspertizadan o‘tkaziladi hamda yoshga oid tasnifi ham belgilangan holda uzatiladi. Bu jarayonda ota onalarning xushyor bo‘lishlari talab etiladi xolos. Chunki hatto multfilmlar ham bola yoshiga nisbatan tasniflanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori bilan “Axborot mahsulotining yoshga oid tasniflarini aniqlash mezonlari hamda uni ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi hamda “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlashga doir ma’muriy va tashkiliy chora-tadbirlar, dasturiy-apparat va texnika vositalariga doir talablarni belgilash to‘g‘risida”gi nizomlar tasdiqlanganligi va bu hujjatlar bugungi kun uchun ayni muddao bo‘lganligini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyundagi 317-sod qarori asosida my.gov.uz portalida “Bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish bo‘yicha ekspertlarni akkreditasiya qilish” xizmati ishga tushirilganligi ham bir yutuq desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, bugungi kunda tezlik bilan hayotimizga kirib kelayotgan axborotlarni yaxshi-yomonga yoki to‘g‘ri-noto‘g‘riga ajratish juda murakkab bo‘lib bormoqda. Shuning uchun ham mazkur jarayonda barchaning ogohligini ta’minlash zaruriyati ham ortmoqda. Bunda faqat ota-onalarning emas, balki barchaning, ya’ni maktabgacha ta’lim muassasalarining bolalar uchun mas’ul xodimlaridan boshlab, oliy ta’lim muassasalarining yoshlarga mas’ul xodimlarigacha e’tiborsiz qolmasliklari shart. Zero, ajdodlarimizdan qolgan “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan naql bekorga aytilmagan.

Taklif o‘rnida fikr bildiradigan bo‘sak, bolalarga aloqa vositalaridan foydalanishni cheklash, ta’lim muassasasiga aloqa vositalarini olib kelmasliklarini yo‘lga qo‘yish, shuningdek barcha Internet klublarida yoshlar ongini zaharlashi mumkin bo‘lgan saytlarga ta’qiq o‘rnatish hamda mazkur masalada ota- onalarning loqayd bo‘lmasliklarini ta’minlash, ya’ni farzandlari tarbiyasiga qat’iyroq qarashlarini talab qilish zarur deb o‘ylaymiz.

Axborot hujumi shunday kuchki, u bilan kurashish uchun bir insonning yoki bir jamoanining qurbi yetmaydi. Bir yo‘lni yopsak, boshqa yo‘l topib bolalar ongiga kirib kelaveradi. Shu sababali, xavfli axborotlardan yosh avlodni himoya qilishda barchamiz birdam bo‘lib harakat qilmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M. Mirziyoyev ” Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqимиз билан бирга курамиз.”Т.: О‘zbekiston, 2017. 488 b.

2.Sh.M. Mirziyoyevning ”2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori. Т.: -2016y. 29-dekabr

3. ”Bola huquqlarining kafolatlari to‘g’risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni.(O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami,2008 y.,1-2-son,2009 y.,52-son)

4.”Balalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g’risida” . O‘zbekiston Respublikasining qonuni Toshkent sh.,2017-yil 8-sentabr,O‘RQ-444-son

5.”Ommaviy axborot vositalari to‘g’risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni 26.12.1997(yangi tahriri-15.01.2007)

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY MUHITGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK HIMOYALANISH MUAMMOLARI

Xurvaliyeva T. L.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent

G‘ulomjonova X. A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Shaxsning ijtimoiylashuvi bu - ma’lum jamiyatga mos bilimlar, qadriyatlar, me’yorlar, xattiharakatlar tizimidan iborat ijtimoiy hayotga kirisha borish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni murakkabroq bo‘lishi mumkin. Chunki bola o‘z atrofidagi kishilarning ta’siriga ko‘ra ijtimoiy hayotga moslasha boshlaydi. Bolada ijtimoiy hayot va maktab ta’limiga moslashishida turli xil vaziyatlardagi zo‘riqishlar, huddi kattalarday nizoli vaziyatdan chiqishga intilishlari psixologik himoyalanishga moyillikni yuzaga keltiradi.

Psixologik himoyalanish shaxsning muqim barqaror rivojlanish tizimi bo‘lib, u qo‘rquv hissi, xavotir va nizolarni ongli ravishda bartaraf qilishga yo‘naltirilganlidir.

Psixologik himoyalanishning asosiy vazifasi - ijobiy “Men” obrazini shakllantirish, turli xil tashqi holatlardagi vaziyatlarni bola ongiga ta’sir qilinishidan saqlanish, xavotirlanishni susayishi va o‘z-o‘zini baholashni yuqori bo‘lishi bilan chegaralanadi. Psixologik adabiyotlarda ijobiy “Men” obrazi to‘rtta tarkibga bo‘linadi. Ya’ni:

1. MEN- himoyalangan, xavfsiz, sog‘lom, omadli.
2. MEN- mustaqil, erkin, bo‘ysunmas, tobe emas, o‘zgalardan nimasi bilandir ustunroq.
3. MEN-aqli, bilag‘on, moslashuvchan, vaziyatni nazorat qiluvchi.
4. MEN-chiroylı, ta’sirchan, sevimli, takrorlanmas, boshqalarga o‘xshamas, noyob.

Ijobiy “MEN” bolada o‘zini erkin ifodalashdagi shaxsiy tajribasida namoyon bo‘lib, psixologik himoya mexanizmini yaratadi. O‘zini erkin ifodalash istagi bolada ilk yosh davridayoq turli to‘sislarga duch kelib, u bu vaqtida ularning yechimini topa olmaydi. Ayniqsa kattalar tomonidan bola faoliyatini ko‘plab tanqid qilinishi bunga sabab bo‘ladi. Bolaga kattalar tomonidan o‘tkazilayotgan turli xil ta’sirlar uning tabiiy rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi bu esa psixologik himoyalanishni yuzaga kelishga olib keladi. Himoyalanish mexanizmlari quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi: ta’sirchanlik va o‘z-o‘ziga ta’sir, muloqotchanlik, barchaning diqqat markazida bo‘lishga intilish, kuchli hissiyotlarga boyligi, maqtanchoqlik, o‘ziga nisbatan tanqidni qabul qilmaslik. Salbiy xulq-atvorning paydo bo‘lish sabablari esa yolg‘onchilik, bahona izlashga moyillik, o‘ylamasdan ish tutish, o‘zini salbiy harakatlarini oshkora ko‘rsatish kabilarda ko‘rina boshlaydi.

Psixologik himoya mexanizmining murakkabligi shundaki, bolada javobgarlik hissi susayadi, mag‘rurlik, egoistlik, qasd olishga intilish, tez hafa bo‘lish, qaysarlik, kamgaplik, pessimistlik, indamaslik kabi salbiy sifatlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Bola himoyalanish reaksiyasining shakllanishida ota-onalarning ta’siri yuqoridir. Ota-onaning noto‘g‘ri muloqoti gohida bolada tushkinlik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Shuning uchun bola o‘zi uchun maxsus himoya mexanizmini ishlab chiqishga majbur bo‘lib, ota-onaning tahdid ta’siridan himoyalanadi. Masalan: zulmkor ota ta’sirida yashayotgan bola o‘zini hissiy reaksiyasini rivojlantirib, itoatkorligi bilan himoyalanadi, uning barcha topshiriqlarini so‘zsiz bajarib, o‘zining “MEN” himoya mexanizmidan tashqariga chiqib ketadi. Yoki vaziyat boshqacha tus olishi mumkin. Xuddi shu holatda bola “MEN” himoyasiga o‘tib, o‘zini himoya qila boshlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim va tarbiya jarayonining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yliganligi yuqoridagi muammolarni oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi lozim. Shu bilan birgalikda kattalar tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam bola psixologik himoyasining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib qoladi.

Yuqoridagi holatlar bolaning sog‘ligiga va uning to‘laqonli rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xo‘sh shunday ekan, bolaning psixologik sog‘ligini himoya qilishning qanday usul va vositalardan foydalanish zarur. Ya’ni bolaning ongi va ruhiy ichki kechinmalariga salbiy ta’sir etuvchi jarayonlar yechimini qanday topish mumkin. Har kuni bola hayotida turli xil vaziyat va muammolar uchraydi. Ba’zan bolaga bog‘liq bo‘lib, ruhiyatidagi bir xillik, ichki va shaxslararo nizolarni bartaraf etilishiga sabab bo‘ladi. Bolalarga kattalarga nisbatan bir muncha murakkabroq chunki ular uch “Olam”da yashaydilar.

1. **“Tasavvur”** olamida bola nima bo‘lsa, uni shundayligicha o‘zi o‘ylaganidek qabul qiladi.

2. **“Bolalar jamoasi”** olamida bola tasavvuridagi olam boshqacharoq tarzda bo‘lib, uyda va ko‘chadagi holatlar bolalar jamoasi ichida to‘g‘ri kelmay qolishi mumkin.

3. **“Kattalar”** olamida bolalar o‘zlarini kattalar oldida xuddi kichkina odamchalardek his qiladilar.

Bola o‘z hatti-harakatlari yechimini topishda o‘zi sezmagan holatda muammoli vaziyatga tushib qolishi mumkin. Bolaga o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanishiga yordam berish kerak. Ya’ni, psixologik himoyalanishni turli shakllari, zo‘riqishni susaytirish va bolaga osoyishtalik yaratish shuningdek, psixik sog‘likni saqlanishi haqida ham qayg‘urish darkor.

Psixologik himoya o‘ziga xos filtr-tozalovchi sifatda namoyon bo‘lib, u bola ongiga faqat salbiy ta’sir qilmaydigan ma’lumotlarni yetkazib beradi. Psixologik himoya mexanizmida bola o‘zi va o‘zgalar harakati qanday bo‘lishi lozimligini ongli ravishda fikrlay oladi. Hayot tajribasining yetishmasligi bolaning ruhiy jarohat olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bularga kattalarning bola mehnatiga befarqligi, bolaga yoqqan narsalar kattalarga ya’ni ota-onasi yoki tarbiyachisiga yoqmasligi ayniqsa ularga **“Sendan bu ish chiqmaydi”** deb tanbeh berishlarini misol qilish mumkin. Bu bola qalbini jarohatlaydi va uni omadsizlikka oldindan “dasturlab” qo‘yadi. U o‘zini hech nimani eplay olmaydigan, no‘noq his qiladi va kelajakda tashabbus ko‘rsatishga qo‘rqadigan bo‘lib qoladi. Bu bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini susaytiradi. Shuningdek, bolani boshqa bolalarga taqqoslاب kamsitilishi; bolaga ota-onaning vaqt ajratmasligi; onasi bilan psixik bog‘liklikni yo‘qligini misol qilish mumkin. Bular bola organizmi va uni ruhiyatiga ta’sir o‘tkazuvchi salbiy oqibatlardir. Aksincha, ota-onalar, tarbiyachilar bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yuksaltirishi kerak. Psixologik himoya shaxsiy “MEN” ni himoyasida turadi. Bola ma’lumki, doimo o‘zining yurish-turishi, so‘zları, hissiyoti, ehtiyoji, ijodini, rag‘batlantirishlarini yoqtiradi.

Bolaning psixik himoyalanishi o‘z “MEN”ligini qabul qilish va buni boshqalar ham qabul qilishlariga erishishidir. Lekin bola ba’zan o‘zini o‘zligidan ham ortiqroq darajadaman deb o‘ylab, tanqidga e’tibor bermaydi, yo‘q narsalarni ham xuddi xayolidagi “MEN” kabi himoya qilaveradi. Psixik himoyalanish bolaning to‘laqonli shaxs bo‘lib shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar o‘zlarining himoya vositalari bilan bir-birilaridan farqlanadilar: irodali bolalarda bu

narsa ularning mulohazakorligi, doimiy ijobiy harakatdagi faoliyatlari bilan namoyon bo‘ladi, o‘ziga ishonchi sust bo‘lgan bolalar esa befarqliligi va beparvoligi bilan ajralib turadi.

Bola “MEN”ini himoya qilish uchun turli vaziyatlarda o‘zini nazoratdan va tanqiddan saqlash usullaridan ham foydalanishga harakat qiladi. Psixik himoyalanishning turli shakllari yoki usullaridan foydalanishga majbur bo‘ladi. Bolalar psixik himoyalanish muammolarini taniqli psixolog olimlar R.Granovskiy, L.Grebennikova, B.Zeygarnik, Ye. Romanova va boshqalar o‘rganib, psixik himoyalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni himoya reaksiyalarini ongli ravishda shakllantirish uchun mashg‘ulotlarning maqsad va mazmunini asosan psixik himoya mexanizmiga yo‘naltirish kerak. Bunda asosan ruhiy zarar yetkazuvchi omillarni kamaytirib, o‘ziga baho berishni yuqori darajada bo‘lishiga, bolaning muvaffaqiyatsiz harakatlarini kamaytirishga e’tibor qaratish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan faoliyat turlari tuzilishi quyidagicha bo‘lishi mumkin.

1. Muammoli vaziyatni yaratish va muhokama qilish.
2. Bolalar qiziqtirgan mavzular bo‘yicha ular bilan do‘stona suhbat o‘tkazish.
3. O‘z muammolarini rasm orqali ifodalash.
4. Harakatli o‘yinlar, relaksatsiya mashqlari, faol harakatlar orqali bolalarda iroda hulqini shakllantirish va bu orqali o‘zaro yordam ko‘nikmalariga o‘rgatish.
5. Faoliyat turlari 30 daqiqa davomida olib borilishi zarur.

Quyida bunday faoliyat turlaridan namunalar keltiramiz.

Bolalar hissiyoti va harakatlariga doir faoliyat turlari.

Faoliyat turining maqsadi:

- Bolalarda psixologik ximoya mexanizmini aniqlash;
- Ulardagi hissiy zo‘riqishni susaytirishga o‘rgatish;
- Noo‘rin harakatlarni ongli ravishda tushinishlarini ta’minlash.

Faoliyat turining borishi:

1. Muammoli vaziyat: Po‘lat o‘rtoqlariga plastilindan yasalgan ikki xil shaklni olib keladi. Bu shakllarni o‘rtog‘i Botir yasaganini aytib, bolalardan bu shakllar kim yoki nima ekanligini topishlarini so‘raydi. Bolalarning barcha javoblari diqqat bilan tinglab boriladi.

Muammoli vaziyatni hamkorlikda muhokama qilish:

- Botir shakllardan kimni yasagan?
- Bolalar nima uchun bu shakllarni masxaraboz deb atashdi? (chunki yasalgan narsa kulgili edi)
- Yasalgan narsa o‘xshamagandan keyin Botir nimalarni his qildi? (hayajon, qayg‘u, achinish)

Vaziyat shu tariqa davom etadi. Bolalar o‘zлari yasagan narsalar va rasmlarni esga olib, bu vaziyatlardagi his-tuyg‘ularini ifodalay boshlaydilar. Tarbiyachi bolalar javoblarini umumlashtirib, har bir inson kamchilikka yo‘l qo‘yishi ammo uni ongli ravishda sezib, to‘g‘rilash uchun harakat qilishlarini tushuntirib beradi va doimo kamchiliklarni bartaraf etishda boshqalarga zarar yetkazmasliklarini ta’kidlaydi.

Bolalarga mashg‘ulot davomida quyidagi maslahatlarni berib borish mumkin:

 Agar sen noo‘rin harakat qilib, ayb ish qilgan bo‘lsang, undan o‘zing ham uyalayotgan bo‘lsang, bunday vaziyatda eng yaxshi yo‘l o‘z aybingni tan olib, kechirim so‘rashdir. Shunda yaqinlaring va do‘srlaring seni kechirishadi.

 O‘zingni tinchlantirish uchun esa qulayroq o‘tirib, ko‘zlarni yumgan holda ohista nafas olishdir. Bunda nafas olganda 5 gacha, nafas chiqarganda esa 7 gacha sanash tavsiya etiladi. Bu jarayonda bola psixik mexanizmining himoyalanishi tezlashadi.

Kattalar va tarbiyachilar bolaning hayot yo‘lidagi har bir harakatini doimo rag‘batlantirib ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yuksaltirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avdeeva Yu.V. Kommunikativnoye razvitiye detey 5-7 let.M.: Sfera, 2012-64 s.
2. Vasilyeva M.A., Gerbova V.V., Komarova T.S. Programma vospitaniya i obucheniya v detskom sadu. M.: Mozaika-Sintez, 2005. – 208 s.
3. Davletshin. M.G., Sh.Do'stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O'quv metodik qo'llanma.-T.: 2004-129 b.

MAKTABGACHA PEDAGOGIKADA DIZAYN TA'LIMINI AMALGA OSHIRISHDA KOLLABORATIV HAMKORLIKNING AHAMIYATI.

Zuparova D. D.

MTTDMQTMOI tayanch doktoranti.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lismi va tarbiya sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilg'or innovatsion metod va vositalarni o'rghanish, ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish soha mutaxassislarining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Dizayn ta'limi ana shunday sohalardan biridir. Buni bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardan tajribasida yaqqol kurish mumkindir. Bola boshidan, deganlaridek, har qanday kasb-hunarni egallash bolalikdan boshlanadi. Xakikatdan xam, rivojlangan mamlakatlarda bolalar ilk yoshdan dizayn, ixtiolar va loyihamalar olamiga olib kiriladi.

Hozirgi zamon talablariga mos komil inson tarbiyasi, uning kelgusi bahtli-farovon hayoti bugun loyihalashtirilmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya sifati darajasi va innovatsion g'oyalar bilan chambarchas bog'liqidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ongiga loyihalash dizayn elementlarini singdirib borish kelgusi avlodda estetik did, yaratuvchanlik bilan birga ularning o'z xayotiy faoliyatini oldindan loyihalashtira olish bilim va ko'nikmalarini vujudga keltiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shakllarini joriy qilishda faol ishtirok etish, nafaqat maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari, balki uzlusiz ta'limning barcha bosqichlari, hususan umumiy ta'lim pedagoglari, keng jamoatchilik vakillari, mahalla instituti, ota onalarning mas'uliyatli vazifasidir.

Ilmiy tadqiqot ishlari va tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglari, oilalar va jamoat a'zolari o'rtasidagi kollaborativ hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga ijobji hissa qo'shadi. Bola yoshligidanoq o'z atrof muxitida, uyda va jamoada sodir bo'layotgan voqeа hodisalarga qiziqish namoyon qiladi. O'z xatti xarakatlari, so'zlashuv uslublari, ijodiy va aqliy faoliyatida maktabgacha yoshidagi bola o'zi bilan muloqotda bo'lgan tengdoshlari va kattalarga taqlid qiladi. Keyinchalik ushbu harakatlar bola tomonidan mohiyatan tushunilib ongli ravishda amalga oshirila boshlanadi. Aynan taqlid qilish pallasida bolalarga xalqimizning go'zal qadriyatlarini, aqidalarini, odob axloq normalari va o'zini tutish me'yorlarini, shunindek, kasb hunarga mehr, yaratuvchilik dizayn qo'nikmalarini o'rgatish maqsadga muvofigdir.

Keng jamoatchilik vakillari – kattalarning bolaga g'amxo'rlik bilan kasb hunarga oid dastlabki tushunchalar, me'yorlarning yetkazib berilishi bola ongida o'chmas iz qoldiradi, ayniqsa bu ta'lim bolaga yaqin insonlar: ota onasi, buvi buvalari, bola televizor orqali qo'rgan qaxramonlari, taniqli jamoat vakillari, musiqa ustalari, rassomlar, hunarmandlar, mahallasidagi bola hurmatini qozongan mashhur shaxslar tomonidan berilishi muxim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun xam ijtimoiy shekriklik, kollaborativ hamkorlik bugungi kunda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etilmoqda.

Kollaborativ hqmkorlik deganda ikki yoki bir necha tomonning o'zlarini va hamkor tomonlar huquq va majburiyatlarini bilib amal qilgan holda, bir-birlarini layoqatli deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifatida qadrlab birgalikda ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishlari nazarda tutiladi. Hamkorlik tarbiyachi pedagog bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlarini, turmush tarzi, o'ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni hurmat qilish va qadrlash, shuningdek, birgalikda

ushbu qadriyatlarni hamkorlikda bolalarning ongiga singdirib borishni talab qiladi. Hamkor tomonlar sifatida quyidagi sub'ektlarni e'tirof etishimiz mumkin:

-maktabgacha pedagoglar;

- ota onalar;

-uzluksiz ta'limning boshqa pog'onasi pedagoglari: boshlang'ich mактаб о'qituvchilari, o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi pedagoglari, maktabdan tashqari ta'lim vakillari, to'garaklar rahbarlari, oliv ta'lim namoyondalari, bo'lajak pedagog kadrlar, ilmiy izlanuvchilar;

-bola yashaydigan oilaning boshqa a'zolari: buvi, buva, aka, opa, boshqa qarindoshlar.

- MFY vakillari, mahallada yashaydigan yoshi ulug' tajribali shaxslar, Ikkinci jahon urushi qatnashchilari, mehnat veteranlari va boshqalar;

-turli kasb egalari: hunarmandlar, san'atkorlar, tasviriy san'at, dizaynerlar, shifokor, IIV hodimlari, mudofa, siyosat vakillari va boshqalar;

-ijtimoiy sheriklik ob'ektlari: davlat va jamoat tashkilotlari, respublika va xalqaro hayriya jamg'armalari, turli xil markazlar, to'garaklar va boshqalar.

Hamkorlik shakllari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ota ona va oila a'zolari bilan bola tarbiyasida oilaviy muhit sharoitlarini samarali qo'llash va bolani ota onalari, oila a'zolari yordamida yaxshiroq bilib olishga hamda bola ta'limi va tarbiyasi bo'yicha tavsiyalar berishga qaratilgan o'zaro hamkorlik: jonli muloqot, maktabgacha pedagog tomonidan oila a'zolari orasida o'tkaziladigan turli so'rovnomalar, ota onalar yig'ilishlari, guruh burchaklaridagi ota onalar uchun ma'lumotlar, telefon orqali yoki jonli suhbatlar, AKT va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanim amalga oshiriladigan muloqot turlari, konferensiyalar, yozishmalar, media axborotlari almashinuv shaklida;

-maktabgacha ta'lim va tarbiya pedagoglarining o'zaro tajriba almashinuviga qaratilgan hamkorlik aloqalari: turli bosqichdagi konkurs, ko'rgazma, ochiq darslar nashr ishlari va boshqa shakllar;

-MTT tarbiyachilari va umumiylar ta'lim tizimi o'qituvchilarining bolani mактабга tayyorlash va qabul qilinishiga yo'naltirilgan o'zaro birga olib boradigan faoliyati: suhbat, anketa hujjatlarining almashinuv, bolani notanish muhit va pedagogga o'rgatuvchi tashriflar va boshqa shakllarda;

-maktabgacha yoshdag'i bolada loyihalash kompitensiyasini shakllantiruvchi, unda kasb hunar to'g'risida dastlabki tasavvurlar uyg'otuvchi hamkorlik faoliyati turli sohalar namoyondalari, tasviriy san'at, dizayn, usta musavvirlar, hunarmandlar bilan birgalikda tashkil etilgan ko'rgazmalar, master klasslar, seminar, treninglar, bolalar qo'li bilan yaratilgan ishlar namoyishlari, konkurslari: jonli muloqot va virtual shaklda;

Hamkorlik turi, shakli va sub'ektlarini tanlashda asosan bola tarbiyasi va ko'zlangan manfaatlar hisobga olinadi. Asosiy maqsad bolada kommunikativ sifatlarni, o'ziga ishnoch yaratuvchilik sifatlarini shakllantirishdir. Dizayn ta'limini amalga oshirishda ijtimoiy sheriklik aloqalarini o'rnatishda quyidagi pedagogik, psixologik, ta'limiy jihatlar e'tiborga olinishi zarur:

-har bir tadbir va harakatning bosh qaxramoni bola bo'lishi zarur;

-tadbirlardan asosiy maqsad bolada o'ziga ishonch va yaratuvchanlik, estetik did kabi jihatlarni shakllantirish;

-master klasslar, onlayn mashg'ulotlar, masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda olib borilishi ham yuqori natijalarga erishishga yordam beradi;

-itimoiy sheriklikning boshqa sub'ektlari nopedagog shaxslardir. Buni hamkorlik sharoitida e'tiborga olish juda muxim;

-master klasslar namoyishlarni amalga oshirishda, hunarmandlik jihoz va uskunalaridan foydalinishda bolalar uchun havfsillik normalariga qat'iy rivoja qilish, ularning layoqati yoshini hisobga olish zarur;

-bolada sabr, qo'nimlilik bilan biror narsani yasash, yaratishga motivatsiyani uyg'otish uchun tayyor natijalarni ko'rsatish, uning ishini maqtash va kamchiliklarini yumshoqlik bilan tushuntirish, bolaga o'z ishini ta'riflab namoyish qilib berish imkoniyatini tashkil etish;

-bolani uning qo‘lidan kelmaydigan ishlarni yaratishga majburlamaslik, uning yoshi, qobiliyati va imkoniyatini e’tiborga olib individual yondashish;

-dizayn buyumlari, kompozitsiyalarini ishlovchi master klass, treninglarda bola bilan birga ishlab bevosita yordam berish, bu jarayonga ota onasini ham jalb qilish, birqalikda yaratilgan ishlarning yutuqlarini bolaga tegishli deya e’tirof etish va boshqalar.

Xalqimizda bir bolaga yetti mahalla ota onadir degan naql bor. Farzandlarimizning ham jismomon ham aqlan komil bo‘lib yetishishlari, loyihalash kompitensiyasiga ega bo‘lishlari, kelajakda hayotda o‘z kasb hunarlarini to‘g‘ri tanlay olishlari uchun bugun biz jamiyatimizning barcha jabhalari vakillarini safarbar etishimiz katta ahamiyat kasb etadi. Bunda axborot kommunikatsion texnologiyalar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, masofaviy ta’lim, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Oila, ijtimoiy sheriklik, mahalliy hamjamiyat bilan kollaborativ hamkorlik aloqalarining samarali mexanizmini yaratishimiz, keng jamoatchilikni maktabgacha ta’lim va tarbiyaga jalb etish orqali bolajonlarga g‘amxo‘rlik qilishlari uchun shart sharoit yaratishimiz dolzab va muxim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi 2019 yil 17 dekabrda qabul kilingan 595 sonli O‘RQ.

2. Цай Е.Ф., Грошева И.В., Назарова В.А., Исмаилова М.А.. Пособие для тренеров «Внедрение Государственной учебной программы «Илк кадам» для дошкольных образовательных учреждений и Государственных требований к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан» Ташкент, 2019 г.

3. Конфликтные ситуации в ДОУ. Источник: <https://www.resobr.ru/article/63317-qqq-18-m7> konfliktnye-situatsii-v-dou

4. Аграшенков А. Психология на каждый день: советы, рекомендации, тесты. М.: Вече-Аст, 1997.

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR IJTIMOIYLASHUVIDA OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR

G‘ofurova F. S.

Mirzo Ulug‘bek tumani, 378-DMTT logopedi.

Rasulova S. A.

Mirzo Ulug‘bek tumani, 456-DMTT logopedi.

Bugungi kunda psixologiya sohasida insonning hissiy rivojlanish muammolariga tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda. Insonning individual rivojlanishida hissiyotlar muhim rol o‘ynaydi. Ular sub’ekt uchun ichki til sifatida sodir bo‘layotgan voqealar ahamiyatini bilib oladigan signallar tizimi sifatida ishlaydi. Tuyg‘ularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bevosita motivlar o‘rtasidagi munosabatni va ushbu motivlarga javob beradigan faoliyatni amalga oshirishni aks ettiradi. Inson faoliyatida, hissiyotlar uning taraqqiyoti va erishgan natijalarini baholash funksiyasini bajaradi.

So‘nggi bir necha yil ichida autizm sindromli bolalar soni sezilarli darajada ko‘payganligi sababli, ushbu muammoga, xususan, autizmni psixologik tuzatish usullariga qiziqish bildiradigan psixolog mutaxassislar soni ko‘paymoqda.

Oxirgi izlanishlarga asoslanib, autistik o‘zgarishlar bolaning 2-3 yoshlaridan boshlab yuzaga chiqadi desak bo‘ladi. Emizikli bolalarda esa hayotiy xususiyatlar ya’ni ota-onalarni tanish, kulish, qo‘zg‘atuvchilarga bo‘lgan sezgining yo‘qligi: taktil, yorug‘lik, tovush va shu kabilalar. Ammo bu yoshda autizm kasalligiga faqatgina aniq belgilarni yuzaga chiqsa gumon qilsa bo‘ladi. Odadta belgilarni mutaxassisdan ko‘ra yaqin qarindoshlar orasida autist farzandlari bor ota-onalar aniqlashadi. Shunday qilib, autizmni ko‘pincha oilada aniqlashadi. Yosh oilalar o‘zlariga ishonch

hosil qila olmaydilar ya’ni bu o’ziga xosliklar bolaning xususiyatimi (xarakteri) yoki rivojlanishning buzilishimi.

Autizm diagnozi o‘rtacha 2,5-3 yoshlarda qo‘yiladi. Bu yoshga kelib bolada umumiy belgilar yuzaga kela boshlaydi, o‘z tengdoshlari rivojlanishda oldinga o‘tib ketadi. Bolaning qabul qilib olish, o‘rganish, moslashish xususiyatlari yo‘qoladi yoki sekinlashadi va uzoq vaqt talab qiladi. Autizm kasalligida erta aniqlash va ularga alohida erta parvarish qilish bolaning hayotga moslashishida ancha katta yordam beradi. Shuning uchun chet olimlari bolani 1-1,5 yoshlarda mustaqil ravishda test qilib ko‘rishni tavsiya qiladilar. Qobiliyatlarni aniqlash uchun quyidagi holatlarga ahamiyat berish kerak:

- Bolaga ota-onan qo‘lida bo‘lish yoqadimi yo‘qmi, tizzada olib o‘tirilganda bolaning emotsiyasi, yig‘laganda yoki uxlashidan oldin ota-onaga ehtiyoj sezadimi yo‘qmi?;
- Boshqa bolalarga qiziqishi bormi?;
- O‘ynilar o‘ynashga ishtiyobi bormi yoki yo‘qmi? (qo‘g‘irchoqlarni ovqatlantirish, ovqatlar pishirish, soldatchalar o‘ynash, mashina va shu kabilar);
- Ko‘zlar bilan atrof olamni kuzatadimi yoki qo‘llaringiz harakatini kuzatadimi yo‘qmi?;
- Bola ota-onan bilan o‘ynashni yoqtiradimi yo‘qmi?;
- Barmoqlaringiz bilan ko‘rsatayotgan narsalarga qaraydimi yo‘qmi? (biror bir o‘yinchoq, hayvon shu kabilar).

Barcha savollar bolaning atrof muhitga va odamlarga bo‘lgan qiziqishini aniqlashga qaratilgan. Agar 1,5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda yuqoridaq savollardan ko‘pchiligi manfiy bo‘lsa, bolani mutaxassisga olib boorish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, yuqoridaq reaksiyalar faqatgina autizm uchungina xos bo‘lmay, balki bolalarda eshitish qobiliyati yo‘qligi, e’tibor yetishmaslik sindromi va shizofreniyaga moyil bolalarda ham kuzatilishi mumkin.

Autizm kasalligi yoshga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- Erta bolalik autizmi – 2 yoshgacha;
- Bolalik autizmi – 2-11 yoshgacha;
- O‘s米尔ik autizmi 11-18 yoshlarga.

Har bir davr uchun spetsifik belgilar farqlanadi, ular bola yoshiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Autizm haqidagi ma’lumotlar kasallikni erta aniqlash va uni bartaraf etishga yordam beradi, qancha erta davo boshlansa, bolaning tashqi muhitga adaptatsiyasi shuncha osonlashadi.

Autizm bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda o‘yin faoliyati muhim ahamiyatga ega. O‘yin davomida rasm chizishga, o‘qish paytida "nima yaxshi va nima yomon" degan mulohazalarini ro‘yobga chiqarishga harakat qilindi. Bola o‘zlashtirgan xavfli vaziyatdan chiqish tajribasi, "Sarguzasht", ijtimoiy jihatdan maqbul kontekstga kiritildi. Buning uchun psixolog o‘qishda, o‘ynashda, birgalikda rasm chizishda asta-sekin "ijobiy qahramon" obrazini shakkantirdi. Shunday qilib, autist bolalarda yaxshilik va yovuzlik tamoyillarini ajratish, yaxshilikka hamdardlik, noqulay vaziyatni yengishning yangi usullari paydo bo‘ldi. Ushbu psixokorreksion ishlari autizm sindromining eng murakkab varianti bilan ham ishslashga mos keldi.

Autizmnинг og‘ir formalari bilan uzoq muddatli korreksiyalash ishlari olib borilganda kerakli natijaga erishish mumkin. Autistik bolani hissiy tarbiyalashning tuzatish ishlari quydagicha amalga oshirildi:

- turli xil o‘yinlar;
- ijobiy hissiy fonga ega bo‘lgan illyustratsion materialdan foydalanish;
- oilaviy albom fotosuratlarini ko‘rish;
- bolalar uchun maxsus televizion dasturlarni birgalikda ko‘rish;
- har xil hissiyotlarning yozuvlarini tinglash;
- ertaklar, o‘yinlardagi turli xil belgilar bilan hamdardlik;
- oyna oldida shaxsiy yuz ifodalarini tekshirish;
- har xil intonatsiyali hayvonlarga taqlid qilish qobiliyati. Autistik bolaning hissiy sohasini rivojlantirish jarayonida quyidagi usullardan foydalanish mumkin:
 - o‘yin terapiyasi;
 - psixo-gimnastika;

- ma'lum bir mavzu bo'yicha suhbat;
- rasmlarda, musiqada shaxsiy hissiy holatni shakllantirish;
- ko'rgazmali qurollar (fotosuratlar, rasmlar, diagrammalar, grafik tasvirlar, belgilar);
- psixologik trening elementlari. Ushbu terapiyalardan foydalanishda ya'ni ijtimoiy jihatdan yetarlicha xulqatvor shakllarini ishlab chiqish va rivojlanishda autistik bolaning hissiy, shaxsiy rivojlanishidagi muammolar va xususiyatlarni hisobga olish kerakligini ta'kidlash kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, bolalikdagi autizmda buzilishlar atrof-muhit bilan aloqada past chidamlilik tufayli yuzaga keladi, bu yangilikka yo'naltirilgan xatti harakatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bolaning yaqin odamlar bilan, shuningdek, uning atrof-muhit haqidagi g'oyalarini cheklash, stereotip va bo'laklarga bo'lish uning mayjud bilim va ko'nikmalarini erkin qo'llashiga to'sqinlik qiladi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz autizmli bolaning hissiy-irodaviy sohasini rivojlanirishning o'ta muhim roli to'g'risida quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin yani, shaxsiyatni shakllantirishning zaruriy sharti - bu erta yoshda ta'sirchan sohani rivojlanish va hissiy bog'lanishni shakllantirishdir. Autizm sindromli bolalar bilan ta'sirchan hissiy sohani rivojlanishga qaratilgan tuzatish ishlari ularga normal hissiy rivojga qaytishi uchun katta imkoniyatlar beradi. Faqatgina boshqa odamlar bilan aloqada bo'lgan umumiyyat tajribada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan atrof-muhit bilan faol mazmunli munosabatlarni rivojlanish orqaligina autizmnini yengib o'tilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kanner L., Autistic disturbances of affective contact. –Nervous Child. 1943,217 p
2. Rimland B. Infantile autism. – NY.:Appleton-Centure-Crofts.1964, 282 p
3. Вроно М.Ш. О раннем детском аутизме (синдром Каннера).- Педиатрия, 1976 № 7
4. Башина В.М. Катамнез больных с синдромом раннего инфантильного аутизма. Журнал невропатологии и психиатрии., 1977, в.10

BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA MTT VA OILA HAMKORLIGINING O'RNI

Sharipova G. N.
MTTDMQTMOI dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD)

Zamonaviy jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlat ta'lim dasturlari, talablari, jumladan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlanirish maqsadida qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kabi hujjatlarning maqsadi ham voyaga yetmagan bolalarni ham jismoniy, ham aqliy, yuksak intellektual salohiyatga ega shaxslar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi maktabgacha talim sohasida xam katta o'zgarishlar, keng islohotlar ko'lami amalga oshirilmoqda. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Salohiyatga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Davlat tomonidan oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga yanada yangi vazifalarni qo'yish bilan birga, pedagoglar va oila o'rtaida o'zaro ishonchli muhitni tashkil etish, hamkorlik va birgalikda ishslash talabini qo'yamoqda.

Bugungi kunda oilaning jamiyatdagi o'rni, ta'sir imkoniyatlari biroz pasayganligi kuzatilmoqda. Pedagoglar tomonidan bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida tarbiya potensialining kamayganligi, uning roli o'zgarganligi aytilmoqda. Zamonaviy ota-onalarining bolalar bilan oila sharoitida shug'ullanishga vaqt yetishmovchiligi, bandlik, pedagogik kompetensiyaning yetishmasligi kabi sabablar, maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasida asosiy muammolardan hisoblanadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tarbiyasida MTT pedagoglarining o'rni nihoyatda muhim, lekin har bir bola uchun

yaxshi sharoitlarni tashkil etish, ularning tarbiyasida ota-onalarning ishtirok etish darajasini oshirish dolzarbligicha qolmoqda. Bolaning yetarlicha to'liq ta'lif-tarbiya olishi oila va maktabgacha ta'lif tashkilotining birgalikda harakatni amalga oshirish sharoitlarida muvaffaqiyatli kechadi.

Ma'lumki, bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari, fikr va talablarinini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga ko'ringan, aqli yetgan narsalarni so'raydi va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar.

Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichkina bolalar oilaga juda bog'lanib qolgan bo'ladi, chunki oila:

- Ularning jismoniy jihatdan barkamol bo'lismeni, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlaydi, sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qiladi;
- Ularning hissiy bardamligini, jumladan, mehr ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi, nimaning yaxshiligi, nimaning yomonligini doimo eslatib turadi
- Ularning rivojlanishi shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

Pedagoglar bolaning dastlabki tarbiyachisi sifatida oilaning yetakchi rolini tan olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. MTTga kelgunga qadar oila bolaga madaniyatni, muhim va eng zarur ko'nikmalarni singdirishga ulguradi. Bolani maktabga tayyorlash bola va oila o'rtasida shakllangan ana shu dastlabki munosabatlarga tayangan holda ota-onalarga tayyorlov guruuhlar faoliyatining barcha jabhalarida ishtirok etishga imkon beradi.

Oilalarni jalb etish maktabga tayyorlash bo'yicha tayyorlov guruhlarda bolalarning bilim olish faoliyatini boyitishda, bola qiziqishlari va uydagi ta'lif-tarbiya natijalaridan foydalanishda muhim o'rin egallaydi. Bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va bilim olishida ikki ta'lif muhiti – uy va tayyorlov guruhlarning bir-biri bilan bahamjihatligi g'oyat muhimdir.

Oilalarda bolalarni maktabga tayyorlash ishlari turlicha olib boriladi. Ba'zi oilalarda bolalar bilan ko'p shug'ullanilsa ham, bu asosan o'quv mashg'ulotlaridir – husnixat yozushi, alifbe o'rgatish, turli adabiyotlar o'qib berish bo'lib, maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun ayniqsa muhim bo'lgan syujetli o'yinlar, harakat faolligi, tasviriy faoliyatga oid ishlar bilan shug'ullanmaydilar. Boshqa oilalarda bolani o'yinchoqlar va televizor bilan yakkama-yakka qoldirib, bu unga yoqadi va rivojlanishi uchun yetarli bilim beradi deb hisoblashadi.

Natijada ayrim hollarda tayyorlov guruhlarga rivojlanishida muayyan muammolari, mustaqil faoliyatni yetarli darajada amalga oshira olmaydigan, maqsadga erishish uchun irodasi bo'sh, o'zaro hurmat, umumqabul qilingan me'yor va qoidalar asosida boshqalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydigan bolalar qabul qilinadi. Bundan tashqari, ayrim bolalarda sensor ko'nikmalari, tasavvurlarining rivojlanmagani, hissiyot olamining qashshoqligi kuzatiladi. Uydagi ta'lif-tarbiyaning turli-tuman sharoitlari ta'sirida bolalar rivojlanishining alohida sohalari bo'yicha erishilgan natijalarning har-xilligini qayd etish muhim. Tayyorlov guruhlarga kelayotgan bolalarga xos ana shu xususiyatlarni ta'lif jarayonida albatta e'tiborga olish, ularni ota-onalar xohishiga binoan aqliy rivolashtirishga emas, balki umumrivojlanuvchi vazifalarini hal etishga, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirgan ma'qul.

Ijtimoiy-psixologik muhofaza, bola yutuqlarining muvaffaqiyati unga kim va qanday ta'sir etayotganiga bog'liq. Vaqtining katta qismini bola MTT va uyda o'tkazadi, shuning uchun pedagoglar va ota-onalarning ta'siri bir-biriga zid bo'lmasligi, aksincha, bola tomonidan ijobji va faol qabul qilinishi kerak. Bunga pedagoglar va ota-onalar hamkor va hamfikr bo'lib, tarbiyaviy muammolarni bahamjihatlik bilan hal etish orqaligina erishish mumkin.

Pedagoglar ta'lif jarayonini tashkil etishda va bevosita pedagogik jarayonning o'ziga ota-onalarni jalb etishni, ularga bolalar bilan rivojlanuvchi o'zaro aloqalar shakllarni o'rgatish, bolalarning ta'lif-tarbiyasiga doir metodik yordam berishni nazarda tutadigan oilalar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarning ahamiyatga katta e'tibor berishlari lozim.

Samarali faoliyat yuritish va oilani MTT ishiga jalb etish uchun pedagoglar o'zlarini tarbiyalayotgan bolalarning birlamchi vazifalarini bilishlari, ularning oilasi va yaqin qarindoshlari

haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Tayyorlov guruhlarga qatnayotgan bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatlari hamkorlik qilish uchun MTT xodimlariga quyidagi faoliyat yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:

1. Ota-onalarda MTT xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishni shakllantirish;
2. Bolalaning imkoniyatlari, talab-ehtiyojlari va qiziqishlarni baholashda, uning maktab ta'limiga kirishishiga ko'maklashish;
3. Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan mashg'ulot o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik usullarni o'rgatish;
4. Ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish.

Shunday qilib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan ishslash o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, oilaning turiga bog'liq holda o'tqaziladi. MTTning oila bilan ishslash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma-xil va o'zaro bog'liq bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilayotgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida»gi Qonuni. 2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020 y.
3. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. – T.: 2014 y.
4. “Ilm yo'li” MTT tayyorlov guruhi davlat dasturi – T.: 2020 y.

4-shu'ba: SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI YARATISH

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING QO'SHIQ KUYLASH QOBILIYATLARI VA ULARNING BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Amanova D. K.

MTTDMQTMOI «Maktabgacha va musiqiy ta'limgan» kafedrasi katta o'qituvchisi.

Qo'shiq kuylash faoliyati bolalar tarbiyasida yetakchi o'rin egallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. Bolalar qo'shiq kuylashni yaxshi ko'radilar. Kuylash bolalar ijrochiligin rivojlantirib, ularning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u kuylaridan farqli o'laroq qo'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Chunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Qo'shiq kuylash qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalar musiqiy ta'liming asosiy vazifalaridan biridir. Har bir musiqiy obrazda muayyan ifoda vositalari ustunlik qildi. Qo'shiq tilining ifodaliligi ko'p jihatdan nutqning ifodaliligiga o'xshaydi. Nutq intonatsiyalaridan qo'shiqning kelib chiqishi haqida gipoteza mavjud. Ovoz yordamida bolaning hissiy holatlari kuzatiladi. Nutqda intonatsion rang berish tembr, balandlik, ovoz kuchi, nutq tempi, urg'u, pauzalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'shiq kuylash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Musiqiy, badiiy-ijodiy rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofidagi qo'shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Kuylash faoliyati bolalarning musiqa o'quv qobiliyatlarini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa bo'lib kuylash jarayonida bola o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlarining ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'rnavozlik qilishga intiladi. Zotan, tinglash va kuylash o'quv dasturi ta'lum mazmuning asosini tashkil etadi. Bolalarda kuylash va tinglash faoliyatlarini o'rganishi bilan birga cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatları ham har tomonlama rivojlantiriladi, bilim va malakalarini o'zlashtirish va musiqiy tavsiylarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lum tashkilotlarida o'rgatiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o'rgatish kerak bo'ladi. Har bir tanlangan qo'shiq bolaning qiziqishlari, bolaning yosh xususiyatlari, guruhlari, hamda fasllarga, bayramlarning turlariga qarab o'rgatiladi. Qo'shiq bolaning hayotida muhim rol o'ynaydi, tafakkurini va ongini rivojlantiradi. Musiqa rahbari qo'shiqnini bolalarga o'rgatayotganda avval qo'shiq kuyini, keyin she'rini misrama-misra o'rgatadi. Qo'shiq kuyini o'rgatganda musiqa cholg'ulari orqali chalib yoki bo'lmasa, audio vositalar yordamida tinglatib o'rgatishi mumkin. Qo'shiq matnini esa bo'g'lnlarga ajratib yoki chapaklar orqali yod oldirish mumkin. Bolalar qo'shiqlarni tezroq yod olishlari uchun qo'shiq matnlarini takror ayttirish zarur. Bolalarga musiqa tovushlarini tushuntirib o'rgatish zarur.

Bolalarning musiqiy o'quvini, ijodkorligini rivojlantirishda ayniqsa, qo'shiq kuylash faoliyatining ahmiyati katta. Bunda bolalarni kuylashga qiziqtira olish ko'p jihatdan o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiqqa bog'liq. Qo'shiq kuylashga o'rgatishda musiqa rahbari bolalarning ovoz diapazonlarini aniq bilishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo'shiq repertuarini to'g'ri tanlash muhim. Har bir yosh guruhi uchun qiziqarli ularning kayfiyatiga mos keladigan, ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ahmiyatga ega bo'lgan qo'shiq tanlash shart. Chunki, qo'shiqlar bolalarning ijobiy his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi, ularning qo'shiq kuylash malakalarini rivojlantiradi.

Kuylash malakalari quyidagilardan iborat:

1. To‘g‘ri nafas olish;
2. Ovoz shakllanishi;
3. Diksiya va intonatsiyaning tozaligi;
4. Jamoa bo‘lib kuylash;

Qo‘sinq kuylash musiqa mashg‘ulotining asosini tashkil etadi. Har bir qo‘sinq ma’lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutib tanlanadi. Qo‘sinqlarni ma’lum bir tizimga solishda oddiydan murakkabga qarab borishga rioya qilish kerak.

Qo‘sinqlarni quyidagi talablarga muvofiq tanlash tavsiya etiladi :

- tarbiyaviy ahamiyati, g‘oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakteri;
- qo‘sinq matnini yod olish osonligi, badiiy yuksakligi va bolalarning lug‘at boyligiga mosligi;
- ohangning xarakteri, intonatsiya ifodasi, kuyning o‘lchovi, tessiturasi va diapazonining bolalar ovoziga mosligi;
- qo‘sinqning musiqa cholg‘ulari (fortepiano) jo‘rligi uchun klaviri: badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar yoshiga mosligi;
- qo‘sinqning shakli, necha kuplet, qismdan iboratligi (bir, ikki qismli yoki ko‘plik shaklida tuzilganligi), naqarotning mavjudligi.

Barcha guruh bolalari uchun yengil, kichik diapazonli qo‘sinqlar, turli vokal-xor mashqlarini bolalar ovoz diapazonlariga muvofiq kuylatish maqsadga muvofiqli. Bu bolalarda musiqiy qobiliyatning har tomonlama rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘sinq kuylash jarayonida bolaning fikrlash qobiliyatni, nutqi, idroki o‘sadi. Bolalar ovozini asrab tarbiyalashning zarur shartlaridan biri qo‘sinqlarni ularning yoshiga va ovoz diapazonlariga qat’iy rioya etib tanlashdan iboratdir.

Jamoa bo‘lib kuylash jarayoni bolalarni musiqiy o‘quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa bo‘lib kuylash jarayonida bolalar o‘z ovoz ijrosini boshqarishni, musiqa rahbarining ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ur bilan bahamjihat jo‘rnavorlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o‘zaro do‘stlik hislari tarbiyalanadi. Jamoa bo‘lib kuylaganda bolaga kuy qo‘sinq matniga nisbatan kuchliroq ta’sir qiladi. K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek: “Qo‘sinqda, ayniqsa xor jamoasida qalbni tarbiyalovchi uning jumbushga keltiruvchi hissiyotlar mavjud”.

Qo‘sinq inson aqliy kamolotini o‘sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Qo‘sinq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o‘z kechinma va his-tuyg‘ularini faolroq ifodalaydilar. Qo‘sinqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg‘uda ijro etilgan kuya nisbatan ovozda ijro etilgan qo‘sinqni bolalar yaxshiroq idrok etadilar. Qo‘sinq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy eshitish qobiliyatni, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo‘sinq kuylash musiqiy qobiliyatidan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. G.M.Sharipova, Sh.Yakubova. “Maktabgacha ta’lim muassasalarda musiqa o‘qitish metodikasi”, Toshkent, “Cho‘lpon”, 2009-yil. (O‘quv qo‘llanma).
6. O.P.Radinova, A.I.Katinene, M.L.Palavandishvili. Muzikalnoe vospitanie doshkolnikov. Uchebnoe posobie - Moskva, 1998 g.
7. G.M.Altabayeva. Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiyasi metodikasi. Termiz - 2018-y.
8. K.D.Ushinskiy. Pedagogika. Izbrannyye raboty. Moskva “Yurayt” 2019g.

MOODLE ONLAYN TA'LIM KURSLARI ELEKTRON PLATFORMASIDAGI MOS RESURSLAR XAVOLALARINI MY.MDOMO.I.UZ PLATFORMASIDA QO'LASH

Dusmuxamedov A. A.

MTTDMQTMOI Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'limi boshlig'i.

Maktabgacha ta'lism vazirligi tomonidan 2021 yil 28 iyunda tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lism tizimida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, ularni ialakasini oshirish tizimini Moodle onlayn ta'lism kurslari joriy qilish orqali takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasid"ning birinchi bandi bo'yicha Moodle onlayn ta'lism kurslari elektron platformasining imkoniyatlari o'rganib chiqilgan. mdomoi.uz onlayn ta'lism kurslari elektron platformasida Moodle tizimiga xos ta'lism(o'qish)ni boshqarish tizimi (LMS) – o'quv faoliyatini boshqarish tizimining asosi (inglizcha Learning Management System) bo'lib, umumiy kirish huquqini ta'minlaydigan o'quv on-line materiallarni shakllantirish, boshqarish va tarqatish uchun qo'llaniladigan masofaviy ta'lism standarti mavjud [6].

mdomoi.uz platformasida o'quv faoliyatini boshqarish tizimi funksiyalar qatoriga professor-o'qituvchilarini va tinglovchilarini ro'yxatga olish, kurs yaratish, foydalanuvchilarini o'quv kurslardan chetlashtirish, tinglovchilarning mustaqil ta'lism olish muhitini yaratish, tinglovchi va o'qituvchilarning o'zaro individual ishslashini tashkil etish, guruhslar yaratish va ularni boshqarish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish hamda elektron nazorat turlarini yaratish (yelektron nazorat turlariga yopiq turdag'i test, moslikni topishga oid), har xil turdag'i ijtimoiy so'rovlarni tashkillashtirish, tinglovchilarning bilim darajasini monitoring qilish, sertifikatlar (diplomlar) berish, elektron axborot resurslarini (yelektron kutub-xonalar) tashkillashtirish imkoniyatlari yaratilgan.

Shu qatorda elektron tizimda kurs elementlari mavjud bo'lib o'quv jarayonini aniqlik bilan olib borishga yordam beradi. Bular:

Dars – o'quv elementi masofaviy ta'lism tizmining asosiy mazmunini yoritib beruvchi element. Uning yordamida ma'ruza, amalaiy mashg'ulot darslarining ma'lumotlari tashkil etiladi.

Chat – yelementi kurs tinglovchilari o'rtaida o'zaro yozma muloqot qilish imkonini yaratadi. Kursga kirish imkon bo'lgan foydalanuvchilar chat modulidan ham faol foydalanishlari mumkin.

Forum – elementi uzoq vaqt davomida tinglovchilar o'rtaida muloqotni tashkil etadi.

Izohli lug'at – elementi tinglovchilarga resurs va ma'lumotlarning tizimlashtirilgan hamda faoliyat doirasida foydalaniladigan lug'at tashkil etish imkonini beradi.

Test – o'quv elementi tinglovchilarga o'quv moduli mavzulari bo'yicha test savollari kiritiladi test savolari kursga kirishda, mavzular va modullar tugashida soatiga nisbatan beriladi hamda kursni tugatishlarida taqdim etiladi [5].

Platformani takomilashtirishda kurs elementlari joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lib quyidagi elementlar taklif etiladi:

So'rovnomalar – elementining uch turdag'i anketalari masofaviy ta'lism kurslarini baholash va rag'batlanirish uchun xizmat qiladi. Professor-o'qituvchilar anketa moduli yordamida o'z tinglovchilarini yaqindan bilishga yordam beruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, mashg'ulot samaradorligini oshirishga yordam beruvchi tinglovchilar fikrlariga ham ega bo'lishlari mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu modul savollari oldindan ishlab chiqilgan bo'lib, ularni o'zgartirib bo'lmaydi. Tinglovchilar uchun maxsus anketa taqdim etishda Teskari aloqa xizmatidan foydalanish mumkin [6].

Seminar – o'quv elementi tinglovchilar ishini o'zaro baholash, jamg'arish, ko'rib chiqish hamda taqriz berish imkonini yaratadi. tinglovchilar o'z ijodiy ishlarini har qanday fayl ko'rinishida taqdim etishlari mumkin.

Topshiriq – o'quv elementi tinglovchilar ishlarini jamlash, baholash va ularni sharxlash hamda professor o'qituvchilarga kommunikativ topshiriq qo'shish imkonini yaratadi [2].

Tinglovchilar har qanday raqamli fayllarni yuborishlari mumkin. Jumladan, hujjatlari, elektron jadvallar, rasmlar, audio yoki video fayllar.

Qo'shimcha yoki yordamchi o'qituvchilar tinglovchilardan javoblarini matn muharriri orqali kiritishini talab qilishlari mumkin [3].

Topshiriq o'qituvchi tomonidan baholanib, faylga javob mulohaza ko'rinishida, talaba yuborgan faylni to'g'rilangan shaklida yoki audio fayl ko'rinishida javob qaytarilishi mumkin.

Javoblar ballar, foydalanuvchilarning baholash shkalalari yoki "Ilg'or" uslublar yordamida baholanishi mumkin. Natijaviy ko'rsatkichlar baholar jurnaliga kiritiladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda tinglovchilarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamонавиу axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manba-laridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda axborot texno-logiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayo-niga tadbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya nashriyoti, 2009.
2. Xamidov V.S. Erkin va ochiq kodli LMS tizimlar tahlili, infocom.uz jurnali №7,8. 14 bet, 2013 y.
3. Nishonov A.X. va boshqalar. Ta'lima erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar, Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya muammolari, respublika ilmiy-texnik konferentsiyasi, Toshkent 2012.121-123 b.
4. Xamidov V.S. Erkin va ochiq kodli LMS tizimlar tahlili, infocom.uz jurnali №7,8. 14 bet, 2013 y.
5. Turdiyeva G.S., Ismoilova M.N. Masofadan o'qitishning Moodle tizimida ishlash. Buxoro 2014. 66 bet.
6. <http://www.moodle.org>.

ПРЕДМЕТНО - ПРОСТРАНСТВЕННАЯ СРЕДА, КАК ОДНО ИЗ УСЛОВИЙ ЛИЧНОСТНО - ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА

Евстафьева Л. Г.
старший преподаватель кафедры «Методика дошкольного образования»

Института переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций

В Законе о дошкольном образовании и воспитании Республики Узбекистан дано определение, что дошкольное образование и воспитание — вид непрерывного образования, направленный на обучение и воспитание детей, их интеллектуальное, духовно-нравственное, этическое, эстетическое и физическое развитие, а также на подготовку детей к общему среднему образованию.

Дошкольное детство – особенно важный период развития человека, который является уникальным и решающим периодом развития воспитанника. В этом возрасте у ребенка закладываются основы личности, вырабатываются воля и произвольное поведение, а также активно развивается воображение, творчество, самостоятельность, общая инициативность. Первый раз дошкольники в дошкольной образовательной организации (ДОО) знакомятся с

разнообразными видами деятельности. Именно в этом возрасте начинает формироваться у них личностное отношение к окружающему. Внешние характеристики развивающей среды играют огромную роль и в эмоциональном, и в умственном развитии дошкольника. Все, что окружает ребенка дошкольного возраста, влияет на его поведение, настроение и формирует его личностное отношение к тем или иным предметам. Поэтому развивающая среда ДОО должна представлять собой единое целое, в которой будут гармонично сочетаться все компоненты образовательного пространства.

Развивающая среда в дошкольной организации, выступает в роли стимулятора, движущей силы в целостном процессе становления личности ребёнка, она обогащает личностное развитие, способствует раннему проявлению разносторонних способностей. Обогащённое развитие – это развитие всех потенциальных индивидуальных возможностей каждого ребёнка. Безусловно, наиболее высоким потенциалом познавательного и личностного развития обладают дети, находящиеся в условиях развивающей среды.

Развивающая предметная среда детства – это система условий, обеспечивающая всю полноту развития деятельности ребёнка и его личности. Она включает ряд базовых компонентов, необходимых для полноценного физического, социально-личностного, речевого, познавательного и художественно-эстетического развития детей. К ним относятся природные среды и объекты, культурные ландшафты, физкультурно - игровые и оздоровительные сооружения

Среда не только создаёт благоприятные условия для жизнедеятельности ребёнка, она служит также непосредственным организатором деятельности детей и влияет на воспитательный процесс.

Личностно-ориентированный подход к созданию предметно-развивающей среды – это концентрация внимания педагога на целостную личность ребёнка, забота о развитии не только его интеллектуальных способностей и гражданского чувства ответственности, но и духовной личности с эмоциональными, эстетическими, творческими задатками и потенциальными возможностями развития.

К содержанию предметно-развивающей среды предъявляется ряд требований. Предметно-развивающая среда должна быть:

- содержательно-насыщенной – соответствовать содержанию Государственной учебной программы, разнообразие материалов, оборудования и инвентаря (в помещении и на участке, на открытом воздухе);
- трансформируемой – предполагает возможность изменений предметно-развивающей среды, в зависимости от образовательной ситуации, в том числе, от меняющихся интересов и возможностей детей;
- полифункциональной – иметь возможность разнообразного использования различных составляющих предметной среды;
- вариативной – наличие в группе различных пространств, центров развития, а также разнообразных материалов, игр, игрушек и оборудования, обеспечивающих свободный выбор детей; периодическую сменяемость игрового материала, появление новых предметов, стимулирующих игровую, двигательную, познавательную и исследовательскую деятельность детей;
- доступной – для воспитанников, в том числе детей с особыми образовательными потребностями, всех помещений, где осуществляется образовательно-воспитательный процесс – к игрушкам, ресурсам, пособиям, обеспечивающим все виды детской деятельности;
- рациональной (продуманной) – использование всех возможностей для создания современной предметно-развивающей среды, в соответствии с Государственной учебной программой и Государственными требованиями, а также должна обеспечивать реализацию различных образовательных программ ДОО; в случае организации инклюзивного образования – обеспечения необходимых условий;

- культурно-адаптируемой к местным условиям – соответствие культурно-историческим ценностям: национальным и региональным традициям; особенностям, обусловленным природой, климатом; спецификой производственной жизни местности;
- личностно-ориентированной – педагог должен обеспечить, чтобы каждый ребенок мог найти себе занятие по своим интересам (дети легко ориентируются в пространстве группы; знают, что где лежит; имеют свободный доступ к игрушкам и ко всем ресурсам). Содержание предметно-развивающей среды должно предусматривать организацию не менее 5 центров развития, исходя из условий и возможностей ДОО.
- безопасной – предполагает соответствие всех её элементов требованиям по обеспечению надёжности и безопасности их использования;

Непременным условием построения развивающей среды в дошкольной организации, является опора на личностно-ориентированную модель взаимодействия между детьми и взрослыми.

Литература

- 1.Закон Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании», принятый в 2019 году.
- 2.Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста 2018г
- 3.Государственная учебная программа «Ilk qadam» 2022г.
- 4.Методическое пособие к Государственной учебной программе Ilk qadam// «Обучение посредством игры» – 2020г.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Eshbobo耶eva M. M.

Uchtepa tumanı 238-sonli umumiyo o'rtalim maktabi matematika fani o'qituvchisi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy metod yetakchi metod hisoblanadi. Uning mohiyati bolalarning buyumlar yoki ularning o'rnini bosuvchilar (tasvirlar, grafik rasmlar, modellar va h. k.) bilan ishlashning jiddiy aniqlangan usullarini o'zlashtirishgay yo'naltirilgan amaliy faoliyatlarini tashkil qilishdan iborat.

Mazkur usul maxsus mashqlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu mashqlar ko'rsatish uchun belgilangan material shaklida, tashkil qilinishi yoki tarqatma material bilan mustaqil ish ko'rinishida topshiriq shaklida berilishi mumkin.

Jamiyatdagi insonning to'laqonli faoliyati, ya'ni har kungi hayoti, ishlab chiqarish faoliyati, undan yuqori darajadagi umumiyo rivojlanish va umumiyo madaniyatini takomillashib borishi talab qilinadi. Shuning uchun bizning asosiy vazifamiz maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni bilimga undash, faollikka chaqirish, amaliy faoliyatning har bir turida matematik tushunchalarning muhimligini ko'rsatish, fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Demak, zamonaviy maktabgacha ta'limga oldida bolalarga yoshligidan boshlab mustaqil, faol matematik tushunchalarni rivojlantirish vazifasi turibdi. Zamonaviy fanda matematik tushunchalarni rivojlantirishning bir necha yo'nalishlari belgilandi: falsafa bilimlarning haqqoniylig muammosini ko'rib chiqadi; mantiq tushunchani rivojlantiruvchi bilim tizimi sifatida o'rganiladi, psixologiya har bir bolaning mus taqil fikrlash jarayonini nimaga, qaysi fikrlash jarayoni orqali namoyon bo'lishini, inson fikrlash jarayoni yordamida noma'lumni, yangilikni topadi, degan farazni ko'rib chiqadilar; pedagogika bolalardagi ijodiy faoliyatni shakllantirish yo'llarini, yosh avlodni ijodiy mehnatga tayyorlashni tekshiradi.

Matematik tushunchalarni rivojlantirish muammosi psixologik nuqtai nazaridan quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

- 1) tushunchaning tuzilishi va shaklining paydo bo‘lishi;
- 2) tushunchalarni shakllantirish uchun aqliy harakatlar va aqliy faoliyat yo‘llarini, usullarini rivojlantirish. Ushbu muammoga, birinchidan, L. S. Vgotskiy, A. N. Leontev, S.V. Rubinshteyn, O. K. Tixomirov va boshqalarning ishlari bag‘ishlangan. Ikkinchidan, P. Ya. Galperin, Ya.I.Grudenov, Z. I. Kalmikov, Yu.M.Kolyagin, V.A.Kruteskiy, A.M.Matyushkin, Z.I.Slekan, N. F. Talizina, L. M. Fridman va boshqalar o‘z ishlarida o‘rganganlar.

Psixologik, pedagogik tadqiqotlarni ko‘rib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish tarbiyachi (pedagog) rahbarligida, maqsadli tashkil qilingan faoliyat jarayonida samarali rivojlanadi. Tarbiyachi (pedagog) rahbarligida ta’lim jarayonida umumiylashtirish, fikrlash, mantiqiy bog‘lash bilimlari rivojlanadi va bu pedagogik jarayonda o‘z aksini albatta topadi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bunday sharoitlarning yaratilishi masalani yechishda o‘rganilayotgan bilimlarni mustahkamlash, masalani mustaqil yechish ko‘nikmasini rivojlantirish, muammoni yaqindan ko‘ra bilish va uni yecha olish, olingan natijalardan masalani yechish jarayonida foydalanishni bilish uchun imkon yaratadi.

Mashqlar hamma bolalar bir vaqtda yoki bitta bola doska yoki tarbiyachining stoli oldida bajaradigan yakka tarzda bo‘lishi mumkin. Hamma bolalar bajaradigan mashqlardan bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlashdan tashqari, nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin. Yakka-yakka tarzda bajariladigan mashqlar ham o‘sha vazifalarni bajaradi-yu, ammo ular bolalar faoliyatida yo‘nalish oladigan obraz (namuna) sifatida ham xizmat qiladi. Ular orasidagi bog‘lanishlar vazifalarining umumiyligi bilangina emas, balki doimo almashinib kelishi, qonuniy ravishda birbirlarining o‘rnini bosishi bilan ham aniqlanadi. Hamma yoshdagi guruhlarda bajariladigan mashqlar o‘yin elementlari kichik guruhda — surpriz moment ko‘rinishida, o‘xhash harakatlar, ertak qahramoni va h. k. dan iborat bo‘ladi. Katta guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterini oladi. Mashqlar bolalarning yoshiga qarab qiyinlashtirib boriladi. Ular bir necha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. O‘quv-bilish mazmuniga oid o‘yin-mashqlar muammo shaklida emas, ko‘pchilik hollarda, ularni bajarish uchun tasavvur bo‘yicha harakat qilish, topqirlikni namoyish qilish, aqlilikni ko‘rsatish talab qilinadi.

Masalan: Tarbiyachi kichik guruhdagi bolalardan har qaysi quyonni sabzi bilan siylashni taklif qiladi. Katta guruhdan bolalardan esa, doskaga osib qo‘yilgan kartochkadagi doirachalar nechtaligini aytishni, guruh xonasidan xuddi shuncha buyum topishni, kartochkadagi doiralar miqdori bilan guruhdagi buyumlar miqdori teng ekanini isbotlashni taklif qiladi. Agar birinchi holda mashq shartli ajratilgan bitta bo‘g‘indan iborat bo‘lsa, ikkinchi holda 3 ta bo‘g‘indan iborat bo‘ladi.

Kompleks mashqlar eng samaralidir, chunki, ular dasturning har xil bo‘limlariga doir masalalarni bir vaqtda bir-biri bilan tarkiban birga hal qilish imkonini beradi. Bolalarning yoshi kattalashishi bilan mashqlarni bajarishdagi mustaqilliklari ortadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qiluvchi va yo‘naltiruvchi og‘zaki ko‘rsatmalar, tushuntirishlar, oydinlashtirishlar roli orta boradi. Bolalar topshiriqni, mashqni bajarganlaridan keyin o‘z harakatlarini va o‘rtoqlarining harakatlarini, o‘zini-o‘zi va o‘zaro tekshirishni o‘rganadilar. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda o‘sha o‘qitishning mustaqil usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo uni amaliy usullar guruhiga kiritish ham mumkin. Bunda har xil o‘yinlarning, har xil amaliy harakatlarning, masalan, qismlardan butun tuzish, shakllar qatorlari,sanoq, ustiga va yoniga qo‘yish, guruhlash, umumlashtirish, taqqoslash kabi harakatlarni o‘zlashtirishdagi alohida ahamiyati hisobga olinadi.

Didaktik o‘yinlardan eng ko‘p foydalilanadi. Bola bilish mazmunini o‘yin shakliga kirgan o‘rgatuvchi masalani (o‘yin mazmunida), o‘yin harakatlari va qoidalari oldindan nazarida tutilmagan holda o‘zlashtiradi. Didaktik o‘yinlarning hamma turi (buyumli, stolda o‘ynaladigan bosma va og‘zaki turlari) elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning samarali vosita va

usullaridir. Buyumli va og‘zaki o‘yinlar matematika mashg‘ulotlarida va ulardan tashqarida o‘tkaziladi, stolda o‘ynaladigan— bosma o‘yinlar odatda mashg‘ulotdan bo‘sh vaqtarda o‘tkaziladi. Harakatli usullar va ularga mos tasavvurlar shaklidagi bilimlarni bolalar mashg‘ulotdan tashkari vaqtida oladi, o‘yinlar (syujetli —didaktik, didaktik va boshqa xil o‘yinlar) da esa shu bilimlarni aniqlashtirish, mustahkamlash, sistemalashtirish uchun yaxshi sharoitlar yaratiladi.

Elementar matematik tasavvurlarni o‘rgatish va shakllantirish metodi mashg‘ulotlarda har xil turdaga o‘yinlardan, uning alohida elementlaridan (syujetli-rolli, harakatli va b.), usullaridan (surpriz moment, musobaqa, izlash), o‘yin va didaktik boshlanishlarni kattalarning rahbarlik va o‘rgatuvchi roli hamda bolalarning bilimini faollashtirishni tarkiban birga qo‘sib olib borishdan foydalanishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva S. 6-7 yoshli bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini aniqlashda test usulidan foydalanish. «Maktabgacha ta’lim», 2002, 1-son. –10-12-b.
2. Alimov N. Maktabgacha yoshdagি bolalarni matematik ta’limga tayyorlash. «Maktabgacha ta’lim», 2005, 2-son. –7-10 b.
3. Jumaev M. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T.: «Ilm Ziyo», 2005. –223- b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLANING RIVOJLANISH XARITASINI YURITISH TARTIBI

Fayzullaeva M.Z.

MTTDMQTMOI katta o‘qituvchisi,

Rizayeva M. M.

MTTDMQTMOI katta o‘qituvchisi.

Bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanishi Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida ko‘rsatilgan indikatorni (kutilayotgan natijalar) bola tomonidan qanday o‘zlashtirilayotgani orqali aniqlanadi.

Pedagoglar Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida ko‘rsatilgan kutilayotgan natjalarni bola tomonidan qanday o‘zlashtirilayotgani kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish orqali aniqlaydilar.

Pedagoglarga bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanishini kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish uchun eng qulay shakl bu – maktabgacha yoshdagи bolaning rivojlanish xaritasidir. Mazkur xarita orqali pedagoglar bola rivojlanishini tizimli qayd etib boradilar. Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun “Ilk qadam” takomillashtirilgan davlat o‘quv dasturining 7-ilovasida berilgan “Rivojlanish xaritasi”da ko‘rsatilgan indikator (kutilayotgan natijalar) nazarda tutilgan.

Bolalarning rivojlanish xaritasi ularning rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolaning rivojlanish xaritasining 1-sahifasini titul varog‘i to‘ldiriladi. Bolaning rivojlanish xaritasini to‘ldirish uchun uch bosqichdan iborat bo‘lgan kuzatish olib boriladi: dastlabki (o‘quv yili boshida), oraliq (o‘quv yili o‘rtasida) va yakuniy (o‘quv yili yakunida). Dastlabki kuzatish o‘quv yili boshida o‘tkaziladi (taxminan sentabr oyida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang‘ich imkoniyatlari (boshlang‘ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi) aniqlanadi. Uning shu davrgacha erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o‘quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muammolari aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi. Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini to‘ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (✓) bilan belgilaydi. Kuzatish rivojlanishning barcha sohalari bo‘yicha olib

boriladi. Agar u yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator (kutilayotgan natijalar) «ishlamasa», pedagog (tarbiyachi) “Pedagog izohi” ustunida eslatma yozishi lozim.

O‘quv yili boshida kuzatish natijasida qayd etilgan dastlabki ma’lumotlar pedagogga bolaga qaysi rivojlanish sohalarida qaysi sifatlarni qo’llab-quvvatlashni talab qilishni, har bir bola uchun qaysi vazifalar dolzarbligini aniqlashga yordam beradi. Pedagog ushbu bosqichda bolaning rivojlanish xaritasidagi yutuqlarini hujjatlashtiradi va zarur hollarda boshqa mutaxassislar (*logoped, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, psixolog va musiqa rahbari*) bilan hamkorlikda “rivojlanish xaritasi” mezonlariga muvofiq rivojlanish sohalarini o‘zlashtirilishini rejalashtiradi. Kuzatishning bu shakli pedagogga yakka tartibda va guruhda bolaning yutuqlarini ko‘rishga yordam beradi. Bu ma’lumotlar tarbiyachiga ko‘proq mos tushadigan yondashuv usullarini tanlash va adaptatsiyada zarur bo‘lgan mazmun sohalarini aniqlashga yordam beradi. Bola bilan individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish vazifalari belgilanadi, ular pedagog/tarbiyachining kundalik ish daftarida (jurnalda) aks ettiriladi. Bola bilan yakka tartibda ishslashni rejalashtirish uchun dastlabki kuzatish natijalarga ko‘ra, rivojlanishning har bir sohasi uchun 1-2 ta maqsadni tanlash tavsiya etiladi. Keyingi chorak davomida davlat talablarining o‘zlashtirilishi bo‘yicha tarbiyalanuvchilar bilan ish olib boriladi.

Bolaning rivojlanish xaritasini to‘ldirish tartibini Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” rivojlanish sohasi indikatorlarni (kutilayotgan natijalar) belgilashni namuna sifatida ilova qilinadi.

Masalan, dastlabki kuzatuv jarayonida bola birinchi indikatorni “Oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftining tashqi tomonida va tizzalarni baland ko‘targan holda yuradi” ba’zan, tasodifiy bajarganini kuzatsangiz bajarganlik holatiga ko‘ra “B” ba’zan mezoniga (✓) bilan belgilaysiz. Oralik kuzatuvda bola Oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftining tashqi tomonida va tizzalarni baland ko‘targan holda yurishni tez-tez bajarganini kuzatsangiz “T” mezoniga (✓) bilan belgilaysiz. Yakuniy kuzatuvda mazkur indikatorni doimiy bajarganini kuzatsangiz “D” mezoniga (✓) bilan belgilaysiz. Demak siz yil davomida har bir bolaga indikatorni bajarilish holatiga ko‘ra 2-3 ta belgi qo‘yishingiz mumkin. Agar tarbiyachi bolaning birinchi indikatorni bajarilishini 3 marta belgilagan bo‘lsa, bola

2-indikatorni “Arqonda muvozanatni saqlagan holda yuradi” dastlabki kuzatuvdayoq bajarganini kuzatilsa, demak keyingi kuzatuvlarda ushbu indikator kuzatilmaydi. Bola bu indikatorni mustaqil bajardi. Ba’zan bolalar ko‘p kasal bo‘lganligi sabab ba’zi indikatorni o‘quv yilining oxirida ham bajarmay qolishi mumkin. Yakuniy kuzatuvda bola “K” kuzatilmadi, yoki “B” ba’zan mezoni bilan baholanadigan bo‘lsa tarbiyachi yil oxiri bo‘lishiga qaramay bola nega indikatorni bajarmaganligiga izoh kiritadi. Masalan, “Ko‘p kasal bo‘ldi. Oilada hamda jismoniy tarbiya yo‘riqchisi bilan ishslash” deb izoh ustuniga qayd qiladi. Tarbiyachi bolani sog‘lig‘ini mustahkamlashga, indikatorni bajarishiga e’tibor berib bola bilan yakka ishslashni rejalashtiradi. Yil yakunida tarbiyachi guruhdagi bolalarni baholaganda “T”, “D” mezonini olishlariga erishilishga harakat qilishlari kerak. Albatta tarbiyachilar dastlabki kuzatuv natijalariga ko‘ra bolalarni rivojlanishlariga muhtoj tomonlarini inobatga olgan holda pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorlikda yakka ishslashlari kerak bo‘ladi. O‘quv yilining oxirida tarbiyachilar bolalarning indikatorlarni tez-tez, doimiy bajarishlariga ko‘maklashishlari darkor.

O‘quv yili oxirida (*odatda may oyida*) pedagog yakuniy kuzatuvni o‘tkazadi, uning natijalari bo‘yicha bola erishgan daraja davlat talablariga muvofiq tahlil qilinadi. O‘quv yili davomida har bir bola rivojlanishning boshlang‘ich darajasiga nisbatan turli xil yo‘llar bilan rivojlanishi va turli xil rivojlanish vazifalarini hal qilishi mumkin. Ana shu kuzatish asosida vazifalar qanchalik samarali hal etilgani taxmin qilinadi.

O‘quv yili oxirida tarbiyachi yakuniy pedagogik kengashga Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini bolalar tomonidan o‘zlashtirilishi yuzasidan hisobot yozadi va unda bolalar tomonidan tegishli natijalarga erishilmagan indikatorlar hamda ular nega bajarilmaganligi sabablariga to‘xtalib o‘tadi. Ushbu natijalar asosida sabablarni bartaraf etish

borasidagi ishlar rejalarshiriladi va mazkur guruh uchun yoz oylari va kelasi o‘quv yiliga mo‘ljallangan vazifalar belgilanadi.

Bolaning rivojlanish xaritalarini yuritish mas’uliyati guruh tarbiyachilariga yuklatilsada, uni to‘ldirishda barcha mutaxassis-pedagoglar kutilayotgan natijalarni bola tomonidan egallanishini belgilashda ishtirok etishi va pedagoglarning hamkorligi to‘laqonli olib borilishi hamda xaritaning to‘g‘ri va aniq yuritilishini maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti tomonidan nazoratga olinishi muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, rivojlanish xaritasi ta’lim strategiyasini va ta’lim mazmunini o‘zgartirish uchun kompas bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Pedagoglar har bir yosh guruhi uchun xaritadan foydalanishlari mumkin, bu esa o‘quv yili davomida kuzatish natijalarini birlashtiradi va har bir yarim yil davomida pedagog tomonidan belgilangan rivojlanish maqsadlarini (shuningdek, ularni amalga oshirish darajasini) ko‘rsatadi.

Ushbu rivojlanish xarita pedagogga va ota-onalarga o‘quv yili davomida bolaning rivojlanish dinamikasini ko‘rishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sون qarori.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari – T.: 2020, 9-12 betlar.

3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi – T.:2022, 48-76 betlar.

MAKTABGACHA TA’LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Himmataliev D. O.

Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” fakulteti professori.

Muminova M. Y.

Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ta’lim muassasalari boshqaruvi yo‘nalishi magistranti.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha “Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi Bitimida bolalarni maktabga tayyorlash sifatini ta’minalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ushbu yo‘nalishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish dolzarb vazifa sifatida belgilangan .

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o‘yinlardan foydalanish hamda rivojlantiruvchi muhitni takomillashtirish ta’lim va tarbiya jarayonining qiziqarli kechishini ta’minalaydi, bolalarda ma’lum kasb-hunarga qiziqish uyg‘otadi, har bir kasbning amaliy ahamiyatini bolaning ehtiyojiga bog‘lab tushuntirish imkoniyatini taqdim etadi, kasb-hunar bilan tanishtirishda dastlab bolalar e’tiborini mehnat natijasi, mahsuliga, so‘ngra esa mehnat jarayoni va unda qo‘llaniladigan vositalarga qaratish uchun yetarli shart-sharoit yuzaga keladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogika tarixida ta’lim sohasining tarbiyaviy - rivojlantiruvchi kuchi bir necha bor va turli holatlarda ko‘rib chiqilgan. Biz uchun J.Piajening qarashlari muhim, u bolaning aqliy rivojlanishining asosiy sharti uning amaliy, tafakkur vaziyatlariga samarali qo‘silishi deb hisoblagan.

Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi rivojiga katta hissa qo‘sghan: P.P.Blonskiy, L.I.Bojovich, L.S.Vygoskiy, P.Ya.Galperin, A.V.Zaporojes, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, D.B.Elkonin va boshqalarni ta’kidlash muhim. Ushbu nazariya shundan iboratki, bolaning aqliy rivojlanishi boshidanoq bola va uning atrof muhiti, bola va kattalar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklar orqali

amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiyning asarlarida bolaning madaniy rivojlanish muammosi birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Uning fikriga ko‘ra, ichki jarayonlar sahnada ikki marta, ikkita rejada - birinchi navbatda ijtimoiy (jamoaviy faoliyat, atrof-muhit bilan aloqa sifatida), keyin psixologik (individual faoliyat, bolaning ichki fikrlash faoliyati, atrofdagi dunyoni tushunish sifatida) jihatdan namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta’limda tarbiya:

- ijtimoiy amaliyotning mustaqil shakli (faoliyat tizimi, tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv mexanizmlari), boshqa barcha ijtimoiy sohalarga singib ketgan va shu orqali ijtimoiy organizmning yaxlitligini ta’minlovchi maxsus ijtimoiy infratuzilma;
- tarixiy tajribani avloddan-avlodga o’tkazishning universal usulidir; bu ijtimoiy merosning umumiylar mexanizmi, odamlarning ma’lum bir jamiyatni va turmush tarzini to‘liq bog‘lovchi, umumiylar normalari va qadriyatlarini o‘z vaqtida o’tkazish va saqlash mexanizmi;
- insonning muhim kuchlari, uning asosiy qobiliyatlarini shakllanishi va rivojlanishining umumbashariy madaniy-tarixiy shakli, tarix va madaniyat sohasida shaxsnинг inson qiyofasini egallashi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va shu bilan o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirishdir.

Ta’lim va tarbiyaning ushbu yangi qiyofasi bu boradagi tasavvurlarimizni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Uning mohiyati va maqsadi - insonning umumiylar qobiliyatlarini, faoliyat va tafakkurning universal usullarini haqiqatda rivojlantirishdir.

Rivojlanish tabiatining mohiyatiga ko‘ra - organik tuzilmalar va funksiyalarining yetukligi va o‘sisi sifatida amalga oshirilishi mumkin; va mos ravishda amalga oshiriladigan umrbod biogenetik dastur tili bilan tasvirlanadi. Lekin uni sun’iy, maxsus tashkil etilgan “rivojlantirish faoliyati” - jamiyat mohiyatida - madaniyatga o‘xhash qobiliyatlarini shakllantirish faoliyati sifatida; maqsadli faoliyat usullari va vositalarining tartiblangan majmui sifatida qarash mumkin.

Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi muhitni takomillashtirish uchun rivojlantiruvchi muhitni ijtimoiy, didaktik va psixologik rejada ko‘rib chiqamiz.

1. Ijtimoiy nuqtai nazardan, rivojlantiruvchi muhit o‘zgaruvchan va reabilitatsiya xarakteriga ega bo‘lishi kerak.

2. Didaktik nuqtai nazardan rivojlantiruvchi muhit shaxsga yo‘naltirilgan, insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi kerak.

3. Psixologik jihatdan rivojlantiruvchi muhit bolaning qobiliyatini shakllantirishni, tarbiyalashning individual yo‘nalishlarini egallashini ta’minalashi kerak.

Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi muhitni takomillashtirish uchun bolaning jismoniy, somatik, aqliy, psixologik, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlantirish zarur. Bu bizga:

• bolalar - turli xil faoliyatda va turli jamoalar bilan o‘zaro munosabatlarda o‘z taqdirini o‘zi belgilashi;

• tarbiyachilar - keng ijtimoiy va madaniy sohada bolalarni ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratishi;

• ota-onalar - keng ko‘lamli ta’lim-tarbiya xizmatlarini yaratishda (mijoz sifatida) ishtirok etishi;

• tashkilotchilar va boshqaruvchilar - turli xil qiziqishlari va shartlariga e’tibor qaratgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilishlariga imkon beradi.

Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi muhitni takomillashtirish uchun “ta’lim”, “taraqqiyot”, “tarbiya” va “sog‘liq” tushunchalarini alohida ishlay olmasligini e’tiborga olish kerak. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda guruhsda puxta o‘ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o‘ynaydi, bu pedagoglarga davlat o‘quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkonini beradi. Guruhsiz xonasini rivojlanish markazlari deb ataladigan kichik-kichik joylarga ajratish tavsiya etiladi. MTT pedagoglariga jadvalda guruhdagi rivojlanish markazlarining minimal soni ko‘rsatilganligini tushunishlari tavsiya etiladi;

hududning va MTTdagi ta'lismi va tarbiya jarayoni mazmunining imkoniyatlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda guruhdagi boshqa rivojlanish markazlari tashkil etilishi mumkin.

Turli guruhlarda markazlar to'plami har xil bo'lishi mumkin, ammo davlat o'quv dasturi guruhdagi beshta asosiy rivojlanish markazlarini tavsiya qiladi: fan va tabiat; til va nutq; syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish; san'at; qurish, konstruksiyalash va matematika. Guruhda boshqa rivojlanish markazlarini ham tashkil etish mumkin, ularni tashkil etish bolalarning manfaatlariga, guruhning bo'sh makoniga va maktabgacha ta'lismi tashkilotining moddiy-texnik imkoniyatlariga bog'liq. Bunday markazlar vaqtinchalik yoki faqat bolalar faoliyatining maxsus turlari (qum va suv markazi; pazandachilik markazi; musiqa markazi) uchun tashkil etilishi mumkin. Ta'lismi muhitini yaratishda pedagoglar bolalar faol bo'lishi mumkin bo'lgan joylar mavjudligini ta'minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YuNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari //O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri L.Saidova. -T.: Adolat, 2004. -B. 19-62.
2. Takomillashtirilgan "Ilk Qadam" Davlat o'quv dasturi 04.02.2022 9-10 ilova
3. Piaje J. Rech i мышленie rebenka. - M.: Pedagogika-Press. - 1994.-528 s.
4. Suxomlinskiy V.A. Kak vospitat nastoyashhego cheloveka. - M.: Prosveshenie, 1990. - 286 s

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ikromova T. Y.

Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani
29-DMTT direktori.

Maktabgacha ta'lismi tizimi bugungi ijtimoiy turmush tarzimizning muhum qadamlaridan biriga aylanayotgani, tizimning yangi bosqichga rivojlanayotgani ham ota-onani, ham jajji farzandlarimizni quvontiradi. Yangidan barpo qilinayotgan maktabgacha talim tashkilotlari binolarida ilk bor ta'lismi olayotgan o'g'il-qizlarimiz nainki sog'lom ovqatlanish turidan balki sifatli ta'lismi mashg'ulotlaridan ham bahramand bo'lishmoqda. Avvalo, sohani tubdan rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lismi boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son hamda 2019 yil 8 may 2030 yilgacha maktabgacha ta'lismi rivojlantirish bo'yicha qarorlari yo'lxaritasi bo'ldi desak yanglishmaymiz.

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lismi uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'gini hisoblanadi. Bu davrda bola dunyoni ahglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila va Vatanga mehri uyg'onadi, umri davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlanadi. Bunda oila bilan birga maktabgacha ta'lismi tashkilotining o'rni kattadir. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lismi sohasida, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida bolalarning intellektual va emotsiyal-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lismi jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lismi - bola shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lismi-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini qarab chiqamiz:

1. Har bir bolaga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda bola o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.

3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;

4. Ta'limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, bolaga o'qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. Bolaga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

5. Bolaning hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Maktabgacha ta'limda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutqmuloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir.

Pedagog-tarbiyachi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanan ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak.

- har bir bolani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
 - bolani hurmat qilishi;
 - bolalarda mehnatga bo'lgan hurmat hissini uyg'otishi;
 - bolaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
 - bolaning mehnat munosabatlariga bo'lgan xohish-istik, qiziqishlarini inobatga olishi;
 - har bir bolaga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishi;
 - bolaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
 - bolalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
 - ta'lim jarayonida hech bir bolaga tazyiq o'tkazmasligi;
 - alohida bolaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmasligi;
 - bordiyu, bola tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlab aniqlangan sabablar asosida bolaning sha'ni, g'ururiga ziyon yetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
 - ta'limiy faoliyat jarayonida har bir bola uchun "muvaqqiyat muhitini yarata olish";
 - har bir bolaga ta'lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
 - pedagog sifatida har bir bolaning hurmati va ishonchini qozona olishi zarur. Pedagog-tarbiyachi tomonidan ta'limiy faoliyat jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi, bolalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi.
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagiga ko'ra emas, o'z imkoniyatlari, salohiyati, tabiatni xususiyatlari mos ravishda shakllanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning markazida bolaning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda qaror qabul qilishga qodirligi turadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi pedagogik muhitning sifatlari: bolalar yoshiga mosligi, estetik jihatdan ko'rkaligi, gigiyenik talablarga javob berishi, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlanganligi, bolalarni barchasi foydalanishi mumkinligi, bolalar ruhiyatiga mosligi, rivojlantiruvchi ahamiyatga egaligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil. 8-bet

2. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent – 2019

3. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.

4. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent "O'qituvchi" 1993 yil

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH USULLARI

Jumayev Y. R.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularni
malakasini oshirish instituti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida. “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi yig'ilishlarida mas'ul vazirlar vazirlarining raqamlashtirish sohasidagi faoliyati natijadorligidan kelib chiqib, ularni rag'batlanirish yoki intizomiy, shu jumladan egallab turgan lavozimidan ozod qilishgacha bo'lgan choralarini ko'radi. Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligidan joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangiliklar kirityapti.

Raqamli texnologiya bu –ta'lim yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishslash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy xo'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlii texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Elektron axborot-ta'lism resursi (EATR) – o'rganish va ta'lism berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta'lism olish darajasidagi ta'lism oluvchilarga mo'ljallangan, ma'lum bir fanni o'rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir.

Umumiy maqsadli amaliy dasturiy ta'minot — soha mutaxassisi bo'lgan foydalanuvchi axborot texnologiyasini qo'llaganda uning ishiga yordam beruvchi ko'plab dasturlarni o'z ichiga oladi. Bular:

- kompyuterlarda ma'lumotlar bazasini tashkil etish va saqlashni ta'minlovchi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT);
- matnli hujjatlarni avtomatik ravishda loyihalashtiruvchi, ularni tegishli holatda rasmiylashtiruvchi va chop etuvchi matn muharrirlari;
- grafik muharrirlar;
- hisoblashlar uchun qulay muhitni ta'minlovchi elektron jadvallar;
- taqdimot qilish vositalari, ya'ni tasvirlar hosil qilish, ularni ekranda namoyish etish, slaydlar, animatsiya, filmlar tayyorlashga mo'ljallangan maxsus dasturlar.

Ofis amaliy dasturiy ta'minot idora faoliyatini tashkiliy boshqarishni ta'minlovchi dasturlarni o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- rejalovchi yoki organayzerlar, ya'ni ish vaqtini rejashtiruvchi, uchrashuvlar bayonomalarini, jadvallarni tuzuvchi, telefon va yozuv kitoblarini olib boruvchi dasturlar;
- tarjimon dasturlar, ya'ni berilgan boshlang'ich matnni ko'rsatilgan tilga tarjima qilishga mo'ljallangan dasturlar;

- skaner yordamida o‘qilgan axborotni tanib oluvchi va matnli ifodaga binoan o‘zgartiruvchi dasturiy vositalar;
- tarmoqdagi uzoq masofada joylashgan abonent bilan foydalanuvchi orasidagi o‘zaro muloqotni tashkil etuvchi kommunikatsion dasturlar.

ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o‘quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma’lum o‘zgartirishlar kiritish kerak bo‘ladi. Bunda ta’lim jarayoniga zamонавиу axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo‘ldir. Ta’lim tizimiga elektron axborot ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

ETni o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish; o‘quv jarayoni uchun ET mo‘ljallangan ta’lim texnologiyalarini yaratish va qo‘llash; Tinglovchilarning zamонавиу ET texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish;

ETni joriy etish orqali ta’lim tarbiya va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish. Elektron axborot resurslari ta’limga oid axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishslash usul va vositalari majmuidan iborat bo‘lib, u ta’limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog‘liq:

— ichki omillar — bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

Raqamli ta’lim resurslarini amaliyatga joriy etilishi:

- o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirishiga;
- o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga tinglovchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish
- sun‘iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali tinglovchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o‘rganilaётган jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o‘quvchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- berilayotgan materialni chuqur va mukammal o‘zlashtirish imkoniyati va uni ta’lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi va zarur bo‘lganda amaliyatga qo‘llash darajasi ortadi;
- axborotni turli shaklda (matn, video, ovoz, grafika, animatsiya) berilishi ta’lim oluvchilarni diqqatini tortadi va ularni fanga qiziqishini uyg‘otadi;
- kompyuter “nazoratchi” funksiyasini bajarib ta’lim oluvchining didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatlarga bergen javoblarini, ya’ni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlab natijalarini monitorda ko‘rsatadi;
- dars jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatini boshqaruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi va bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar soni keskin ortadi, buning natijasida egallanishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmining oshishiga olib keladi;

Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta’lim tizimi vositlari rolini multimedialar, godoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta’lim tizimining qurollantirilishi o‘quvchilarga dars mashg‘ulotlarini sifatli o‘tilishini ta’minlaydi. Bugungi pandemiya sharoiti ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniye orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’limga o‘tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchiga uydan chiqmay turib ham ta’lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta’limga

o‘tishning boshqa afzalliklari to‘g‘risida ham fikr yuritadigan bo‘lsak ularga quyidagilarni kiritish o‘rinlidir. O‘quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;

- o‘quvchilar mutaxassis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;

- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;

- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;

- vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;

- “raqamli dunyoda yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘ladi.

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o‘z navbatida raqamli ta’lim tizimiga o‘tishga to‘sinqilik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa hukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada ko‘rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishontiradi.

Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga xizmat qiladi. Raqamli ta’limning joriy etilishi o‘qituvchilar orasida ishsizlikni keltirib chiqarishi ehtimolini yuzaga keltiradi, ammo buni ham bartaraf etish imkon mavjud. Buning uchun o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishslash qobiliyatini o‘stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish orqali bandligini ta’minalash mumkin. Bunda nafaqat mamlakatimizdagи balki chet eldagи qator ta’lim oluvchilarni ham jarayonga jalb etish imkon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida mustaqil mablag‘ topish imkonini bersa ikkinchidan o‘qituvchini o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtida bunga telegram kanallari orqali amalga oshirilayotgan ta’limni misol sifatida keltirish mumkin. Bu kanallar orqali o‘zlashtirish ko‘p vaqt talab etadigan bilimlar qisqa muddatda yetkazib berilmoqda. Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga jahon hamjamiyatida muhim o‘rin egallahimizni ta’minalaydi. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati, axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlanish va takomillashuvining zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan. Sohalarda katta hajmdagi axborotlarni to‘planishi, yaxlit axborot makonini vujudga kelishi, ularni saqlash, qayta ishslash, uzatish jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yishni bilish lozim. Shu borada ta’lim tizimida xam o‘quv jarayonini olib borish uchun mo‘ljallangan turli kompyuter dasturlari ishlatilib kelinmoqda va ularning soni kun sayin ortmoqda. Elektron ta’lim resurslar (ETR) — davlat ta’lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o‘quv jarayonini elektron vositalar yordamida kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o‘rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minalaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron ta’lim— uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, multimediani elektron ta’lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi. ETR deyarli barcha axborotni materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamarajabov M., Tursunov S. Kompyuter grafikasi va Web dizayn. darslik. – T.: «Cho‘pon», 2013.
2. Yuldashev U., Mamarajabov M., Tursunov S. Pedagogik Web-dizayn. O‘quv qo‘llanma – T.: “Voris”, 2013.
3. Aripov M., Fayziyeva M., Dottoyev S. Web-texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.; “Faylasuflar jamiyati”, 2013

4. D.Sayfurov, Fayziyeva M. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017-y.

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Karaxanova O. Y.

Pedagogika fanlari buyicha fanlari
doktori(PhD),dotsent

Ruziyeva I. P.

Shahrisabz Davlat instituti Ta'lif -
tarbiyanazariyasi Maktabgacha ta'lif yo'nalishi
2-bosqich magistranti.

O'rghanuvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi. O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qat'iy qaror toptirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga to'g'ri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashi, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, mute'lik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uyg'un va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamон talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega bo'lgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir. Ma'lumki,yurtimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab ,bugungi kunga qadar ta'lif sifati va samaradorligini oshirish borasida juda kuplab ilmiy -amaliy ishlar tashkil etildi hamda amaliyotga tadbiq etildi.Zamonaviy bilimlarga ega,yuksak ma'naviyatli,dunyoqarashi keng ,ijodiy fikrlay oladigan Kadrlarni tayyorlash ularni mustaqil amaliy faoliyatga kirisha olish darajasidagi mutaxassis qilib tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovichning ta'lif sohasida olib borayotgan islohotlari asosini maktabgacha ta'lifda yuqori samaradorlikka erishish muhimligi kursatib berilmoqda.Maktabgacha ta'lif tizimidagi islohotlarni tuliq amalga oshirish borasida ,kadrlar tayyorlash va ularda ijodkorlikni tarkib toptirish ,tarbiyalanuvchilar bilan ishslash davomida uzining mustaqil fikri,ijodkorligi,ijodiy tafakkuri orqali ma'lum natijaga erisha olishi zarur.

Maktabgacha ta'lif yunalishi talabalarining mustaqil fikrlay olishi,ijodkorligi,ijodiy tafakkurini rivojlantirish buyicha olib borayotgan tadqiqot ishimiz tavsiyalari maqolamizning mazmunini tashkil etadi.Ushbu muammo oliy maktab psixologiyasi, ijod psixologiyasi, tafakkur psixologiyasi fanlari doiralarida ancha keng o'rganilgan bo'lib, aynan talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ilmiy ijodiyot metodologiyasi fani doirasida ham o'rganilib kelingan . Har qanday shaxs kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o'zining ijodkorligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to'ldirishi lozim. Bunday tajribalarni talaba oliy pedagogik ta'lif muassasalarida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. Talaba shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o'z kasbiy faoliyati davomida ijodkorligini namoyon eta oladi. Bugungi kunda o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalardagi ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda yetakchi vositalardan biri ekanligini «o'zini-o'zi boshqarish», «o'zini-o'zi rivojlantirish», «shaxsiy faollik», «o'zini-o'zi tashkil qilish» kabi tushunchalarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lif amaliyotida qo'llanishi ham asosiy dalil bo'lishi mumkin. Bularning hammasini umumlashtiruvchi jihat shundaki, sub'ektning o'zi o'zining o'qish, ta'lif va rivojlanish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bo'ladi, ya'ni ta'lif oluvchi – talaba bilishning sub'ektiga aylanmaydi, balki avval boshdan shunday

sanaladi. **Tafakkur**—inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob'yeaktiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi,idrok,tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular ortasidagi boglanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yol bilan aks ettirishga aytildi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va tolaroq aks etadi.

Talabalarda ijodiy tafakkur yuritish ko'nikmasi – olim, tadqiqotchi, yaratuvchining qobiliyatları va mahorati, irodasi, tirishqoqligi va qat'iyati, yakuniy maqsad – yangi foydali ilmiy bilim olishga intilishining ifodasıdır. Tadqiqotimiz ob'ekti – oly ta'lif muassasaları talabalarining tafakkur yuritish turlari, ijodiy faoliyat turlari hisoblanadi.

Talabalarning ijodiy faoliyatiga tayyorligini yoki ularning o'z bo'lajak kasblariga ijodiy yondasha olishlarini psixologik jihatdan o'rganishdan maqsad talabalar muhiti, ularga ta'lif berish xususiyatlari, ularning ilmiy va badiiy ijod, kasbiy ijodkorlik va ijodiy faoliyat haqidagi tasavvurlari, talabalar jamoasi, bo'lajak mutaxassis – talaba shaxsi ijodiy faoliyatni uchun qulay psixologik shart-sharoitlar yaratishdir. Talabalarda ijodiy faoliyatga tayyorlik dinamikasi – o'sib borish jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish natijasida talabalar ijodiy tafakkurining o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Talabalarni o'z kasbiga ijodiy yondasha olishi darajasida tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiyotlari va intellekti hamda kasbiy va hayotiy motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi. Talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish orqali: – oly ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasi sifati va samaradorligi oshadi; – jamiyatda intellektuallar, ijodkorlar, raqobatbardosh zamonaviy kadrlar sonini oshirish va shu yo'l bilan jamiyatimiz nufuzini dunyo miqyosida oshirishga erishamiz; – kadrlar raqobatbardoshligi, saviyasi, mehnat va ishlab chiqarish samaradorligi, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik darajasi oshadi. Bu esa o'z navbatida, albatta, jamiyatimizning kelajakdagı ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Turli yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyatining ijodkorlikka yo'naltirilganligini to'laqonli tarzda o'rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki munosabat shaxsning mayllarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu asnda shaxsning kasbiy yo'nalgaligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchilarining o'qituvchilik kasbini tanlash omillarini tahlil etar ekanmiz, kasbiy faoliyatning ahamiyatini talabalar qay darajada anglashlariga e'tibor qaratdik. Shu asosda quyidagilarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik: – o'quv predmetiga nisbatan qiziqishning mavjudligi; – muayyan predmetning o'zlashtirish istagini mavjudligi; – o'zini o'quvchilarga, ta'lif-tarbiya berishga bag'ishlashga intilishning ustunligi; – o'zining pedagogik layoqatini anglashi; – oly ta'lif olish istagini kuchliligi; – o'qituvchilik kasbining jamiyat uchun muhimligi haqidagi tasavvurining mavjudligi; – pedagogik ijodkorlikka moyillikning mavjudligi; – moddiy jihatdan ta'minlanish ehtiyojining kuchliligi kabilar. amin hozirlash kabilar. O'rganuvchilarining ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashning natijalari ularning o'ziga xosliklari va ijodiy sifatlarini chuqurlashtirishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy fikrash o'z navbatida o'rganuvchilarni:

- mustaqil va ongli ravishda bilim olish;
- doimo olg'a intilish;
- turli ziddiyatlari va muammoli vaziyatlarni oqilona hal etish;
- noan'anaviy va yangicha fikr yuritishga o'rgatadi.

Ijodiy faoliyat – tafakkur, fikrash shakllari bo'lib, ular qobiliyat, layoqat, havasni tarbiyalash yo'li bilan rivojlantiriladi, yangilik, ijodkorlik ijodiy faoliyat belgilari hisoblanadi. Asosiy xulosa shuki, agar talabalarda ijodiy tafakkur haqidagi tasavvurlar kengaysa, kreativ faoliyatni motivatsiyasi anglangan bo'lsa va professional tayyorgarlik bo'yicha maxsus korreksion metodikalar qo'llanilsa, ularda ijodiy-kreativ tafakkur yuritishga tayyorlik darajasi izchil o'sib boradi. Shuningdek, talabalar ilmiy-ijodiy izlanishlari, iqtidorli talabalarni qo'llabquvvatlash, fan olimpiadalari, talabalar ilmiy konferensiyalari, ilmiy va badiiy to'garaklarning samaradorligi ham ularda ijodkorlikka qiziqish va motivatsiyani hamda tegishli malakalarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Shamshetova A.Melibayeva R va boshqalar.Umumiy psiologiya fanidan UMK,2016.
- 2.G'oziyev E.G' .Umumiy psixologiya. Darslik.-T.:0'zbekis-ton faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
- 3.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005yy)
- 4.R.N.Melibayeva.Tafakkurni rivojlantirishning interfaol usul-lari.Monografiya.“Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2013-yil.
- 5.DavletshinM.G.,To'ychiyevaS.M.Umumiy psixologiya.-T.: TDPU,2012.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA SYUJETLI-ROLLI O'YINLAR VA SAHNALASHTIRISH MARKAZINING AHAMIYATI

Kattaho'jayeva Sh. B.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishda rivojlantirish markazlaridan foydalanish masalasi asosiy masalalarning biriga aylandi. Bu esa barcha maktabgacha ta'lif tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lif tashkilotining Davlat o'quv dasturini amalda qo'llash bilan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyachisi Davlat talablarining rivojlanish sohalari mazmuni asosidagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari" asosida amalga oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar juda qiziquvchan va faol bo'lganliklari uchun tarbiyachilar o'yinli faoliyatdan samarali foydalanishadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixoglarning taa'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'mmini topishi, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yinli faoliyat jarayonida bola erkinlikni his qilishi natijasida uning ichki xarakteri namoyon bo'ladi va u ijtimoiy xayotdagи voqeа hodisalarни o'zida bajarib ko'rish ishtiyoqi bilan o'yinga kirishib ketadi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi. Shu bois maktabgacha ta'lif tashkilotlarida eng faol markazlardan biri Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi xisoblanadi. Markazning asosiy vazifasi bolalar atrof-olamda nimalar sodir bo'layotganini anglashi, dunyoqarashi shakllanishi va ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinalarini tushunib yetishlariga yordam beradi.

Markaz bolalar iqtidorini namoyon bo'lishiga, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhit. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Bolalar rivojlanishida ushbu markazdagi har bir jihoz ,har bir ko'rgazmali materiallar aynan shu faoliyatda bolaning bemalol harakatlanishiga imkon beradi. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega. O'yinlarda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkon mavjud. Mohir tarbiyachilar bolalarni oilasidagi barcha muammolar, nizolar yoki qandaydir bayramlardagi oilaviy so'zlashuvlarni aynan mana shu o'yinli faoliyat orqali bilib olishlari mumkin, ya'ni bir so'z bilan aytganda oila muhitini bolaning o'zi namoyish etib beradi. Ushbu markazda voqeaband-rolli o'yinlar: "Bolalar bog'chasi", "Oila", "Do'kon", "Kasalxona", "Sartaroshxonan",

“Shifokor”, “Oshxona” hamda qo’shimcha aptechka, shirma, kushetka, ko’zguli javon, oshxona mebellari to’plami, ro’mol, fartuk, dazmol stoli, bolalar dazmoli, bolalar tikuvchi jamlanmasi, javon (sotuvchi uchun peshtaxta), hayvonchalar (turli xildagi), qo‘g’irchoq, barmoq, soya teatri va ertak qahramonlari, aravacha (qo‘g’irchoq uchun), yuvintirish jihozlari (qo‘g’irchoq uchun), qo‘g’irchoqning uyi, qo‘g’irchoqlar (turli xilda), bolalar tikuv mashinasi qo‘yiladi. Markaz bola uchun qulay va havfsiz bo‘lishi ham lozim.

Markazning yana bir muhim jihat shundan iboratki shu markazning o‘zida bolalarga teatr qo‘yish ularni ertaklar bilan tanishtirish, ertaklarni ularning o‘zi sahnalashtirishi ham mumkin bo‘lib, bolaning nafaqat oilaviy balki tashqi muhit omillari bilan ham tanishish imkonini beradi.

Bolalarga teatr qo‘yishdan maqsad bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an’analarimizni singdirishda, ularga shu aziz Vatan barchamizni ekanligini uqtirish, har tomonlama ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda, tevarak-atrofda bo‘layotgan voqealarni, o‘zini odobidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab avaylash, unga mehr uyg‘otishda qo‘g’irchoq teatrining ahamiyati kattadir. Chunki teatrda tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko‘rib, tinglabgina qolmay balki unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar qo‘g’irchoq teatrini ko‘rganlaridan so‘ng, qaxramonlarning harakati, axloqi, adobini birgalikda muhokama qilish, bola qalbida ezgulikka, xayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish to‘yg‘usini tarbiyalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xatti-harakatlarini shakllantirish uchun biz tarbiyachilarga bolalarning munosabatlarini syujet-rolli o‘yinlar orqali yetarli darajada pedagogik tartibga solish bo‘yicha ushbu tavsiyalarni keltiramiz:

Avvalambor syujet-rolli o‘yinni biz bolalarga savol berish bilan boshlaymiz “Siz qanday syujet-rolli o‘yin o‘ynashni xohlar edingiz?” va “kim bilan?” v.h. Shu yo‘l bilan biz bolalarni o‘zaro muloqotga kiritamiz (Malika Shoira bilan yoki Anvar Behruz bilan). Bunday muloqotlar tarbiyachi tomonidan boshqarilishi va albatta rag’batlantirilishi kerak;

1. Tarbiyachi o‘z o‘yinini taklif qilishi va shu bilan birga bolalarning qiziqishini uyg‘otish uchun o‘zi ham kichik syujetni o‘ynashi mumkin;

2. Tarbiyachi o‘yinni ohistalik bilan boshqarishi, bolalarning ijobiy munosabatlarini va rolni muvaffaqiyatli bajarishlarini ma’qullashi hamda nizolarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak (ayniqsa o‘rtasida nizosi bor bolalar bilan);

3. Tarbiyachi syujet-rolli o‘yinlarda birinchi asosiy rolda bo‘ladi so‘ng ikkinchi darajaga o‘tishi kerak;

4. Bolalarni rag’batlantiring. O‘zingiz xohishingizga ko‘ra hamkorlikdagi o‘yiningizni tashkil qiling. Tarbiyachi bolalarni istagini qo‘llab-quvvatlashi va rollarni tog’ri taqsimlab, atributlarni to‘g’ri tanlashiga yor berishi kerak.

5. Bolalarning birgalikdagi syujet-rolli o‘yinini quvnoq, yoqimli taassurotlarini mustahkamlash uchun tarbiyachi guruhning boshqa bolalarining ham e’tiborini syujet-rolli o‘yinga qaratishi kerak.

6. Kechki payt ota-onalari bilan bo‘lgan suhbatda bolalar ishtirokida ularning syujet-rolli o‘yinlarini muhokama qilib “yaxshi o‘yin” o‘ynashganini aytish lozim.

7. Hafta davomida ushbu syujet-rolli o‘yinlarni bolalar bilan eslab turing.

Bola psixikasining taraqqiy etishida o‘yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o‘yin faoliyatjisiz tasavvur qilishimiz qiyin, chunki o‘yin orkali bola faqat jismoniy tomonidan emas balki psixologik tomonidan ham rivojlanadi. O‘yin orkali bola olamni undagi narsa xodisalarni ulardagisi xos xususiyatlarni o‘rganibgina qolmay, balki nutq so‘zlashishga mustaqil fikrashga hayol qilishga ijod qilishga muomala madaniyatiga o‘rganadi.

Ko‘pchilik psixologlar va pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita shugullanib o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alovida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti T.:2018.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi.– T.:2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirining 2019-yil 30-avgustdaggi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to'g'risida"gi 155-sonli buyrug'i asosida "Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimalarining ish hujjatlarini yuritish bo'yicha yo'riqnomasi" T.:2019
4. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yildigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini joriy etish bo'yicha trenerlar uchun qo'llanma. – T.: 2019.

MAKTABGACHA TA'LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USLUBIYATLARI

Kurbanova R.

Namangan viloyati, Yangiqo`rg`on tumani,
Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi
36 - maktabgacha ta'lim tashkilot direktori.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim maskanlarida nazariy yoki amaliy ishlarni yechishda barcha tahlil qilingan uslublaridan samarali foydalanishni taxmin qiluvchi rivojlanuvchi texnalogiyalarni tezlik bilan qidirish va mavjud bo'lgan an'anaviy texnalogiyalarni takomillashtirish-reprodukтив olib borilmoqda. Maktabgacha ta'limda rivojlanuvchi texnalogiyalar deb, ta'limiy tomonda ko'zlagan maqsadlarni foydali amalga oshirishga imkon yaratuvchi tarbiya va ta'lim tizmining nazariy asoslangan uslub va vosita qurilishini amalga oshirish nazariyasi tushuniladi. Maktabgacha ta'limda rivojlanuvchi texnologiyalardan samarali foydalanishda ta'limiy ko'zlangan maqsadlar bir xil berilib, ularning ketma-ketligi turli xil o'zgarishlar va maqsadlarga erishilgan natijalarni oxirgi baholash mezonining saqlanishiga bir xil turda ta'limiy tashkillashtirishni asosiy maqsad sifatida mo'ljallaydi. Maktabgacha ta'limda rivojlanuvchi pedagogik texnologiyalar ta'limiy tizimiga, shuningdek, bolaning psixologik rivojlanuvchi jarayoniga, ularning ijtimoiy xususiyatlari, ijodiy qobiliyatlari va ruhan rivojlanishiga yo'naltirilgan.

Ta'lim sohasini insonparvarlashtirish muhitlarida rivojlantiruvchi texnologiyalar psixologik tarafdan bolani ijodiy boshqarish, to'g'riroq'i ularni qanday bo'lsa, shu holicha boshqarish; ijobjiy-shaxsiy olamiga yo'nalganlik; bolaga olam tarafidan xadya etilgan fazilatlarni aniqlash va ochish; hozirgi kelajak takomillashish tizimida o'qitish; erkin ravishda tarbiyalash; ijtimoiy tomondan ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlash; maktabgacha bo'lgan o'quvchilarining yoshi vaqtining muhim yetakchi jarayoni-asosan o'yin faoliyatidan foydalanish; ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini ishga tushirish barcha vaqt baholashni, natijasini va ushbu tizmi tahlilini amalga olishni majbur etilganligi tufayli har xil rivojlanuvchi texnalogiyalarni diagnostik tomondan tufayli qurish zarur. Ta'lim sifatiga o'quvchining bilim olish natijasiga shunchalik amalga berilganligiga uзвiy bog'liqdir. Rivojlanuvchi pedagogik texnalogiyaning rivojlanishi o'quvchiga nisbatan muhim ne'mat sifatida qarash, bolaga nisbatan ishonish, ham unga yuqori mutaxassis sifatida uni tan olish, bolaning hamma qonun-huquqlarini mustahkamlash muomalalari bilan ehtiyojlarini ta'minlash zarur.

Maktabgacha ta'lim sifatini yo'naltirish mezonini, ya'ni yuqoridan mustahkamlab qo'yilgan ta'lim yoki o'quv maqsadlariga erishishda bolaning bilim bilish jarayonini nazorat qilish va koreksiyalashning ko'plab qonunlar sohasini o'rganish bilan aniqlash shart. Mamlakatimiz ta'lim texnalogiyasi, o'quv maqsadlari doimo o'zgarib turishi, vakolatli kirishish yordamida bunyod etilgan federal mamlakat o'quv o'quv mezonlarini takomillashtirish bilan uзвiy bog'liq muammolarni hayoti davomida boshdan kechirmoqda. Muammolar paydo bo'ladi va muhim ta'lim

tizimida individual jihozlarni tubdan ko'rib chiqish uchun vaqt soni kamaytiradi va ushbu voqealarning hammasi yangicha qonun,ijtimoiy ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqarish va amalgam oshirish bilan uzviy bog'langan o'qitish uslublari va o'quv tizimlari va o'rgatish usullari va shakllarini izalshni talab qiladi.Bor rivojlanuvchi texnologiyalarni sifatli qo'l va bilim tomonidan ongli ravishda erkin tanlsh uchun va shuningdek,ta'lif va tarbiyada ma'qul natijalarni qo'lga kiritadiganlar asosiy ahamiyatga qodir bo'lganlar asosiy fazilatlarni anglab yetish zarur.

Bolalarga yana tabiat qoyniga uyihtirilgan sayohat natijasida o'quvchilar jonli va jonsiz tabiat tushunchasini anglab yetadilar. Ona tabiatning beqiyos go`zalligi, to`gu-toshlari qir-adirlari, bog-rog`lari moviy osmon, quyosh, oy, yulduzları ularga zavq bagishlaydi. Shu tuproq, ro`yi zaminni borliqni e`zozlash, unga mehr-muhabbatli bo`lish tushunchalari shu tarzda singdirib boriladi, tabiatni asrash burchimiz ekanini tushuntiriladi. Shu orqali ma`naviyatli inson shaxsni tarbiyalashga dastlabki qadam tashlanadi. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 50-moddasida: "Fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ahamiyatkoroni munosabatda bo`lishga majburdurlar" yoki 55-moddasida: Yer, yer osti boyliklari, suv o`simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boyliklar ulardan oqilona foydalanish zarur ular davlat muhofazasida deyilgan. Ushbu moddalarni o`qib berish orqali bizning yurtimizga tabiat va uning ne'matlari qonun himoyasida ekanligi va biz ham unga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lishimiz lozimligini o'quvchilarga yoshligidanaoq boshlab tushuntirib o'tiladi. Bolalar go`zal shaharlar, diqqatga sazovor joylarga sayohat uyshtirish ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakillantirishga yordam beradi, tabiatga bo`lgan muhabbatini o'sishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Sifatli rivojlangan o'quv tiziming doirasida rivojlanuvchi interfaol va interaktiv texnologiyalardan keng foydalanish joriy etilgan. Hozirgi kunda ijtimoiy aloqa texnologiyalarning ya'ni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tezlik bilan takomillashishi, maktabgacha bo'lgan o'quv tizmining hamma turlarining ahamiyati va shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar vujudga kelmoqda. Bular esa o'z navbatida yangicha ta'lif jarayonlarida o'z aksini topadi. Ushbu maktabgacha bo'lgan o'quv maskanlari ta'limga interfaol o'qitish va interfaol texnologiyalarni tadbiq etish uchun standart talablari hisoblanadi. Maktabgacha bo'lgan o'quvchilar uchun zamонави kompyuter texnologiyalarini yangicha, foydali va keng qamrovli tizmida tadbiq etish ongli nutq sifatini oshirish, ekologik, estetik, matematik takomillashish kamchiliklarini yechishga yordam beradi, shuningdek, ijodkorlik, tasavvur, xotira tizim ko'nikmalarini, mantiqiy nutqni takomillashishga yordam beradi. Boshqa tomonidan interaktiv ta'lif tizimidan keng foydalanish ta'lif sohasining har bir qatnashchisining boshqarishning yoki bo'lmasa, har bir fikrni mustanso qiladi. Har tomonlama rivojlangan zamонави aholining takomillashishi rivojlanish xabarları tajribasini, pedagogik izlanishlarni bir joyga birlashtirish va ta'lif faoliyatlarini tubdan o'zgartirib, uni tashkil qilish talab qiladi va bu kamchiliklarini yechimlarini hal etish sohalaridan biri o'quvchilar bilan tarbiyaviy faoliyatlarini mustahkamalashni muhim yondashuvi hisobblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Tolipov O'. ,Usmonboeva M.Maktabgacha ta'linda pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari.T.: "Fan".2006.
- 2.Istanko I.V. Katta maktabgacha yoshdagagi bolalar // Maktabgacha tarbiya menejmentidagi faoliyati ta'lif muassasasi, 2004.
- 3.Patanko I.V. Maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan loyihaviy faoliyat. "Maktabgacha ta'lif muassasasi" журнали №4. 2004.
- 4.Madumarov T., Kamoliddinov M. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va va uni ta'lif-tarbiya jarayonida qo'llash. T.: "Talqin", 2012.

RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARI TARBIYACHILARINI AXBOROT KOMPONENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN PLATFORMA

Mavlonov N.Sh.

MTTDMQTMOI "Maktabgacha ta'lismenejmenti" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Ta'limga ko'maklashish uchun raqamli, elektron texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan elektron ta'lism o'quv jarayoniga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi, chunki hozirgi kunlarda masofa sifatli va jahon darajasida ta'lism olish uchun to'siq emas. Ta'lism jarayonida innovatsion usullarini va dasturiy-texnik vositalarini qo'llashga alohida ahamiyat berilmoqda. Yillar davomida ta'lism berishning bir qancha usullari, texnologiyalar va dasturiy-texnik vositalari vujudga kelganki, ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda ta'lism berishning rivojlanish bosqichiga o'tib borishi yani turli xil platformalarni shakillanib borishi ta'lism sifatini sezilarli darajada oshirganligiga guvoh bo'lishimiz mumkun. Bugungi ta'lism dasturlari bilan boyitilgan platformalarda pedagog o'zining kasbiy va shaxsiy kompetensiyalari bilan birqalikda axborot kompetensiyalarini uzluksiz ravishda rivojlanirib borishlari mumkin bo'ladi. Shuningdek, Platformalar malaka oshirish tizimida tinglovchilarga qulay imkoniyatlarni yaratadi.

So'nggi paytlarda ajoyib xususiyatlarga ega bo'lган ko'plab platformalari bozorni to'ldirdi, bu ma'lum darajada onlayn kurslarni o'tash niyatida bo'lган juda ko'p pedagoglar E-learing platformasi haqida bosh qotirdi.

Platforma bu (frans. plate-forme, plat — yassi va forme — shakl) ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ilgari suriladigan dastur.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "[tarbiyachiakr.uz](#)" platformasiga to'xtalamiz.

Mazkur platforma maktabgacha ta'lism pedagoglari uchun qisqa muddatli maxsus kursi; 24 soatga mo'ljallangan maxsus axborot kompetentlikni rivojlanirishga yo'naltirilgan dastur; qo'shimcha o'qish uchun materiallar, raqamli ta'lism va tarbiya resurslari bilan ta'minlaydi. Bularning bari "Ilk qadam" maktabgacha ta'lism davlat o'quv dasturi va O'zbekiston Respublikasining erta va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishi bo'yicha davlat talablari asosida ishlab chiqilgan.


Tarbiyachilar – bola hayotiga eng ko'sir ko'rsatadigan shaxslardan biri. Ular qisqa muddatli maxsus kurslarida o'qib, yangi bilim va ko'nikmalarini egallashlari va uni o'z ish faoliyatlarida qo'llashlari mumkin bo'ladi. Tarbiyachilar zamonaviy va ilg'or ta'lism amaliyotlaridan foydalanganda bolalar jismoniy, hissiy va ta'limiyl jihatdan o'sishga erishadi. tarbiyachilarimizning nafaqat axborot kompetentligi balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun katta qulayliklar taqdim etadi.

Raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachilarning axborot kompetentligini rivojlanirish dib nomlangan platformaga "[tarbiyachiakr.uz](#)" sayt manzili orqali kiriladi. Platformaning birinchi interfeys oynasida foydalanuvchilar uchun yo'riqnomalar kontenti mavjud bo'lib ushbu kontentga murojat qilgan foydalanuvchi platformadan foydalanish bo'yicha algoritmi ko'rishi va undan foydalangan holda o'zini qiziqtiradigan bo'limlarga murojat qilishlari mumkin bo'ladi. Ushbu bo'limlar Maxsus kurs, yangiliklar, statistika, muallif haqidagi ma'lumotlar va muallif bilan bog'lanish maqsadida aloqa bo'limlari mavjud. Maxsus kursni boshlash istagida bo'lган foydalanuvchi birinchi navbatda platformadan ro'yhatdan o'tishi zarur bo'ladi. Yana shularni qo'shimcha qilib o'tish joizki birinchi interfeys oynasida tajriba sinov ishlaridan lavhalar, tajriba sinov ishlarida ishtirok etgan responditlarning platforma to'g'risidagi fikir va mulohazalari hamda foydali havolalar berib o'tilgan.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish platformasiga kirishda “tarbiyachiakr.uz” saytiga murojat qilamiz.

Keyingi etabda yo'riqnomaga bo'limini tanlaymiz va kursorni mazkur bo'lim ustiga olib kelgan holda meshkaning chap tugmasini ikki marta bosish orqali bo'limga murojat qilamiz.

Ro'yxatdan o'tish jarayoni yakunlangach maxsus kursni boshlashimiz mumkun bo'ladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun rasimda ko'rsatilgan kursga o'tish tugmasiga bosamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sон Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-sentyabrdagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4452-sон Qarori.
3. Aripov M. Axborot texnologiyalari-Toshkent, 2009.
4. Maktabgacha ta'lifi vazirligi rasmiy veb-sayti — www.mdo.uz.
5. “Tarbiyachiakr.uz” platformasi.

TA'LIM KLASTERI MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING METODIK ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Muminova M. Y.

Toshkent viloyati, Chirchiq Davlat pedagogika
institute, Ta'lim muassasalarining boshqaruvi
yo'nalishi 2-kurs magistranti

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatlari, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, olyi ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralar kuchaytirildi, olyi o'quv yurtidan keyingi ta'limga ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2017-yilga qadar turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni matab ta'limga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, mustaqillikdan so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati olyi ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi to'g'ri va haqqoni yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan ediDarhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi shuningdek, "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning qamrovi 10 foizga oshishi, 2018 yilda esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlash xarajatlari joriy yilga nisbatan 32 foizga o'sishi kutilmoqda. Bugun milliy pedagogikada keng qo'llanilayotgan metodlar bola va tarbiyachidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida zarur bilimlarni bolaga yetkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash tarbiyachidan yuksak

pedagogik mahoratni talab qiladi. Bu albatta ta’lim tizimidagi MTT, maktab, professional ta’lim, OTM, oliy ta’limdan keyingi ta’lim o’rtasidagi uzlusiz aloqa zanjirini mustahkamlash, ya’ni ta’lim klasterini yaratish orqali MTTlarda metodik ishlar samaradorligiga erishish mumkinligini ko’rsatdi. Shuning uchun ham yurtboshimiz hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizni «Klaster usuli»da rivojlantirish bo'yicha qo'yan maqsad va rejasiga asoslangan holda, xuddi shu usul bilan OTM va boshqa o'quv yurtlarida "Raqobatbardosh kadr tayyorlash klasteri" ni tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimining eng quyi bo‘g’ini bo‘lmish maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirish, ta’lim sifati samaradorligiga erishishda ta’lim klasteri usulini qo‘llash, ushu soha xodimlari faoliyatini yuksaltirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish bugungi kun maktabgacha ta’lim tizimiga yuksak salohiyatlari, malakali pedagog kadrlarni yetkazib berish masalasi ta’lim klasterini to‘g’ri yo‘lga qo‘yish kerakligini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoni yivojantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabr, “2017 — 2021 yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2707-son hamda 2017 yil 9 sentyabr, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3261-son, 2018 yil 30 sentyabr, “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3955-son kabi qator qaror, qonun va qonun osti hujjalari yaratildi.

Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, so'ngra maktabgacha ta’lim muassasasida amalga oshiriladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag’ishlangan marosimdagagi ma’ruzasida “Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug’ ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bolishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq». Qarang, qanday bebahoh, oltunga teng so‘zlar!” deya ta’kidlashlari har birimizning ko‘nglimizdagi gaplar ekanligi shubhasiz quvontiradi.

Ushbu fikrlar maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ham taalluqlidir.

Ta’lim klasteri: Zanjir ichidagi gorizontal ulanishlarga asosangan ta’lim-texnologiya-ishlab chiqarish innovatsion zanjiridagi o‘qitish, o‘zaro ta’lim va mustaqil o‘qitish texnologiyalari.

Ilmiy-ta’limiy klaster: uzlusiz ta’limning bog’chadan maktabdan ishlab chiqarishgacha bo‘lgan yagona tizimi.

Ta’lim klasteri: Ish beruvchilar va o‘quv yurtlarining o‘zaro o‘tuvchi dasturlar majmuasi yordamidagi aloqasi.

Pedagogik ta’lim klasteri- muayyan jug’rofiy hududning raqabotbardosh pedagogic kadrlarga bo‘gan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub’ektlar texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizmi.

Pedagogik jarayonlarda tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ya’ni subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshiriladi va mazkur jarayonda o‘zaro ta’sir etish madaniyati shakllanib, rivojlanib boradi. O‘zaro ta’sir etish madaniyatining rivojlanishi ta’limiy muhitda innovatsion o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik jarayonlarda innovatsiyalar o‘zaro ta’sir madaniyatining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o‘zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham belgilanadi. Bu o‘z navbatida innovatsiyalarning sifatini va ahamiyatliliginini

belgilash bilan bir qatorda, vaziyatlarga ko'ra ularni tatbiq etish vaqtlarini ham oldindan belgilaydi. O'zaro ta'sir madaniyati umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma'lum bir ijtimoiy madaniyat kontekstida tushunchalar, shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar – an'anaviylik, dolzarblik darjasи, motivlashtirish tizimi, rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati, kommunikatsiyalar, personalni boshqarish, boshqaruv strategiyasi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning kasbiy hamda shaxsiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo'лади.. Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish tarbiyachilar mahoratini oshirish avvalo ularning maxsus kasbiy salohiyatiga bog'liq. MTTning ijtimoiy buyurtmasi asosida OTMlarda raqobatbardosh yetuk kadrlarni tayyorlash orqali ta'lim klasterini amalga oshirish, MTTlarda metodik ishlar samaradorligiga erishishda yuksak omil hisoblanadi.

Pedagogik ta'lim klasteri tizimda mavjud muommolarni, o'z nabvatida uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga imkoniyat yaratadi Maktabgacha ta'lim tizimida rivojlantirishning klaster modeli ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, tarbiyachi kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim –tarbiya uzviyigli bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. Eurasian education science and innovation journal, 1(22), 15-19.
2. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.
3. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804.

KOMPETENTSIYA VA UNGA YONDASHILGAN TA'LIM

Nigmatova G. N.
MTTDMQTMOI "Maktabgacha ta'lim
menejmenti" kafedrasи katta o'qituvchisi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi PP-1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tidbirlari to'g'risida"gi qarоридан [1] kelib chiqqan tarzda Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillar bo'yicha Davlat dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida mamlakatimizda yangi tipdagi Davlat ta'lim standartlari (DTS)ga "kompetentsiya" so'zi kiritila boshlandi [2]. Buning asosiy sababi BMT tomonidan umume'tirof etilgan "Barqaror rivojlanish ta'limi"da uning barcha turlari yoki bosqichlarida tayyorlov davlat talablari asosida ta'lim oluvchining "kompetentlik darjasи"ga erishishdan iborat edi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishlari ham bundan istesno emas, albatta.

Kompetentsiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u inglizcha "competence", ya'ni "mahorat", "qobiliyat" degan ma'nolarni anglatadi [3]. Kompetentsiya – shaxsni muayyan mahorat va qobiliyat darjasiga egaligi. Uni shaxs hayot faoliyatining turli jabhalari, jumladan ta'lim uchun ham ishlatish mumkin. Kompetentsiya degan tushunchani ta'limga ilk bor BMTning YuNESKO tashkiloti qoshida tuzilgan E.For boshchiligidagi komissiyaning 1972 yildagi "o'qimoq" degan ma'ruzasi orqali kirgan [4]. Komissiya o'zining "Hayot uchun ta'lim" kontseptsiyasida uzlusiz ta'lim jarayonida kishini kompetentligini to'rt darajada baholashni taklif qilgan [5]:

1. Bilimlardan foydalanmoq – ta'lim oluvchini keng umumiy bilimlar orqali tor doiradagi chuqurlashtirilgan holda mehnat qilishga tayyorlash;

2. Ishni bajarmoq – ta’lim oluvchini standart shaxsiy ko’nikmalardan tashqari komanda bilan ishlashga tayyorlash;
3. Birgalikda yashamoq – ta’lim oluvchini o’zgalarni tushunish va mojarolarni hal qilishga tayyorlash;
4. Rivojlanmoq – ta’lim oluvchini shaxsiy hislat va imkoniyatlarini rivojlantirish orqali “inson resursini” ko’paytirishga tayyorlash.

Bunday kompetentlik darjasini egallash kishining butun hayotiy faoliyati davomida amalgalashadi va unga shaxsiy yoinki kasbiy muammolar tug’ilganda ta’lim olish imkoniyatini beradigan o’rganish yoki o’rgatish holati. Keyingi 10-15 yil ichida pedagogika fanlarida kompetentlikka qaratilgan dissertatsiyalar va maqolalar soni keskin ortgan. Lekin hanuzgacha uning asl ma’nosiga oid juda ko’p fikr va mulohazalar mavjud. Odatda:

- fanda – har bir hodisa, jarayon, holat yoki voqeani ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bera oladigan tadqiqotchi;
- ta’limda – rasmiy ta’lim normativ-hujjalarda belgilangan talablarga mos bilim, ko’nikma va malakaga ega bo’lgan va ularni o’z hayot, jumladan mehnat faoliyatida qo’llaydigan kishi.
- amaliyotda – hayot, jumladan mehnat faoliyat tajribasiga ega bo’lgan, o’z sohasida kishilarga ustozlik yoki murabbiylilik qila oladigan shaxs;

Lekin milliy ta’lim tizimida ushbu atamani qo’llashda turlicha talqin qilinmoqda. Masalan, birinchisi – nazariy jihatdan olgan bilimlarini amalda qo’llay olish, deb tushuncha berish. Ikkinchisi – kompetentsiyani bilim, ko’nikma va malakalardan ajratib ko’rsatish. Endi kompetentsiyaga alohida e’tibor berib, o’quvchilarda tayanch va xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish kerak emish. Bu ham kompetentsiyani noto’g’ri talqin qilishdir. Lekin, ta’lim oluvchi bilim, ko’nikma va malaka olmasdan muayyan bir kompetentlikka ega bo’la olmaydiku! Milliy ta’lim tizimida o’qitiladigan barcha o’quv kurslari DTS va o’quv dasturlarida o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar va ularni baholash mezonlari mavjud. Ushbu bilim, ko’nikma va malakalar keng qamrovli bo’lib, ularni 100 foizga faqatgina eng iqtidorli o’quvchigina o’zlashtirishi mumkin. Baholash esa 86–100% o’zlashtirgan o’quvchilarga a’lo, 71–85% o’zlashtirganlarga yaxshi, 56–70% o’zlashtirganlarga esa qoniqarli baho qo’yiladi. Afsuski, ta’lim jarayonida mavzularni o’tishda va o’quvchilarni baholashda dasturda belgilangan talablarga hamda baholash mezonlariga rioya qilishga e’tibor susaygan.

Amaldagi darsliklar qanchalik mukammal bo’lsa-da, agar o’quvchilardan egallagan bilim, ko’nikma va malakalar talab darajasida nazorat qilib borilmasa, bunday darslikni o’qishga ham hojat qolmaydi. Darslikni o’qimasdan yoki nomigagina o’qib, baho olishlari mumkin. Albatta, o’z ustida ishlaydigan, intiluvchan o’quvchilar bundan mustasno. Shuning uchun har bir fan bo’yicha o’quv dasturida yirik mavzular yoki o’quv yili oxirida keltirilgan o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar, shuningdek, baholash mezonlariga rioya qilinishi zarur.

Xo’sh, kompetentsiyani qanday talqin qilmoq kerak? O’quv dasturida belgilangan bilim, ko’nikma va malakalarning o’zi kompetentsiyaning tizimlashgan elementlaridir. O’quvchi o’qish jarayonida egallaydigan bilim, ko’nikma va malakalarni o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo’llay olishni anglagan holda ta’lim olgandagi ularda kompetentsiyalar shakllanadi. Buning uchun o’quvchi o’z vaqtida, ya’ni har bir darsda, har bir chorakda, har bir o’quv yili davomida bilim, ko’nikma va malakalarni bosqichma-bosqich egallab borishi talab etiladi.

Mamlakatimizda turli sohalarda qanchadan-qancha o’z kasbining ustalari – kompetentli yoki mahoratlari kishilar faoliyat ko’rsatmoqdalar, oliy o’quv yurtlarida ko’plab iqtidorli yoshlar tahsil olmoqdalar, kasb-hunarni egallayotgan yoshlar ham talaygina. Ularning barchasi o’qish-o’rganish jarayonida bilim, ko’nikma va malakalarni nima uchun ta’lim olayotganliklarini anglagan holda o’z vaqtida bosqichma-bosqich puxta egallab borishmoqda. Shu kungacha dunyo tajribasida yig’ilgan barcha tajribalarni umumlashtirgan tarzda ta’lim – kishini hayotga, jumladan mehnatga tayyorlash uchun unga tizimlashgan, muddatli, rasmiy, tegishli, bilim, ko’nikma, malaka-kompetentsiya berish vositasi, deyish mumkin.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, ta’lim jarayonida o’quvchilarda “kompetentsiyani shakllantirish” emas, balki “kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim” deyish har jihatdan o’rinlidir. Unga quydagicha ta’rif berish mumkin: Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – kishini layoqati va qobiliyatiga monand ravishda unga rasmiy, tizimlashgan, muddatli, tegishli mahorat (bilim, ko’nikma, malakan) berish va ma’naviyatni (umuminsoniy va milliy qadriyatlarni) singdirish orqali uni hayotga, jumladan kasbga tayyorlash vositasi. Shuning uchun ham Barqaror rivojlanish uchun ta’lim aynan ta’limni tizimlashgan bosqichlari doirasida kishini muayyan bir kompetentlik darajasida tayyorlash deyish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda kollej, bakalavr, magistr, fan doktorini diplomi yoki uning kasbiy klassifikatordagagi shifriga qarab emas, balki kompetentlik darajasiga qarab ishga oladi. Buning uchun har bir ish beruvchi idora, korxona, tashkilot yoki muassasada ishga oluvchining kompetentlik darjasini egallashi mumkin bo’lgan lavozimiga qarab differentsiallashgan tarzda komp’ryuterdagagi testlar, og’zaki muloqatlar va prezentatsiyaviy baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Baholash mezonlari ish beruvchining kasbiy yo’nalishiga qarab turlicha bo’ladi va uni qo’llash mexanizmi o’ziga xos ko’rinishga ega. Shuning uchun ham har bir ta’lim muassasining DTS, o’quv reja va dasturlari ish beruvchi bilan kelishilgan va ularning ekspertizasidan o’tgan tarzda rasmiylashtiriladi.

Maktabgacha ta’lim uchun 2022 yilda qabul qilingan “Ilk qadam” davlat o’quv dasturining 3bobi aynan “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv”da bolajonlarning tayanch va xususiy kompetentsiyalari belgilab berilgan. Unda kompetentsiya – bolaning bilim, ko’nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir, deyilgan. Kompetentli bola o’z bilim, ko’nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo’llashi, o’z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin ekan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog’liq bo’lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlanish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy (“Men” kontseptsiyasi)ni shakllantirishni o’z ichiga oladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish faoliyatining yaxlit rivojlanish tizimini yaratish va atrof-olamni tubdan idrok etish imkonini beradigan tizimli integrasiya jarayonini ta'minlash maktabgacha ta'lim tizimidagi har bir pedagogning vazifasidir.

Shuningdek, bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim muhiti – shaxsga yo'naltirilgan yondashuv demakdir.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagog e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, unda nafaqat intellektual qobiliyatlar va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lган e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lган ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Pedagog har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya – bu:

- tarbiyanuvchi va pedagog o'rtasidagi samimiyl hamkorlik munosabatlarini;
- kun davomida amalga oshirilayotgan faoliyatdan tarbiyanuvchi ham, pedagog ham ijobjiy emosional qoniqish olishni;
- muloqot va mehnat orqali ijobjiy natijalarga erishish hissini;
- o'ziga va do'stlariga yordam berish ko'nikmasi kabilarni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi.

Barchamizga ma'lumki, nafaqat bo'lajak kasb egasi, balki, ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lган mutaxassis uchun ham o'z malakasini uzlusiz rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Malaka oshirish jarayoni kattalar (andragogika) ta'limi bilan bog'liqligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, o'qituvchi mahorati orqali tinglovchilarda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosida yosh barkamol shaxsni tarbiyalashda xizmat qiladi.

Andragogikada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarishning ayrim vazifalarini ko'rib chiqamiz:

- shaxsning nidiyvial kamol topishi uchun zarur bo'ladigan hayotiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- muammoli topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishda va boshqarishda muammoli ta'lim turlari hamda mustaqil ta'lim turlarining ahamiyati kattadir. Muammoli ta'lim turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Mavzuga oid muammoli vaziyatni yaratish.
2. Mavzu doirasida muammoning qo'yilishiga e'tibor qaratish.
3. Dolzarblik nuqtai-nazaridan muammoning yechimini topish.

Mazkur ta'lim turidan har qaysi fan o'qituvchisi samarali foydalana oladi. Dars jarayonida muammoli vaziyatdan qay tartibda foydalanish o'qituvchi yondashuviga, uning ijodkorligiga bog'liq bo'ladi.

Dars jarayonida muammoli vaziyatdan foydalanilganida, tinglovchida qiziqish, e'tibor berish, vaziyatni hal qilishga bo'lган intilish namoyon bo'ladi.

Masalan, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalari va kichik sohalarni ajratib ko'rsatish taklif etiladi.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish ning samaradorligini aniqlash mezonlarini ko'rib chiqamiz:

- o'qituvchi o'z kasb mahoratini muntazam oshirib boradi, ijodiy faoliyati ortadi;
- tarbiyachining tarbiyanuvchilar bilan individual ishlashga xohishi ortadi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar o'rtasida monitoring qilish imkoniyati paydo bo'ladi;

- tarbiyachining bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etishi va boshqarishi natijasida ma’naviy-ma’rifiy salohiyati rivojlanadi;
- o‘z sohasi bo‘yicha yutuqlaridan xabardor bo‘lish, amaliy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi;
- tarbiyachi o‘z faoliyati davomida bolaning shaxsiy sifat va qobiliyatini tarbiyalash, komil inson qilib tarbiyalashning shakl va usullarini o‘rganadi;
- tarbiyachining maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida obro‘ va hurmati ortadi.

Xulosa. Ta’lim-tarbiyada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, pedagog va bola o‘rtasidagi yaqin munosabatni, har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini hurmat qilishni va unga do‘stona e’tiborni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
2. Shin.A.V., Mirziyoeva.Sh.Sh., va boshqalar. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo‘llanma (Birinchi nashr). Toshkent – 2020.
3. Yevstafeva.L., Nabixanova.Sh., Pak.S. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya faoliyatini mavzuli rejalashtirish. Tayyorlov guruhi. “Ilk qadam” dasturiga ilova. Toshkent - 2018 yil.

TARBIYACHILARGA BOLALARNI SOG‘LOM OVQATLANTIRISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Rahimova S.S.

pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dotsent
MTMRMQTMOI “Maktabgacha ta’lim
metodikasi” kafedrasi mudiri

Ro‘ziyeva Sh.M.

MTMRMQTMOI “Maktabgacha ta’lim
metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bolalar ovqatlanishini to‘g‘ri tashkil qilishda guruhdagi barcha shart-shaoitlar yetarli bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bolalarni o‘zlariga mos idish-tovoqlar bilan ta’milanishi, stol atrofida o‘tirishiga qulay sharoit yaratilishi lozim. Taomlarni chiroyligi bezatib, o‘ta qaynoq bo‘lmagan, shuningdek, sovuq ham bo‘lmagan holatda berilishi kerak. Bolalarni stol (dasturxon) atrofida o‘zini toza va ozoda tutishga o‘rgatish, tarbiyachilar bosiq, muloyim, bolalarni shoshiltirmaydigan bo‘lishlari kerak. Bolalarni ovqatlantirishda jarayonlarning uzviyligiga amal qilish, hamda bolalarni stol oldida ovqat kutib uzoq o‘tirib qolishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Ovqatlanib bo‘lgan bolalar stol yonidan turib sokin o‘yinlar bilan shug‘ullanishlari mumkin. Ishtahasi yo‘q bolalarni majburlab ovqatlantirish mumkin emas. Ovqatlantirish jarayonida ularga ozroq suv yoki meva sharbatli taklif qilish mumkin. Ba’zi hollarda bunday bolalarga avval ikkinchi ovqatni, ya’ni oqsil bilan to‘yimliroq ovqatni berib, keyin ozroq suyuq ovqat berish mumkin.

Bolalar ovqatlanishini to‘g‘ri tashkil qilishda bolalarni maktabgacha ta’lim muassasasi va uyda ovqatlantirishning bir-biriga mos ravishda amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu maqsadda guruhlarda ota-onalar uchun kechki payt, dam olish va bayram kunlari ovqatlantirish bo‘yicha tavsiyanomalar ilib qo‘yilishi va bolalar kun davomida qanday mahsulotlar

bilan oziqlanganligini hisobga olib, uydagi kechki ovqatlar to‘g‘risida aniq maslahatlar berilishi kerak.

Yoz faslida bolalarning suyuqlikka bo‘lgan ehtiyoji ortadi. Ichish uchun yangi qaynatilgan suv, na’matak damlamasi yoki rezavorlardan qilingan uncha shirin bo‘lmagan sharbatlar berilishi mumkin. Ichimlik bolalarga sayrdan keyin, suv muolajalaridan avval taklif qilinadi. Uzoq davom etadigan ekskursiya vaqtida to‘xtalganda ham bolalar ma’lum bir miqdorda ichimlik bilan ta’minlanishi kerak. Ekskursiyaga chiqilganda, tarbiyachilar o‘zlari bilan qaynatilgan suv olishlari kerak.

Bolalarni ovqatlantirishni tashkil etishda ovqatlantirish tartibiga qat’iy amal qilinishi muhim ahamiyatga ega. Ovqatlanish vaqt doimiy bo‘lishi kerak va har xil yosh guruhlarida bo‘lgan bolalarning jismoniy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ovqatlanish vaqtiga qat’iy amal qilish, vaqtga bo‘lgan shartli ovqatlanish refleksi hosil bo‘lishini ta’minlaydi, ya’ni kerakli ovqat hazm qilish shiralarini ishlab chiqishni va ovqatning yaxshi hazm bo‘lishini ta’minlaydi. Bolalarni betartib ovqatlantirganda, ulardagi ovqatlanish refleksi so‘nadi, ishtahasi pasayadi va ovqat hazm qilish a’zolarining faoliyati buziladi.

Ilk va maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarda oshqozondagi ovqat hazm bo‘lish jarayoni 3-3,5 soat davom etadi. Bu jarayon oxiriga yetganda oshqozon bo‘sheydi va bolada ishtahasi paydo bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar kuniga 4 marta 3-3,5- 4 soat oralig‘ida ovqatlanishi kerak. Asosan jismonan to‘g‘ri ovqatlanish tartibi quyidagicha:

Nonushta – 8.30 – 9.30

Tushlik – 12.30 – 13.30

Ikkinci tushlik – 16.00 – 16.30

Kechki ovqat – 18.00 – 18.30

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ovqatlanish vaqtiga aniq rioya qilinishi shart. Belgilangan vaqtidan og‘ish faqatgina favqulotda hollarda yo‘l qo‘yilib, 20-30 daqiqadan ortmasligi kerak. Ovqatlanishda uzulishlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Har bir ovqat bolaga avvalgisini yeb bo‘liboq berilishi kerak. Bolalarning tushlik qilish muddatini 25-30 daqiqa, nonushta va kechki ovqatini – 20 daqiqa, ikkinchi tushligini - 15 daqiqa etib belgilash tavsiya qilinadi.

Ovqatlanish tartibining muhim tomonlaridan biri ovqatlanish vaqlari o‘rtasida qandaydir ovqatni, masalan, har xil shirinliklar, pechene, pishiriqlar berishni taqiqlashdir. Bunga xizmatchi xodimlar va ota-onalarning e’tiborini qaratish lozim. Hatto meva, rezavorlar (ayniqsa, shakar qo‘shilgan bo‘lsa), sabzavotli salatlarni ham faqat navbatdagi ovqatlanish paytida berish kerak. Ishtahani buzmaslik uchun ichishga shirin sharbatlar, shirin choy, sut, qatiqlardan foydalanmaslik kerak.

To‘g‘ri ovqatlanish deganda bolaning yoshiga mos bo‘lgan, uning jismoniy rivojlanishi va sog‘ligi holatiga to‘g‘ri kelgan kunlik va bir martalik ovqatlanishini jismoniy fiziologik meyorlariga muvofiq bo‘lishi nazarda tutiladi. Katta hajmdagi ortiqcha ovqatlantirish ishtahani susayishiga olib keladi va hazm qilish a’zolari faoliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin. Oz hajmdagi ovqatlar to‘yish hissini uyg‘otmaydi.

Birinchi taomlar hisobiga ovqat hajmini oshirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Suyuq ovqatni ortiqcha yegan bola to‘yimliroq bo‘lgan ovqat – ikkinchi ovqatni yeya olmay qolishi mumkin, vaholanki ikkinchi taomda kunlik oqsil moddalari va sabzavotlarning anchagini qismi mavjud bo‘lishi mumkin. Ayniqsa. ishtahasi past bolalarga nisbatan bu holga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bunday bolalar uchun birinchi taom hajmlarini kamaytirish tavsiya qilinadi. Yaxshi ishtahaga ega va kundalik ovqatlanish hajmlariga to‘ymay qolayotgan bolalar uchun birinchi taom, garnir yoki uchinchi taom hajmini (50g. gacha) bir qadar ko‘paytirish tavsiya qilinadi.

Oshxona idishdarida qolgan ovqat qoldiqlarini mexanik usulda tozalanganidan so‘ng yuvish vositasi solingan, xaroarti 45°S past bo‘lmagan suvda (birinchi vannada) yuvilib, so‘ngra shlang orqali (ikkinchi vannada) xaroarti 65°S darajadan past bo‘lmagan issiq suvda chayiladi va maxsus panjaralar (stelajlar) da quritiladi. Dezinfeksiyalovchi ishlov (uyutib qo‘yish) faqatgina epidimologik ko‘rsatmalar asosida amalga oshiriladi.

Oshxona idish-tovoqlari (kosa, piyola, bakal, tarelka va xokazo) yuvish vositasi solingen qaynoq suv bilan birinchi vannada yuvilib, so‘ngra oqib turgan qaynoq suv bilan ikkinchi vannada chayilib so‘ng quritiladi. Krujkalarni qaynoq suvda zararsizlantirish vositalarni qo‘llagan holda birinchi vannada, so‘ngra oqib turgan qaynoq suvda ikkinchi vannada chayqab quritiladi.

Idish-tovoqlarni yuvishda kir yuvish kukuni, mochalka va gubkalar ishlatilmaydi. Yuvish uchun ko‘piruvchi vositalar, metall va plastmass шыоткаларгина ruxsat etiladi. Idish-tovoq yuvish uchun metalldan tayyorlangan shyotkalar, stollarni artish uchun latta matolar 15 daqiqa qaynatiladi yoki 0,5% xlorli eritmaga solib qo‘yiladi, quritiladi va maxsus xonalarda saqlanadi. Yuvishda foydalaniladigan latta matolar, zararsizlantiruvchi vositalar solingen (nomlangan) maxsus idishlarda saqlanadi. Yuvish bo‘limlarida idish tovoq va jihozlarni to‘g‘ri yuvish xaqidagi yo‘riqnomasi ilib ko‘yiladi.

Bolalar ovqatlanishga o‘tirganlarida oshxona va choy idishlari to‘liq va yetarli bo‘lishi lozim, ovqatlanish jarayonida idishlarni qayta yuvib ishlatmaslik kerak.

Issiq taomlar (suyuq taomlar, souslar, qaynoq ichimliklar, ikkinchi taomlar va garnirlar) tarqatilish paytida +60 +65°С bo‘lishi kerak; salatlar, ichimliklar +15°С darajadan past bo‘lmashligi kerak.

Maktabgacha ta’lim muassasining barcha xodimlari tibbiy ko‘rik va tekshiruvdan o‘tishadi, shuningdek o‘rnatalgan tartibda kasbiy gigienik taylorlovdan va attestatsiyadan o‘tishadi.

Maktabgacha ta’lim muassasi xodimlari shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishlari shart: ishga toza kiyim poyafzalda kelishlari; ustki kiyimni, bosh kiyimni va shaxsiy narsalarni kiyim-bosh shkafida qoldiradi; tirnoqlar qisqa olingan va uzuklar yechilgan bo‘ladi.

Ish boshlashdan oldin qo‘llarni tozalab yuvish kerak, ustiga toza xalat boshqa maxsus kiyim kiyish kerak, almashtirgani poyafzal bo‘lishi kerak, sochlarni chiroyli to‘plashi kerak.

Xojatxonaga kirishdan oldin xalatni yechib, chiqqandan so‘ng qo‘llarni sovunlab yuvish kerak; ishchi xodimlarga bolalar xojatxonasidan foydalanish ta‘qilanganadi.

Tarbiyachilar quyidagilarga ma’sul:

- Bolalarni ovqatlantirishni ta‘minlash;
- Ovqatlanish sanitariya-gigiena shartlariga rioxat qilish;
- Bolalarda o‘z o‘ziga xizmat qilish va etiket qoidalarini shakllantirish;
- Guruhlarda ichimlik bilan ta‘minlash rejimini tashkillash, ichimlik suvi sifatini nazorat qilish.

Tarbiyachilar tayyor taomga organoleptik baho berishni bilishlari lozim.

Organoleptik baholashni ovqat namunalarini tashqi ko‘rigi bilan boshlashadi. Ko‘rikni yorug‘ kun sharoitida o‘tkazgan muvofiqroq. Keyin ovqatning hidi aniqlanadi. Bu ovqatning aynish holatlarining birlamchi belgilarini aniqlashga yordam beradi, buni odatda, boshqa yo‘l bilan aniqlab bo‘lmaydi. Hid ovqat iste’mol qilinadigan haroratda aniqlanadi va nafas olishni to‘xtatib hidlanganda, yaxshi aniqlash imkoniyati bo‘ladi. Hid toza, aynimagan, o‘tkir, nordon, kuyik, achigan, o‘ziga xos (dudlangan baliq hidi, sarimsoq hidi, yalpiz hidi, vanil hidi, neft mahsulotlari hidi va boshqalar) deb belgilanadi.

Ovqatning quyuqligi paypaslab sezish a’zolari yordamida aniqlanadi. Barmoq uchlari, til, tanglay, tishlar eng yuqori sezgirlikka egadir. Ovqat mazasi ham mos haroratda aniqlanadi. Shirin va sho‘r ta‘mni eng yaxshi sezadigan a’zo, tilning uchi bo‘lib, achchiqni tilning o‘zak qismi, nordonni – til chekkalari yaxshi sezadi.

Birinchi taomni organoleptik baholash uchun, uni qozonda yaxshi aralashtirilgandan so‘ng oz miqdorda olib, tovoqchaga solinadi. Uning tashqi ko‘rinishidan sabzavotlarning yaxshi tozalanganligi, xar xil aralashmalarning bor-yo‘qligi, sabzavotlarning to‘g‘ralish shakllari qaynash jarayonida saqlanishi belgilanadi, ularni retsepturada ko‘rsatilganlar bilan taqqoslanadi. Sho‘rva va qaynatmalarning tiniqligiga e’tibor beriladi, ayniqsa, go‘sht va baliqdan tayyorlanganlarning, chunki sifatsiz go‘sht va baliqdan tayyorlangan qaynatmalar xira bo‘ladi va ular tepasida tiniq sariq qatlama paydo bo‘lmaydi.

Taomning maza va hidini aniqlayotganda begona ta‘m, hid, taxirlik, nordonlik, sho‘rlik bor-yo‘qligi belgilanadi. Kuygan xamir hidli, yaxshi qaynatilmagan, yoki o‘ta qaynatib yuborilgan

mahsulotlar dumaloqlanib qolgan xamirli, sho'r va boshqa ta'mlarga ega bo'lgan taomlarga ruxsat berilmaydi.

Ikkinchisi taomlarning organoleptik bahosi, ularning tarkibiy qismlari asosida beriladi. Umumiy baholar faqat qaylali taomlar (ragu,gulyash)ga beriladi.

Taomga tashqi baho berishda go'shtning to'g'ralishiga, porsiyalarning tengligiga, tashqi va kesik joyi rangi qaraladi, chunki qaynatilgan go'shtning qoramtil tashqi ko'rinishi uning uzoq payt qaynatmasi saqlanganligidan, kesmalardagi qizil-pushti rang-yaxshi qovurilmaganligidan yoki kotlet qiymasining saqlash muddati o'tganligidan dalolat beradi. Taomning quyuqligi uning tayyorlik darajasi hamda retsepturaga mosligini (masalan, kotletning bo'shligi, ularning tarkibida non ko'pligini bildiradi) ko'rsatadi. Go'sht yumshoq, suvli bo'lishi, parranda go'shti-suyagidan yaxshi ajraydigan, baliq laxmi-yumshoq, suvli, maydalanmaydigan bo'lishi lozim.

Sabzavot garnirlariga baho berishda sabzavotlarning tozalanganlik sifati, ovqatning quyuqligi, tashqi ko'rinishi, rangi (masalan, kartoshka pyuresida ko'kimdir rangi sut va moyning yetishmasligidan darak)ga e'tibor beriladi. Yorma(krupa)dan tayyorlangan garnirlarga baho berishda, ularning quyuqligini taomnomada rejalshtirilgan ko'rsatkichlar bilan (donador, cho'ziluvchan) mosligi taqqoslanadi. Yormadan tayyorlangan bitochka va kotletlar o'z shaklini qovurilgandan keyin ham saqlab qolishi kerak. Makaron mahsulotlari yumshoq, bir-biridan yengil ajraydigan bo'lishi kerak.

Qaylalarning quyuqligi quyidagicha aniqlanadi: ularni qoshiqdan tarelkaga ingichka oqim tarzida quyiladi va bunda rang, maza va hidiga e'tibor beriladi. Yaxshi tayyorlanmagan qaylada kuygan piyoz parchalari bo'lib, kulrang tusga va achqimitir mazaga ega bo'ladi.

Taomlarning organoleptik baholashini o'tkazayotganda ba'zi ehtiyyotkorlik qoidalariga amal qilish kerak: xom mahsulotlardan faqat xom holda ishlataliganlarigina tatib ko'rildi; mahsulot ayniganligi ko'rinishlari bo'lganda (rang, hid) va bu mahsulotlardan tayyorlangan ovqatlardan zaharlanish shubhasi bor hollarda mazasi tatib ko'rilmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. IM.Voronsova "Spravochnik po detskoj dietetike" "Meditina" 1980.

2.Sh.M.Ro'ziyeva "Maktabgacha ta'limgan tashkilotlarda Sog'lom ovqatlamishni tashkil etish" "Toшкент" 2021.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Razzakova D. A.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti ta'limgan
II- kurs magistranti

Maktabgacha ta'limgan tashkilotlari ta'limgan-tarbiyaviy jarayon har tomonlama yuksak mahoratga ega bo'lgan kadrlar faoliyatini talab etmoqda. Bugungi kunda ta'limgan olayotgan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mazkur ehtiyojga zarur shart sifatida qarashni talab etadi. Chunki to'liq ish jarayoniga kirib borayotgan mutaxassis o'zida kasbga oid bilimlarni shakllantirmas ekan, uning faoliyati samarasiz va eng achinarlisi, rivojlanish jarayonidagi bolalarning o'sish sur'atlariga putur yetishi kuzatiladi. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda bugungi kundagi global muammolarga yechim topa oluvchi, faoliyatini hamisha mazmunli bo'lishini ta'minlovchi pedagog sifatida shakllantirish muhim sanaladi. Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarning tarkib toptirilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Kompetentlik ta'limgan rivojlaniruvchi kuchi hisoblanadi. Shuning uchun har bir pedagog o'zida kompetentlikning barcha ko'rinishlarini shakllantirishi zarur bo'ladi. Xususan, ijodiy faoliyat kasbiy yetuklikni shakllantiruvchi sifatlardan biri sanaladi.

Maktabgacha ta'lif yo'nali shida bo'lajak kadrlar salohiyatini oshirishdan maqsad bu - bolani maktab ta'limi jarayoniga har tomonlama tayyorlashdan iborat. Bolalarning intellektual shaxs bo'lib shakllanishida maktabgacha yosh davri muhim o'rinni egallaydi. Xususan 5 yoshga qadar bolada barcha shaxsiy sifatlar deyarli tarkib topib, rivojlanib bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, demak, maktabgacha ta'lif sohasida yangicha yondashuvlarga asoslangan ta'lif-tarbiya texnologiyalar sifatini yanada chuqurlashtirish naqadar zaruriy jarayon ekanligi anglab yetiladi. Bugungi kunda ta'lif sohasida ommalashib borayotgan yo'nali shida sifatida **integrativ yondashuv** o'ziga xos o'ringa ega. Chunki bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy tarbiya va zamonaviy ta'lif sharoitlarini tashkil etishda integrativ yondashuv asosidagi loyi halarini yaratish ta'lif sifat-samaradorligini oshiradi. Talabaning kasbga tayyorlik darajasi deganda, uning mutaxassislikka oid bilimlari, axloqi hamda ijodiy rivojlanish ko'rsatkichlari nazarda tutiladi. Ayrim sabablar natijasida bu xususiyatlar barcha talabalarda bir maromda rivojlanmasligi mumkin. Integrativ yondashuvni joriy qilish natijasida talabarning har tomonlama kasbiy faoliyatga tayyorlik xususiyatlarining rivojlanishiga erishiladi. Jahonning ko'plab mamlakatlarida rivojlantirib kelinayotgan bu tizim bir qator afzalliklarga ega. Shuning uchun ta'lif samaradorligini oshirish va talabalarda ijodiy tashabbuskorlik sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan ta'lifning noan'anaviy metodlari qatorida integrativ yondashuv asosidagi ta'lifning ahamiyati dolzarb o'rinda turibdi.

Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy faoliyati davomida bolalarni kelgusida tabiiy, aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlarni to'g'ri o'zlashtirib borishlariga yordam beruvchi fundamental bilimlarni ular ongiga singdirishda integrativ yondashuvdan foydalanish yuqori samara beradi. Integratsiyani bilimlarning o'zaro uyg'unlashuvni, bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini tushuntiruvchi bilimlar yig'indisi, deb olsak, uning tub mohiyatini aniqlash osonroq kechadi. Integratsiya ta'lif maqsadi sifatida olam tiziminining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishiga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Shunday qilib, bolada olamning turli-tumanligi haqida keng tasavvur hosil qilish va uni o'rganishga nisbatan maqsadli qiziqishni shakllantirishda integrativ ta'sir usuli tarbiyachi-pedagog uchun eng maqbul yo'l bo'lib maydonga keladi.

O'qituvchining bo'lajak tarbiyachilar ijodiy individualligini oshirish bo'yicha faoliyati qo'yidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan hushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujuddan yaratuvchilikka kurashuvchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan histuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik.

Ta'limgagi interfaol usullar bugungi kunda eng samarali yondashuvlardan biri sanaladi. Interfaol usullar asosida dars jarayonini tashkil etish – bu o'quvchini mavzuga qiziqishini oshiradi, faoliyot ko'rsatishga turtki beradi. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini takomillashtirishda qo'yidagi usullardan foydalanish mumkin:

Amaliyot bilan bog'liq tajriba darslari. Bunday darslarni bevosita maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borish mumkin. Bolalar psixologiyasi, ijtimoiy moslashuv fanlarining amaliy qismini shunday usullarda tashkil etish orqali, nazariyani amaliyotda sinash orqali bilimlar mustahkamlanadi. Shuningdek amaliy topshiriqlar bevosita bolalar ishtirokida o'tganligi bois, yangicha fikrlar va yondashuvlarga tayanilgan yaxlit bilimlar shakllanadi.

Mustaqil tadqiqot natijalariga asoslangan integral darslar. Bunday darslarda keyingi dars uchun topshiriq beriladi va bu topshiriqlar mazmuni o'tilajak mavzu asosidagi mustaqil izlanishga asoslanadi. Bo'lajak tarbiyachilar topshiriqni bevosita amaliyot ob'ektlarida bajaradilar va natijalarini dars jarayonida muhokama qiladilar.

Darslarda loyiha taqdimotlarini tashkil etish. Loyiha shaklini yaratish o‘qituvchi tomonidan tushuntirilib turiladi. Talabalar kichik guruhlarga bo‘lingan holda taqdimot yaratib, ushbu taqdimotni guruhda namoyish qiladilar.

Mazkur metodlarga yana qo‘sishchalar kirgizish va yanada boyitish mumkin. Muhimi, barcha faoliyatlar bir yoqlama emas, ko‘p turdag'i faoliyatlardan tashkil topishi va bu faoliyatlarda mavzuga turli tomondan yondashuv tarkib topsin.

Fanlarni integratsiyalash tendensiyasi, materiya harakatining o‘zaro aloqa shaklini anglash va uning organik birlikda tuzilishini ilmiy metodologik asoslari orqali tushuntirishdan iborat.

Integratsiyalashgan ta’lim global texnik, texnologik, iqtisodiy ekologik muammolarni yechishga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun integratsiyalashgan bilimlarga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova. N.H.Rahmonqulova. “Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalashgan pedagogikasi” Toshkent – “ILM ZIYO” 2009 y. 56 b.
2. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 b
<https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256>
3. A. Munavvarov tahriri ostida. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996. –200 b.
4. Nishonova Z. Mustaqil ish rivojlanganligining psixologik mezonlari. Xalq ta’limi. - 2001. -3. –B.64-69.
5. Musaev U.D. Integratsiya - ta’lim jarayonini optimallashtirishning muhim printsipli. // J. Xalq ta’limi, 2002. № 6. - 4-6 bet.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILTLARIDA RIVOJLANТИРUVCHI EKOLOGIK MUHITNI TASHKIL ETISH

Rizayeva M.M.
MTTDMQTMOI katta o‘qituvchisi.

Maktabgacha yoshda shaxsning umumiyligi madaniyatiga poydevor qo‘yiladi, Davlat talablari va Davlat o‘quv dasturiga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik asoslarni shakllantirish nazarda tutilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘simliklar, hayvonlar, insonni tirik mavjudotlar, tabiat olamidagi, inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlik va aloqalar haqida; sog‘lomlashtiruvchi, kognitiv, axloqiy, estetik, amaliy singari tabiat qadriyatlарining xilma-xilligi; tabiat insonning yashash manzili ekanligi haqida boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘ladilar. Bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berish – hozirgi zamonning o‘ta muhim muammoi hisoblanadi: insonlarning ekologik tafakkuri va ekologik madaniyatigina sayyoramizni va insoniyatni bugungi inqirozdan olib chiqishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta’limi va tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun shunga munosib muhitini yaratish katta ahamiyatga ega. Boy ekologik muhit bolalarda ekologik tasavvur va ekologik madaniyat samarali shakllanishining eng muhim shartidir. Ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha uslubiy jihatdan barkamol rivojlanish muhiti “maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari tomonidan ikki holat tushunilishini anglatadi: hayvonlar va o‘simliklar hayotiga ekologik yondashuv hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari”. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berish uchun rivojlanтирувчи muhit O‘zbekiston Respublikasi Davlat o‘quv dasturi va Davlat talablariga muvofiq shakllantiriladi. Bola MTTda his etgan muhit nafaqat ekologik ta’lim, balki maktabgacha ta’lim tizimining me’yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan bola faoliyatining barcha ko‘rinishlari bo‘yicha o‘qitish va tarbiyalash uchun xizmat qilishi kerak. Bu muhitning tuzilishi bolaning qiziqish va ehtiyojlariga javob berishi hamda uning hissiy yetukligini

ta'minlashi kerak. MTT pedagoglari va butun jamoasining vazifasi o'z MTTda ekologik muhitni yaratishga katta e'tibor berishdan iborat. Rivojlantiruvchi ekologik muhitni tashkil qilishda bir necha darajalarni mo'ljallash mumkin.

Ekologik ta'lismi va tarbiya bo'yicha ta'lismi-tarbiya faoliyatini rejalashtirish Dasturni amalgalash oshirish va har bir bolada asosiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashning muhim qismi hisoblanadi. Ekologik ta'lismi-tarbiya faoliyati tematik reja bilan omuxtalashtiriladi va kun davomida, shu jumladan, zarurat tug'ilganda, rejim vaqtlarida amalga oshiriladi. Material pedagog tomonidan bolalarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda "oddiydan murakkabga" tamoyiliga muvofiq rejalashtiriladi. Masalan: bolalarning ko'nikma va malakalari ortib borishi bilan o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish faoliyati mazmuni murakkablashtirishi mumkin. Ekologik ta'lismi va tarbiyada rivojlanish sohalarini integratsiyalash muktabgacha yoshdagagi bolalarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishni ta'minlashga imkon beradi, bilim sifati ortishiga xizmat qiladi, rivojlanish markazlarida ta'lismi-tarbiya faoliyati mazmunini kuchaytiradi, shuningdek, muktabgacha yoshdagagi bolalarning bilish jarayonidagi faoliykning rivojlanishiga hissa qo'shadi. MTT sharoitida muktabgacha yoshdagagi bolalarning ekologik madaniyati asoslarini shakllantirish uchun ekologiyani barcha rivojlanish markazlarida bolalar bilan ishslashning turli shakllari va usullari orqali integratsiyalash, ekologik ta'lismi va tarbiyaning yaxlit tizimini yaratish zarur.

Rejalashtirishda pedagogga rivojlanish markazlari va rejim vaqtlariga (ertalab va kechqurungi sayr, ovqatlanish) ekologik ta'lismi va tarbiya elementlarini kiritish, ijodiy yondashuvni namoyon etish, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tavsiya etiladi. Davlat talablari va Davlat o'quv rejasi muktabgacha yoshdagagi bolalarning ta'lismi-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkillashtirilishini belgilaydi. Muktabgacha yoshdagagi bolalarning ekologik ta'limi mazmunida ekologiyaning uchta asosiy sohalarini bo'yicha dastlabki bilimlar ajratib ko'rsatiladi: umumiyligi ekologiya; amaliyligi ekologiya; ijtimoiyligi ekologiya Har bir rivojlanish markazida bolalarning yoshiga mos keladigan ekologik mazmundagi o'yinlar, bolalar tadqiqoti uchun asbobuskunalar, kuzatish kalendarlari, ijodkorlik uchun materiallar, kolleksiyalar, mehnat faoliyati uchun jihozlar, bolalar ijodiyoti natijalari mavjud bo'ladi. Bularning barchasi kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fantaziya, tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishni rivojlantirishga yordam beradi. Bu markazni tabiiy yorug'lik yetarlicha tushadigan joyga joylashtirish maqsadga muvofiq, chunki bu yerda xona o'simliklari (gullar), shuningdek akvarium, qushlar bo'lishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, turli tajribalar o'tkazish uchun mustahkam pishiq sirt (stol) bo'lishi tavsiya etiladi.

Guruh xonalarida bolalar faoliyatining har xil ko'rinishlari: o'yinlar, konstruksiyalash, jismoniy harakatlar, ijodiy faoliyat uchun maydonlar ajratish lozim. Guruhda "Fan va tabiat" rivojlanish markazini yaratish alohida e'tiborga loyiqlik. U o'simliklarning turli-tuman xillari va hayvonlarning bir turini o'z ichiga olishi kerak. O'simliklarni shunday tanlash kerakki, bolalarga uning organlar tuzilishi xilma-xilligi (poyalari barglari, gullari), yashash sharoitiga bo'lgan talablarining turfaligi, parvarish qilish va ko'paytirish usullarini ko'rsatish mumkin bo'lsin. Pedagoglar rivojlanish markaziga "injiq" bo'limgan, alohida, yaratish qiyin bo'lgan sharoitlarni talab qilmaydigan va shu bilan birga bolalarning atrof-muhit va tabiatshunoslik bo'yicha bilimlarini boyitishga xizmat qiladigan o'simliklar va hayvonlarni kiritishlari lozim. Rivojlanish markazining barcha obyektlari xavfsiz bo'lishi: zaharli, muammo tug'diruvchi bo'lmasisligi zarur. Bu bolalarni mustaqil ravishda ularni kundalik parvarish qilishga jalb etish imkonini beradi, natijada har qanday ekologik savodxon shaxs uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari shakllanishi ta'minlanadi. Jonli tabiatning "o'ziniki bo'lib qolgan" obyektlari bilan kundalik aloqa bolalarda kuzatuvchanlik, qayg'urish qobiliyatini rivojlantiradi va eng muhimi, yashil do'stlarining holati uchun javobgarlik hissini shakllantiradi: agar biz ularga yordam bermasak, ularga boshqa hech kim yordam bermaydi, chunki bu yerda bizdan boshqa hech kim yo'q.

Boshqa iqlim zonalari haqidagi bilimlarni to'ldirish uchun guruh xonasida barcha asosiy tabiiy landshaftlar: tekislik, tog', cho'l, dengiz suv havzasining yirik modellarini yaratish mumkin. Bu yerda ona Yerimizning tarixini ham tasvirlanishi mumkin. Ushbu maketlarni yaratishda

pedagoglar, bolalar va ota-onalar ishtirok etadilar. Yig‘ilgan tabiiy materialdan nafaqat tabiiy fanlarga doir boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirishda, balki tasviriy va mehnat faoliyati uchun ham qo‘llash mumkin. Guruhlararo daraja. Ushbu darajada MTT imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabiat yo‘laklari, zallari, xonalar, ekologik xonalar, laboratoriyalarni tashkil etish tavsiya qilinadi. Bolalar bu yerga nisbatan qisqa muddatga muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun kelishadi. Bo‘s sh joy yoki xona mavjud bo‘lgan taqdirda ekologik muhitning guruhlararo darajasi bolalar bilan ekologik ishlar olib boriladigan ekologik xona sifatida taqdim qilinishi mumkin.

Ushbu xonada bolalarning samarali faoliyati va bolalar ishlarining ko‘rgazmalari uchun joy ajratish tavsiya etiladi. Bolalar uchun ekologik mavzudagi kitoblar, geografik atlaslar, globus, hayvonlarni qaysi turga mansubligini aniqlovchi qo‘llanmalarni o‘z ichiga olgan kutubxona ham joy olishi mumkin. Shuningdek, minerallar, qobiqlar, patlar, jun, terilar va boshqa to‘plamlar ham bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda bolalar bilan hasharotlar va boshqa hayvonlarning kolleksiyalarini tuzish tavsiya etilmasligi bois tayyor kolleksiyalardan foydalanish mumkin. MTTda kichik joy yoki xonani ajratish imkon bo‘lsa, har bir bolaning o‘z joyi bo‘lgan laboratoriya tashkil etish mumkin. Bola bu joyni tartibda saqlashi talab etiladi. Tajriba o‘tkazish paytida bolalarga uning ismi va familiyasi qayd etilgan nishon va maxsus kiyim (fartuk) kiyishlari tavsiya etiladi. Laboratoriya tajriba o‘tkazish uchun oddiy jihozlar bo‘lishi tavsiya etiladi: idish (stakan, naychalar, tarelka va boshq.), mikroskop, lupalar, xavfsiz termometrlar, barometr, qum soati, filtr qog‘izi va boshqa materiallar. Ekologik xonada guruhlararo jonli burchakni hosil qilish mumkin. U yerda bizning sharoitimizda insonsiz yashay olmaydigan hayvonlar: to‘lqinsimon to‘tiqushlar, kanareykalar, manzarali baliqlarni boqish mumkin. Bu yerda turli o‘lchamdagি bir nechta akvariumlarni saqlash mumkin.

MTTda ekologik ta’lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning bir qismi bo‘lib, unda Davlat o‘quv dasturiga muvofiq, asosiy va yetakchi faoliyat turi o‘yin hisoblanadi. O‘yin bu bolani o‘z-o‘zi va atrofidagi dunyonи o‘rganishga undashning tabiiy usuli hisoblanadi. O‘yin shaxsiyatni boyitadi va rivojlantiradi, shuning uchun u ekologik ta’limda keng qo‘llanilishi kerak. Aynan o‘yin bolalarning ekologik tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi, uning yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy ekologik tushunchalar tizimlari shakllanadi hamda obyektlar va tabiat hodisalariga ongli ravishda to‘g‘ri munosabatda bo‘lish tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni O‘RQ-595-son, 16.12. 2019-y.
2. “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori № 434, 27.05. 2019-y.
3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ4312-son, 08.05.2019-y.
4. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirining buyrug‘i. Ro‘yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.
5. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M., “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun Davlat o‘quv dasturi, to‘ldirilgan ikkinchi nashr, 3.2. bob, Toshkent-2021.
6. Kiryanova R. A. Maktabgacha ta’lim muassasasida mavzuni rivojlantiruvchi muhitni qurish tamoyillari. – M.: Detstvo-Press, 2010.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH

Rustamova M. E.
MTTDMQTMOI, katta o'qituvchi.
Fayzullaeva M. Z.
MTTDMQTMOI, katta o'qituvchi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning zamonaviy tizim shakllarining variativligi, jamiyat va shaxsning ehtiyojlariga moslashuvchan munosabat, bolalar uchun maktabgacha ta'limning yangi turlarining paydo bo'lishi har xil pedagogik xizmatlar bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha ta'limda bolalar ta'limi samaradorligi va sifatiga ta'sir etuvchi omillar orasida O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi muhim ahamiyatga ega. Bular pedagoglarning ijodiy faoliyati uchun qo'llanma hisoblanib, maktabgacha ta'limda ta'lim va tarbiya jarayonining mazmunini belgilaydi. Maktabgacha ta'limning ilmiy va metodik tushunchasini aks ettirib, bola rivojlanishining barcha asosiy sohalarida tarkib topadi.

O'zbekistonda zamonaviy maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning variativligi, ya'ni har xil turdag'i maktabgacha ta'lim tashkilotlari: umumiy turdag'i davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdag'i maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tayanch bir yillik o'quv guruhlari, uy sharoitida oilaviy shakldagi guruhlari mavjud. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim kunduzgi va qisqa muddatli guruhlar ko'rinishida maktabgacha ta'lim xizmatlarini taqdim etish shakllarining variativligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ta'limning har xil turlari va taqdim etilayotgan xizmatlar shakllariga qaramay, ularning barchasi umumiy maqsad va vazifalarga ega.

Maqsadlar:

- bolaning ta'lim olish huquqini amalga oshirishni ta'minlash;
- bolani jismoniy, aqliy va ma'nnaviy rivojlantirish;
- bolaning umumiy ta'limda o'qishni davom ettirishiga tayyorgarligini ta'minlash.

Vazifalar:

- bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar uchun qulay muhit yaratish, ularning individual ta'lim dasturlari asosida ta'lim olishini ta'minlash, shuningdek, zamonaviy inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya ehtiyojlarini qondirish;
- bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;
- o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, atrof-muhitga hurmat asosida tarbiyalash;
- bolalarning turli millat vakillarining urf-odatlari haqidagi bilimlarini shakllantirish

MTTda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish

- bolaning shaxsiyatini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish;
- bolaning ijtimoiy moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;
- oilalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
- ta'limga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mo'ljallangan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'limning mazmuni, uning darajasi va yo'nalishini belgilaydi. Shunday qilib, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim uchun turli muqobil namunaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun asosdir. Ta'lim jarayonining yaxlitligiga respublikaning har bir mintaqasidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun hududiy ta'lim dasturlarini yaratish va qo'llash orqali erishish mumkin.

Bu esa bolalarning hayoti va ta'limini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini bajarishga yordam beradi. Ta'kidlash kerakki, variativlikni yaratish

turli ilg‘or g‘oyalar, yondashuvlar mактабгача yoshdagi bolalarning ta’limiga yaxshi kirib borishi, barcha madaniy xilma-xillik, hududiy tarkibiy an'analar dasturlarida aks ettirishga, mahalliy jamoada yashaydigan bolalarning alohida ehtiyojlari va manfaatlarini bilishga va tushunishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’limda variativlikning mavjudligi ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik tizim variativlik darajasining ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- unda bolalar uchun bir nechta bir xil yaxshi va qulay dasturlar variantlari mavjudligi (teng darajada yaxshi variantlarning ko‘pligi);
 - bolalar uchun ta’lim olish variantlaridan birini tanlash imkoniyati mavjudligi;
 - tizimning moslashuvchanligi (tarbiyalanuvchining ta’lim ehtiyojlariga mos o‘zgartirishlar qilish uchun sharoit yaratish).

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini taqdim etish turlari va shakllarining variativligi ta’minlanadi, deb qayd etilgan. Ta’lim dasturlarining mazmuni va ularni amalga oshirishda variativligi har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti, hatto har bir pedagog o‘z ta’lim dasturlarini yaratishi va ularni amalga oshirishning turli usullaridan foydalanishi mumkinligini anglatadi. Variativlikning asosiy sharti – “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining asosiy tamoyillari va talablariga, shuningdek, Davlat talablariga, ya’ni barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolaning rivojlanishida ta’minlashi shart bo‘lgan talablarga rioya qilish zaruratidir.

Turli xil ta’lim dasturlari mavjud. Zamонави макtabgacha ta’lim dasturlari variativ va alternativ; eksperimental; mintaqaviy yoki mahalliy (ya’ni hududiy); asosiy va qo’shimcha; taxminiy; kompleks va partsial dasturlar; ishchi dasturlar sifatida tasniflanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va alohida pedagoglarning o‘zi uchun biron-bir dastur turini to‘g‘ri tanlab olishlari uchun turli ta’lim dasturlarining xususiyatlari haqida qisqacha tavsif beriladi.

Variativ o‘quv jarayon – bu ta’lim maqsadlarini faoliyat, muloqot vositalari va usullarini, shaxsning maqsadlariga mazmunli munosabatni, ta’lim jarayonini tanlash sharoitida amalgा oshiradigan ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro bog‘liq faoliyati. Shuningdek, biz bugun madaniy merosga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqdamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari guruhlarida pedagoglar duch keladigan madaniyatlar, tillar, urf-odatlarning xilma-xilligi, pedagoglar, ota-onalar va ta’lim tashkilotlarining ta’sischilari eng munosib dasturlarni tanlashi, bundan tashqari, ular ta’lim mazmunini paydo bo‘layotgan ta’lim holatiga muvofiq qurishlari kerakligini talab qiladi.

Variativlik shaxsni rivojlantirish bo‘yicha yagona strategiya bo‘lishi mumkin. Ta’limning variativligi ta’limni individuallashtirishning eng yuqori darajasini ta’minlashga qaratilgan.

Variativ ta’lim jarayoni – ta’lim maqsadlarini amalgा oshirishda mazmunini, faoliyat va muloqot usullarini, shaxsning maqsadlarga, ta’lim mazmuni va jarayoniga munosabatini tanlash sharoitida ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro faoliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sон qarori.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talabları – T.: 2020

3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi – T.:2022

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish T.: 2022, 8-13 betlar

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA "ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURIGA MUVOFIQ SAYRNI TASHKIL QILISH VA REJALASHTIRISH

Rustamova M. E.
MTTDMQTMOI katta o'qituvchisi,
Fayzullaeva M. Z.
MTTDMQTMOI katta o'qituvchisi.

Tarbiyachining sayrdagi asosiy vazifasi bolalar uchun faol, mazmunli, xilma-xil va qiziqarli faoliyatni tashkil etishdir.

Har bir yosh guruhining kun tartibida ikkita sayr amalga oshiriladi: kunning 1-yarmidagi va kechki sayr (ochiq havoda bolalarning ertalabki qabulini hisobga olmaganda).

Kunning 1-yarmidagi sayrning vazifasi - tashkil etilgan ta'limga faoliyatidan keyin kuchni tiklash, maksimal ijobiy quvvatni olish, kayfiyatni ko'tarish, bu o'z navbatida boshqa sharoit va faoliyatlarda bolaning muvaffaqiyatlari jismoniy va aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Sayr paytida ta'limga tarbiya ishlarining mazmunini rejorashtirayotganda pedagog bolalarning tinch va harakatli faoliyatlarini teng ravishda almashtirishni, sayr davomida jismoniy faollikni to'g'ri taqsimlashni, quyidagi taxminiy tuzilishga rivojlanishini ta'minlaydi:

- tabiatda kuzatuv yoki tadqiqot,
- mehnat faoliyati,
- harakatli o'yinlar, harakatlarni rivojlantirish ishlari,
- bolalarning mustaqil faoliyati.

Kuzatish. Bu faoliyat har kuni kunning birinchi yarmidagi sayrda rejorashtiriladi. Kuzatuvalar ob-havo sharoiti va yilning fasllariga qarab rejorashtirilishi kerak. Kuzatuvalar qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Kattalar tashabbusi bilan ham, bolalarning xohishiga binoan o'tkazilgan kuzatuvalar jarayonida estetik tasavvur, aqliy faoliyat rivojlanadi, atrof-muhitga, bilim olish faoliyatiga qiziqish shakllanadi. Kuzatuv turlari:

- Tevarak - atrofni kuzatish (jonsiz narsalar: toshlar, suv, quyosh, bulutlar...). Bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha

yo'riqnomasiga e'tiborni qaratmoqchimiz. Masalan, uch yoshgacha bo'lgan bolalar bilan, osmonni kuzatish mumkin emas, chunki bu yoshdagi bolalarda hali muvozanat hissi shakllanmagan.

- Jonli tabiatni kuzatish (gullar, daraxtlar, butalar, hasharotlar, qushlar, hayvonlar).

● Avtotransportni kuzatish. Kichik va o'rta guruhlarda bolalar harakatlanayotgan transport vositalarini tomosha qilishadi. Katta va tayyorlov guruhlarida bolalar transportni kuzatish uchun sayrga chiqariladi (MTT ma'muriyatining ruxsati bilan). Kuzatuvning ushbu turida bolalarni yo'il harakati qoidalari va ko'cha odobi bilan tanishtirish uchun mukammal ish olib borish kerakligini esdan chiqarmaslik kerak.

- Kattalar mehnatini kuzatish. Kichik va o'rta guruhdagi bolalar maktabgacha ta'limga tashkilotida faoliyat ko'rsatayotgan kattalar mehnatini kuzatadi. Avval ular kattalarning mehnat faoliyati va bu faoliyat natijasini kuzatadilar. Keyin kattalar o'z ish joyida qanday mehnat qilishga harakat qilishini kuzatadilar. O'rta guruhning oxiridan boshlab bolalar ekskursiyalarga chiqishadi (MTT ma'muriyatining ruxsati bilan).

Kuzatish o'rniga tadqiqot tadbirlarini rejorashtirish mumkin. Chunki bu

holda bola ham kuzatadi, ham o'zaro aloqa qiladi ham xulosa chiqaradi. Tajribalar turli xil materiallar yordamida yil fasllari hisobga olinib amalga oshiriladi: qishda qor, muz bilan tajriba o'tkazish mumkin; yozda quyoshda qizigan toshlar bilan suvning qanday bug'lanishini, yupqa barg, o't, nam matoning tez qurib ketishini kuzatish misolida bolalarni harorat qancha yuqori bo'lsa, namlik tezroq bug'lanadi, degan xulosa chiqarishiga yordam berish va hokazo. Faqat bolalarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlashga e'tibor qaratish kerak.

Bolalarning mehnat faoliyati. Mehnat faoliyatining hajmi va mazmunini rejalashtirishda, pedagog, bolalarga tabiatda ba’zi amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish bilan birga, ularning o‘simgilik, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish qoidalari bilan tanishishini ta’minlashi kerak, bolalarni ushbu faoliyatda tashkil etish usullari, ishlarning ketma-ketligi, bajarilgan ishdan qoniqish hissini rivojlantirishga yordam beradigan texnikalar haqida o‘ylashi kerak. Mehnat faoliyatini tashkil etish shakllari frontal yoki kichik guruhda bo‘lishi mumkin.

Harakatli o‘yinlar. Sayr davomida harakatli o‘yinlar muhim o‘ringa ega bo‘lib, unda guruhning barcha bolalari ishtirot etadilar. Shu maqsadda pedagog bolalarning o‘yinlarga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi, uni maftunkor qiladi. O‘yinda bolalarning bemalol faol qatnashishi ularda quvnoq kayfiyatni oshiradi va uning pedagogik samarasini ta’minlaydi. Harakatli o‘yinlar sonini bitta yoki ikkita rejalashtirish kerak (biri harakatli, ikkinchisi kam harakatli). Agar bolalarda boshqa harakatli o‘yinlarni o‘ynash istagi bo‘lsa, ularni ham o‘ynash mumkin, ammo faqat ikkitasi rejalashtiriladi.

Harakatli o‘yinlarni tanlashda asosiy harakatlar turiga e’tibor berish kerak. Issiq mavsumda uloqtirish, emaklash, yuqoriga chiqish kabi harakatli o‘yinlar berilishi kerak. Sovuq havoda – yugurish, sakrash bilan bog‘liq o‘yinlar. Pedagog o‘yinnitashkillashtirish va o‘tkazishda nafaqat rahbarlik qiladi, balki o‘yinda eng mas’uliyatlari rolni bajaradi. Bitta o‘yinning davomiyligi 7-15 daqiqa (bolalarning yoshiga va ob-havo sharoitlariga qarab). Guruhning barcha tarbiyalanuvchilari harakatli o‘yinlarda qatnashishi juda muhimdir. Buning uchun faqat bolalarga tanish bo‘lgan o‘yinlar o‘ynash rejalashtiriladi. Bolalar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida yangi o‘yinlar bilan tanishadilar.

Sayrda harakatni rivojlantirish o‘yinlar va jismoniy mashqlarni takomillashtirish, bolalarning harakat faolligini oshirishga hissa qo‘shishi kerak. Shu bilan birga, o‘yinlar va mashqlar uchun to‘g‘ri vaqtini tanlash muhim (bu individual va kichik guruhlar uchun ham bo‘lishi mumkin).

Bolalarning mustaqil faoliyati ko‘chma material, o‘yinchoqlar bilan. Bu vaqt bolalarni o‘zini namoyon qilish vaqtি. Bolalarda o‘z-o‘zidan syujetli o‘yinlarni o‘ynash istagi paydo bo‘ladi, kimdir yakkalanib o‘tiradi, ko‘proq faol bolalar harakatli o‘yinlarda va sport va musobaqlarda o‘z faoliyatini davom ettiradilar.

Bu bola tanasining tabiiy faol dam olishi, psixologik yengillikning turidir. Shu sababli, bolalarning mustaqil faoliyati vaqtি hisobiga, tinch o‘yinlar, harakatli o‘yin faoliyatlarini amalgalashishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Rejada bolalarning mustaqil faoliyati aks ettiriladi, ammo tarbiyachi tomonidan yoritilmaydi, chunki bu vaqtida bolalar mustaqil faoliyatini o‘zi tanlaydi. Pedagog bolalar uchun faol, mazmunli, xilma-xil va qiziqarli faoliyatlarini ta’minlashiga alohida e’tibor berish kerak: o‘yinlar, mehnat, kuzatuvlar, ular davomida bolalar jamoasi shakllantiriladi, ijobjiy xulq-atvor ko‘nikmalari shakllanadi va tarbiyalanadi, bolalarning atrofdagi tabiat va jamoat hayoti haqidagi bilimlari to‘planadi.

Kechki sayrning mazmuni bolalarning avvalgi barcha faoliyatlarini hisobga olgan holda amalgalashishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. U ko‘proq ixtiyoriy va erkin bo‘ladi. Bolalarni kechki sayrga olib chiqib, pedagog kuzatuvlar, o‘yinlar, mehnat, jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlarni tashkil qiladi. Ammo, shuni yodda tutish kerakki, kechqurun bolalarning asab tizimini hayajonlantiradigan o‘ta harakatli o‘yinlarni o‘ynamaslik kerak. Ushbu davrda bolalarning turli xil o‘yin faoliyati asosiy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun u rejada yoritilmaydi.

Sayr vaqtida pedagog bolalar bilan individual ish olib boradi: kimdir uchun u to‘p bilan o‘yinni (nishonga otish), boshqalar uchun muvozanatni saqlashga jismoniy mashqlar (to‘nkadan sakrash, daraxtlar orasida yurish va tepalikdan yugurish mashqlarini) tashkil qiladi.

Sayr paytida bolaning nutqini rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib boriladi: masal yoki kichik she’rni yodlash, talaffuz qilish qiyin bo‘lgan tovushni tuzatish va hokazo. Pedagog bolalar bilan musiqa mashg‘ulotida o‘rgangan qo‘schiqning so‘zlarini va musiqasini yodga olishi mumkin.

Sayrda umumiy faoliyat bilan bir qatorda har xil maqsadlardagi yakka ishlar amalgalashishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

◊ uyatchanlikni yengish;

- ◊ kuzatishni rivojlantirish;
 - ◊ mehnatsevarlik, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
 - ◊ nutqni rivojlantirish;
 - ◊ sport elementlarini rivojlantirish;
 - ◊ matematika, atrof olamga qiziqadigan bolalarga e’tibor qaratish.
- Ular o‘ylab topgan vazifalar, hikoyalar, topishmoqlarni tinglash.

Ishni tashkil etish shakli individuallikdir, ammo ba’zi hollarda ishni kichik guruhlarda tashkil etish orqali bajarish mumkin. Sayr paytida yakka ishslashni amalga oshirishda mavsumiylik va ob-havo sharoitini hisobga olish kerak.

Kunning barcha jarayonlarida bolalar bilan yakka tartibda ishslash rejalashtiriladi (madaniy va gigienik ko‘nikmalarni rivojlantirish, nutqni, mustaqil harakatlarni rivojlantirish va boshqalar) va pedagog kun davomida, kun tartibining barcha daqiqalarida, har qanday faoliyatda olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sون qarori.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari – T.: 2020, 9-12 betlar.

3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi – T.:2022, 48-76 betlar.

BOLALARDA OVQATLANISH KO‘NIKMALARINI TO‘G‘RI SHAKLLANTIRISH

Ro‘ziyeva Sh.M.

MTMDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Bugungi kunda “O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minalash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash” maktabgacha ta’lim pedagogikasi oldida turgan dolzarb muammodir.

Bevosita maktabgacha ta’lim tashkiloti muhitida shakllangan bolaning rivojlanish xususiyatlariiga mos ko‘nikmalar uning keyingi hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichdan o‘tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog‘liq bo‘ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq, bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo‘shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllangan rivojlanish odam uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo‘ladi .

Insonda aynan bolalik chog‘ida ovqatlanish ko‘nikmasi shakillanib boradi. Shuning uchun aynan bolalarda ovqatlanish ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakillantirish zarur.

Ilmiy adabiyotlarda “ko‘nikma” tushunchasiga quyidagi ta’rif beriladi:

“O‘quvchi yoki talabaning o‘zlashtirgan bilimlari asosiy muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyat”. “Biror ishda ottirilgan mahorat, malaka”-insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyatidir. Ko‘nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo‘llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko‘nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko‘nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko‘nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko‘nikmalar bilim olishga, uni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ko‘nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to‘g‘ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko‘nikmalar esa ko‘proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi»

Ushbu ta‘riflardan kelib chiqib aytish mumkinki “sog‘lom ovqatlanish ko‘nikmasi” bu – “rivojlanishning turli bosqchlarida to‘gri va ratsional ovqatlanish bo‘yicha olingan bilimlar va tajribalar asosida shakllanadigan va takomillashib boradigan amaliy va aqliy harakatlardir”.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda uch yoshdan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlari muhitida ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarda turli qoidalarni bajarish, shartli reflekslar hosil qilish va boshqa usullarda bolalarda ovqatlanish madaniyatini shakllantirish lozimligi e’tirof etilmoqda.

Jumladan, tadqiqotchilar D.Birch va A.Ventura ovqatlanish odatlarida va oziq-ovqat tanlashda ota-onalarning bolalarga ta’siri kuchli ekanligini ta’kidlagan holda, bunday yondashuv bolalarning oziq-ovqatni mustaqil tanlash ya’ni avtonomiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ayтиб о‘тади.

Bolalarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqanda, garchi ota-onalar bolalari uchun hamisha ular yaxshi ko‘radigan oziq-ovqat maxsulotlarini berishga harakat qilsalar yoki ma’lum maqsadlarda ularni cheklasalarda, asosiysi, “kattalar va bolalar o‘rtasidagi oziq-ovqat tanlovi va hoxish-istiklar bir hil emas”. Shuning uchun bolalarning o‘zlarida to‘gri ovqatlanish odatlarini, ya’ni ko‘nikmalarini shakllantirish lozim bo‘ladi .

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida bolalarda sog‘lom ovqatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishga maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliy faoliyatini tarkibiy qismi sifatida tobora e’tibor kuchaymoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda sog‘lom ovqatlanish ko‘nikmalarini shakllantirish:

- yurtimizda yosh avlod salomatligini mustahkamash, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishning o‘ziga xos tarkibiy qismidir;

- bolalarda sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom ovqatlanish madaniyatining muhim elementi sifatida u maktabgacha ta’lim pedagogikasining bugungi kunda dolzarb muammolaridan birini tashkil etadi;

- bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat tomonidan bolalarni sog‘lom ovqatlanishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlar bolalarda sog‘lom ovqatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlarini ham belgilaydi;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda sog‘lom ovqatlanish ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik jamoaning bu boradagi kasbiy mahorati va malakasini oshirishga ham xizmat qiladi;

- bugungi kunda bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi uchun zarur hisoblangan muhim pedagogik jarayondir. Unda O‘zbekistonning o‘z tajribasi, texnologiya va metodlariga ega bo‘lishi xalqaro ta’lim muhitiga yanada faol integratsiyalashuv imkonini beradi. Bolaning o‘sishi va rivojlanishi uning salomatligining asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. O‘sish va rivojlanish jarayonlarining intensivligi bolalikning asosiy xususiyati hisoblanadi. Himoya kuchlarining ishonchliligi, uyg‘un jismoniy, hissiy va intellektual rivojlanish salomatlikning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Sog‘lom bola harakatchan, baquvvat, izlanuvchan bo‘ladi. Atrof-muhit sharoitlariga osongina moslashadi. Bolalikning asosiy xususiyati o‘sish va rivojlanish intensivligi ekanligini hisobga olish kerak. Bola qanchalik yosh bo‘lsa, bu jarayonlar shunchalik intensiv davom etadi.

Ma’lumki, maktabgacha yosh jismoniy va ruhiy salomatlik asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axir, 7 yoshgacha inson rivojlanishning ulkan yo‘lini bosib o‘tadi, bu uning keyingi hayoti davomida takrorlanmaydi. Aynan shu davrda organlarning jadal rivojlanishi va tananing funksional tizimlarining shakllanishi sodir bo‘ladi, asosiy shaxsiy xususiyatlar, o‘ziga va boshqalarga munosabat shakllanadi. Bu bosqichda bolalarda sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish va sportga bo‘lgan ongli ehtiyojning bilim bazasi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T., «Fan va texnologiya», 2008, 6-b.
2. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. O’quv qo’llanma. T., 2013.
- 29-b.
3. Pedagogik atamalar lug`ati. T., 2008.
4. O’zbek tilining izohli lug‘ati. 461–bet.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILAR ATROFIDA MA’NAVIY-ESTETIK MUHIT YARATISH IMKONIYATLARI

Safarova R.G.

“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi”
bo‘limi boshlig‘i p.f.d., prof.

O‘zbek xalqi o‘zining ko‘p asrlik tarixiy tajribasining mahsuli sifatida bola tug‘ilgan dastlabki kunlardan boshlab, kamolga yetguniga qadar uning atrofida axloqiy-madaniy muhit yaratishga harakat qilgan. Bu muhit bolani ma’naviy-axloqiy, madaniy-estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qilgan. Mazkur muhitni yaratishga onalar va enagalar mas’ul bo‘lganlar. Muhitning asosini verbal va noverbal vositalar, ya’ni, turli buyumlar tashkil etgan. Ular ona allasi, ota-onasi, bobo-buvilarining erkalatuvchi so‘zlar, o‘yinchoqlar, keyinchalik esa turli rasmlar, manzaralar va ularga kattalarning beradigan izohlaridan iborat birliklar majmuini tashkil qiladi. Bolada estetik tasavvurning shakllanishi tabiat manzaralari bilan bir qatorda xona gullari, unga kattalarning munosabati ham muhim ahamiyatga ega.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bolalarning ma’naviyatini shakllantirish maqsadida ular atrofida madaniy muhit yaratishga harakat qilganlar. Buning uchun ularga turli ertaklarni o‘qib mohiyatini anglatishga intilganlar. Bolalarda ertaklardagi ijobjiy qahramonlar timsolida yaxshilik, ezgu amallarni bajarishga, odamlarni qadrashga mehnatsevarlik, insonparvarlik, go‘zalikka intilish, atrofdagilarni qo‘llab quvvatlash, ota-onani hurmat qilish, tabiatni sevish, hayvonat olamini, ranglarni o‘zaro bir biridan farqlashga o‘rgatilgan. Shu asosda bolalarda sezgirlik, hozirjavoblik, zukkolik, narsa-buyumlar, voqeа-hodisalarni o‘zaro bir biridan farqlash ko‘nikmalari jadal shakllangan. Bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab, ularda so‘z ma’nolariga e’tibor berish ko‘nikmasi shakllantirilgan. Ota-bobolarimiz “Muhit katta murabbiy” – degan qoidaga qat’iy amal qilib yashaganlar. Shuning uchun ham tarbiyaviy jarayonlarni ushbu prinsip asosida tashkil etganlar.

Har bir oilada kitobxonlikka alohida e’tibor qaratilgan. Bu sohada ota-onalarning o‘zlarini ibrat bo‘lganlar. Ayniqsa onalar, buvilar yoki enagalar bolalarga muntazam tarzda ertaklar, dostonlar, she’rlar, rivoyatlar o‘qib bergenlar. Shu bilan bir qatorda bolalarning so‘z zahirasini boyitishga, so‘z ma’nolarini teran anglashlariga, muomala madaniyati ko‘nikmalarini egalashlari alohida e’tibor qaratganlar. Ertak va doston qahramonlarning ibrati vositasida bolalar qalbiga vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘usi singdirilgan. Har bir bolaga u tug‘ilib olamni anglay boshlagan ilk davrlaridan boshlab Vatan, millat, halq tushunchalarining muqaddasligi singdirilgan. Ota-onasi, qarindosh-urug‘larga nisbatan mehrli bo‘lishning zarurligi anglatilgan. Bir so‘z bilan aytganda bola hayotining ilk davridan boshlab ularning ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-estetik jihatdan yetuk shaxs bo‘lishlari uchun yaqin rivojlanish hududi vujudga keltirilgan. Mazkur hudud bola rivojlanib, uning dunyoqarashi boyib borgan sari kengaytirilgan. Bolani qurshab turgan muhit muntazam tarzda, dastlab ota-onalar, keyinchalik esa ham ota-onalar, enagalar va ustoz-murabbiylar nazoratida bo‘lgan. Ustoz-murabbiylar, enagalar zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklangan. Ular bolalarning ehtiyojlari qiziqishlari, iqtidorlarini juda barvaqt aniqlab, uni to‘g‘ri yo‘naltirishga harakat qilganlar.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik etnopedagogik qadriyatlarini tizimining aksariyat elementlaridan ota-onalar, enagalar va ustoz-murabbiylar xabardor bo‘lganlar. Ular etnopedagogik

qadriyatlarning mazmun mohiyatini chuqur anglaganlar va uni farzandlari hamda shogirdlari ongiga yetkazishga harakat qilganlar. Ota-onalar oqshomlari farzandlari bilan birlgilikda kitobxonlik qilganlar. Bunda kitoblarni shunchaki o‘qib berish bilan shug‘ullanmasdan, balki, birlgilikda tahlil qilganlar. Farzandlarning u yoki bu obrazga bo‘lgan munosabatini so‘rab bilganlar. Asarlarning mazmun mohiyatini sharxlab tushuntirib bergenlar. O‘z navbatida farzandlardan ham o‘qilgan asar haqidagi fikrlarini, ijobjiy hamda salbiy qahramonlarga bo‘lgan munosabatlari so‘ralgan. Ota-onalar va ustoz-murabbiylar nafaqat o‘qilgan badiiy asarlarni balki, bolalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni ham har tomonlama tahlil qilib, unga o‘z munosabatlarini bayon etganlar. Bolalarning fikrlariga bat afsil izohlar berish asosida tuzatishlar kiritganlar. Shu bilan bir qatorda ota-onalar ham ustoz-murabbiylar ham bolaga shunchaki duch kelgan asarni o‘qib bermaganlar, balki, ularning ma’naviy-madaniy, axloqiy-estetik rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan nazmiy hamda nasriy asarlarini saralagan holda o‘qib berishga harakat qilganlar. Muhim jihatlardan biri bola bilan amalga oshiriladigan muloqot maydoni keng bo‘lganligidadir. Har bir muloqot bolaning ma’naviy-axloqiy hamda tarixiy-milliy dunyoqarashini boyitish, tasavvurlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan. Bolaning ma’naviy-axloqiy taraqqiyotida katta-katta davralarda yoki oila davrasida tashkil etilgan qissaxonliklar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bunday qissaxonliklar tufayli bolalar milliy-madaniy va madaniy-tarixiy jarayonlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, ma’naviy-etnik qadriyatlar bilan yaqindan tanishganlar. Natijada insonning ma’naviy hayoti uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarni bilib olishga muvaffaq bo‘lganlar bunday qissaxonliklar bolalarning so‘z boyligini oshirish, badiiy o‘qish texnikasi va badiiy didini rivojlantirishga ko‘maklashgan. Bolalarni qissaxonliklarga aksariyat hollarda otalar olib borganlar. Ular muntazam tarzda o‘z farzandlariga turli savollar berib, tasavvurlari, dunyoqarashlari ko‘lamini kengaytirishga muvaffaq bo‘lganlar. Bolalarni yaxshi bilan yomon o‘rtasidagi farqni osongina anglab olishlari uchun ularga ertaklar bilan bir qatorda masallardan ham foydalanganlar. Chunki axloqiy-ta’limiy xarakterga ega bo‘lgan masallarning tili oson, tushunarli bo‘lib, voqealarni anglashlari uchun qulay hisoblanadi. Bunday masallar bolalarning qiyoslash taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantirib ularda tanqidiy fikrlash, baholash axloqiy tanlovni amalga oshirish layoqatini shakllantirishga xizmat qilgan. Buning natijasida bolalarda yaxshilikni qadrlash, yomonlikdan nafratlanish, undan saqlanish ko‘nikmalar shakllangan. Muhit ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishda yetakchi omil hisoblangan. Mamlakatdagi umumiy tinchlik yoki tinchlikni qadrlash g‘oyasi bolalar ongiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda ham bolalar atrofida yaratiladigan ijobjiy muhit ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalar atrofida tashkil etiladigan ma’naviy-axloqiy, rivojlantiruvchi muhit aksiologik, tarixiy-madaniy, rivojlantiruvchi, gender, faoliyatli yondashuvlarni qo‘llagan holda vujudga keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun ota-onalar va tarbiyachilar alohida pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lishlari, rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Ular bolani rivojlantirishga oilada tarixiy hamda xalqaro tarjribalar va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini maqsadga muvofiq tarzda uyg‘unlashtira olishlari kerak. Bola atrofida ma’naviy-axloqiy, madaniy-estetik muhit yaratishda tarbiyachilar, ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilishlari muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ular ma’naviy-axloqiy, madaniy-estetik muhitni yaratishda bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari yosh hususiyalari, tasavvurlari idrokini aniq hisobga ola bilishlar talab etiladi. Mashg‘ulotlarda bolaning qiziqishlarini hisobga olgan holda kichik guruhlarda bo‘lib topshiriqlar berish, rolli o‘yinlarni tashkil etish, bunda bolalarga individual yondashgan holda rollarni taqdim etishda maqsadga muvofiq. Chunki mashg‘ulotlarda rolli o‘yinlar yordamida bolalarni ijtimoiylashtirish, so‘z boyligini oshirish imkoniyatlari kengayib, bola atrofida ijtimoiy-ma’naviy, madaniy-estetik muhit yaratiladi. Bunday muhit bolaning tasavvurlarini kengaytirib, kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSLARI

Tadjieva M.X.

Toshkent pedagogika kolleji direktori,

Raxmatullaeva L.G.

Toshkent pedagogika kolleji direktor o'rinosari,

Mo'minova M.S.

MTTDMQTMOI dotsenti.

Maktabgacha ta'lismizning zamonaviy rivojlanishi maktabgacha ta'lismiz va tarbiya jarayoniga yangiliklarni faol joriy etishni o'z ichiga oladi, bu yesa uning faoliyatini samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik tele-radio aloqa tizimlarining takomillashishi axborot almashuv imkoniyatlarini keskin darajada kengayib ketayotganidan dalolat bermoqda. Shuning uchun ham kishilarda ayniqsa, o'sib kelayotgan yoshlarda axborot olish madaniyatini shakillantirish asosiy vazifalardan biri xisoblanadi. Shunday ekan, axborot makonini globallashuvi sharoitida mediata'larning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, ijtimoiy – siyosiy ahamiyat kasb etadi. Jahan taraqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda.

Bunday holda maktabgacha ta'limdagi innovatsion jarayonlar bola shaxsini rivojlanirishga qaratilgan ta'lismiz muhitini yaratish va rivojlanirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mediata'larning o'zi nima, uning mohiyati va xususiyatlari jihatlari nimada ekanligi borasidagi so'nggi yillarda pedagogik muhitda eng dolzarb masalaga aylandi. Ta'limning axborot-kommunikatsiya vositalariga asoslangan zamonaviy ta'lismiz paradigmasi bolalarga tayyor bilim va ko'nikmalarni uzatishni emas, balki bolada mustaqil faoliyat ko'nikmalarini uyg'otishga asos bo'ladi. Shu bilan birga, bolalarning bevosita o'quv faoliyatini davomida ishlashi interaktiv kompyuter dasturlari va audio-vizual vositalar orqali o'qituvchi bilan muloqot qilish xarakteriga ega.

Maktabgacha ta'lismiz jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy shartlaridan – bolalar kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini biladigan, u bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarda kompyuterlardan foydalanishning sanitariya me'yordi va qoidalarini, ularni qo'llashning axloqiy qoidalarini biladigan bola shaxsini tarbiyalashdir.

Media iste'molining yuksak darajasi hamda zamonaviy jamiyatlarning ommaviy axborot vositalari bilan to'lib-toshganligi.

1. Medianing mafkuraviy muhimligi, va sanoat tarmog'i sifatida ularning auditoriya ongiga ta'siri.

2. Media axborot miqdorining tez o'sishi, uni boshqarish hamda uning tarqalishi mexanizmlarining kuchayishi.

3. Asosiy demokratik jarayonlarga medianing suqilib kirishi jadalligi.

4. Barcha sohalarda vizual kommunikatsiya va axborot qiymatining ortishi.

5. Maktab o'quvchilari (talabalar)ni kelajakdagagi talablarga mos yo'nalish bilan o'qitish zarurati.

6. Axborotni xususiylashtirishning o'sib borayotgan milliy va xalqaro jarayonlari.

Shunday qilib, media (ommaviy kommunikatsiya vositalari) kishilar hayotida va ta'lismiz jarayonida kundan-kunga katta-rol o'yamoqda.

Mediata'larning maqsadi yoshlarda mediaga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, uni o'quv tashkilotlаридан (maktabgacha ta'lismiz tashkilotlari, maktab, oliy o'quv yurtlarini) keyingi hayotda ommaviy axborot vositalarining kreativ (ijodkor) foydalanuvchisiga aylantirishdir.

Mediata'larning asosiy vazifalari:

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi avlodni turli axborotni tushunishga, uning ruhiyatga ta'siri oqibatlarini anglashga, texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning og'zaki bo'lмаган шакллари asosida muloqot usullarini o'zlashtirishga o'rgatishdir.

Shunday qilib, an'anaviy mediata'lim yoshlar tarbiyasining quyidagi maqsadlarini ilgari surgan:

- yuksak madaniyatga hurmat;
- axloqiy sog'lom xatti-harakat me'yorlari;
- siyosat to'g'risidagi oqilona tasavvurlar.

Bugungi kunda ushbu sohada yangi ommaviy axborot vositalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan o'zgarishlar yuz bermoqda. Ko'pincha mediata'lim yoshlarni ommaviy axborot vositalardan asrashi lozim bo'lgan emlash turi sifatida idrok etilmoqda, ammo bunday yondoshuv barcha narsani salbiy oqibatlarga olib borib taqagan holda bolalarga yangi ommaviy axborot vositalardan foydalanishdan olinishi mumkin bo'lgan barcha qoniqishlarni bera olmaydi[3]. Hozirda mediata'limdan yoshlarni o'z tanloviga ko'ra ongli qaror qabul qilishni rag'batlantiruvchi himoya va tayyorgarlikning omuxta shakllarini taqozo etmoqda. Mediata'lim yoshlar o'rtasida ommaviy axborot vositalarni tushunishni rivojlantirishni ko'zda tutadi, bu o'z navbatida ularni qurshab turgan mediamadaniyatda ongli ishtirok etishiga, unga qiziqishiga olib boradi.

—

бўлғуси профессионаллар – журналистлар
(телеөндириш, радио, матбуот, интернет), киноматографистлар, мұҳаррирлар, продюссерлар ва бошқаларга медиатаълим берниш...

Медиатаълимнинг асосий йўналишлари

қўшимча таълим муассасалари ва дам олиш марказларида (дам олиш ўйлари, мактабдан ташқари ишлар, эстетик ва бадиий тарбия марказлари, клублар...) медиатаълимни ташкил

телевидение, радио, интернет тармоғи ёрдамида мактаб ўқувчилари, талабалар ва катталарга масофавий мелиатаълим

университетларда, педагогик институтларда бўлғуси ўқитувчиларга медиамаданият бўйича курслар доирасида билим бериш;

олий ўқув юртлар, лицей, мактаблар ва мактабгача таълим муассасаларида ўқитувчи ва тарбиячиларнинг бу борадаги малакасни ошириш, узлуксиз таълим муассасаларида таълим олаётган ўқувчилар ва талабалар учун (махсус, факультатив, тўгаракли..)

мустақил ва узлуксиз медиатаълим (бу назарий жиҳатдан инсоннинг бутун ҳаёти давомида амалга оширилиши мумкин).

Maktabgacha tarbiyadan boshlab oliy o'quv yurtidagi ta'limning barcha bosqichlarida mediata'limning ahamiyatini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari, akademik litseylar dasturlari va o'quv rejalariga ushbu yo'naliш bo'yicha maxsus kurslarni

kiritish zarur bu ham alohida darslar shaklida, ham maxsus yoki majburiy kurslar ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, tarbiyachilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yosh bolalarning yoshga oid anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlari hamda o‘quv faoliyatining diagnostikasi xususiyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lishlari lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan maktabgacha ta’lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy yetishning zaruriy sharti maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasida kasbiy axborot madaniyati va umumiy axborot madaniyatini shakllantirishdir. Zamon bilan hamnafas bo‘lishni istagan ijodkor tarbiyachilar o‘z amaliy faoliyatlarida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini o‘rganishlari, bola uchun yangi texnologiyalar olami uchun qo‘llanma bo‘lishi va ular uchun axborot madaniyati asoslarini shakllantirishlari zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, tarbiyachining mediakompetentligi deganda “O‘quv faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mustaqil ravishda keng ko‘lamdagи o‘quv vazifalarini hal etishga tayyorligi va bu sohada malaka oshirish yo‘llarini loyihalashtirish qobiliyati tushuniladi“. Tarbiyachining mediakompetentligini oshirish uning ish faoliyatini faollashtirish va osonlashtirish imkonini beradi, tarbiyachining rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘quv-uslubiy faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.[1] Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish: bolalarda o‘quv faoliyatiga qiziqishni oshiradi va tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini oshiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarining mediakompetentligini oshirish uzlusiz malaka oshirish tizimida amalga oshiriladi. Tarbiyachilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bilimlari bevosita o‘quv faoliyatida bolalar bilan ishlash mazmuni va usullari to‘g‘risidagi axborotlar oqimini ko‘paytirish hamda unga tayyorgarlik ko‘rish uchun sarflanadigan vaqtini kamaytirish imkonini beradi. Tarbiyachilar maktabgacha ta’limning eng muhim tarkibiy qismi bolalar faoliyati ekanligini unutmasliklari lozim. Bevosita o‘quv faoliyatining har xil turlari bir-birini to‘ldirishi mumkin va ular bola rivojlanishining barcha bosqichlarida o‘zgarishi kerak. Demak, besh yoshda bunday ta’limning asosini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘yin faoliyatining tarbiyaviy xarakteri tashkil etishi kerak. Qiziquvchan maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyalanuvchilari kompyuterda o‘yin o‘ynab o‘z qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarni eslab qoladilar, shuning uchun bunday tadbirlar o‘ziga xos, qisqa va tushunarli bo‘lishi kerak. Ma’lumotlarni shunday joylash kerakki o‘rganayotgan bolaning tajribasiga asoslangan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish uchun: maktabgacha ta’lim tashkilotlarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash; kompyuter o‘quv dasturlari bankini tizimlashtirish; didaktik va metodik materiallar tayyorlash; ta’lim jarayoni va boshqarish uchun dasturiy ta’mnot faoliyati; va Internetga kirish xususiyatlaridan to‘liq foydalanish; maktabgacha ta’lim saytini yanada rivojlanish; maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-o‘qituvchi va xodimlarining media madaniyatini takomillashtirish yanada yaxshi natija beradi[4].

Xulosa qilib aytganda, mediata’lim mamlakatimizning ta’lim sohasida, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida munosib o‘rin egallashi lozim. Bu vazifani bajarishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari faoliyatini samarasini oshirish beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bizning mamlakatimizda mediata’limni rivojlanirish istiqbollari XXI asrda shaxsnинг ijtimoiylashuv jarayoni, bugungi kunda o‘ta dolzarb va ahamiyatli bo‘lib turgan fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirish muammolari bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Maktabgacha ta'lif va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, O`RQ-595-son, - Toshkent. sh., 2019-yil 16-dekabr
2. Babadjonov S.S., Mannopov.A.A. Mesto i rol mediaobrazovaniya v sovremennom mire. Tambov. 2014.
3. Fedorov A.V. Sovremennyy mir i mediyaobrazovanie. Jurnal «Mediyaobrazovanie» №2 2008g. G. Tagenrog.
4. Paxruttinov Sh.I. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas’uliyati. T., Akademiya 2011.
5. Umarova N.T. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash. Akademiya. T., 2005.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Talipova I. B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti.

O‘zbekistonda oilaning jamiyatdagi o‘rni, tarbiyaviy-axloqiy axamiyati, ayniqsa barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Biz kuzatgan va tajriba olib borgan oilalarda insoniy sifatlarga ega bo‘lgan ota-onalar farzandlariga olivjanob fazilatlarni o‘rgatib, tarbiyalab bormoqdalar. Bunda ular ibrat-namuna ko‘rsatish bilan bir qatorda, tushuntirish, o‘rgatish, odatlantirish, mashq qildirish, rag’batlantirish, jazolash kabi metod-usullardan oqilona foydalanmoqdalar.

Shuni unutmaslik kerakki, kichik yoshdagagi bolalar g’oyatda ziyrak, har narsaga qiziquvchan, sinchkovlik bilan kuzatuvchan bo‘ladilar. Shuning uchun ham oila a’zolari bir yerda jam bo‘lib o‘tirganlarida: ertalabki nonushta, ovqatlanish, suhbat davomida, mehmon oldida, dasturxon atrofida bolalar bor vaqtida o‘zini qanday tutish, o‘zaro muomala-munosabatda oila va bog’cha sharoitida o‘rgatilgan axloq-odob qoidalariga qat’iy amal qiladilar. Oilalardagi qat’iy tartib-intizom, o‘zini odob doirasida tutish, albatta, bola xulqiga ta’sir etmay qolmaydi. Har bir oilaning bola tarbiyasi jarayonida yaratgan texnologiyalari bor, shu asosda bolaga ta’lim-tarbiya beriladi. U shunday tartibga hurmat-ehtirom, obro‘ kuchi tufayli amal qilib, ma’lum ko‘nikma hosil qilib boradi.

Katta yoshdagagi kishilarning jamoat joylarida: ko‘cha-ko‘yda, mahallalarda, bolalar ko‘zi oldida bir-birlari bilan muomalasi, shirinso‘zligi, sertakallufligi va odobi bilan xulqida ma’qul insoniy fazilatlarning namayon bo‘lishi ham muhimdir. Buni tushungan har bir ota-ona va katta yoshdagagi kishilarga har joyda, har qanday holatda ibrat-namuna ko‘rsatishga harakat qiladilar. Bolani o‘zini tuta olishga odatlantirishda ota-ona, oila a’zolarining pand-nasihatlari, tushuntirishlari ham samarali tarbiya usullaridan hisoblanadi. odatda bunday pand-nasihat va tushuntirishlardan so‘ng, berilgan topshiriqning bola tomonidan bajarilishini kattalar kuzatib boradilar. Uning muomalasidagi o‘zgarishlarni ma’qullah, maqtash va ta’kidlash, eslatish, koyish yo‘llari bilan o‘z munosabatlarini bildirib turadilar. Ana shu tariqa bolada odobning ma’lum oddiy qoidalariga rioya qilish odati tarbiyalanib boriladi. Oilalarni kuzatishlarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, asosan ota-onalar o‘z farzandlarida ma’naviy, intelektual imkoniyatlarini, dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim tarbiya berish masalalariga aloxida e’tibor qaratilgan. Ular o‘z farzandlaridaadolat, tenglik, erkinlik, diyonat, ahillik, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda suhbat, savol-javob, tushuntirish, ishontirish, namuna matolaridan foydalanishgan. Xalq pedagogikasi, ommaviy axborot vositalari orqali mehr-shafqat tushunchasi va mohiyatini , milliy urf-odat, rasm-rusum va udumlarni, ajdodlar merosini, qadriyatlarni o‘z farzandlarining qalbi va ongiga yetkazishga harakat qilganlar. Maktabgacha ta’lim takshiloti bilan hamkorlikda har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish asosida ularda burch va ma’suliyat, milliy iftixor tuyg’ularini

tarbiyalash ishlarida faol ishtirok etganlar. Dunyoga kelgan farzand moddiy va ma'naviy yordamga hamisha muhtojdir. Bunda, albatta, bolaning aqliy va jismoniy sog'lom tug'ilishi, shuningdek, tug'ma layoqatlarga ega bo'lishi uning kamol topish shartidir. Bu xususiyatlar nasl-nasab, irsiyat qonuniyatlariga bevosita aloqador bo'lgan biologik omilning ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi. Lekin, shunga qaramay, bola shaxsining rivojlanishi boshqa omillarga: oila muhiti, ijtimoiy muhit, tarbiya, tug'ma layoqatlari va qobiliyatlarni ishga solib rivojlantirib boruvchi irodaviy sifatlarga ham ko'p jihatdan bog'liqidir. Bu narsa ota-oni va tarbiyachilarning diqqat markazida turishini, amaliy harakatni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni ma'naviy kamol toptirishda o'zbek xalqining milliy urf-odatlari, an'analari va insoniy qadriyatlardan foydalanish mug'im ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Katta yoshdagи bolalar bilan axloqiy mavzularda mashg'ulotlar olib borish metodlari quyidagicha bo'ladi: mashg'ulotlarni qiziqarli tashkil etish uchun interfaol metodlar, xilma-xil texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi, tarbiyachi tushuntirishi, suhbat, hikoya qilish (badiiy hikoya qilish), munozara, savol-javob, izohlash-sharhlash, topishmoq, syujetli asarlarni, ertak va hikoyalarni, dostonlardan olingan qiziqarli lavhalarni rollarga bo'lib ijro etish; mashg'ulotlarni o'yin tarzida tashkil qilish; stol teatrлari, soya teatrлari, zinama-zina texnologiyalardan foydalanish qiziqarli mashg'ulotlarni o'tkazishga yordam beradi. Bu metodlardan o'z o'rnida mohirona foydalanib, qiziqarli o'tkazish maktabgacha katta yoshdagи bolalarni axloqiy tarkib to'tirishda, ularda chinakam insoniy fazilatlarni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraximova D.A. Maktabgacha yoshdagи bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xal qo'yinlaridan foydalanish//Bola va zamon ilmiy-ommabo' журнал.Т.:2020.- №1.Б.18-21.
2. Azizova Z.F. Maktabgacha katta yosh davrida bola shaxsini rivojlantirish // Ilmiy xabarnoma. Andijon, 2019. -Maxsus son. – B.87-91.
3. Qodirova F.R., Tosh'o'latova SH.Q., M.N..A'zamova .Maktabgacha 'edagogika. O'quv qo'llanma. Т.:Ma'naviyat, 2013- 157 b.
- 4.

ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Тешабаев А. Ю.

Андижанский государственный университет,
заведующий кафедра методики дошкольного
образования к.п.н.доц.

Кочкарова Ш. С.

Андижанский государственный университет,
кафедра методики дошкольного образования

Развивающая, ориентированная на разностороннее, полноценное развитие ребенка средствами математики и других предметов (М.Джумаев, Н.У.Бикбаева, Г.Э.Джанпесиева и др.), математического образования дошкольников на основе формирования их математических способностей и модель математического образования дошкольников на основе формирования их математической культуры. (О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики. (Постановление президента Республики Узбекистан, от 07.05.2020 г. №пп-4708.))

Математика определена одним из приоритетных направлений развития науки в нашей стране в 2020 году. За прошедший период проведен ряд системных работ, направленных на поднятие математической науки на качественно новый уровень:

во-первых, созданы необходимые условия для приглашения наших соотечественников — ученых-математиков, работающих в передовых научных центрах, и проведения международных научных исследований;

во-вторых, внедрена система стимулирования труда молодежи, победившей на международных предметных олимпиадах, а также ее учителей и наставников;

в-третьих, в целях обеспечения взаимной интеграции высшего образования и научных исследований в Студенческом городке построено новое современное здание Института математики имени В.И. Романовского Академии наук (далее — Институт). В полтора раза увеличен объем финансирования фундаментальных исследований в области математики, за счет бюджетных средств закуплены суперкомпьютеры, современная техника и оборудование;

в-четвертых, в качестве начального этапа подготовки кадров научного уровня внедрен институт стажеров-соискателей;

в-пятых, в целях оперативного решения приоритетных вопросов в области науки, определения на уровне Правительства вопросов усиления интеграции науки, образования и производства под председательством Премьер-министра Республики Узбекистан образован Республиканский совет по науке и технологиям.

Вместе с тем ряд нерешенных вопросов в области математики указывает на необходимость реализации мер, направленных на повышение качества образования и эффективности научных исследований в данной области. В частности:

во-первых, не полностью обеспечена преемственность между уровнями образования по математике;

во-вторых, учебники по математике в общеобразовательных школах состоят из сложных задач, затрудняющих овладение предметом, не учитывают возраст учащихся и не согласованы с темами по другим предметам;

в-третьих, несмотря на то, что большинство талантливых молодых людей, проявляющих интерес к математике, победителей международных олимпиад являются представителями регионов, в сфере высшего образования и науки не созданы необходимые условия для их будущего развития;

в-четвертых, остается слабой связь научных исследований, практики и производства в области математики;

в-пятых, связи ученых-математиков с зарубежными научными и образовательными учреждениями недостаточны для поднятия отечественной математики на международный уровень, повышения ее авторитета в международном сообществе.

Государственные требования к знаниям и умениям детей от рождения до 7 лет определяются на основе пяти основных направлений развития. В свою очередь, каждая область развития делится на подобласти, которые состоят из нескольких ожидаемых показателей развития (требований) для каждой возрастной группы.

Рассмотрим особенности математического развития дошкольников в условиях вариативности образовательной системы и реализации идей развивающего обучения.

В конкретном образовательном учреждении (детский сад, группы развития, группы дополнительного образования, прогимназия и т.д.) математическое развитие детей проектируется на основе концепции дошкольного учреждения, целей и задач развития детей, данных диагностики и прогнозируемых результатов. Концепцией определяется соотношение математического и логического компонентов в содержании образования. От данного соотношения зависят прогнозируемые результаты: развитие интеллектуальных способностей детей, их логического, творческого или критического мышления; формирование представлений о числах, вычислительных или комбинаторных навыках, способах преобразования объектов и т.д.

Ориентировка в современных программах развития и воспитания детей в детском саду и их изучение дает основание для выбора методики. В современные программы («Развитие», «Радуга», «Детство», «Мир открытый» и др.), как правило, включается то

математическое содержание, освоение которого способствует развитию познавательно-творческих и интеллектуальных способностей детей.

Данные программы реализуются через деятельностные, личностно-ориентированные, развивающие технологии и исключают «дискретное» обучение, т.е. раздельное формирование знаний и умений с последующим закреплением.

Для современных программ математического развития детей характерно следующее:

1. Направленность осваиваемого детьми математического содержания на развитие их познавательно-творческих способностей и в аспекте приобщения к человеческой культуре. Дети осваивают разнообразие геометрических форм, количественных, пространственно-временных отношений объектов окружающего их мира во взаимосвязи. Овладевают способами самостоятельного познания: сравнением, измерением, преобразованием, счетом и др. Это создает условия для их социализации, входления в мир человеческой культуры.

2. Обучение детей строится на основе включения активных форм и методов и реализуется на специально организованных занятиях (через развивающие и игровые ситуации), так и в самостоятельной и совместной деятельности со взрослыми (в играх, экспериментировании, игровых тренингах, упражнениях в рабочих тетрадях, учебно-игровых книгах и т.д.).

3. Используются те технологии развития математических представлений у детей, которые реализуют воспитательную, развивающую направленность обучения и «прежде всего, активность обучающегося» (В.А. Ситаров, 2002). Это технологии поисково-исследовательской деятельности и экспериментирования, познания и оценки ребенком величин, множеств, пространства и времени на основе выделения отношений, зависимостей и закономерностей. В силу этого современные технологии определяются как проблемно-игровые.

4. Развитие детей зависит от созданных педагогических условий и психологической комфортности, при которых обеспечивается единство познавательно-творческого и личностного развития ребенка. Необходимо стимулирование проявлений субъектности ребенка (самостоятельности, инициативности, творческих начал, рефлексии) в играх, упражнениях, игровых обучающихся ситуациях. Важнейшее условие развития, прежде всего, заключается в организации обогащенной предметно-игровой среды (эффективные развивающие игры, учебно-игровые пособия и материалы) и положительном взаимодействии между взрослыми и воспитанниками.

Развитие и воспитание детей, их продвижение в познании математического содержания проектируется через освоение средств и способов познания. Проектирование и конструирование процесса развития математических представлений осуществляется на диагностической основе [16, с. 42-43].

Подводя итог историческому экскурсу становления математического образования в период детства можно сделать следующие выводы:

- на каждом этапе развития математического образования периода детства поднимались проблемы определения содержания и объема математического материала, подлежащего усвоению; усиления практической направленности курса математики в период детства; разработки методов и приемов обучения детей математике;

- взлеты наиболее интенсивного решения проблем математического образования приходились на два периода: на вторую половину XIX в. - времени зарождения методических основ математического образования и на конец XX в. - времени появления и практической реализации вариативных развивающих систем обучения математике;

- в первый отмеченный период выделяются две тенденции развития методики математики: 1) создание русской модели классической системы обучения математике и 2) изучение, заимствование, переработка зарубежного опыта преподавания математики. В конце XX - начале XXI в. в математическом образовании периода детства также видно влияние западных педагогических технологий: свободное, спонтанное обучение, субъект-объектное взаимодействие педагога и ребенка, обучение со стихийным побуждением и др.;

- многие идеи методистов-математиков второй половины XIX в. были развиты и нашли отражение в практике обучения детей в 30-е и особенно в 60-90-е гг. XX столетия, в частности, принцип наглядного обучения (К.Д. Ушинский) нашел отражение в объяснительно-иллюстративном методе обучения, а в настоящее время переориентирован в принцип моделирования, метод целесообразных задач (С.И. Шохор-Троцкий) позволяет обучать в соответствии с принципом «учить других чему-нибудь - значит учить их учиться», то есть не только давать знания учащимся, но и учить их самостоятельно приобретать эти знания;

- опыт построения образования в 1918-1930-е гг. был уникальным, поскольку в этот период получили практическую реализацию многие идеи гуманизации математического образования, ставшие актуальными в XXI веке: идея целостного формирования знаний о мире, идея совместного диалогового обучения, идея форм обучения, альтернативных традиционному современному занятию и т.п.

- обновление содержания математического образования в начале 90-х гг. выдвинуло развивающую функцию в качестве ведущей по сравнению с информационной.

Основной чертой развития методики обучения математике в период детства стала 1991-2002 гг. В национальной учебной программе (2020-2022) это привело к созданию широкого спектра различных курсов дошкольного обучения математике.

Компетентностный подход к воспитанию дошкольников заключается в подготовке растущей личности ребенка к жизни, в усвоении нравственных норм и ценностей, необходимых для решения важных жизненных вопросов, в общении с другими людьми, в формировании образа «Я». формирование методов деятельности, связанных со строительством.

Имеется ряд системных проблем и недостатков в сфере развития дошкольного образования, препятствующих успешной реализации государственной политики и организации образовательных процессов на необходимом уровне. Это нижеследующие:

- незавершенность работы на основе изучения передового зарубежного опыта по оценке и повышению эффективности образования в дошкольных образовательных организациях; Имеется ряд системных проблем и недостатков в сфере развития дошкольного образования, препятствующих успешной реализации государственной политики и организации образовательных процессов на необходимом уровне. Вот подписчик:

- незавершенность работы образования на основе передачи сельскохозяйственного опыта и повышения эффективности образования и образовательных организаций; - отсутствие механизмов, служащих повышению эффективности воспитательных методов;

- недостаточное обеспечение учебно-методической литературой, разработанной с учетом современных условий и потребностей организаций дошкольного образования; - методические разработки, приобретающие современное содержание и сущность для формирования математических представлений для дошкольных образовательных организаций в соответствии с образовательными реформами, реализуемыми в нашей стране в последующие годы недостаточно создан;

- организации дошкольного образования не в полной мере обеспечены квалифицированными педагогическими кадрами;

- отсутствие мультимедийных и дидактических материалов для организации занятий по математике;

- отсутствие согласованности между дошкольным образованием и начальным образованием;

- отсутствие современных учебно-методических материалов и наглядных пособий; - изучение передовых практик работы, их популяризация на уровне востребованности в том, что он не организован.

Литература

1.Мирзиёев Ш.М. “Мы все вместе пострим свободное, демократическое и прозрачное государство Узбекистан. Ташкент, “Узбекистан”, 2016г, 56стр.

2.Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947

3. КОНЦЕПЦИЯ развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года.

https://nrm.uz/contentf?doc=588185_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

4.О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики. (Постановление президента республики Узбекистан, от 07.05.2020 г. №пп-4708.)

5.Альтшуллер Г. С. Творчество как точная наука: Теория решения изобретательских задач. - М.: изд-во «Советское радио», 1979. - 176 с.

6. Арапова-Пискарева Н.А. Формирование элементарных математических представлений. М.: Мозаика-Синтез, 2006.

7. Белоистая А. Дошкольный возраст: формирование первичных представлений о натуральных числах // Дошкольное воспитание, 2002, № 11. с. 20-24.

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРБИYАЛАНУВЧИЛАРИНИНГ НУТQINI VA MILLIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MA’NAVIY ME’ROSNING AHAMIYATI

Murodova F. G’.

MTTDMQTMOI

1-bosqich tayanch doktoranti

O’zbek xalqining milliy ma’naviy merosi naqadar buyuk, salmoqli, ibratli ekanligini bilishimiz uchun tariximizning chuqur ildiziga nazar solishimiz kifoya. Qadimdan otabobolarimiz bolani aqliy, ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda, ya’ni har tomonlama rivojlantirishda ham ta’limiy ham tarbiyaviy ham diniy jihatdan juda katta e’tibor berishgan.shuning uchun ham ajdodlarimiz orasidan Beruniy, Xorazmiy, Buxoriy, Farobiy, Farg’oniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa yetuk insonlar tarixda o’z izlarini abadiy qoldirib ketishgan. Maktabgacha yoshdagি bolalarni milliy va ma’naviy ruhda tarbiyalashda yuqorida sanab o’tilgan allomalarining ma’naviy me’roslaridan amalda ham foydalanishimiz kerak. “Til va nutq” markaz va “Syujetli- rolli o’yinlar va sahnalashtirish” markazida asosan nutq madaniyatini rivojlantirishda, grammatik tomonlarini shakllantirishda, so’zlashuv nutqini (dialog) rivojlantirishda, monologik nutqini shakllantirishda badiiy ma’naviy me’rosimizdan foydalanishimiz, bolajonning nutqini shakllantirishda faqat ijobjiy ta’sir qiladi. Unda bundan tashqari, milliy dunyoqarash shakllanib boradi, bu tarbiyaviy jihatdan ham o’z ta’sirini ko’rsatadi albatta. “Til va nutq” markazida bola nutqi rivojlanib boradi. Bu tengdoshlari bilan muloqot qilganda, yangi hikoyalari eshitganda, boshqalarning fikr-mulohazalarini eshitganda ,unda o’z o’zidan ham nutq o’sib boradi, ham dunyoqarash shaklanadi.Bu jarayonga biz milliy ma’naviyatimizni singdiramiz. Bolada faqat nutq emas,balki milliy dunyoqarash ham rivojlanib, sayqallanib boradi. Bu jarayon tashqi tomondan oson ko’rinishi mumkin, lekin bu bolajon va tarbiyachilardan ozgina mehnat talab qiladi. Asosan Alisher Navoiyning ta’lim -tarbiyaviy asarlaridan “Til va nutq” markazi va syujetli-rolli o’yinlar va sahnalashtirish markazida ham foydalanish tavsiya etiladi. “Syujetli-rolli” o’yinlar orqali o’zini qanday tutish kerakligi, gapisish madaniyati, kattalarga qanday muomala qilish kerakligi, tengdoshlari bilan muomala madaniyatini o’rganadi.Qaysi so’zni qayerda, qanday gapisish kerakligi rivojlanib boradi. Chunki bola ko’p vaqtini Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida asosan pedagog bilan o’tkazadi.Shuning uchun ham

pedagok tomonida aytilgan ,yoki qilib ko'rsatilgan har qanday so'z yoki holat albatta bola tomonidan qayta takrorlanadi. Unda hali nima to'g'ri, nima notog'ri ekanligini analiz sintez qilish qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Tarbiyachi nimaga o'rgatsa shu narsani to'g'ri deb miyasiga singdiradi. Demak bolaning nutqini,dunyoqarashini rivojlanishi ham o'z navbatida pedagogga bevosita va bilvosita bog'liq. Pedagog -bu bolani to'g'ri yo'lga yetaklovchi asosiy kuch. O'zbekiston Respublikasida pedagogga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi.Shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, eng avvalo, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari diniy, dunyoviy, ma'naviy, axloqiy jihatdan barkamol shaxs bo'lishi zarur. Chunki boladagi asosiy poydevni asosan tarbiyachilar qo'yadi, shuning uchun ulardan juda katta mahorat, bilim talab qilinadi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tshkilotlarida davlat o'quv dasturiga oila ,ona shahar, non, ota-onaga hurmat, salomlashish va boshqa mavzularda suhbatlar olib boriladi. Biz bolada ham nutq va milliy dunyoqarashni bir vaqtda shakllantirib rivojlantirib boramiz.

Bola tilni o'zlashtirib nutqqa chiqarishida, fikrlash doirasi va ruhiy rivojlanish asosiy rol o'ynaydi. Ba'zi bolalar leksik zaxirada kerakli so'z boyligiga ega emasligi sababli gapirolmaydi, ular o'z fikrlarini bayon qilish uchun kerakli so'zlarni topa olishmaydi, chunki ularning lisonida so'zlar bog'likligi juda kam. Maktabgacha ta'lim davri bolada lug'atni tezkor oshirish davri bo'ladi. Shu vaqt mobaynida bolada so'z boyligini ko'paytirish va ularni qanday holatlarda nutqqa chiqarish kerakligi amalda pedagog tomonidan ko'rsatib boriladi.buni yanada tezlashtirish va samaradorligini oshirish uchun muloqot mavzularini milliy me'ros bilan bog'lash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'proq rolli ,syujetli o'yinlar orqali dialogik nutqni rivojlantirish mumkin. asar qahramonlarining nutqi bolalar tomonidan aytlishi, bolaning lisonida o'sha qahramonlarga taqlidni kuchaytiradi , va boshqa hollarda ham bola o'sha qahramon kabi aqli fikrlar bildirishga harakat qiladi.Faqatgina eshitgandan ko'ra,ko'rsatib ,bolaning o'zi tomonidan ijro qilinsa albatta yaxshiroq esda qoladi,va bolada o'sha holat va vaziyatga nisbatan kengroq tushuncha hosil bo'ladi.Bundan tashqari bolada kommunikativ ko'nikma ham hosil bo'ladi.Tarbiyachi bilan muloqot qilish davomida yoki tengdoshlari bilan muloqot jarayonida bolada muloqot erkinligi rivojlanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim bazirining 2018 -yil 18 -iyundagi 1-mh - son buyrug'iga ILOVA O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari
2. И.В.Грошева Л.Г.Евстафьева Д.Т. Махмудова Ш.Б. Набиходжа С.В. Пак Г.Е. Джанпесисова М.Р.Исхакова "Ilk qadam " maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi
3. F.R. Qodirova, M. Fayzullayeva, M.Rustamova, N.Abdullayeva, G.Berdialiyeva, M.Rizayeva Maktabgacha yoshdag'i bolalarning nutqini o'stirish (kichik va o'rta guruh uchun metodik qo'llanma).
4. F.R.Qodirova, D.T. Maxmudova, S.Raximova, M.Ishoqov, N.Abdullayeva, M.Fayzullayeva ,M.Rustamova Nutq o'stirish metodikasi(Maktabgacha ta'lim muassalari tarbiyachilar uchun)
5. Z.M.Umarova,M.T.Axunjanova Nutqni o'stirish mashg'ulotlar to'plami (na'munaviy)
6. A.G.Berdaliyeva Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish(13.00.08- maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi .Pedagogika yo'naliishi bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya)
7. Sh.E Nematov, N.S. Mo'minova Bolalar nutqini o'stirish
- 8.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Ne'matov Sh.E.

MTTDMQTMOI Ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash va
menejmentning ilg'or texnologiyalarni joriy etish
bo'limi boshlig'i pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Xaydarov R. Y.

MTTDMQTMOI
2-bosqich tayanch doktoranti

Maktabgacha ta'lismi tashkiloti yagona axborot makonini yaratish uchun birinchi navbatda maktabgacha ta'lismi tashkiloti ichidagi pedagogik ma'lumotlar bazasini yaratish, uning mazmuni va hajmini aniqlash, axborot oqimlarini nazorat qilish, ma'lumotlarni to'plash usullarini tanlab olish, axborotdan samarali foydalanish va saqlash kerak [4].

Raqamli texnologiyalarini joriy etishdagi qiyinchiliklar [3]:

- ta'limga axborotlashtirishga pedagogik jamoalarning yetarli tayyor emasligi;
- kompyuter urgatuvchi dasturlarning imkoniyatlari xaqida tasavurlarning ozligi, ularni qo'llash buyicha metodik ishlasmalarining kamligi;
- kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi;

Ta'limga axborotlashtirish sharoitida bu muammoni hal etish "Pedagogning kasbiy standarti" talablari asosida pedagog kadrlarni qayta tayyorlashni talab etadi.

Maktabgacha ta'lismi tashkilotida tarbiyalanuvchilarining ota-onalari bilan ishlashga katta e'tibor qaratiladi. Elektron platforma pedagog xodimlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik samaradorligini oshiradi. Maktabgacha ta'lismi tashkiloti o'z elektron platformasi, ota-onalarga maktabgacha ta'lismi tashkiloti hayotidan xabardor bo'lish, muntazam ravishda muhim ma'lumotlar olish, o'tkazilayotgan tadbirlar, bayramlar haqida e'lonlar bilan tanishib borish imkonini yaratadi.

So'nggi paytlarda ta'lismi tashkilotlarida raqamli texnologiyalaridan foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotlar tobora ko'payib bormoqda. Ushbu ishlarni tahlil qilish ular orasida bir nechta guruhlarni ajratishga imkon beradi:

- ta'linda axborot texnologiyalari;
- ta'lismi jarayonining ayrim jihatlarini boshqarishda axborot texnologiyalari;
- maxsus ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar asosida ta'lismi tashkilotini boshqarishda axborot texnologiyalari [1].

Maktabgacha ta'lismi tashkiloti boshqaruvini axborotlashtirishning mohiyati pedagogik tizim faoliyatini optimallashtirish, uning salohiyatini rivojlantirish va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan boshqaruv faoliyatini axborot bilan ta'minlash jarayonidir.

Rahbarning axborot bilan ishlashi uchta yo'nalishga bo'lingan bo'lishi mumkin.

1. Axborotni saqlash. U inson xotirasida yoki qandaydir tashqi tashuvchilar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishda katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va ularni kerakli ma'lumotlarni tezkor qidirish uchun tartibli ravishda joylashtirish, tizimlashtirish muhimdir.

2. Rahbar doimiy ravishda ma'lumot uzatish jarayonida ishtiroy etishi kerak bo'ladi. Bunda foydalana olish imkoniyati, rasmiylashtirishda estetiklik va xarajatlarning imkon qadar kam bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Rahbar axborotni qayta ishslash bilan doimiy shug'ullanishi kerak. Shu bilan birga, bunday ishlov berishning turli shakllarini ko'p harakat qilmasdan amalga oshirish, imkon qadar faoliyatni optimallashtirish muhimdir.

Shunday qilib, ta'lismi muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatini axborot bilan ta'minlash texnologiyasiga quyidagilar kiradi:

- raqamli texnologiyalarini ishlatiladigan boshqaruv sohalarini aniqlash;

- axborotni axborot bloklari, massivlari bo‘yicha qayta ishlash va tizimlashtirish;
- ushbu oqimlar va ularning harakatlanish trayektoriyalari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish;
- ta’lim tashkilotida zarur dasturiy-texnik bazani shakllantirish [2].

Xulosa qilib aytganda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’lim-tarbiya jarayonini raqamlashtirishning jadal rivojlanishi, uning axborot-kommunikatsion texnologiya (AKT) vositalari bilan to‘ldirilishi natijasida, bir tomondan, ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda, ikkinchi tomondan esa, ta’lim tashkilotida doimo o‘sib borayotgan boshqaruv axborotining hajmi ortmoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatini optimallashtirish muammosini ilgari surmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Morozova, T.P. Pedagogicheskiye osnovi upravleniya razvitiyem doshkolnogo obrazovatelnogo uchrejdeniY. dis. p.f.n .– Rostov-2002. – 216 b.
2. Tatyanchenko B.C. Informatsionniy bank rukovoditelya obsheobrazovatelnoy shkoloy Chelyabinsk : nashriyot uyi 41, 1992. – 130 b.
3. Hamdamov R, Begimqulov U, Taylaqov N. Ta’limda Axborot texnologiyadari. Qo‘llanma. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2010-15 b
4. Shamova T.I, Davidenko T.M, Shibanova G.N. Upravleniye obrazovatelnimi sistemami. - M.: Akademiya, 2007. – 236 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING ZAMONAVIY IMIJI

Uralova N. M.

MTTDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi.

Maktabgacha ta’lim islohotlari yurtimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessansni yaratish jarayonlarida ustuvor yo‘nalishlardan birini tashkil etmoqda. “Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta’lim-tarbiya - biz uchun hayot-mamot masalasidir”, degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida [1] “har bir bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqi amalga oshirilishini ta’minalash” ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanib, “kasbiy sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish” esa pedagoglarning huquq va majburiyatları sirasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining samaradorligi va ta’lim-tarbiya sifati bevosida uning pedagogik salohiyati, ya’ni bu jarayonning muhim sub’ekti bo‘lgan tarbiyachilar faoliyati bilan uzviy bog‘liqidir. Ya’ni tarbiyachining faoliyati muhim, murakkab va qo‘p qirralidir. Aynan u ulkan missiya - bolaning inson psixikasi, ijodiy qobiliyatları, o‘zini-o‘zi anglash, nutq, hissiyot va intellekti ilk rivojlanayotgan paytdagi ta’lim-tarbiyasi ishonib topshirilgan birinchi pedagogdir [2,1].

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining zamonaviy imiji masalasi bugungi kunda xalqaro miqyosda pedagogika va maktabgacha ta’lim pedagogikasida qizg‘in tadqiq etilayotgan masalalardan biri bo‘lib, mazkur maqolada mavjud fikrlarni umumlashtirish va o‘zimizning ayrim mulohazalarimizni bayon qilishni lozim topdik.

Ma’lumki, bugungi kunda imiji tushunchasi deyarli barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning tadqiqot ob‘ektiga aylangan tushuncha bo‘lishdan tashqari, maxsus “Imijieologiya” fanida ham tadqiq etiladi. Umuman olganda esa, imij (image) - ingliz tilidan tarjima qilinganda obraz, tasvir

ma'nolarini anglatib, bevosita va avvaldan ko'zlangan holda shaxs va ijtimoiy tuzilma to'g'risida hosil qilinadigan vizual taassurot ma'nosini anglatadi [3,3].

Imij - "odam tashqi xarakteristik tizimi hisoblanib, shaxsnинг betakrorligi, o'ziga xosligini belgilab beradi. Imij elementlari inson xarakter va individualligining ajralmas qismini tashkil etib, unga nisbatan yon-atrofdagi odamlarning munosabatini shakllantiradi. Shaxs imiji uni ma'lum darajada boshqalar tomonidan e'tirof etilishi hamdir. Imij munosabatlar asosida insonga nisbatan bildirilgan fikrlar majmuidan tarkib topadi [4, 50].

Imijning vazifalari haqida gap ketganda esa, zamonaviy adabiyotlarda qadriyat sifatidagi, shaxsiy o'sish, psixoterapevtik, shaxslararo moslashuv, o'zining shaxsiy - ishchanlik sifatlarini namoyon etish, xarakteridagi salbiy qirralarni yashirish, diqqatni jalb etish, muloqotdagi "masofa"larni yengib o'tish kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, imijining o'z imiji, aks ettiruvchi imi, talab etiladigan imij, joriy imij, istalgan imij va korporativ imij kabi turlarini keltirish mumkin [5, 9-11b.].

Imijning barcha vazifalari va turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bugungi maqola doirasida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining talab etiladigan kasbiy imiji masalasiga to'xtalishni lozim deb bildik.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bu - bolalar va ota-onalar bilan eng ko'p muloqotga kirishadigan ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ekti bo'lib, uning kasbiy imiji bevosita ta'lim tashkilotining umumiy imijiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

Tarbiyachining ichki imiji bu birinchi galda o'zining kasbiga bo'lgan mehri, hurmati, sadoqati va mas'uliyatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachining ichki imiji masalasida dunyoning turli mamlakatlarida turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, O'zbekiston misolida olganda esa, Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan xalqaro YuNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti" [6] ishlab chiqilganligini alohida ta'kid va mammuniyat bilan olqishlash lozim.

Mazkur standart – maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy va kasbiy sifatlariga, bilim, malaka va ko'nikmalariga doir qo'yiladigan asosiy talablardan iborat bo'lib, pedagog uchun hurmat, mas'uliyat va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi hulq-atvor turlari muhimligi belgilangan. Bunda "shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi – o'z-o'ziga nisbatan u yoki bu shaxsnинг munosabatini tavsiflaydi. U insonda o'zi qo'ygan maqsadga erishish uchun harakatlanishga qodirligiga ishonchning, shuningdek, voqeа-hodisalar mohiyatini tushunishga, belgilangan rejani amalgalashga munosib yo'lni tanlash, salbiy to'siqlarni muvaffaqiyatli yengib o'tish, jamiyatda kerakli shaxs bo'lishga intilishni ko'zda tutishi" [6, 13] mustahkamlab qo'yilgan.

Tashqi imij masalasiga kelganda esa, bevosita tarbiyachining tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati va jamoatchilik bilan munosabatlarini kiritish mumkin.

Ichki imij ko'proq tarbiyachining o'z jamoasi va keng jamoatchilik bilan munosabatlarida unga nisbatan ijobiy taassurotlarni shakllantirish, pedagogik nufuzini namoyon etish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Yuqorida aytib o'tilgani kabi, tashqi imijning har bir turi ham o'ziga xos xususiyatlarga va turlicha talqinlariga ega.

Maqola doirasida muomala madaniyati haqida to'xtalar ekanmiz, aynan bolalar, hamkasblar va ota-onalar bilan bo'ladigan muloqot jarayonlari sifati va darajasi bevosita tarbiyachining ayni shu madaniyatni qay darajada egallaganligi bilan bog'liqidir. Tarbiyachining muomala madaniyati uning suhabattoshini tinglay olishi, tushuna olishi, muloqotni to'g'ri va maqsadli yo'naltira bilishi, nutqining to'g'riliqi, aniqligi, raxonligi bilan, rasmiy munosabatlarda esa adabiy til me'yorlariga mosligi, suhabatdoshi fikrini hurmat qilishi, ziddiyatli va muammoli vaziyatlarda undan chiga bilishi, muloqot davomidagi mimika va jestlarining to'g'ri qo'llanilishi, fikrni ifodalashda imkon qadar ixchamlik va maqsadlilikka qaratilganligi, professional fikrlarni ham tushunarli bayon eta olishi kabi qator omillardan iboratdir. Nutq ta'lim-tarbiyaning asosiy quroli bo'lsa, muomala madaniyati esa kasbiy etikaning bosh elementlaridan biridir.

Birgina maqola doirasida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining imiji masalasini to'laqonligi yoritib berish mushkil bo'lgani holda, tarbiyachi imiji masalasi ta'lim sifati, ta'lim tashkilotining umumiy imiji va butun tizimning jamiyatdagi nufuzini belgilashda hal qiluvchi

o‘rin tutishini alohida ta’kildash joiz. Shu boisdan ham mazkur masalani maktabgacha ta’lim rivojining bugungi jarayonlari, talablari bilan bog‘liq holda kengroq tadqiq qilish lozim bo‘ladi.

Bugungi kunda pedagog sha’ni va nufuzining jamiyatda yanada yuqori darajaga ko‘tarish borasida amalga oshirilayotgan ishlar doirasida zamonaviy tarbiyachi imijini shakllantirish va tizimda joriy etish esa muhim amalii ishlardan biri bo‘lishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”. 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son. (Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 27.04.2021 y., 03/21/685/0373-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)

2. Panko, Ye. A. Vospitatel doshkolnogo uchrejdeniya: Psixologiya: posobie dlya pedagogov doshkolnykh uchrejdeniy: 2-ye izdanie. Minsk.: Zornы verasen, 2006.

3. Imidjieliyi: Uchebnoe posobie dlya studentov napravleniya 050100.62. «Pedagogicheskoe obrazovanie» / Sostavitel M.B. Krasilnikova /Rubsovskiy industrialnyy institut. – Rubsovsk, 2013.

4. Jo‘raeva S.N. Zamonaviy pedagog imijini shakllantirishda psixologik omillar ta’siri / Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie 2020, 1(86).

5. Opfer Ye.A. Imidj sovremennogo pedagoga: uchebnoe posobie dlya studentov napravleniya «Pedagogicheskoe obrazovanie». /Ye.A. Opfer; M-vo obrazovaniya i nauki RF, Volgogr. gos. sos.-ped. un-t. – Volgograd : Print, 2017.

6. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti. 2020 y.
https://fayllar.org/pars_docs/refs/768/767759/767759.pdf

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA O‘YIN TEXNOLOGIYASI ORQALI XORIJIY TIL O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS AFZALLIKLARI

Xakimova D. A.
MTTDMQTMOI 1- bosqich tayanch doktoranti.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning eng asosiy faoliyatlaridan biri o‘yin bo‘lib, u shu qadar o‘ziga xoski, shu qadar ko‘p qirrali va qudratli faoliyatdirki, bu jarayonda bolaning barcha jismoniy va psixik jihatlari takomillashadi. O‘yin bolalar organizmining tabiiy ehtiyojidir, u bolalar uchun tashqi muhit bilan tanishish usuli sifatida yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning psixologik yosh hususiyatlari ularda o‘yin faoliyati ahamiyatli rol o‘ynashi, ular bilan olib boriladigan ta’limiy- tarbiyaviy jarayonlarni turli o‘yinlar vositasida tashkil etish samarali bo‘lishi fanda o‘z tasdig’ini topgan. O‘yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi, bola qancha yaxshi o‘ynasa, maktabda shuncha yaxshi ta’lim oladi. Shu bois maktabgacha yoshdagagi bolalarga ingliz tili leksikasini o‘rgatishda ham o‘yining ahamiyati katta va muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, bolalarning o‘yinlari asosan kattalarning ish-harakatlariga, hayotiy urf-odatlariga mahsus ravishda taqlid qilishdan iborat. Bolaning o‘yin faoliyatini uning boshqa shakldagi faoliyatlaridan ajratish mezoni shundan iboratki, o‘yinda u hayotiy vaziyatni yaratadi. Bolalarning bir – birlaridan farqli jihatlari hayoliy tafakkuri hamda ma’naviy yetuklik darajasi bo‘yicha egallishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining minimal hajmi metodik tavsiya sifatida ishlab chiqilgan.

Dasturda davlat talablari ko‘rsatkichlariga erishish “Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturi asosida bolalarning ilk yoshdan boshlab 6-7 yoshga yetgunga qadar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan minimal talablarni amaliyotda qo‘llash va metodik tavsiyada quyidagilar 5-6 yoshdagagi bolalarning ona tilidagi nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar sifatida belgilangan:

- Tovush va so‘zlarni aniq va to‘g’ri talaffuz qilish;
- 30000 dan ortiq so‘zni tushunish va bilish;
- rasmga qarab gap tuzish;
- ertak va hikoyani tinglash va mazmunini tushunish;
- tinglagan kichik hajmli ertak va hikoyani qayta so‘zlab berish;
- ifodali nutqqa ega bo‘lish;
- tabiat manzarasi, tevarak-atrof haqida qisqacha so‘zlab berish;
- turli mavzudagi, kichik hajmli she’rlardan 5-6 tasini yoddan aytib berish;
- o‘z fikrini mustaqil, erkin bayon eta olish va xulosa chiqara bilish;
- mantiqiy fikrlash malakalariga ega bo‘lish;
- tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, qiyoslash va boshqalar) ni yoshiga mos ravishda rivojlantirish;
- fikriy mulohaza yuritish;
- tevarak – atrofni to‘g’ri idrok etish;
- ta’limiy o‘yinlar vositasida tafakkurni peshlash;[1; 47-b.]

Psixologik bilimlarni o‘zlashtirishda hissiy idrok etish eng muhim omil hisoblanadi. Dars jarayonida faol fikrlash faoliyati aktivlashtirilib, bola hissiyotiga ta’sir etishi zarur. Bolaga ingliz tili leksikasini o‘rgatish paytida uning tafakkur doirasi til o‘rgatuvchi pedagog tomonidan imkon qadar jadallashtirib yuboriladi. M.Vohidov fikriga ko‘ra, bog’cha yoshidagi bolalarning fikrlari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog’liq. Biron ehtiyojning qondirilmasligi bolada nohushlik, norozilik, iztirob tuyg’ilarini harakatga keltiradi.[2; 101-b.] Har narsaga qiziqish kuchli bo‘lgani tufayli bolalarda hayron qolish, ajablanish, shubhalanish, ishonch hosil qilish kabi intellektual hissiyotlar ham yuzaga kela boshlaydi. Ingliz tili o‘rgtishda ham bolaning o‘yinga bo‘lgan ehtiyojini inobatga olgan holda yondoshiladi. Bu kabi hissiyotlar bola tafakkurining o‘sishida juda katta ahamiyatga ega. Demak, ongga nafaqat nutq orqali, balki sensor tuyg’ularni rivojlantirish, yani, ko‘rib, eshitib, ushlab, hidlab, ta’mini tatib ko‘rish va imo-ishoralar yordamida ham kirish mumkin. Aynan maktabgacha yoshdagি bolalarda bu kabi sezgi a’zolari yaxshi rivojlangan bo‘ladi va bola muntazam barcha analizatorlar yordamida nutqni egallay boshlaydi hamda xorijiy til da so‘zlashish ko‘nikmasiga asta- sekinlik bilan kirib boradi.

Nutqni tushunish, idrok qilnayotgan so‘zlarni farqlash, so‘zlar bilan tanishishdan boshlanadi. Sh. Sodiqovaning ta’kidicha, mazkur jarayon mexanizmlari negizida bosh miya qobig’i ishlab chiqaradigan nerv tugunlari, ular yordamida har turli nutq signallarining idrok qilinishi yotadi. Inson miyasi ma’lumotni idrok qilar ekan, bir yo‘la diqqatni ishga tushiradi, axborotni xotirasiga joylashtiradi, tafakkurni jaib etadi, tasavvurni faollashtiradi.[3; 86-b.]

Demak, nutq faoliyatiga insondagi barcha ruhiy jarayonlar, sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, ijod ta’sir etadi. Insonni ma’lum yo‘nalishda yoki bu harakatlarni bajarishga undovchi va qo‘yilgan maqsadlarga yetishuviga ko‘maklshuvchi ongli va ongsiz psixik jarayonlar negizida o‘rganishning kuchli impulsi motivatsiya hisoblanadi. Bolalarga xorijiy til o‘rgatishda muhim omil hisoblanadigan motivatsiya ularning jarayonga tez kirishishlarida juda katta ko‘makchidir. Aynan motivatsiya orqali pedagog bolalarda xorijiy til o‘rganishga qiziqishlarini uyg’ota oladi. Bu jarayonda o‘yin faoliyati ham qaysidir ma’noda ular uchun motivatsiya bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grosheva I.V., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixonova Sh.B., Pak S.V., Djanpiyesova G.E. Ilk qadam. Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat Dasturi.- Toshkent, 2018.
2. Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar.- T.: 2010.
3. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi.- T.: O‘qituvchi, 2012.
4. <https://www.moluch.ru/archive/>

O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODLARI

Shodmonova Sh. S.

TDPU professori,

Mamatova S. M.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri, 8-sloni
umumiy o'rta ta'lif maktab direktori.

So'ngi yillarda mamlakatimiz ta'lif tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz istiqboli va kelajagini kadrlar belgilab beradi. Yangicha fikrlovchi, innovatsiyani olib kelishga qodir kadrlarni tayyorlash masalalari mamlakatimizni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, ta'lifning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish sohasidagi ishlar ahvolini tanqidiy tahlil qilish zaruratini ta'kidladi: «Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lif olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur». [1] Natijada mamlakatimiz ta'lif tizimi jahon andozasi asosida yanada takomillashadi, kadrlar sifati raqobatbardoshlik muhitiga tezkor moslashadi. Bugungi kunda davlat ijtimoiy buyurtmasi pedagogik oliy ta'lif muassasalari o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning natijaviyligini ta'minlovchi pedagogik innovatika g'oyalarini joriy qilish bilan bo'lg'usi o'qituvchilarning pedagogik innovatsion faoliyatdek kasbiy taqozolangan funksiyasini bajarishning amaldagi tayyorgarlik darajasi o'rtasida ma'lum ziddiyatlarlarning mavjudligi Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlarida inson huquqi va erkinliklariga qat'iy rioya qiluvchi, xo'jalik yuritishning bozor munosabatlari, zamonaviy texnologiya, jamiyatning ma'naviy yangilanishi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi asosida ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishni ta'minlaydigan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish maqsadi belgilandi. Mazkur maqsadga erishishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 7 fevral 2017 yil farmoni bilan 2017—2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqilishi ayniqsa ta'lif sohasini davlat siyosatida ustuvor o'rin tutih bilan birga keng jamoatchilik ishtirokini ham talab qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. To'rtinchı yo'naliş ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda ta'lif, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantiriSh va yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bilan birga ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lif muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga keng joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlarini tashkil etish haqida alohida uqtirib o'tildi.

Ta'lif-tarbiya jarayoni tashkilotchilari faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida shakli bo'lgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, uning maqsadi yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish va o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar asosida ularni yuksak insoniy sifatlarini tarbiyalashdan iborat. Olib borilgan ta'lif-tarbiya natijasida ta'lif oluvchi shaxsining turli xislatlari, fazilatlari va ko'nikmalari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni amalga oshirish va rivojlantirish turli pedagogik texnologiyalarni, metod va yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga asoslanadi. Ushbu metodlar va yondashuvlар, bir tomondan, o'qituvchining pedagogik faoliyati va ta'lif oluvchining shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Ta'lif oluvchilar va o'qituvchilarning faoliyatları, harakatlari, ta'lif mazmuni, metodlar, yondashuvlар, texnologiyalar va ta'lif vositalari orasidagi bog'liqliklar,

tabiat qonuniyatlari kabi ob'ektiv xususiyatlarga ega hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradoligi haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajribalarga asoslangan tadqiqotlar natijalariga ko'ra qo'llanadigan metodlar va yondashuvlarga asoslanish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda [2] "ilmiy bilish metodlari – bu ob'ektni o'rganishning asoslangan izchil usullari va qoidalaridir. Muayyan fanlarning umummiliy, xususiy va maxsus metodlari farqlanadi. Tabiiyki, fan epistemologiyasida ularning dastlabki ikkitasi bevosita qiziqish uyg"otadi", deb ta'kidlangan holda kuzatish, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, abstraklashtirish, analogiya, modellashtirish kabi metodlar keltiriladi va ular quyidagicha ta'riflanadi: Kuzatish – bu bilishning shunday bir metodiki, bunda sub'ekt ob'ektning tuzilishi va rivojlanishiga aralashmaydi. U mavjud sharoitlarni o'zgartirmaydi, chunki unga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Kuzatishning ilmiy bilish metodi sifatida afzalligi shundaki, u o'rganilayotgan hodisaning ob'ektiv manzarasini berishi mumkin. Ilmiy kuzatish – bu chinakam ijod, haqiqiy mahorat va san'atdir

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga ijodiy yondashuv zarur bo'lib, mazkur yondashuvda kuzatish metodi o'ziga xos ahamiyat ega sanaladi. Chunki kuzatish jarayonida o'qituvchi o'qituvchilarning dunyoqarashi, mustaqil va erkin fikrlash darajasi, ta'lim-tarbiya jarayoniga va o'rganilayotgan tushunchalarga bo'lган munosabatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, kuzatish natijalariga asosan o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining holatini vaziyatlarga ko'ra aniqlash va zaruriyatga ko'ra vaziyatlarni o'zgartirish, o'qituvchilarni faolligini hamda mutaqil faoliyatini ta'minlovchi metodlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ilmiy bilim olish metodi – induksiya, ya'ni alohida, parchalangan, tizimga solinmagan ma'lumotlardan umumlashtirishlarga, ilmiy gipotezalar, nazariyalar, qonuniyatlar tuzishga o'tish yakka ilmiy faktlardan ularni tushunish va tushuntirishga o'tishni ta'minlaydi. Ilmiy ijodda mushohada yuritish va xulosa chiqarish xususiyidan umumiyl, yaxshi rivojlanmagan ilmiy bilimdan teran, yanada rivojlangan ilmiy bilim sari induktiv xulosa chiqarishga asoslanadi. [2]. Deduksiya ilgari olingan bilimda yashirin axborot resurslarini aniqlash imkonini beradi. Deduksiyadan foydalanish darajasi u yoki bu muayyan fanning rivojlanganligi, yetukligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Real ilmiy ijod jarayonida induksiya va deduksiya o'zaro boylanadi hamda bir-birini to'ldiradi. Bundan tashqari, ular analiz va sintez kabi umumfalsafiy va umumilmiy metodlar bilan ham bog'langandir. Analiz – bu bilish predmetini fikran qismлага ajratish, uning alohida tomonlari, xossalari, belgilarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni ajratish, ob'ektning mohiyatini anglab yetish maqsadida uning turlarini aniqlash demakdir. Sintez – bu predmetning bilingan tomonlari, belgilar, xossalari va hakozolarni fikran birlashtirish, ob'ektning tuzilishini uning barcha aloqalari, munosabatlari, rivojlanishi va faoliyatiga bog'lab tushunib yetishdir [2] Analiz va sintez insonning fikrlash usullari, ya'ni ijodiy fikrlash usullari ekanligiga asoslangan holda biz induksiya va deduksiyaning analiz va sintez bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi fikrlarga qo'shilamiz. Bizning fikrmizcha, aynan refleksiv yondashuv jarayonida induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullaridan foydalaniladi, ya'ni refleksiv yondashuv jarayonida o'qituvchilarning tahliliy faoliyati tashkil etiladi va tahliliy jarayonda olingan ma'lumotlar o'qituvchilarning boshlang'ich tushunchalari bilan umumlashtiriladi. Shuningdek, refleksiv yondashuvda o'tmishni o'rganish va tahlil qilish jarayonida olingan ma'lumotlarni umumlashtirish induksiyani ifodalasa, ob'ektiv baholash asosida o'qituvchilarda aniq va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan xulosalar, tushunchalar shakllanishi deduksiyani ifodalaydi. Tahliliy fikrlash analizni ifodalasa, xulosalar chiqarish sintezni ifodalaydi, bular o'z navbatida, sintez doimo analizga asoslanishini hamda ular biri ikkinchisisiz mavjud bo'lmashagini tasdiqlaydi. Bular fikrlash usuli xususiyatlari bo'lib, ularning mazmuni muhim ahamiyat kasb etuvchi sifatlarda, ya'ni yangi tushunchalarni shakllanishi va yangilik yaratish jarayonida namoyon bo'ladi. Bular o'z navbatida divergentlik, realistik, moslashuvchanlik, tanqidiylik va boshqa fikrlash usullari bilan birgalikda ijodiy fikrlashni tashkil etadi. A.Rasulovning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun ham ahamiyatli bo'lib, ta'lim oluvchilarni mulohaza yuritishga, masalalarni

tahlil qilishga, mas'uliyatni his qilishga, mustaqil faoliyat ko'rsatishga, shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirishga, guruh va jamoa bo'lib ishlashga, faoliyatni rejalashtirish va rivojlantirishga o'rgatadi. Muallifning fikricha, ta'lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o'qitishga quyidagi talablar qo'yiladi: qo'yilgan muammoning muhimligi; muammo o'ylab topilmasligi, real hayotdan olinishi; ta'lim oluvchilar uchun muammoning ahamiyatliligi; muammoning aniq muqobil yechimlarga ega bo'lishi; ta'lim oluvchilarning hamkorlikda faol ishlashi; muammoga aloqador axborotlar bazasini yaratilishi va boshqalar.

Shuningdek, ta'lim oluvchilarning mazmunli va izchil bilim olishini ta'minlash; muammo yechimlarini topish va uning boshqa yechimlari bo'yicha ham istiqbolli rejalar ishlab chiqish; ta'lim oluvchilarni guruh-guruh bo'lib ishlash va muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga o'rgatish; ta'lim oluvchilarda shaxsiy mas'uliyat tuyg'usini uyg'otish va mustahkamlash muallif tomonidan muammoli o'qitishning asosiy maqsadlari sifatida keltiriladi [3] O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida yuqorida keltirilgan metodlar bilan bir qatorda, kasbiy faollik, kompetentlik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati borasida ularning boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish, ularda refleksiv yondashuv ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo'lgan trening, interfaol suhbat, integrativ ma'ruza, ishchanlik o'yinlari kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarning tahliliy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, ishbilarmon o'yinlari orqali innovatsion faoliyatning usul va shakllarini yorituvchi, o'qituvchilar faoliyatini kuzatish asosida o'qituvchilarning o'zaro ta'sir ko'rsatishga undovchi metodlardan foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda integrativ ma'ruzalar, amaliy mashg'ulot, seminar-treninglardan foydalanish bilan bir qatorda, o'qituvchilarga oldindan tarqatiladigan savol va topshiriqlardan foydalanish juda katta samara beradi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarni o'qituvchilarning boshlang'ich tushunchalariga asosan, ya'ni ularning boshlang'ich tushunchalarini o'rganish va tahlil qilish orqali ular tomonidan mustaqil ravishda o'rganilgan adabiyotlar, ma'ruzalar jarayonida berilgan ma'lumotlar asosida tashkil etish o'rganiladigan asosiy tushunchalarni test va modellar ko'rinishida ifodalash uchun imkoniyat yaratadi [4]. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida interfaol suhbat, ishchanlik o'yinlari, trening kabi metodlardan foydalanish o'qituvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatishda, kriativligini oshirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'qitishning faol metodlari hisoblangan mazkur metodlar ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning faolligini ta'minlaydi, ya'ni o'qituvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ishchanlik o'yini jarayonida ishtirot etuvchi o'qituvchilar asosiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini tahlil qiladilar, tahlil natijalariga ko'ra xulosalar shakllantiriladi va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ishchanlik o'yini davomida o'qituvchilarning boshlang'ich tushunchalari, dunyoqarashi, ko'nikma va malakalari darajasi aniqlanadi hamda vujudga kelgan vaziyatlarga ko'ra topshiriqlar muvofiqlashtiriladi. Ishchanlik o'yini o'qituvchilarning refleksiv qobiliyatları va imkoniyatlari darajasini hamda kreativ va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Trening ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini taminlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan metodlardan biri hisoblanadi. Mazkur metodga asoslanib tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarda kommunikatsion ko'nikmalar shakllanadi. Trening jarayonida o'qituvchilarning o'zaro ta'sir ko'rsatishi natijasida ularda muloqotning turli xil uslublaridan foydalanish malakalari rivojlanadi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish asosida ularning faolligini ta'minlash, bevosita muloqotga kirishishga undash, o'z fikrini erkin bildirishi uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida aqliy hujum, g'oyalar konferensiyasi kabi metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarning adabiyotlar va turli manbalar

bilan ishslash ko‘nikmalarini va innovatsion qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘quv jarayonida mavzular bo‘yicha adabiyotlar tanlash, maqolalarga annotatsiya yozish, belgilangan maqsadlarga erishish rejalarini tuzish, belgilangan topshiriqlar yo‘nalishidagi muammolarni aniqlash ishlariga ta’lim oluvchilarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoev Sh.M. “2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. 2017 yil 7 fevral.
- 2.Caifnazarov I., Nikitchenko G., Qosimov B. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2004. – 199 b.
- 3.Rasulov.A. Muammoli o‘qitishga yangicha yondashuv // Kasb-hunar ta’limi jurnali. – 2004. – №3. – 5 – 6-b.
- 4.Turg‘unov S.T. Umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruva faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2007. – 363 b.
- 5.Zimnyaya I.A.Pedagogicheskaya psixologiya.– M.: Logos, 2000.–384 s.